

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Husniddin Eshonqulov

**EHSONDAN MUNAVVAR
QALB EHSONI**

KBK: 83.3(0)9
UDS: 831.544.632.5.6.8.35
E-38

Ushbu monografiyada umrini ilm yo'lida bag'shida etib, uning ziyosidan minglab ko'ngillarni munavvar eta olgan ustoz, taniqli navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Rahim Jo'rayevich Vohidovning ibratli hayot yo'llari, ustoz-shogirdlik munosabatlari, o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, navoiyshunoslik borasida olib borgan ilmiy izlanishlari mahsuli bo'lgan asarlarining tavsif va tasniflari, ularning eng muhim jihatlari xususida so'z yuritiladi.

Kitob adabiyotshunoslar, oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakulteti talabalari, magistrantlar, umumta'lim o'rta maktablarning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari, o'zbek mumtoz adabiyoti, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi muhoblari hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'jallangan.

Mazkur monografiya AL-662204396 "Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo'yicha elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tayyorlangan va nashr etilgan.

Mas'ul muharrir:

Muslihiddin Muhiddinov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi

Taqrizchilar:

Sultonmurod Olimov

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Nazora Bekova

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnik kengashida muhokama qilinib (2024-yil 24-avgust 1-sonli bayonnoma, № 6/4) nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-745-37-9

MUQADDIMA

Ma'rifatga intilgan ko'ngil umri davomida qanoatning o'ziga sanchilgan tig'i yanglig' shartlarini ado etib, u bilan do'st tutinadi. Bu do'stlik qanoatdan ko'ngilga yetuvchi ozorlarning har birini bir lutf tarzida qabul qilishni o'rgatadi. Qiynoqlar esa kishidagi izzattalablikka bo'lgan moyillikni ko'ngildan yiroqlashtiradi. Alisher Navoiy xuddi shunday irfoniylar qarashlar asosida qurilgan mulohazalarini yigitlik davrida bitilgan qit'alarining birida badiiy ifodalarkan, qit'aning ilk baytida "*Qanoat tariqiga kir, ey ko'ngul Ki, xatm o'lg'ay oyini izzat sanga*"¹, – deya ko'ngilga xitob qilgan edi. Naqshbandiylikni "*qanoat tariqi*" deya e'tirof etgan ulug' shoir unga doxil bo'lishni "*ko'si davlat*", ya'ni podshoh saroyida chalinadigan katta nog'oraga o'xshash boylik deya ta'riflaydi. Negaki, "*qanoat tariqi*"ga doxil bo'lgan ko'ngilning tub-tubida yotgan xos sirlari "*xilvat dar anjuman*"da nazarda tutilganidek, barchaga ayon bo'lib qolmaydi. Taftishni "*safar dar vatan*"dagi tamoyilga ko'ra o'z vujudida, ko'nglida amalga oshiradi. Dunyo ne'matlariga bog'lanib qolmaslik, kamtarlikni kasb etish niyatida "*nazar bar qadam*"ga amal qiladi. Ko'nglini ofatdan yiroq tutish uchun "*hush dar dam*"da shart qilinganidek, har nafasini g'ofillikdan tiyib, doimo hushyorlik bilan qarshi oladi.

Tabiiyki, bunda avrovchi nafs istaklariga qarshi turish talab etiladi. Ko'ngilni o'rtaguvchi shu kabi sanoqsiz ozorlarning lutf sifatida ko'rishda esa unga yaqin ko'ngillar – ahli dard ko'makka keladi. Dard ahli ham, naqshbandiylikda kuzatilgani singari, qanoatning ko'ngilga sanchilgan tig'i yanglig' tamoyillariga qat'iy amal qilib borgani bois "*makorim ul-axloq*" – go'zal xulqlar bilan ziynatlanib boradi. Ulardagi muomala madaniyatining, boshqalarga marhamat, mehr-muruvvat ko'rsatishning, ilm-u irfon, badiiyatga oshuftalig-u, o'zlarida yillar davomida hosil qilingan shunday bilimlarni ulashish istagining yuksakligi kabi qator fazialatlar chinakamiga ma'rifatga intilgan ko'ngilni o'zining shaydosiga aylantiradi. Dard ahlida ilohiy sirlarning mohiyatini tushunish ko'nikmasi shakllanib borgani bois ularning orif ko'ngli o'sha ilohiy fayzdan doimo bahra olib turadi. Ma'rifatga intilgan ko'ngillar esa ana shunday fayzdan bahra olganlarning suhbat-yu majlislariga oshiqadi. Shu tariqa ruhiy-ma'naviy jihatdan bir-biriga

¹ Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Мукаммал асарлар тўплами. Ўйғирма томлик, 3-том. Тошкент: "Фан", 1988, 543-бет. (Bundan keyin ushbu manbaga murojaat etilganida qavs ichida jildi va sahifasini ko'rsatish bilan kifoyalanamiz – H.E.)

yaqin bo'lgan ko'ngillar orasida do'stlik, ustoz-u shogirdlik rishtalari mahkam bog'lanadi.

Hazrat Alisher Navoiyning umr yo'li ana shunday oriflarning ruhiy-ma'naviy yaqinliklariga oid hayotiy lavhalar bilan bezangani jihatidan benazirdir. Ulardan ibrat olishimiz uchun ulug' shoirning piri murshidi Hazrat Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan "*Xamsat ul-mutahayyirin*", ijodkorning o'spirin yoshidan 34 yil davomida doimiy muloqotida bo'lgan, ota yanglig' yaqiniga aylangan ustozni xususidagi "*Holoti Sayyid Hasan Ardasher*", xuddi shunday umrining 40 yili davomida bir-birlari bilan do'stlik rishtalari mustahkam bog'lanib, birlari ikkinchilarini irshod maqomidagi pir deb e'tirof etib ruboiy bitganida, ikkinchilari unga javoban yozilgan ruboiyda xuddi shunday munosabat bildirilgani qayd etilgan [15, 146] "*Holoti Pahlavon Muhammad*" asarlari nihoyatda muhim manba vazifasini o'taydi. Bu ulug' zotlar orasidagi ruhiy-ma'naviy yaqinlik shu qadar kamolga erishganki, ularni o'qish jarayonida hayrat dengiziga sho'ng'igandek bo'lasiz. Chunonchi, kotib mavlono shayx Abdulloh Xoja Abdulloh Ansoriyning "*Ilohiynoma*"siga atalgan ikki qism, balki undan ham ortiqroq bo'lgan bir munojot risolani keltirganida, Alisher Navoiy uni bir yuzlanish bilan to'xtamasdan so'ngiga qadar o'qiydi. Buning guvohi bo'lganlar taajjubini yashirolmaydi. Ulug' shoir kitobning ravon uslubi o'zini oshufta qilganini ertasi kuni ustozni Abdurahmon Jomiyga hikoya qilib beradi. Hazrat Jomiy tabassum qilib: "*Ajab amri ittifoqiy bizning va sizning oraliqda voqe' bo'lg'on ermish: ikki yo uch kun burunroq mavlono shayx Abdulloh ushbu risolani bizning qoshimizga kelturub erdi, biz dog'i avvaldin bunyod qilduk, oxirig'a degincha hech yerda turmoq bo'lmay tugandi*" [15, 12], – deya javob beradi. "*Amri ittifoqiy*" deyilganda, bir-biridan xabarsiz holda bir xil ish qilib qo'yish nazarda tutiladi.

Yoshlik chog'laridanoq go'zal xulqlari bilan Boysung'ur mirzodek ulug' hukmdorning mehrini qozongan Sayyid Hasan Ardasher bilan Alisher Navoiyning ilk suhbatini hijriy 860 (m.1454) sodir bo'ladi. Otasidek aziz ustozidan ayrilgan shoir o'sha kunlarning shavq-u zavqini eslab quyidagilarni yozadi: "*Alar tariq va ravishi bu faqirni andoq shefta qildikim, bir kun alar mulozamatig'a yetmasam erdi, sabr-u toqatim qolmas erdi va alar ham kelib ahvol so'rarlar erdi: "tashvishe bo'lmamish bo'lg'aykim, bukun sendin xabar topa olmadiq"*" [15, 114]. Alisher Navoiy musiqa, sanoyi' – badiiy san'atlar, aruz, qofiya, qiroat, fiqh, nujum, tib ilmida shuhrat qozongan, muammo, ruboiy va qit'alar

bitib, *“kushtigir”* – yakka kurashda mahoratli bo‘lgani bois shu taxallus bilan shoir sifatida tanilgan, masnaviy, qasida, g‘azal va *“har sinf she’rdin xo‘b va ham ko‘p yodida”* tutgan, tabiblikda mohir bo‘lgan Pahlavon Muhammadni: *“Takallufsiz va mubolag‘asiz podshohdin gadog‘acha va ahlullohdin yahud va torsog‘acha Pahlavonni sevmas va tilamas kishi yo‘q erdi* [15, 141] – deya eslaydi. Barcha sayyid-u mashoyixlar, ulamo-yu fuqaroning *“mahbub ul-qulubi”* – qalblarining sevgani bo‘lgan bu qadrdon do‘sti bilan yaqinligini: *“Ammo hech nav‘ maxfiy sirri va rozi yo‘q erdikim, bu faqirdin yashurun bo‘lg‘ay. Andoqki bu faqirning ham andin”* [15, 137], – deya qayd etadi. Hatto bir o‘rinda o‘zini malomat qilib: *“Mundin o‘tmaski, qirq yil bir meningdek xudroy (qaysar) va besarupoy (telba) oshuftasori parishon ro‘zgor (devonaga o‘xshash tartibsiz taqdirli) kishi bila musohibliq (suhbatdoshlik) qilg‘ayki, xotirg‘a (ko‘ngilga) kelmaski, andin xotirg‘a (ko‘ngilga) g‘ubore o‘ltirmish bo‘lg‘ay va ko‘ngulg‘a yetmaski, hargiz andin ko‘ngulg‘a ozore yetmish bo‘lg‘ay, balki andoq nisbat qilmish bo‘lg‘aykim, kundan-kunga muhabbat rishtasi mahkamroq va mavaddat (do‘stlik) qoida va tariqi (yo‘li) muakkad (qat‘iy) va mustahkamroq bo‘lmish bo‘lg‘ay* [15, 141-142] – deb yozadi. Tabiiyki, boshqalar ko‘nglini Ka‘ba yanglig‘ muqaddas deb bilgan, qanoatdan qalbga yetuvchi ozorlarning har birini bir lutf tarzida qabul qilgan ko‘ngillargina dard ahliga xos mana shunday ma‘naviy muhabbat olamida bardavom sayr qiladi va sohibini chinakamiga *“makorim ul-axloq”* – go‘zal xulqlar egasiga aylantiradi.

Ilohiy fayzdan bahra olish bilan umrini atrofdagilarining ma‘naviy kamolotiga bag‘ishlagan bunday orif zotlarning ibratli hayoti, avlodlarga tuhfa etilgan ma‘naviy merosi bilan yaqindan oshno bo‘lgan qalblarda ham shunday hayot tarzida uyg‘un holda umr kechirish istagi paydo bo‘lmay qolmaydi. Sokin tunlardagi mutolaa zavqining uyqudan lazzatliligi, shu asnoda tadqiq etishga niyat etilgan mavzuga aloqador kashfiyotga duch kelish shodligi kishini oriflar ko‘ngli bilan yaqinlashtirib qo‘yadi. Ayni jarayon o‘quvchini ma‘rifatga oshno qilib qo‘yadi. Shu tariqa oriflarning ruhiy-ma‘naviy holidan so‘zlovchi bitiklar mavjlanib turgan ulkan ummon singari uni tadqiq etishga kirishgan kitobxonni ma‘rifat durlarini izlovchi g‘avvos yanglig‘ o‘zining qat-qatiga chorlay boshlaydi. Hol talqinlarini aql chirog‘i bilan teran anglashga intilgan qalbda undagi go‘zal sifatlar bilan ziynatlanish istagi lahzada sayin ortib boradi. Bu qalb oriflarning go‘zal sifatlari bilan o‘zi ziynatlanibgina qolmay, atrofdagilarga ham ularni “yuqtirish”ga

kirishadi. Tabiiyki, bunda sidqi dildan ilm olishga talpinish, zamondosh ustozlarning o'git-u ko'rsatmalariga ham shu tarzda amal qilish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Biroq ayni jarayon kishining yashab turgan davri, muhiti bilan ham bevosita bog'liq bo'lgani bois u doimo bir xil kechmaydi.

Hayotining salmoqli qismini oriflarning ruhiy-ma'naviy hollari talqinidan bahra olishga sarflagan bo'lsa-da, ulardan tuygan lazzatini yillar davomida pichirlabgina ayta olgan, aytganda ham juda tor doirada, ustoz-u shogird suhbatlaridagina so'zlashga musharraf bo'lgan adabiyotshunoslarimiz ham oz emas. Shukrki, ularning butun umri tayziqlar davridan xalos bo'lgan zamonga ham yetishdi. Dilidagini qalamga olish imkoniyatidan ham salmoqligina foydalanishdi. Ular bunday imkoniyatni intiqlik bilan kutgani bois fursatni g'animat bilib, ogohlik tamoyiliga amal qilgan holda, yillar davomida to'plangan tajribalarini qator kitob-u maqolalarida, o'nlab shogirdlarning ko'nglida muhrlashdi. Shu tarzda ustozlaridan olgan ehsonlardan munavvar bo'lgan qalblari shogirdlarga ehson ulashish bilan mazmunli umr sohibiga aylanishdi. Ana shunday nurli siymoli olimlarimiz orasida taniqli navoiyshunos, mumtoz adabiyotimizning nuqtadon tadqiqotchisi, ustozimiz, filologiya fanlari doktori, professor Rahim Jo'rayevich Vohidovning ham o'ziga xos o'rni bor.

Ustozning o'tgan asrning 40-50-yillarida g'oyatda ayanchli kechgan bolalik davrlari, shunday bo'lsa-da, nurga talpingan niholdek ilmga intilishlari, bu boradagi mashaqqatlar, keyinchalik akademiklar Vohid Abdullayev, Botirxon Valixojayev singari ulug' ustozlarga izdoshlikka kirishish, umrlarini bezagan ustoz-u shogirdlik munosabatlari, qator shogirdlar bilan yelkama-yelka faoliyat olib borish baxti, ilmga bag'shida etilgan umrlarining muhim tadqiqotlarining mahsuli bo'lgan kitob-u maqolalar bilan bezalganligi u kishining nihoyatda mazmunli umr sohibi ekanliklaridan dalolat beradi. Ustoz 1967-yildan umrlarining so'ngiga qadar Buxoro davlat universitetining O'zbek filologiyasi bo'limida qariyb ellik yil davomida ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanib, chinakam murabbiylik, haqiqiy olimlik maqomida yashash baxtiga muyassar bo'ldilar. U kishi o'ziga yarashgan salobatli jussasi va olimona qiyofasi bilan hamon universitetning bosh binosi oldidagi ulug'lar siymosi aks etgan byustlar oldidan sekin odim tashlayotgandek qalblarimizda muhrlanib qolganlar. Ustozning ko'ngillarimizga ulashgan ehsonlarini *"yuz ganj bilan"* ham qaytarish imkondan tashqari. Shu bois u kishining munavvar ruhlarini shod etish

niyatida bilganimizcha hayotlaridan soʻzlashga, ilmiy meroslarini tavsif-u tasniflashga, ilmiy qadr-qimmati, tarbiyaviy ahamiyati xususida mulohaza yuritishga urinib koʻrdik. Bu borada bizga qoldirgan maʼnaviy yodgorliklari: yuzlab maqolalar-u oʻnlab kitoblari, u kishi haqida bitilgan safdosh-u shogirdlarining bitiklariga hamda ustoz bilan bogʻliq xotiralarimizga tayandik. Urinishlarimiz samara sifatida kitobxonga mazmunli umr mohiyatini yetkaza olsak, yoshlarimiz qalbida ilmdan saodat topish umidini paydo qila olsak, maqsadimizga erishgan boʻlardik.

BIRINCHI BOB. SABAB VA SAMARA

1.1 Ehsondan munavvar qalb

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"ning "*Mutafariqa favoid va amsol surati*", ya'ni xilma-xil foydalar va hikmatli so'zlarning ko'rinishi xususida bahs yuritilgan bo'limida quyidagi tanbehni keltiradi: "*Har g'aniyki tirikligida ehsondin ko'ngillarni shod qilmag'ay, o'lganidin so'ng ani kimsa duo bila yod qilmag'ay. Ehson tiriklikda yaxshi otdir, o'lgandan so'ng do'zax azobidin najot*" [14, 113-114]. Ayonlashadiki, g'aniy, ya'ni davlatmand kishilarning hayoti davomida saxovat ko'rsatishi minglab insonlar qalbiga shodlik ulashadi, bu xayrli ish ularning ko'nglida saxovatpesha insondan minnatdorlik tuyg'ularini doimiy junbushga keltirib turadi. Shunday fazilat sohiblari yuzlanganida, beixtiyor uning saxovatidan bahra olgan kishi chehrasida o'zgacha bir mehr tafti namoyon bo'lganligi sezilib turadi. Tabiiyki, bunday oliyjanob fazilat egalarining nomi ham hamisha yuksak ehtirom bilan yod etiladi. Masalaga e'tiqodiy qarashlar nuqtayi nazaridan yondashgan ulug' shoir ehsonli kishilarning hayoti davomida bu yuksak insoniy fazilat bilan ziynatlanganliklari tufayli uning sharofati bilan do'zax azobidan muhofazada bo'lishlarini yuksak ishonch bilan ta'kidlaydi. Shuningdek, yuqoridagi tanbehdan so'ng kitobda keltirilgan quyidagi qit'a salohiyatli ijodkorning ehson haqidagi axloqiy-ta'limiy qarashlarini oydinlashishiga xizmat qiladi:

*Kishida barcha axloqi hamida,
Chu jam' o'ldi qo'yarlar otin ehson.
Biri andin saxodur, bir muruvvat,
Bular gar yo'qtur, inson ermas inson* [14, 114],

Mutafakkir shoir "*axloqi hamida*", ya'ni yaxshi xulqlar deganda, insonni xudbinlik g'aflatiga giriftor bo'lganlikdan seskantiruvchi tavba qilishni, mol-u mansab xayoli rishtalaridan ko'ngil uzishga chorlovchi zuhdni, Haq yo'lida faqat O'zigagina yuzlanishni ifodalovchi tavakkulni, qanoatli-yu sabrli bo'lishni, xalq muhabbatiga noil qiluvchi kamtarlikni, insoniyat bog'ining mevali daraxtiga yoinki shu daraxtning foydali mevasiga qiyos qilgulik saxovatlilig-u baland himmatlilikni, muruvvatlilik-u hilm – muloyimlikni, pok ko'z, pok nazar, pok ko'ngil sohibi bo'lguvchi oshiqlik singari insonni ruhiy-ma'naviy kamolotning

yuksak cho‘qqisiga yetaklovchi fazilatlarini nazarda tutadi. Bularning barini o‘zida mujassam eta olgan insongina shoir nazdida ehson sohibi sanaladi. Shunday kishilarnigina Alisher Navoiyday buyuk mutafakkir ijodkor inson degan sharaflı nomga loyiq ko‘radi.

Tabiiyki, ehson sohiblarining yelkalarida turgan ulug‘ mas’uliyatni bir lahza ham unutmay umr kechirishlari bashariyat hayotida ezgulikning doimo qadr topib kelishiga, avlodlar qalbiga ehson nurlari kirib borib, ezgulik urug‘ining bo‘y ko‘rsatishi-yu samar berishiga bois bo‘ladi. Bu haqiqatga ustozimiz, taniqli navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Rahim Jo‘rayevich Vohidovning ibratli hayot yo‘llarining tavsilotlari misolida ishonch hosil qilish mumkin. Ehsonning davomiyligini kattalardan shunday muruvvat ko‘rgan murg‘ak qalb sohibining voyaga yetib, kamolot pillapoyalaridan odimlashi jarayonida keyingi avlodga ko‘rsatgan ehsonlari ta‘minlab turadi. Ayni mantiqdan kelib chiqib, avvalo, ustozimiz hayotlarining go‘daklik, bolalik, o‘smirlik va yigitlik yillarida qalblarining ehson nurlari ila munavvar bo‘lishi masalasiga e‘tibor qaratishga jazm etdik. Zero, inson hayotining bu davrida moddiy yoki ma‘naviy saxovatga oshno tutilganda, ko‘nglining o‘zgacha zavq-u shavqqa to‘lishi kuzatiladi. Ayni hol bolalikda iztirob chekkan ko‘ngilda yanada ravshanroq namoyon bo‘ladi.

Ustoz II jahon urushining suronli yillarida hozirgi Jondor tumaniga qarashli O‘ba qishlog‘ida tavallud topib, o‘ttiz to‘qqiz kungina otalari Abduvohid aka bilan hamnafas bo‘la oldilar. Onalari Rizvonoy Juma qizi ham o‘sha damlarda o‘g‘illari kamolga yetib, el ardog‘idagi olim bo‘lib yetishini, ko‘plab shogirdlarga ta‘lim berib, ularning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otishini, nevaralar ham ota-ona izidan borib, havas qilsa arzigulik insonlar bo‘lishlarini xayollariga keltirolmagan bo‘lsalar kerak. Shunday qilib, bu murg‘ak qalb dastlabki mehrni onaizordan ko‘rishga muyassar bo‘lsa-da, biroq taqdir taqozosi bilan, ona mehridan bolalik davrining eng shirin damlarida, ota mehridan esa qiyomatga qadar ayro yashashga majbur bo‘lib qoldi. Ustozning eslashlaricha, taxminan 2-3 yoshda bo‘lganlarida, tog‘alari, R.Vohidov ta‘birlari bilan aytganda: *“etik bilan galifey shim kiyib, ustidan gimnastyorkasini tashlab, enli zobitlar kamarini bog‘lab, boshida stalincha shapka qo‘ndirib yuradigan bu banda”*² – Juma Said singlini urushga ketgan turmush o‘rtog‘ining xonadonidan olib ketib, ona va uning sevikli

² Вохидов Р. Умрим дафтаридан сахмфалар. – Тошкент: “Мухаррир”, 2012, 50-бет.

farzandi orasida ayriliq iztirobini solib qo'yadi. Ustozning buvilari va Bibish ammalari tomonidan bu kemtiklikni to'ldirilishga har qancha harakat qilinsa-da, ammo ona mehri jozibasi hali aqlini tanishga to'la ulgurmagan bolani keyinchalik tentirab yurishga chorlab turar, boz ustiga, mamlakatdagi qahatchilik uning ko'ngliga ham ozorlarini solishga ulgurardi³.

Dunyoda bir-birini inkor qiluvchi jihatlar yonma-yon yashayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Qizig'i shundaki, musibat ba'zan odamlarni bir-biridan ajratishga sabab bo'lsa, ba'zan u qiyin damlarda qon-qarindoshlik rishtalarini yanada mustahkam bog'lashga, o'zi och bo'lsa-da, boshqaga muruvvat ko'rsatishga, xususan, urush alangasi tufayli yetim qolgan begunoh bolalarning boshini silashga da'vat qilgandek bo'ladi. Ustozning xotirlashlaricha, Abdurazzoq amakilari taxminan 1939-yillarda harbiy xizmatga chaqirilib, janggohlarda yigitlik yillarini o'tkaza boshlaydi. Abduqahhor amakilari ham shu yillar orasida urush tufayli qayoqqadir g'oyib bo'lib qoladi. Bu davrda Abdurazzoq amaki uylangan edi. Ayollar bilan qolgan katta oilaning tashvishlari ustozning otalari – Abduvohid akaning zimmasida qoladi. Ko'p o'tmay hali oila qurganiga hech qancha vaqt bo'lmagan, jajji o'g'ilchasi Rahimjonni qonib-qonib erkalashga ulgurmagan Abduvohid aka ham 1942-yilda frontga ketishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, bu oila suyanchidan ayrilib, amal-taqal bilan kun o'tkaza boshlaydi. Urush tugugach, Abdurazzoq amakigina oilasiga qaytadi. Ustoz shu kunlarni qattiq iztirob bilan eslab: *"Men ko'zlari ojiz buvim va Bibish ammamning tarbiyalarida qolganman"*⁴, – deya qayd etadilar.

II jahon urushi tugashi arafasida bir oyog'ini janggohlarda tashlab kelishga majbur bo'lgan Abdurazzoq amakini oilada ham urush iztiroblaridan kam bo'lmagan mudhish ayriliq qarshi oladi. Ayoli Zumrad va Fattoh ismli farzandlarini yetim qoldirib, bu dunyoni tark etadi. Go'daklariga ona mehridek ulkan baxtni qayta in'om etish va hayotini yo'lga qo'yib olish maqsadida Abdurazzoq amaki 1946-yilda Zaynab yanga bilan turmush quradi. Ustoz 4 yoshni qarshilagan bu davrda, Solih ota aravasida kelinlik uyida kirib kelgan Zaynab yanga va Abdurazzoq amakining to'ylari bilan bog'liq ayni lavhagina eslab qolgandilar. Birinchi ayolidan yetim qolgan farzandlari Zumrad va Fattohning yonida, buvisi bilan yashayotgan, ukalari Abduvohiddan

³ Ўша китоб, 20-49-бетлар.

⁴ Ўша китоб, 25-бет.

qolgan yagona yodgorlik Rahimjon, singillari Xursand, Bibish singillarining o'g'li Idi va ustoz Xayri akam deb eslovchi bolalarga ham bosh bo'lish Abdurazzoq amakining zimmasiga tushadi. Musibat kelganida, kattakon oilaning suyanchi bo'lgan er kishining oh tortishi boshqalarga ham ta'sirini ko'rsamay qo'ymaydi. Shu bois Abdurazzoq amaki barcha qiyinchiliklarni o'zida topa olgan katta matonat, yuksak iroda bilan qarshi oladi. Sabr-matonatning ulkan namunasini ko'rsatadi. Shu bois "*o'n beshi qorong'u bo'lgan oy*"ning nurafshon bo'lgan "*o'n beshi*" yuz ko'rsata boshlaydi. Qut-barakali bu xonadonda birin-ketin olti o'g'il, to'rt qiz dunyoga kelib, voyaga yetadi. 40-yillarning oxirlariga kelib, Abdurazzoq amaki o'g'illari Fattoh va Fathullo bilan birgalikda jiyanlari Rahimjonlarning sunnat to'ylarini o'tkazib, elga osh beradi. Keyinchalik ustoz "*Umrin daftaridan sahifalar*" nomli kitoblarida: "*Albatta, o'sha og'ir yillarda buncha odamni nogiron bir insonning o'z himoyasiga olishi va baqadri hol ta'min etishga intilishi katta jasorat edi*"⁵, – deb yozgan edilar. Bu qaydlar zahirida Abdurazzoq akaning ham ezgulik yo'lida umrini baxshida etgan ehson sohibi ekanliklariga ishora borligini sezish qiyin emas. Abdurazzoq amaki tomonidan jon-jigari, qarindoshi, sevikli jiyaniga qilingan qiyin vaqtlardagi bunday muruvvat ustozning qalblarida manguga muhrlanib qoldi va bu qalb doimo saxovat bilan butun umrini bezashga sohibini da'vat etib keldi.

Ustozning ko'ngillarida ilm olishga bo'lgan muhabbat hissining paydo bo'lib, uning kichik bir uchqun misol yog'du sohib turishida va umrlari davomida minglab ko'ngillarni ilm tafti bilan yoritishlarida u kishining atrofidagi hamda domla tahsil olgan maktabdagi muhitning ham sezilarli ta'siri bo'lgan. Ustozning xotirlashlaricha, 40-yillarning oxirlariga kelib yana bir xonadon – Mullo Qo'chqor yazna va Bibish amma xonadoni bu yosh yigitchaga nisbatan nihoyatda iliq munosabatda bo'lib keladi. E'tiqodida sodiq bo'lgan Mullo Qo'chqor yazna ilmdan yaxshigina xabardor bo'lgan. Ustoz talabalik yillarida aniqlik kiritgankariga ko'ra, bu kishining qo'lida Alisher Navoiy "*Ilk devoni*"ning toshbosma nusxasi mavjud bo'lgan. Mullo Qo'chqor yazna shu kitob orqali ulug' shoirning lirik merosidan bahramand bo'lib turgan. Bu davrda O'zbekistonda Alisher Navoiy asarlarini keng xalq ommasiga targ'ib qilish, ulug' shoirning 500 yillik yubileyini sobiq Ittifoq miqyosida nishonlash borasida qizg'in ishlar amalga

⁵ Ўша китоб, 26-бет.

oshirilayotgan edi. Aynan shu davrda bunday sa'y-harakatlarga ehtiyoji bo'lmasdan Alisher Navoiy asarlarini o'qib tushunadigan, undan estetik zavq oladigan insonlar soni u qadar ko'p bo'lmagan. Mullo Qo'chqor yazna o'zidagi bu qobiliyatni boshqalarga ham "yuqtirish"ni istardi. Bu nihoyatda diyonatli, mo'min-qobil, bir-biriga juda ham mos, bir-birini to'ldirib turgandek taassurot uyg'otuvchi juftlik xonadoni ustozning mehr ko'rgan eng yaxshi maskanlaridan biriga aylanib qoladi. Mullo Qo'chqor yaznadan xilma-xil ertag-u hikoyalarni tinglashga bo'lgan ehtiyoj ustozning bu xonadondan halovat topishlariga muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Boz ustiga, ular orasida ortiqcha aytishuvlarning sodir bo'lmasligi, hatto farzandlariga ham baqir-chaqir qilib gapirishdan doimo saqlanib turishlari ustozning ko'ngillariga yoqib tushuvchi samimiy munosabat namunasi edi.

Ilmga oshno, bu sodda va samimiy insonlarning bir tanobcha tokzorining mavjudligi, u yerda murut – nashvati, o'rik, tut singari mevali daraxtlarning mo'lligi, saratonning issiq kunlarida bu go'shaning o'zgacha salqinlikka ega bo'lishi, shuningdek, Mullo Qo'chqor yazna, Bibish amma qatorida ustozdan yoshlari bir oz katta bo'lgan Idi aka, Latofat opaning ana shunday bir muhitda tarbiyalanib, mehnatga berilganliklari, go'zal xulqlarning o'zlarida namoyon etib turishlari ustozning ko'ngillarida hayotga bo'lgan muhabbatni, atrofda samimiy odamlar ko'pligiga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qilgan. Ustoz yoshlik yillarida barcha insonlar siymosida shunday iliqlikni ko'rishni istasalar-da, bunday munosabatning nihoyatda tansiq ekanligiga tez-tez guvoh bo'lib turaverardilar. Ustozning o'sha kunlar xotirasi haqidagi bitiklarida: "... kimdir menga iltifot ko'rsatib, yegulik bermoqchi bo'lsa, albatta, uning peshonasi va chehrasiga razm solishga, o'sha inson himmatining minnatli yoki samimiy ekanligiga e'tibor qilganman",⁶ – deya xotirlashlari mulohazalarimizga asos bo'ladi.

Ustozning Sharq mumtoz adabiyotining zabardast tadqiqotchisiga aylanishlarida Buxoro bilingvizmi – o'zbek va tojik tillarida so'zlashuvchi bir xalq vakillari yashagan bir hududda tug'ilib o'sganliklari ham o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatgan. U kishi 1949-yilda ta'lim tojik tilida olib boriladigan Sherboyon qishlog'idagi maktabda ilk tahsilni boshlaydilar. Mahmuda G'ulomova ustozni savodxon va boshlang'ich ta'limga ega bo'lishlarida o'zilarining beminnat hissasini qo'shadi. 5-sinfdan tahsilni Qoravulon qishlog'ida

⁶ O'sha kitob, 32-bet.

joylashgan 7 yillik tojik maktabida davom ettiradilar. 1954-1955-o'quv yilidan Yuqori Luqmon qishlog'ida faoliyat ko'rsatayotgan umumta'lim maktabi 8 yillik maktabga aylantiriladi. Shu munosabat bilan Qoravulon qishlog'idagi maktabda o'qiyotgan o'quvchilar shu o'quv yilidan Yuqori Luqmondagi maktabga ko'chiriladi. Ustoz ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan bu maktabning 6-sinfidan o'qishda davom etadilar. Xotirlashlaricha, shu yillar davomida uchala maktabda ham domladan tug'ilganliklari haqidagi guvohnoma so'ralmagan. Faqatgina attestat yozish jarayonida, guvohnomaga ehtiyoj sezilgan. Shundagina guvohnomaning va otalari Abduvohid akaning vafot etganliklari haqidagi qoraxatning yo'qolgani ma'lum bo'lib qolgan. Onalari Rizvonoy aya guvohnoma va qoraxatni domla buvilari bilan yashab turgan uy bolorining vassa bilan birikkan yuqori qismida joylashtirganlarini ma'lum qiladilar. Keyinchalik bu boshpanani yangitdan qurish maqsadida buzilib, uning tomidagi eski loysuvoqlarining elakdan o'tkazish ham bu hujjatlarning topilishiga sabab bo'lmagan. O'sha davr udumiga ko'ra, bobo oti kishining familiyasi, ota ismi esa uning sharifi bo'lishi kerak edi. Shunga ko'ra, domla Jo'rayev Rahim Vohidovich sifatida tanilishlari lozim edi. Sinf rahbarlari Sayfulin buni o'quvchisiga har qancha tushuntirishga harakat qilmasin, otaga bo'lgan mehr ustozni bu qoidalarni buzishga majbur qiladi. U kishi Abdurazzoq amakining farzandlarini nazarda tutib: *"Bizda Jo'rayevlar ko'p, men dadamning nomida bo'lishni xohlayman"* – deya qaysarlik qilishda davom etadilar. Shunday qilib, domlani Vohidov Rahim Jo'rayevich tarzida rasmiylashtirishadi. O'sha paytda tug'ilgan kun va oylari ham ma'lum bo'lmagani bois Ismoil nomli sinfdoshlarining taklifi bilan 5-avgustda tug'ilgan tarzida qayd etiladilar. Aslida Rizvonoy ayaning ma'lumotlariga ko'ra, domla 15-mayda dunyoga kelganlar.

Ustozning xotiralari bilan bog'liq bitiklardan ma'lum bo'lishicha, Yuqori Luqmon maktabidagi o'qish davrlari ancha sermazmunligi bilan ajralib turadi. Xususan, tarix muallimi Gaynulinning tashabbusi bilan maktabda drama to'garagining tashkil etilishi bolalarda adabiyot va san'atga bo'lgan qiziqishni keskin oshishiga sabab bo'lgan. Unda Hamza Hakimzoda Niyoziyning *"Boy ila xizmatchi"*, Abdulla Qahhorning *"Shohi so'zana"* asarlari asosida sahna ko'rinishlarining tashkil etilishi o'quvchilarda o'zgacha zavq-u shavq uyg'otgan. Shuningdek, maktab o'quvchilarining paxta yig'im-terimi va boshqa qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinishi ularda kolxoz hayoti bilan

yaqinlashish imkonini hosil qilgan. O'sha yillari jamoa xo'jaligini boshqargan Bobo Nazarov nihoyatda dongdor raislardan biri bo'lib, adabiyot va san'atga ham muhabbati baland kishi bo'lgan. Shu bois jamoa xo'jaligi radio uzelidan ustoz, u kishining sinfdosh do'stlari Baqo va Halim kabilarning qo'shiqlari muntazam taralib turgan. Bu kabi tadbirlar o'quvchilarda, xususan, ustoz Rahim Vohidovda she'rni ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantiribgina qolmay, unda muayyan yutuqlarni qo'lga kiritishlarida ham muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Bu borada maktabda drama to'garagiga asos solib, unga o'zgacha ruh bergan jonkuyar muallim Gaynulinning mihim xizmati bor, albatta.

Ustozning til va adabiyot ilmini chuqur o'rganishga bo'lgan muhabbatlarining oshirilishida maktabning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Aslon Baqoyevning ham alohida o'rni bor. Bu kishi ijoddan yaxshigina xabardor muallim bo'lgani bois o'zi ham she'r yozishni kanda qilmagan. Jamoa xo'jaligining paxtadan nihoyatda yuksak xirmon tiklab, rejani ortig'i bilan bajargani respublikada alohida bir hodisaga aylanadi. Shu munosabat bilan rais Bobo Nazarov, mexanik Narzi Shodiyev, brigada boshlig'i Aslon Qurbonovlar o'sha davr hukumatining "Mehnat qizil bayroq" ordeniga loyiq ko'rilishadi. Shu munosabat bilan Aslon Baqoyev qirq satrdan iborat "Ordenlaring muborak!" nomli she'rini yozadi. Ustoz taqdirlash marosimida o'qituvchilarning topshirig'i bilan bu she'rni yod o'qiydilar. Tinglovchilarga manzur bo'lgani bois G'.G'ulomning "*Sen yetim emassan*" she'ri ham shu tadbirda ustoz tomonlaridan yod o'qiladi. Bu esa olqishlarga sabab bo'lib, ustozning she'riyatga bo'lgan muhabbatlarini oshishida xizmat qiladi. Akademik shoir G'.G'ulomning "*Sen yetim emassan*" she'ri Rahim Vohidov singari yoshligi urush davriga kechib, ota mehridan ayro tushgan bolalar qalbiga otash singari kirib borgani bois bu she'r ustozimizni ham befarq qoldirishi mumkin emasdi. Domla hayotlari davomida akademik shoirning "*Sen yetim emassan*" va "*Vaqt*" she'rini oniyda pichirlab turganlari yoki ba'zan ovoz chiqarib o'qib turganlariga o'zim ham bir necha bor guvoh bo'lganman.

Hali urushning ijtimoiy hayotdagi ta'sir kuchi sezilib turgan bu davrda odamlar sekin-asta uning ta'siridan qutulishga harakat qiladilar. To'y-tomoshalar 40-yillarning oxiri 50-yillarning boshlaridan oldingilariga nisbatan ancha jonli o'ta boshlaydi. Jamoa xo'jaligida mehnat qilish bilan bir qatorda qo'lida hunari bor dehqonlar mana shunday shodiyonalarni o'tkazishda o'zlarining hissalarini qo'shib

kelishgan. Ustoz yettinchi sinfda o‘qib yurgan paytlarida Rahim bobo, Safar bobo va Qochdi bobo singari insonlarga shogird tutinib, qishloqda o‘tkaziladigan to‘ylar uchun non yopishga kirishadilar. Nonvoylik – qadimiy va nihoyatda muqaddas kasblardan biri bo‘lib, u insondan jismoniy va ruhiy-ma’naviy tozalikni talab etadi. Xususan, Rahim bobo va Safar bobo singari Allohni tanigan, shu davrlarda ham e’tiqodiga zarracha putur yetishidan o‘zini muhofaza qilib turgan insonlarga shogird tutinish va halol mehnat bilan rizqlanish ustozning ruhiy-ma’naviy kamolotlarida muhim ta’sirini ko‘rsatgan. Shuningdek, u kishi hazortutlik fizika o‘qituvchisi Niyoz Teshayev, Chelong‘udan kelib Yuqori Luqmondagi maktabda ishlayotgan Tesha Jumayevlar bilan birga yashashdi. Bu voqeylik ustozning yoshlari ulg‘ayib borgani sayin o‘z oshyoni bo‘lishga initilib, istaklari tezda amalga oshmaganidan ko‘ngli og‘rigan paytlarda sodir bo‘ldi. Ustoz shu qishloqda joylashgan jamoa xo‘jaligining eski idorasi binosidagi xonalardan birini epaqaga keltirib, o‘zlariga maskan tutadilar. Yuqorida nomlari keltirilgan muallimlar ham aynan shu binoda yashab, maktabda dars berishardi. Bu orada yetuklik attestati ham qo‘lga tutiladi. Biroq sinfdosh do‘stlariga Buxoro pedagogika institutining tayyorlov bo‘limiga o‘qish uchun yo‘llanma berilsa-da, Rahim Vohidovga bunday muruvvat munosib ko‘rilmaydi. Shunda ko‘zlaridan o‘t chaqnab turuvchi, ilmga chanqoq bu o‘spirinning boshini silash o‘sha paytdagi maktab direktori Obid Komilovga nasib etadi. Bu kishi ustozni 1959-yilda maktabda vojatiy – yoshlar yetakchisi sifatida ishga qabul qiladi. Shunday qilib, o‘quvchilik davrida boshqa sinfdosh do‘stlari kabi jamoa xo‘jaligida ishlab kelgan ustozimiz yetuklik attestatini olgach, yozgi ta’tildan so‘ng jonajon maktablari jamoasining a’zosiga aylanadilar.

Bu orada paxta-yig‘im terimi boshlanadi. Maktab o‘qituvchilar jamoasi, o‘quvchilari ham jarayonga jalb etiladi. Paxta mavsumi tugab, qizg‘in faoliyatga kirishgan Rahim Vohidovning taqdirilarida Buxoroga borib, oliy ma’lumotli malaka oshirish tinglovchilari bilan birga o‘qish bitilgani ma’lum bo‘lib qoladi. Har bir tumandan kinomexaniklik kursi uchun bittadan o‘qituvchini malaka oshirishga jalb qilish haqida buyruq beriladi. Ustoz 2 oy davomida Buxoroda bo‘lib, malaka oshirishga jalb etilgan o‘qituvchilar bilan tahsilda davom etadilar. Bu dargohda o‘qish jarayoni ustoz uchun u qadar oson kechmaydi. Aksariyati fizika, matematika singari aniq fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilardan tarkib topgan guruhda o‘rta ma’lumotli bir yigitning o‘qishi, tabiiyki, ular tomonidan qo‘llanayotgan atamalarni tushunish borasida yetarlicha

qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Bunday tafovut o'qituvchilar va tinglovchilar tomonidan ham hisobga olinadi. Kurs tugashi bilan ustozga *qisqa metrajli filmlar kinomexanigi* hujjati beriladi. Biroq Yuqori Luqmondagi maktabda kino apparati mavjud bo'lmaganligi sababli bu hujjatdan foydalanilmaydi. Ustozning Buxoroga borib, malaka oshirishda o'qish jarayonida Buxoro pedagogika institutining tayorlov kursida o'qiyotgan Hoji Olimov, Halim Saidov, Sa'dulla Fayzullayev, Toshpo'lat Rahmonov, Siroj Nazarov singari sinfdoshlarini ko'rib, ular bilan suhbatlashishlari, aniqki, u kishida ham talaba bo'lishga intilishni oshirgan, ayni choqda shu tengdoshlari singari yo'llanmaga munosib ko'rilmaganliklari ko'ngillariga og'riq berishda davom etgan.

Bu sinov dunyosi, tabiiyki, faqatgina yo'qotishlardan iborat emas. O'quv yilining ikkinchi yarmidan to'rtinchi sinfda dars o'tayotgan o'qituvchi Qamaroy Hikmatovanning mavlut ta'tiliga chiqishi bilan uning yuklamasidagi soatlarning maktab direktori Obid Komilov tomonidan katta ishonch bilan ustozga rasmiylashtirilishi qalb yarasiga surilgan malham bo'ldi. Bu ishonch ustozga moddiy jihatdan qadrlarini rostlab olish imkoni bilan bir qatorda, u kishini 18 yoshdayoq o'qituvchi sifatida elga tanita boshladi. Ishonch mas'uliyatni oshirdi. Boshlang'ich ma'lumotni tojik tilida ixtisoslashgan maktabda olgan bu yoshdagi yigit uchun ona tili o'zbek tili bo'lgan maktabning 4-sinfida dars o'tish ham oson kechmaydi. Shu bois ustoz aynan shu yoshlaridan o'z ustlariga tizimli ishlashga kirishganlari seziladi. Ayni choqda fizika o'qituvchisi Niyoz Teshayev, xususan, matematika o'qituvchisi Tesha Jumayevlar bilan ustozning bir maskanda yashaganliklari qiyinchiliklarni yengishlariga nihoyatda qo'l keldi. Shuningdek, bunday insonlar bilan yashash hayotga bo'lgan qiziqishning ortishiga ham muhim omil bo'lib xizmat qilardi. Obid Komilovning ishonchlari suiste'mol qilinmagani, aksincha, kutilganidan ham yaxshi natijalar berishiga sabab bo'lgani maktab direktorining ustozimizga bo'lgan mehrini yanada oshiradi. Obid Komilov o'zining bu yosh umidli shogirdiga kelajakda o'qituvchi bo'lishni bot-bot tayinlab keldi. Bu bilan qanoatlanmay shogirdiga Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetiga o'qish uchun yo'llanma berdi. Bu kunlar bolaligi ruhiy-ma'naviy qiyinchiliklar, jismoniy zo'riqishlar girdobida o'tgan ustoz Rahim Vohidov uchun Allohning benihoya katta in'omi edi. Shu kunlarga yetish uchun ehsonini ayamay, ko'nglini ehson nurlari ila munavvar etishga ozmi, ko'pmi hissasini qo'shgan *"hamida axloq"* sohiblaridan ustoz bir umr minnatdor bo'lib yashadilar.

Samarqand – ustozning hayotlarida qalbdagi orzularining haqiqatga aylanishida sababchi bo'lgan muqaddas go'shalardan biri. Bu azim shahar – u kishining o'quvchilik yillarida ezgu niyatli kishilar tomonidan ko'ngillarida vujudga keltirilgan miltirab turuvchi ilm uchqunini alangalatib mash'alga aylantirgan, yuragida ikki olam saodatini sig'dira olgan, odamiylikning eng yuksak jihatlari bilan ziynatlangan, zohirda ham, botinda ham; suratda ham, siyratda ham ustozlik maqomiga munosib ko'rilgan ulug' zotlarni bag'riga sig'dirgan muqaddas zamin. Bu qadimiy va hamisha navqiron shahar – ustozning ehsondan munavvarlashib, qismatning achchiq sinovlari ta'sirida hosil qilingan yaralarining ozorlariga ortga chekinish malhamini surib, ko'ngilda muhabbat mavjlarini hosil qilgan mo'jizakor, muqaddas zamin. Ustoz hayotlarining bu shahar bilan bog'lanishida, avvalo, Xursand ammaning turmush o'rtoqlari Salim pochchaning Samarqanddan 15-20 chaqirimcha uzoqlikda joylashgan charxinlik qarindoshlarning muhim o'rni bor. Domla aynan shu qarindoshlarining samimiyatiga tayanib, Samarqandda o'qish istagida bo'lganlar. 1960-yilning 1-avgustidan jadval asosida imtihonlarga kirib, birin-ketin muvaffaqiyat qozona boshlaydilar. O'sha paytda II jahon urushi qatnashchilarining farzandlariga o'qishga kirish uchun bir qator imtiyozlar ham mavjud bo'lgan. Abduvohid akaning o'limi haqidagi yo'qotilgan qoraxatning topish iztiroblaridan qiynalish sababmi yoki o'z kuchiga ishonchning ortib borishi natijasida suyanchiqdan qochishga urinishmi ustozni Romitan tuman harbiy komissariyatidan bu haqdagi ma'lumotni olishdan tiyib qo'ygan. Ustoz hech qachon urush qatnashchisi sifatida talabalar orasida alohida imtiyozga ega bo'lishni o'zlariga loyiq ko'rmaganlar. Mandat komissiyasining qaroriga ko'ra, talabalik baxtiga muyassar bo'lgan ustozimizning o'sha paytdagi quvonchlarini tasvirlash nihoyatda qiyin. O'zlari ham xotira bitiklarida: *"... boshim Arshi A'loga yetgan edi"*⁷, – deyish bilangina kifoyalanadilar.

Ustoz SamDuning 1-kursida o'qib yurgan kezlarida, ko'ngillariga ilm ziyosini olib kirgan professor Vohid Abdullayev atrofida birlashgan bir qator adabiyotshunos va professor Ulug' Tursunov o'gitlariga amal qilib, katta tajriba to'plagan tilshunos olimlarning saboqlarini maroq bilan eslab yurdilar. Ulardan minnatdorliklarini, o'rni kelganda qarzдорlik hissi bilan yashaganliklarini aytishdan charchamay, turli

⁷ O'sha kitob, 83-bet.

yubileylar munosabati bilan e'lon qilingan to'plamlarda, tarjimayi hollariga oid va ustozlariga bag'ishlangan kitoblarida faxr bilan qayd etib bordilar. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, ustoz Rahim Vohidovdek qadr-qimmatini yozilgan davrida qanday bo'lishidan qat'i nazar bir parcha qog'ozmi yoki ulkan hajmli kitob bo'ladimi uni ko'z qorachig'idek asraydigan bir insonni hayotda uchratish kamyob hodisa, deb o'ylayman. Domla bu borada nihoyatda benazir edilar. Bunda ustoz uchun yo'qotilgan qoraxat va tug'ilganlik haqidagi guvohnomani izlash iztiroblari bir umrlik saboq bergan ko'rinadi. Shu bois u kishining xotira bitiklariga asoslanib, o'tgan asr va XXI asrning boshlarida SamDUda dars berib, bugun hayot qaydida bo'lmagan bir qator olimlarning talabalar ko'nglida muhrlangan darslari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lish mumkin. Ustoz qisqa umri davomida o'zining bilimdonligi bilan alohida mavqega ega bo'lgan Yusufjon Po'latovning darslari ko'pchilikda juda yaxshi taassurot qoldirganini eslaydilar. "Adabiyotshunoslikka kirish" fanidan saboq bergan O.Ikromov, o'zbek tiliga oid amaliy mashg'ulotlarini nihoyatda maroqli tashkil etgan Abdulla Sulaymonov darslari ham ko'pchilikda qiziqish uyg'otgan. Ayniqsa, ustoz ta'birlari bilan aytganda, "*katta qalb egasi*"⁸ bo'lgan Nuriddin Shukurovning "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi"ning qadimgi davridan XV asrgacha bo'lgan davrini o'tishda qo'llagan zavq-u shavqqa to'la tagdor ma'ruzalaridagi nozik qochirim-u majozlari qalbida ilmga muhabbati bor talabalarni befarq qoldirmasdi. Bular orasida fors tilidan saboq bergan Botirxon Valixo'jayevning alohida o'rinlari bor edi, albatta. O'sha paytda ustoz Botirxon Valixo'jayev 28-29 yoshlarda bo'lganlar. Nomlari qayd etilganlarning aksariyati ham xuddi shunday navqiron yoshda bo'lgan fan nomzodlari, dotsentlar edi. Ulardagi samimiyat, ilmga bo'lgan muhabbat yoshlarning qalbida ham shunday fazilatlar sohibi bo'lish hissini shakllantirmay qo'ymasdi. Tabiiyki, bu ustozlarning ilm ehsonini ulashishlari Rahim Vohidov singari shogirdlar ko'nglini turli darajada munavvarlashishiga bois bo'ldi. Bu haqida o'rni bilan yana to'xtalib o'tamiz.

Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "*hamida axloq*" bilan ziynatlangan insonlarning turli kasb va turli yoshdagi kishilar bo'lishi hayotda kuzatiladi. Xususan, ular Abdurazzoq amaki, Qo'chqor yazna singari oddiy xalq vakillari bo'lganida, bunday insonlardan ko'rilgan ehsonning qadri ayricha bir qimmatga ega bo'ladi. Negaki, ular

⁸ Вохидов Р. Илоҳий ишқ жозибаси. Самарқанд: "Зарафшон", 1997, 8-бет.

boridanmas, borini ulashishga harakat qiladilar. Hech bo'lmaganda, ularning himmati borini baham ko'rishga qaratilgan bo'ladi.

Ana shunday fazilat bilan ziynatlanganlar qatorida ustoz "*Samarqanddan topgan qurg'onim*" deya e'zozlaydigan va nomlarini doimo hurmat bilan tilga oladigan Yodgor akani qo'shish mumkin. Ularning taqdir yo'llarini bir-birlari bilan chambarchas bog'lanishiga ustoz bilan o'sha suronli yillarda bir maskanda tug'ilib, yetimlik iztiroblaridan ko'ngli ezilgan, mehr izlab Samarqandga borib qolgan Ja'farning achchiq qismati sabab bo'lgan. Ja'far Yodgor aka xonadonida qo'nim topib voyaga yetadi. Shu kishining suyuqli farzandiga aylanadi. Yigit sifatida bo'y ko'rsatib, Yodgor aka uni uylantirish taraddudlari bilan band bo'lib yurgan kezlarda, Ja'far og'ir xastalikka duchor bo'ladi. Shu paytga qadar oilasi va yaqin qarindoshlarini eslolmasligini tayinlab kelgan yigit kasalxonada tug'ilgan qishlog'i, u yerda istiqomat qilayotgan amakisidan Yodgor akaga so'z ochadi. Yodgor aka Ja'farning so'nggi istagi sifatida Dalmun atrofidagi qishloqlarga yo'l oladi. Shunday qilib, Ja'far tug'ilib o'sgan qishloqdan Samarqandga borgan kishilar Yodgor akaning eng sevimli mehmoniga aylanadi.

Ustoz Samarqand davlat universitetining 1-kursida o'qib yurgan kezlarda, Yodgor aka bilan tanishadilar. Avvaliga bu xonadon ahli har hafta so'ngida u kishini o'ziga chorlab, odamoxunligi-yu bag'rikengligi, qizg'in va samimiy suhbatlari bilan ustozning ko'ngillaridan joy oladi. Keyinchalik talabalik yillarida Muborak opa Temirova bilan oila qurganlarida, bu tabarruk xonadon ularni o'z bag'riga oladi. To'ng'ich o'g'illari Erkin aka mana shu yerda dunyoga keladi. Qizig'i shundaki, ayni paytda Yodgor akaning xonadonida Shoir, Mavjuda, Ahmadjon, Shavkat, Shokir ismli besh farzand voyaga yetayotgan edi. Bulardan beshinchi farzand Shokirning Erkin aka bilan tengdoshligi-yu, keyinchalik Yodgor aka xonadonlarida Malika ismli qizlarining ham tug'ilib tarbiya topganiga e'tibor qaratsak, xonadon ahlining mehdaryo insonlar ekanini tasavvur qilish mumkin. Ustoz har gal Samarqandga yo'l olgan kezlarda, albatta, Yodgor akani ko'rib ketishga odatlangandilar. U kishi 1990-2010 yillar davomida SamDU huzuridagi K 067.04.01 raqamli fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya himoyasi bo'yicha ixtisoslashgan Ilmiy kengash a'zosi sifatida bu shahri azimga tez-tez qatnab turdilar. Bir gal ana shunday yaxshi tashvishlar bilan Samarqandga kelib, Yodgor akaning bu foniy dunyoni tark etganlarini eshitgan ustozning nihoyatda qattiq iztirob

chekkanlariga o‘zim guvoh bo‘lganman. U kishini so‘z bilan ovutish imkondan tashqari edi. Faqatgina achchiq iztirobdan hosil bo‘lgan qonli ko‘z yoshlarning tugab qolishigina ustozni tinchlantira olardi.

Ustoz R.Vohidov hayotlari davomida oliyjanob fazilatlarga ega bo‘lganlar bilan tez-tez yuzlashdi. Ular orasida taniqli adabiyotshunos olim, akademiklar V.Abdullayev va B.Valixo‘jaevlarning o‘rni bo‘lakcha. Ustoz SamDUda tahsil olayotgan kezlarda, V.Abdullayev chinakamiga o‘zbek adabiyotshunosligining yirik vakili sifatida tanilgan, keng mushohadakorlikka tayangan teran ilmiy tadqiqotlari hamda oliyjanob insoniy fazilatlari bilan ko‘pchilikning mehrini qozonishga ulgurgan edi. Ustoz V.Abdullayevdan saboq olganliklarini shukronalik bilan eslaydilar hamda hayotlarining talabalik deb atalmish oltin davrida Botirxon Valixo‘jayev bilan ancha yaqinlashib qolganliklarining boisini ana shu mehridaryo olimning sinchkovligidan deb biladilar⁹. Bu ikki zabardast adabiyotshunos olimning ko‘ngli ehson nuri bilan limmo-lim to‘la, ularning minglab shogirdlari qatorida ustoz Rahim Vohidov ham ana shu ziyodan bahramand bo‘ldilar. B.Valixo‘jayev bilan oralarida juda samimiy ustoz-u shogirdlik munosabatlarining paydo bo‘lishi bilan qalbi ezgulikka tashna ustozimiz ko‘ngillari nurga to‘la boshladi.

Bu voqeylik domlaning 1-kursda o‘qib yurgan kezlari dayoq sodir bo‘la boshladi. 27 talabadan iborat bo‘lgan Rahim Vohidov tahsil olayotgan guruhda Botirxon Valixo‘jayev fors tilidan saboq beradilar. U kishi davrining peshqadam ma‘rifatparvarlaridan biri bo‘lgan Nabiraxo‘ja Valixo‘jayevning farzandi bo‘lib, otalaridan fors tili va adabiyotini teran o‘rganishga erishgan edilar. Qizig‘i shundaki, Nabiraxo‘ja Valixo‘jayev matematika fani o‘qituvchisi bo‘lsalar-da, Sharq mumtoz adabiyoti, arab va fors tillarining bilimdoni edilar. Xil‘at taxallusi bilan mumtoz yo‘nalishda ijod qilgan Nabiraxo‘ja Valixo‘jayev ikki ming sahifaga yaqin ikki jildli *“Farhangi zaboni tojiki”* nomli ulkan lug‘atning mualliflaridan biri edilar. Ustoz Botirxon Valixo‘jayev ana shunday ulug‘ insonning farzandlari bo‘lganliklari bois talabalar oldiga ham otalariga tegishli katta ma‘naviy xazinadan ulush olib kirardilar. O‘z ishiga nisbatan nihoyatda talabchan bo‘lgan navqiron yoshdagi mehridaryo bu ustozning arab alifbosidagi har bir harf, ularning to‘rt ko‘rinishining shakllari, she‘riy satrlardagi ifodasiga oid tayyorlagan kartotekalari talabalarning ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqini

⁹ Batafsil ma‘lumot uchun qarang: Вохидов Р. Умрим дафтарида саҳифалар. Тошкент: «Мухаррир», 2012, 77-85-бетлар

oshirishga xizmat qilardi. Xususan, Sharq mumtoz adabiyoti namunalarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari bilan talabalarining tanishtirilishi, ularni o‘qishga oid tavsiyalarning berilishi, birgalikda o‘qishning tashkil etilishi bir umr eslagulik mashg‘ulotlar edi.

Ustoz 1960-1965-yillardagi tahsillari jarayonida SamDUning eng faol talabalaridan biriga aylandilar. Bunda yuqorida nomlari qayd etilgan ilm ehsonidan charchamaydigan, bu sharaflı ishni umrining mazmuni deb tushunadigan, “*hamida axloq*”li ustozlarning mehri-yu samimiyati, alohida e’tibori, xususan, Botirxon Valixo‘jayevdek bag‘ri keng inson bilan ustoz-shogird tutunishlari muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Ustoz o‘sha davr yoshlari tashkilotining talabalar ilmiy ishlari anjumanlarida faol ishtiroklari uchun bir qancha faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar. Bular orasida 1965-yil 26-aprelda Samarqandda o‘tkazilgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Respublikalari universiteti talabalarining 8-ilmiy konferensiyasida ma’ruza bilan ishtirok etganliklari uchun berilgan “*Faxriy yorliq*” alohida ahamiyatga ega. Bu anjuman ustoz Rahim Vohidovday mumtoz adabiyot bilan shug‘ullanishda yaxshigina ko‘nikmaga ega bo‘lgan iste’dodli talabani kashf etdi, deyishga asos beradi. Shunday qilib, domlaning bir umr nomlarini tillaridan qo‘ymay, ularning borliklariga shukrona bilan yashab kelishlari, bu dunyoni tark etganlaridan so‘ng munavvar ruhlari shod bo‘lishini istab, Allohga iltijolar qilib, duo qilishlariga bois bo‘lgan saxovat sohiblarining insonparvarliklari, muruvvatliliklari-yu ilmdagi saxovatlari bois qalblari ehsondan munavvar bo‘la boshladi. Hayotlarining keyingi davrida bu ehson nurlaridan ko‘ngilning munavvarlashuvi yanada ortib, o‘zlarini ham ehson sohibiga aylantirdi.

1.2 Katta ilm karvoniga doxillik saodati

Bashariyat maskaniga aylangan ona – Yerimiz asrlar davomida bobo Quyoshdan nur olib, osmonning lutf-u marhamatiga ko‘kragini tutgancha bag‘rida unayotgan nabotot-u jonzotga hayot baxsh etib kelmoqda. Uning og‘ushida tiriklik ne‘matidan zavqlanib nafas olayotgan turli irqqa mansub millat-u elatlarni ayricha tuzumdagi davlatlarda istiqomat qilayotganini ko‘z oldimizga keltirsak, Yerimiz quchog‘i naqadar bepayon ekanligini tasavvur qilish imkoniga ega bo‘lamiz. Biroq tafakkur ufqimizni qanchalik keng tutmaylik ona –

sayyoramizdan bir necha barobar ulkan-u kichik bo'lgan son-sanoqsiz osmon jismlari samo bag'rida muallaq holda suzib yurishi bilan aloqador cheksizlikni aqlimizga sig'dirish qiyin. Bu borada insonga in'om etilgan yana bir ne'mat – his qilish ko'makka kela oladi. His qilish bobida ko'hna Sharq mutasavvuflaridan o'tib bir narsa deyish qiyinligi barchaga ma'lum. Bu ulug' zotlar haqida gap ketganda, ko'z o'ngimizda dastlab millatimiz iftixori bo'lgan buyuk so'z san'atkori Alisher Navoiyning nurli siymosi jilvalanadi. Ulug' bobokalonimiz bizni o'ylantirgan jumboqlar xususida teran mulohaza yuritib badiiy jihatdan barkamol nazm namunalarini ijod etganliklari qalblarimizga jo'shqinlik baxsh etadi. Ana shunday navoiyona keng taxayyul-u tafakkur mahsuli bo'lgan quyidagi baytda rangin ifodasini topgan g'oyani idrok etib, hayratlanmay bo'lmaydi:

*Quyoshg'a goh qizarmoq, goh sorg'ormoq erur andin
Ki sun'ung bog'ida bor ul sifat yuz ming guli ra'no* [3, 26].

Alisher Navoiy quyoshning qizarishi va sarg'ayishi haqida fikr yuritganda, uning fazodagi harakatini nazarda tutganligi yaqqol sezilib turadi. Kunning chiqish va botishi paytida quyoshning qizil tusga kirishi, zarrin nurlari yerni qizdira boshlaganda esa sariq tus olishi barchaga ayon. Ayni choqda bu harakatning boshqaruvchisi Parvardigorning O'zidir. Quyosh osmon jismlari ichida o'xshashi yo'q samo yoritqichi bo'lib ko'rinadi. Ijodkor mazkur hamd g'azalda uning ayni jihati nisbiy mohiyat kasb etishini nazarda tutgani holda ulug' Tangrini vasf etadi. Masalaga islomiy nuqtayi nazardan yondashgan shoir yakka-yu yagonalik faqat Yaratuvchigagina xosligi, qolgan barcha jismlar-u ins-u jinsning jufti mavjudligi, ular ma'lum turlarni tashkil etishi mantig'idan kelib chiqib, Alloh yaratgan bog'da *“ul sifat yuz ming guli ra'no”* borligiga e'tiborni qaratadi. Quyoshday ulkan osmon jismini yuz minglab guli ra'nolarga tashbeh eta olgan tafakkur olami sohibiga qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Shundan bo'lsa kerak, asrlar o'tsa-da, biz Alisher Navoiy ijodiga tashnalikdan jon taslim qilayotgan kishining mavjli daryoni ko'rib, bor kuchi bilan u tomon yugurayotganidek talpinamiz.

Ulug' shoir badiiy tafakkurining mahsuli bo'lgan bunday nazm namunalarining chinakam muhibi unda ilgari surilgan yetakchi g'oyani, go'zal tasvirni idrok etgach, navoiyona taxayyulga esh tutinib lazzatlanadi. Shu bois asrlar davomida mumtoz ijodkorlarimiz, xususan,

Alisher Navoiy asarlarini ilmiy tadqiq etish, ularda ilgari surilgan o‘lmas umumbashariy g‘oyalarni xalqimizga yetkazish, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’riflaganlaridek, ana shunday *“qudratli ma’rifiy qurol”* vositasida ezgu fazilatlar sohibi bo‘lgan insonni tarbiyalashdek ulug‘ ishga Alisher Navoiy asarlarini ilmiy o‘rganish bilan hissa qo‘shish saodatli ishga aylandi. Bu qutlug‘ an’anaga butun hayotini sarf etganlarning adadi oxiri ko‘rinmaydigan bir karvonni eslatadi. Ana shu nurli karvonga doxil bo‘lish saodati sabr-u bardosh evaziga tunlarni tongga ulab kitob bilan oshno bo‘lganlargagina nasib etadi. Turkiy adabiyotni jahoniy mavqega ko‘targan ulug‘ shoir Alisher Navoiy hali dastlabki devonini tartib berishga jazm etmagan bir davrda, uning nazmiy namunalarini kitobat qilgan adabiyot muhiblarini, balki, navoiyshunoslik ilmining sarbonlari deya nomlasak, adashmagan bo‘larmiz. Keyinchalik ulug‘ shoir o‘zining ilk rasmiy devoni *“Badoyi’ ul-bidoya”*ning debochasida: *“...ammo xalq orasida ming bayt, ikki ming bayt ortiqroq o‘ksukroqkim o‘zlari jam qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lub erdi”* [1, 25], – deya muxlislaridan minnatdorligini e’tirof etadi.

Alisher Navoiy *“xattotlar qiblagohi”* deya e’tirof etgan Sultonali Mashhadiy va Abdujamil kotib singari musulmon mintaqa xalqlari orasida nafis san’at turi sifatida tan olingan yozuv san’ati darg‘alarining turli davrlarda shoir asarlarining kitobat qilinganligi bu nurli siymoni keyingi avlodlar tasavvurida gavdalantirish imkonini yaratdi. Ulug‘ so‘z san’atkori Alisher Navoiyning ko‘lami keng va asrlar o‘tishi bilan yangicha ma’no qirralarining kashf etilishiga bois bo‘lguvchi ulkan adabiy, ilmiy, ilohiy-irfoniy merosi sarhad bilmas va hamisha mavjlanib turuvchi dengizni eslatadi. Undan ming riyozat bilan dur izlayotgan g‘avvosni xotirga keltiruvchi chinakam Navoiy asarlari ixlosmandi ham yoki shu dengizning poyonsiz ko‘k bilan uyg‘unlik hosil qilgan tegrasidan qush misol uchib o‘tuvchi she’riyat muhibi ham ijodkorning badiiy olamidan ixlosiga yarasha zavq oladi. Bu ma’naviy dengizning salmoqli qismini mutafakkir shoirning nazmiy namunalari tashkil etadi. O’sha noyob nazm durdonalarida o‘ta mubolag‘aviy yo’sinda badiiylashtirilgan benazir husn sohibining maftunkor nurli qiyofasi takror-takror, biroq yangicha, kutilmagan o‘xshatishlar vositasida she’rxonga havola etilsa-da, chinakam navoiyxon yiroqdan ko‘ringan nurga talpinganday unga intilaveradi. Ana shu nurdan bahra olish istagi, shuningdek, buyuk mutafakkirning qalb-u ko‘zining ziyosi mahsuli bo‘lgan nasrda bitilgan badiiy hamda ilmiy, ilohiy-irfoniy asarlarining

mohiyatini anglashga bo'lgan intilish nafaqat turkiy xalqlar orasida, balki boshqa millat vakillarida qalbida ham jo'sh ura boshladi. Natijada XX asrning 20-yillariga qadar Alisher Navoiy hayoti va ijodini chinakam ilmiy tamoyillar asosida o'rganishga asos solinib, navoiyshunoslik katta ilm karvoniga aylangunigacha kechgan davrda ulug' shoir ziyosidan bahramand bo'lish istagini qondirish niyatida maxsus lug'atlar tuzishga kirishildi. Bu buyuk shoir qalam sohibining katta-yu kichik asarlariga naziralar bitish, javobiya aytish, g'azallariga muxammaslar bog'lash, nafaqat o'zbek shoirlari, balki qardosh xalqlarning mashhur so'z san'atkorlari orasida ham ajoyib an'anaga aylanib bordi.

O'tgan asr 70-yillarining ibtidosidan ana shunday katta ilm karvoniga muhtaram ustozimiz Rahim Vohidovning ham taqdirlari bir umrga chambarchas bog'landi. Buning uchun, avvalo, SamDUda o'qib yurgan kezlarda, talabalikdagi ilm olishga bo'lgan istakning yuksakligi sabab bo'ldi. Ustoz bu oliy ilm dargohida taniqli tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov bilan kursdosh sifatida tanish bo'lib, birgalikda ilm olish zavqidan bahra olgan bo'lsalar, talabalikdan keyingi davrdagi hayotini Buxoro davlat universiteti (oldingi pedagogika instituti) bilan chambarchas bog'lagan, taniqli adabiyotshunos Toji Qorayev bilan esa Vohid Abdullayev asos solgan ilmiy maktabga taqdirlari chambarchas bog'langani bois aka-uka tutingan edilar. Domlaning hali maktabda o'qib yurib, nonvoylarga shogird tutilgan kezlarda, bir oshyonlari bo'lishga harakat qilganliklari-yu, biroq bunga erisha olmaganlaridan og'ringanliklarini yuqorida ta'kidlagan edik. 1965-yil SamDU bilan xayrlashib, ayollari Muborak aya va og'illari Erkin aka bilan qishloqqa qaytganlarida, yana Abdurazzoq amaki quchoq ochib kutib oladilar. Yana o'n nafar farzandini voyaga yetkazgan piri badavlat otaxon Abdurazzoq amakining xonadonlarida ustoz ayol-u farzandlari bilan yashahsga majbur bo'ladilar. Ayni shu vaqtlarda, domla yigitlik xizmatlarini o'tash uchun Ukrainaning Bogdan Xmelitskiy shahriga harbiy xizmatga yo'l oladilar. Oradan bir yilcha vaqt o'tib, domla "*Obidota Komilov*"¹⁰ deya e'zozlaydigan, o'zlari tahsil olgan va keyinchalik shu kishining taklifi bilan bir yilcha yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat yuritgan sakkiz yillik maktab direktori shogirdlarini yana bir qo'llashga kirishadilar. U kishi jamoa xo'jaligining qurilish brigadasi tomonidan Asbob qishlog'ida bunyod etilgan uchinchi uyni rais Bobo Nazarovdan

¹⁰ O'sha kitob, 51-bet.

so‘rab, shogirdlariga olib beradilar. Ustoz bu quvonchli xabar bilan Muborak aya Temirovaning maktublari orqali tanishib behad xursand bo‘ladilar. 1966-yilning oxirida harbiy xizmatdan qaytib, shu hovliga ko‘chib keladilar. Hovli hali qurib tugatilmagan, atroflari o‘ralmagan, buning ustiga, mavjud uylarida ipak qurti parvarishlangani bois uylarni tozalab, undan boshpana sifatida foydalanish mumkin edi. Shunday bo‘lsa-da, o‘z oshyonlarining mavjudligi ustozga uylarni epaqaga keltirib, unda yashash ishtiyoqini uyg‘otdi. Keyinchalik bu hovli eng fayzli xonadonning maskaniga aylandi. Biroq bu darajaga kelguniga qadar hovli jiddiy mehnat qilishni talab etdi.

Bu orada Buxoro pedagogika institutida kafedra mudiri sifatida faoliyat yuritayotgan Toji Qorayev ustozni ishga taklif qiladilar. Biroq oilaviy ahvolning nochorligi bu taklif ko‘ngillariga qanchalik yoqib tushgan bo‘lsa-da, domlani o‘zlari o‘qigan va bir yilcha yoshlar yetakchisi bo‘lib ishlagan maktabda faoliyatni davom ettirishga undadi. Bunday qarorga kelishda Toji Qorayevning takliflaridan xabarsiz bo‘lgan Obid ota Komilovning sa‘y-harakatlari ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Domla maktabda faoliyatni boshlab, ustoz Toji Qorayevni bir oz ranjitib qo‘ydilar. O‘quv yili davomida Toji Qorayev ustoz Rahim Vohidovni institutga chorlar, u kishini talabalardan imtihon olishga jalb etib turardilar. Yoz ta‘tilida Toji Qorayevning ustozni xabarsiz qoldirib, chiqartirgan buyruqlari asosida Rahim Vohidov maktab o‘qituvchilarining vakili sifatida qabul komissiyasida ham ishlay boshladilar. Endi domla uchun talabalikdan qadrdon bo‘lgan akalarini ranjitish ma‘qul sanalmasdi. U kishi SamDUning ikkinchi kursida o‘qib yurgan chog‘larida, ilk bor Toji Qorayev bilan tanishib qoladilar. O‘shanda Toji Qorayev O‘zbek adabiyoti kafedrasida huzuridagi kunduzgi aspiranturada o‘qishga qabul qilinib, professor Vohid Abdullayev rahbarliklarida “Mullo Qurbon Xiromiyning hayoti va adabiy merosi” mavzusiga oid nomzodlik dissertatsiyasi ustida ishlayotgan edilar¹¹. Yillar davomida ma‘naviy aka-ukalik rishtalari mustahkam bog‘landi. Ustoz shu bois Toji Qorayevning har bir topshiriqlarini sidqidildan bajarishga kirishardilar. Bu orada qariyb ikki oylik qilingan xizmat uchun maosh to‘landi. 1967-yilning 2-sentabrida Rahim Vohidovning Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi lavozimiga tayinlanganligi haqidagi buyruq ustozning qo‘llariga tutqaziladi. Toji Qorayev tomonlaridan amalga oshirilgan bu

¹¹ Воҳидов Р. Мумтоз адабиётдан саодат топган инсон//. Профессор Тожи Қораев замондошлари хотирасида. –Тошкент: “Фан”, 2006, 19-28-бетлар.

ishni Obid ota Komilov ham qo'llab-quvvatlabgina qo'ymay, shogirdlarining oilasidan xabardor bo'lib turishlarini ham bildiradilar. Shu tariqa ustoz Rahim Vohidovning hayotlarida nihoyatda muhim bo'lgan bir davr – qizg'in ilmiy-pedagogik faoliyat davri boshlanadi. Qismatda ham ustoz-u murabbiylik, ham olimlik bitilganligi ma'lum bo'lib qoladi.

Ilmiy izlash, mumtoz asarlarni ilmiy tadqiq etish, bu borada o'z so'zini aytish-u, nomini ilm ahliga tanitib, maqola-yu kitoblari bilan tanilish, dissertatsiyalar yoqlab, ilmiy daraja va unvonlarga munosib ko'rilish, shogirdlar yetishtirish kabilarni *"Igna bilan quduq qazish"*ga qaiyoslanishi bejiz emas, albatta. Ayniqsa, ustozning qismatlari Buxoro davlat pedagogika instituti bilan bog'langan dastlabki yillarda bunday yashash tarzini tanlash kishidan mustahkam irodani talab etardi. Negaki, hozirda Buxoroyi sharifdan ustozning makon tutgan go'shalariga mashinada 30-40 daqiqaga borish imkoni mavjud bo'lsa, transport xizmati ancha nochor ahvolda bo'lgan o'tgan asr 60-yillarining oxirida Asbob qishlog'idan shaharga qatnab ishlash qator murakkabliklarni keltirib chiqarardi. Buning ustiga paxta yig'im-terimi mavsumida professor-o'qituvchilarning talabalar bilan oylab olis tumanlardagi dalalarda terimga jalb etilishi mashaqqat ustiga mashaqqat edi. Ustoz asosan qanchalik murakkab bo'lmasin, qishloqdan qatnab ishlashni uzoq yillar davomida o'zlariga qismat deb bildilar. Ba'zan mashg'ulot-u tadbirlar yoki yig'ilishlar sabab bo'lib kechikib qolsalar, Buxoro Arki yuqorisida joylashgan pedagogika instituti professor-o'qituvchilariga berilgan ikki qavatli uyning ikkinchi qavatidagi Toji Qorayev xonadonlarida tunashga to'g'ri kelardi.

Oilada bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanish faqatgina Muborak ayaning yelkalariga bo'lishi biror bir tamoyilga to'g'ri keladigan ish emasdi. Shu bois ustoz bo'sh vaqt topgan chog'larda, asosan kechalari, bu masalaga alohida otalik vazifasi deb qarash bilan bir qatorda, vaqt topib maktabdagi shogirdlari bilan ham shug'ullanishni unutib qo'ymadilar. Rizvonoy ayaning keyingi turmushlaridan farzandlari bo'lmaydi, u kishi Navro'z boboning bir qiz-u, bir o'g'illariga onalik mehrini berib, ularni voyaga yetkazgandan so'ng kunduz kunlari to ustozning ishdan qaytgunlariga qadar kelinlari Muborak ayaning yonlarida bo'lardilar. Ustoz onalarini o'z xonadonlariga keltirishga har qancha urinsalar ham, Navro'z bobo bilan taqdirdoshlik qismati onaizorning bunday yo'l tutishlariga izn bermasdi. Keyinchalik ustozga hozirgi Buxoro davlat universiteti bosh binosi o'ng tarafidagi yo'lning

kunchiqar tominida joylashgan, universitetga qaratib qurilgan besh qavatli binoning beshinchi qavatidan 3 xonali uy berilsa ham, taqdirning bu kabi chigalliklari tufayli onaizorlarining duolarini olish, oila davrasida bo'lishni afzal bilgan domlani yana qatnab ishlashga davom ettirdi. Shu tariqa ustoz ilm izlash va ma'rifat ulashish bilan Alloh ne'mat etgan umrni bezash niyatida katta bir ma'naviy safarga kirishdilar.

Hazrat Alisher Navoiy *“Mahbub ul-qulub”*da *“Safar vodiysida musofir ayog'ig'a dard-u balo tikanlari ko'p sonchilur, lekin har tikandin maqsud guli ochilur”* [14, 123], – deya e'tirof etadi. Ustoz bu katta ma'naviy safar jarayonida oyoqlariga sanchiladigan tikanlar zaxmini oldindan his etsalar-da, ularning ozori natijasida *“maqsud gul”*larining ochilishiga talpinib yashashni saodat deb bildilar. Negaki, bu ma'naviy safar u kishini navoiyshunoslik deb ataluvchi katta ilm karvoniga doxillik saodatidan ham bahramand qilardi. Buning uchun suyanadigan tog', yo'l ko'rsatuvchi, uni shunchaki ko'rsatibgina qolmay, o'nqir-cho'nqirlaridan o'tish sirlaridan voqif qiluvchi rahnamoga ehtiyoj bor edi. Talabalikning ilk yillaridanoq ustozdan shunday bir rahnamo izlashga ortiqcha urinish talab etilmasdi. Rahim Vohidov bu katta ilm karvoniga doxillik saodatidan bahramand bo'lish ilinjida uzoq yillik ma'naviy safarga otlanish uchun yana Samarqandga borishni hech ikkilanmay tanladilar. Bu nihoyatda nurli, saodatli yo'l edi. Bu yo'l avvalo, u kishini o'zlari rahnamo deb bilgan Botirxon Valixo'jayevning taqdir yo'llari bilan tutashtirar, talabalikning zavqli onlarini xotiraga tiklar va samimiyati, odamiyligi, madaniyati nihoyatda yuksak bo'lgan, birovga ovozini ko'tarib gapirishdan doimo tiyiladigan ulug' bir olim bilan pir-u muridlik rishtalarini mustahkam bog'lash imkonini hosil qilardi. Shu bilan bir qatorda, Samarqandda salohiyatli olim, hayotini Sharq xalqlari mumtoz adabiyoti, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotini ilmiy o'rganishga bag'ishlagan Vohid Abdullayevdek zabardast adabiyotshunos bilan uchrashish, u kishining keng mushohadakorlikka asoslangan ilmiy tadqiqotlari bilan yaqindan tanishish, qolaversa, *“katta domla”* deya e'zozlangan ulug' ustozdan nihoyatda muhim tavsiyalar olish imkoniyati mavjud edi.

Vohid Abdullayevning ko'ngillarida miltillab turgan ilm uchqunlari ustoz Sadriddin Ayniy, zabardast sharqshunos olim Y.E. Bertels va boshqa ilm-u ma'rifat fidoyilari ko'magida porloq mash'alga aylangan, ziyotalablar qalbiga u kishining ko'nglidan taraluvchi ehson nurlari allaqachon kirib borishga ulgurgan edi. Ayni choqda Buxorodagi

ilmiy muhit ham bu ulug' ustozning nazaridan chetda emas edi. Taqdir u kishining umr yo'llarini XX asr 30-yillarining ikkinchi yarmida Buxoroyi sharif bilan bog'lab qo'ygan edi. Sho'ro hukumati ziyolilarga nisbatan qilichini qayrab turgan bu davrda aspirantura tahsilini tugatgan bu yosh iste'dodli olim dastlab Toshkentda Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish instituti, S.M.Kirov nomidagi dramastudiya va "Yosh kuch" jurnalida adabiy xodim bo'lib ishlaydilar. 1936-yilda Buxoro davlat pedagogika institutining O'zbek adabiyoti kafedrasida ilmiy-pedagogik faoliyatlarini davom ettiradilar. V.Abdullayev 1938-yilga qadar shu ilm dargohida O'zbek adabiyoti kafedrasini mudiri sifatida faoliyat olib borganlar¹². Tabiiyki, respublika matbuotida o'zining dolzarb mavzudagi maqolalari bilan tanila boshlagan, ayni choqda *"Alisher Navoiyning hayoti va Samarqanddagi adabiy faoliyati"* mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasi ustida qizg'in izlanishlar olib borayotgan iste'dodli tadqiqotchining dars mashg'ulotlari, ilmiy mulohazalari, bahslari, shubhasizki, institut talabalari, qolaversa, kafedra jamoasining ko'nglidagi shunday ishlarga maylni kuchaytirishga xizmat qilardi. V.Abdullayevning Buxoroda kechgan 2-3 yillik ilmiy-pedagogik faoliyatlari olimni umri davomida shu zaminga voyaga yetgan iste'dod egalariga rahnamolik qilishga undagan ko'rinadi. Zero, Alisher Navoiy hayotining ibratli lavhalari bilan yaqindan tanishgan V.Abdullayevdek zukko olimning shunday fazilat egasi bo'lishlari tabiiy bir hol edi.

Salohiyatli adabiyotshunos Buxoro ilmiy maktabi bilan o'zaro hamkorlikni umrlarining oxiriga qadar davom ettirdilar. Domla Buxoro davlat pedagogika institutiga Davlat imtihon komissiyasining raisi sifatida tashrif buyurgan yillarida o'z faoliyatlariga kirishgunga qadar o'zbek tili va adabiyoti bo'limi talabalariga maxsus kurslardan qisqa muddatli saboq berardilar. Ustoz Rahim Vohidovning Toji Qorayev xotiralariga bag'ishlab yozilgan *"Mumtoz adabiyotdan saodat topgan inson"* nomli maqolalarida quyidagi jumlar keltiriladi: *"Ayni jarayonlar o'sha yillarda kafedrada o'qituvchi bo'lib ishlayotgan O.R.Rasulova, H.B.Zikriyoyeva, M.H.Qosimova, M.A.Abdurahmonov, S.D.Panchenko, talabalardan Toji aka va boshqalarni professor V.Abdullayevga ancha yaqinlashtirib qo'yadi. Alohida qoniqish bilan qayd etmoq lozimki, yuqoridagi ro'yxatga ismi shariflari tilga olingan insonlarning hammalari keyinchalik otaxon adbiyotshunos rahnamoligida hamda beminnat madadi bilan nomzodlik*

¹² Валихўжаев Б., Мирзаев С. 1982. "Сержило аллома" Воҳид Абдуллаев. Сайланма. -Тошкент: "Фан", 4-бет.

dissertasiyasini himoya qildilar... ”¹³ . Ustozning bu xotiralarida o‘tgan asrning 60-yillari nazarda tutiladi. V.Abdullayev bu yillarda chinakamiga o‘zbek adabiyotshunosligining yirik vakili sifatida tanilgan, keng mushohadakorlikka tayangan teran ilmiy tadqiqotlari hamda oliyjanob insoniy fazilatlari bilan ko‘pchilikning mehrini qozonishga ulgurgan edilar. Olimning yuqorida nomi keltirilgan nomzodlik dissertasiyaslarining o‘zidayoq adabiyotshunoslik ilmi ravnaqini belgilovchi tadqiqot manbalari xususida qator ilmiy mulohazalar bayon etilgandi. Keyingi yillarda ana shu g‘oyalar yanada teranlashtirildi, nafaqat ilmga mayl ko‘rsatgan kafedra o‘qituvchilarini, balki Toji Qorayev singari iqtidorli talabalarni ham qiziqtirib qo‘ydi. Shu bois ustoz adabiyotshunoslar Botirxon Valixo‘jaev, Rahim Vohidovlarning zahmatkash olim Vohid Abdullayevning ibratli hayot yo‘li va ilmiy-ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan risolalari “*Ezgulik – umr mazmuni*”¹⁴ deya nomlandi. Biz ham o‘tgan asrning 90-yillarida O.R.Rasulova, M.H.Qosimova, T.Qorayev, R.Vohidov singari olimlarning saboqlarini maroq bilan tinglaganimizda, bularning bari ulug‘ ustozning mehr bilan ko‘ngillarga ilm urug‘ining qadagani samarasi ekanini keyinchalik tushunib yetdik.

Bu ikki zabardast adabiyotshunos olimning ko‘ngli ehson nuri bilan limmo-lim to‘la, ularning minglab shogirdlari qatorida Rahim Vohidov ham ana shu ziyodan yana bahramand bo‘lishda davom etdilar. B.Valixo‘jayev bilan oralarida juda samimiy ustoz-u shogirdlik munosabatlarining paydo bo‘lishi bilan qalbi ezgulikka tashna ustozimiz ko‘ngillari nurga to‘la boshladi. Shu tariqa ustoz 1967-1970 yillarda Samarqand davlat universiteti O‘zbek adabiyoti tarixi kafedراسi aspiranti – Botirxon Valixo‘yevning ilk shogirdlari sifatida ilmiy izlanish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Nomzodlik dissertatsiyasining mavzusi sifatida Alisher Navoiyning eng yaqin do‘stlaridan biri, XV asrning taniqli zullisonayn shoiri Shayxim Suhayliyning hayoti va ijodiyoti tanlandi. Shoir devonining qo‘lyozma nusxalari Leningrad (hozirgi Petrburg), Dushanbe shaharlaridan topilib, o‘rganila boshlandi. Bu borada ilmiy rahbar B.Valixo‘jayevning maktublar orqali berilgan nihoyatda aniq ko‘rsatmalariga qat’iy rivoya qilindi. Buxoroda yashagan ma’rifarparvar Ibrohim Qosimiy bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Ozar millatiga mansub bo‘lgan bu kishi Sharq mumtoz adabiyotiga nihoyatda katta

¹³ Вохидов Р. “Мумтоз адабиётдан саодат топган инсон”//. Профессор Тожи Қораев замондошлари хотирасида, -Тошкент: “Фан”, 2006, 21-бет.

¹⁴ Валихўжаев Б., Вохидов Р. Эзгулик – умр мазмуни. -Тошкент: “Фан”, 1992.

muhabbat qo‘ygandi. Ibrohim Qosimiy fors tilini mukammal bilar, o‘zi ham ijod bilan shug‘ullanar hamda uyida kattagina kutubxonasi mavjud bo‘lib, unda qo‘lyozma va toshbosmalar saqlanardi. Ustozning bu inson bilan yaqindan tanishib, Shayxim Suhayliy devoni qo‘lyozmalarini o‘qishga kirishganlari ham tezda o‘zining samarasini ko‘rsata boshladi. Maqolalar e‘lon qilindi, ular sohaning yirik tadqiqotchilari e‘tiboriga tushdi. Nihoyat, orziqib kutilgan kun yetib keldi. Ustoz R.J. Vohidov 1970-yilning 30-iyunida B.N.Valixo‘jayev ilmiy rahbarliklarida *“Amir Shayxim Suhayliy hayoti va ijodiyoti”* mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyani Samarqand davlat universiteti huzuridagi ixtisoslashgan Ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qildilar.

Amir Shayximbek Suhayliy Alisher Navoiyning zamondoshi, hammaslaklaridan biri, taniqli zullisonayn shoir va davlat arbobidir. U Husayn Boyqaro saroyida muhrdor, vazir singari lavozimlarda faoliyat olib borgan. Alisher Navoiy va Shayximbek Suhayliy ijodiy meroslarida bir-birilariga bo‘lgan cheksiz muhabbatlari badiiy talqin etilgan baytlarning uchrashi, ularning taraddud (bir-biridan bexabar holda o‘xshash) baytlar bitganliklari singari qator adabiy-estetik hodisalar yosh olimga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. 1976-yilda *“Fan”* nashriyotida ustozning *“Suhayliy”* nomli 44 sahifadan iborat risolalari nashr etildi. Shayximbek Suhayliy haqidagi nomzodlik disseertatsiyasi va chop etilgan risola ustozning keyingi tadqiqotlari yo‘nalishini belgilab berdi.

Ustoz bir muddat kafedrada o‘qituvchi lavozimida faoliyat ko‘rsatganlaridan so‘ng, u kishiga katta ishonch bilan O‘zbek adabiyoti kafedrasini boshqarish topshirildi. 1972-1975-yillarda kafedra mudiri sifatida institutning ilmiy-pedagogik hayotida faol ishtirok etdilar. Bu o‘z navbatida domlaning ustoz B.Valixo‘jayev bilan hamkorlikda faoliyat olib borishlarini, yangi tadqiqotlar ustida izlanishda bo‘lishlarini taqozo qilib turdi. Bu orada T.Qorayev bilan hammualliflikda 1978-yilda *“Adabiy taxalluslar haqida”*, 1979-yilda *“Taxalluslar”* nomli risolalar e‘lon qilindi. Ustoz B.Valixo‘jayev bilan hammualliflikda Dushanbening *“Irfon”* nashriyotida 1978-yilda chop etilgan *“Muhaqqiqi buzurgi du adabiyot”*, 1981-yilda esa *“Alisher Navoiy ijodi – ilhom manbayi”* nomli risolalar vujudga keldi. Bunday izlanishlar olimning Alisher Navoiy yashagan davr va XVI asr o‘zbek va fors-tojik mumtoz adabiyotini qiyosiy sathda o‘rganishga undab turdi. Til nuqtayi nazaridan ayro sanalsa-da, o‘z davri uchun mushtarak adabiyot

hisoblangan Xuroson va Movarounnahr adabiyoti vakillarining ijodini qiyosiy o'rganishda ustoz tadqiqot olib borayotgan davrda adabiy aloqa va o'zaro ta'sir nuqtayi nazaridan masalani tadqiq etish taqozo etilardi. Ustoz mohiyatni teran anglagan holda zullisonaynlik va mulammada bitilgan asarlar misolida o'z qarashlarini ifodalashga kirishdilar, samara sifatida esa 1983-yilda *"XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlarida o'zbek va tojik she'riyati"* nomli 143 sahifadan tashkil topgan monografiya nashr yuzini ko'rdi. Ustoz bu borada muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlarni yanada ko'proq qo'lga kiritish maqsadida Alisher Navoiyning XV asr shoirlari xususida bitilgan tazkirasining forsiy tarjimalari bilan yaqindan tanishishga kirishdilar. Natijada 1984-yilda *"Majolis un-nafois" tarjimalari* nomli risola vujudga keldi.

Ustozning o'tgan asr 70-80-yillarida olib borgan bu sermahsul ilmiy faoliyatlari zahirida ulug' ustoz B.Valixojayevning tavsiyalariga qat'iy amal qilishlari, o'zaro hamkorliklari yotadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Tobora chuqurlashib borayotgan ustoz-u shogirdlik munosabatlari Rahim Vohidovning mumtoz adabiyotni tadqiq etishda katta tajribaga ega bo'lishlarida, ilmiy mushahadakorliklarining yuksalishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Natijada 1988-yilning 19-mayida ustoz Rahim Vohidovning professor B.N.Valixojayev ilmiy maslahatchiliklarida tayyorlangan *"XV asrning II yarmi, XVI asrning boshlarida o'zbek – fors-tojik adabiy aloqalari (qiyosiy-tipologik yo'nalish)"* mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasilari muvaffaqiyatli himoya qilindi. O'zbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot instituti huzuridagi doktorlik dissertatsiyalarini himoyasi uchun ixtisoslashtirilgan Ilmiy kengashda o'tkazilgan himoya ilm ahlining e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Ustozning milliy istiqlolimizga qadar e'lon qilingan ko'plab maqolalari qatorida yuqorida nomlari keltirilgan monografiya va risolalaridan tashqari, 1988-yilda Mahmud Tarobiyga bag'ishlangan *"Qasoskorning nomi barhayot"*, 1989-yilda *"Sharqning buyuk allomasi"*, M.Hoshimova bilan hammualliflikda dastlab 1987-yilda *"She'riyat shoir yuragi"*, 1989-yilda *"Ilhom chashmalari"*, 1991-yilda esa *"Adabiy qardoshlik sarhad bilmaydi"*; 1990-yilda T.Qorayev bilan hammualliflikda *"Avlodlar ta'zimi"*, M.H.Qosimova bilan hammualliflikda 1990-yilda *"Alisher Navoiy "Xamsat ul-muttahayyirin" asarining tojikcha tarjimalari"* nomli kitoblari nashr etildi. Nihoyatda dolzarb mavzularga bag'ishlangan bu monografiya va risolalar ustozni ilm ahliga nuktadon olim sifatida tanitdi.

Ustoz ilmiy-pedagogik faoliyatni bir-biridan ajratmagan holda, aksincha, biri ikkinchisini to'ldirib borishga xizmat qildirgan holda olib borishga erishdilar. Buning samarasi sifatida 1990-yilning 5-oktabrida ustozga O'zbek adabiyoti kafedrası professori ilmiy unvoni berildi.

Milliy istiqlolimiz qo'lga kiritilgandan so'ng, ustoz mamlakatimizda birinchilardan bo'lib Alisher Navoiy va boshqa mumtoz ijodkorlarimiz asarlarini tayanch g'oyaviy manbalariga tayanib tadqiq etishga kirishdilar. Domlaning *"Navoiyning ikki durdonasi"* ("Fan", T., 1992), *"Alisher Navoiyning ijod maktabi"* (Buxoro, 1994), *"Alisher Navoiy va ilohiyot"* (Buxoro, 1994), *"Biz bilgan va bilmagan Bobur"* ("Ma'naviyat", T., 1999), *"Bir nosir va uch shoir haqida topganlarim"* (Buxoro, 2003), *"Ma'naviyat olamining porloq quyoshi"* (Buxoro, 2004), *"Yog'di o't ustiga qor"* ("Zarqalam", T., 2005), *"Yillardan qolgan ma'naviy yodgorliklar"* (T., "Zarqalam", 2006) *"Armonga aylangan adabiy orzular"* ("Fan", T., 2009), M.Mahmudov bilan hammualliflikda yaratilgan *"Ma'naviyat – komillik saodati"* ("Ma'naviyat", T., 1997) hamda *"Iymon – qalb gavhari"* ("Ma'naviyat", T., 1999) kabi qator monografiya va risolalari adabiyotshunosligimiz taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Rahim Vohidov ustoz-u hamkasblarining ilm yo'lidagi zahmatli mehnatlarini ham qadrllovchi olim edilar. Domlaning yillar davomida birgalikda faoliyat olib borgan safdoshlari, taniqli folklorshunos va bolalar adabiyotining zahmatkash tadqiqotchisi ustoz O.T.Safarovning ilmiy-pedagogik faoliyatlariga bag'ishangan *"Bolalik kuylasa – yashnaydi olam"* (Buxoro, 1990) nomli kitoblari bu borada dastlabki qadam bo'ldi. Shundan so'ng ustozning B.Valixo'jayev bilan hammualliflikda yozilgan akademik V.Abdullayevning ibratli hayot yo'li va ilmiy faoliyatlariga bag'ishlangan *"Ezgulik – umr mazmuni"* ("Fan", T., 1992) deb atalgan risolalari ilm olamiga kirib keldi. Keyinchalik Rahim Vohidov tasavvufshunos olim, professor N.Komilovga bag'ishlangan *"Ilohiy ishq jozibasi"* ("Zarafshon", Samarqand, 1997), Sharq mumtoz adabiyotining zabardast tadqiqotchisi, taniqli navoiyshunos olim, professor A.Hayitmetovning hayoti va ilmiy tadqiqotlarining mohiyatidan so'zlovchi *"Navoiy qalbi-la sirlashgan inson"* ("Xalq merosi", T., 1999) va *"Navoiy merosiga oshufta ko'ngil"* ("Fan", 2005), M.Mahmudov bilan hamkorlikda bitilgan taniqli folklorshunos olim O.Safarov hayoti va ilmiy-pedagogik faoliyatiga doir *"Bolalik dunyosidan munavvar qalb"* ("Ma'naviyat", 2000) hamda akademik B.Valixo'jayev bilan muallifning ustoz-u shogirdlik

munosabatlari-yu taniqli olimning mashaqqatli bo'lsa-da, saodatbaxsh ilmiy faoliyatidan bahs etuvchi "*Samarqandning ilmiy vijdoni*" (2005) kabi kitoblari Rahim Vohidov ilmiy faoliyatlarining yana bir qirrasini sifatida namoyon bo'ldi. Adabiyotshunos olimning ustoz yoki hamkasbining hayot yo'lini eng nozik qirralarigacha yoritishi, qahramonning adabiy portretini nuqtadonlik bilan chiza olishi muallifdan nihoyatda sinchkovlikni, tanlagan qahramoni bilan ruhiy-ma'naviy yaqinlikni talab etsa, uning ilmiy faoliyatiga davr talablari nuqtayi nazaridan baho berish katta ilmiy salohiyatga ega bo'lishni taqozo etadi. Ustozning ushbu bitiklaridan u kishining ehsondan munavvar qalbi oliyjanob fazilatlar bilan to'yingani-yu chinakam ilm maskaniga aylanganini sezish mumkin. Ayni choqda ustoz Buxoroda yashagan ma'rifatparvar Ibrohim Qosimiyni ham unutmadilar, u kishining qizlari Zevar Qosimova bilan hammualliflikda "*Yaxshilikka bag'shida umr*" ("Xalq merosi", -T., 2001) nomli kitob bilan bu kishidan o'rganganlarini va Ibrohim Qosimiyning ibratli hayot-u ijod namunalari mangulikka muhrlashga harakat qildilar.

Domla iqtidorli izdoshlar tayyorlash borasida ham ko'pchilikka ibrat bo'larli ishlarni amalga oshirdilar. 1996-2012 yillarda ustoz rahbarliklarida 10 nafar tadqiqotchi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga erishdi. Dastlab Y.Y.Azimov "*Abdurahmon Jomiy "Xiradnomayi Iskandariy" dostonining qiyosiy-tipologik tahlili*" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan (Samarqand, 1996) bu ishni boshlab bergan bo'lsa, 1997-yilda ustozning ikki shogirdlari – dastlab Toshkentda Sh.A.Hayitov "*Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining manbalari va g'oyaviy-badiiy tahlili*", keyinchalik Samarqandda D.Karimova "*Mirzo Sodiq Munshiy Jondoriy adabiy merosining janriy tarkibi va badiiyati*" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishdi. Ustoz shogirdlarning nomzodlik dissertatsiyalari mavzularini tanlashda o'zbek va fors-tojik mumtoz adabiyotining dolzarb masalalari, xususan, Alisher Navoiy ijodi hamda XX asrga qadar ijod qilgan Buxoro adabiy muhitining iste'dodli shoirlari ijodini o'rganishni asosiy maqsad qilib tanlagandilar. Alisher Navoiyning ham turkiy va ham fors-tojik tilidagi ijodi namunalari tizimli ravishda tadqiq etishda shogirdlarga rahnamolik ko'rsatdilar. 1999-yilda ustoz uch nafar shogird tomonidan muvaffaqiyatli himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalarining ilmiy rahbari sifatida tanilishga muvaffaq bo'ldilar. O'sha davrda bu nihoyatdan katta ko'rsatkich, katta muvaffaqiyat sanalardi. Dastlab Qahramon To'xsanov Samarqandda

“Shavkar Buxoriy she’riyatining uslubi va badiiyati”, keyinroq Toshkentda Gulchehra Boltayeva *“Alisher Navoiy “Fusuli arbaa” qasidalar turkumining manbalari va g’oyaviy-badiiy talqini”*, yil oxirida esa Samarqandda kamina *“Alisher Navoiy she’riyatida samoviy timsollar (“Badoyi’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” devonlari misolida)”* mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarimizni himoya qildik. Shu tariqa Hilola Safarova 2001-yil Samarqandda *“Rabg’uziyning “Qissayi Yusuf alayhis-salom” asarining manbalari va g’oyaviy-badiiy talqini”*, Nazora Bekova 2003-yil Toshkentda *“Alisher Navoiyning hamd g’azallari va “Ruh ul-quds” qasidasi badiiyati”*, Ma’rifat Rajabova 2006-yil Samarqandda *“Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarining manbalari va badiiyati”* mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishdi. 2012-yilda Suhrobjon Bobokalonov Samarqandda *“Xo’ja Ismat Buxoriy va zamondosh turkiygo’y shoirlar uslubi, janrlari va badiiyati”* nomli nomzodlik dissertatsiyasini yo‘qlash bilan hali vafot etganiga ko‘p bo‘lmagan ustozimizning munavvar ruhlarini shod etdi.

Ustoz nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish borasida ham anchagina sermahsul ilmiy izlanishlar olib bordilar. Xususan, bu o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini milliy istiqloq mafkurasi asosida qayta ko‘rib chiqib, talabalar uchun foydali bo‘lgan o‘quv qo‘llanmalar yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu boradagi izlanishlar 90-yillarning oxirlarida voqeylana boshladi. Unda kamina bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yganlari meni nihoyatda quvontiradi. Ustoz bilan dastlab 2001-yilda o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixining eng qadimgi davrlaridan Alisher Navoiy ijodiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan *“Mumtoz adabiyot – hikmat xazinasini”* nomli qo‘llanmamiz nashr etildi. 2005-yilda salmoqli qismi Alisher Navoiy hayoti va ijodining tashkil etgan mumtoz adabiyotimiz tarixining eng qadimgi davrlaridan XVII asrgacha bo‘lgan davrini haqidagi *“O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”* nomli o‘quv qo‘llanmamiz 3 kitob holida chop etildi. Oradan bir yil o‘tib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi grifti bilan 628 sahifadan iborat lotin yozuvidagi ushbu qo‘llanmamiz O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyatida nashr etildi. Ushbu qo‘llanmaning nashr etilgan sanasidan buyon oliy ta’lim muassasalarining Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek), O‘zbek tili va adabiyoti singari bir qator ta’lim yo‘nalishlarida asosiy adabiyot sifatida o‘qitilayotganligi diqqatga sazovordir. Men qo‘llanma yozishga ustoz bilan hamkorlik qilganimdan,

bugun talabalarga o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tganimda, qo'limda shu kitob turishidan faxrlanib ketaman.

Ustozning H.Ne'matov. M.Mahmudovlar bilan hamkorlikda yozilgan "*So'z bag'ridagi ma'rifat*" ("Yozuvchi", 2001) nomli o'quv qo'llanmalarini ma'rifiy asarlar mohiyatini teran anglash oid nihoyatda muhim manba deyish mumkin. Unda ma'rifiy adabiyotning mohiyati teran talqin etilgan, shuningdek, qo'llanmadagi ma'rifiy adabiyotga oid tasniflar, obrazlarning ramziy xususiyati va o'ziga xos tizimlarni hosil qilishiga oid nazariy qarashlar talaba va mumtoz ma'rifiy adabiyot ixlosmandlariga bunday ijod namunalarini to'g'ri tushunish, tahlil-u talqin etish imkoniyatini yaratgan, deyish mumkin.

Ustoz ilm yo'li nihoyatda mashaqqatli ekanligi-yu bu riyoatlarga bardosh bergan kishining ko'ngli ehson nurlariga to'lib, ko'pchilikning ko'nglini shu'lalantira olishini 70 yillik ibratli hayotlari davomida isbot etish bilan kifoyalanmay, avlodlar uchun II jahon urushi tufayli "*Ota degan buyuk baxtdan*" benasib qolganliklari-yu V.Abdullayev, B.Valixojayev singari ustozlar bois qalblaridagi ilmga bo'lgan mehr uchqunlari sekin-asta tafti va haroratini namoyon qila boshlaganini "*Umrin daftaridan sahifalar*" ("Muharir", 2012) nomli risolada yozib qoldirdilar. Bu kitob mashaqqatli dovonlardan mardona o'tishga undovchi, buning uchun mumtoz shoirlarimizning hikmatlariga tayanishni bot-bot eslatib turuvchi o'ziga xos pandnomadir.

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy "*maqsud guli ochil*"guniga qadar "*musofir ayog'ig'a dard-u balo tikanlari ko'p sonchil*"ishiga e'tibor qaratganlari singari ustozdan qolgan bu ma'naviy yodgorliklar ham ulkan riyoat mahsulidir. Biroq har bir "*maqsud guli ochil*"ganida ustoz qalbiga kirib borgan farahbaxsh epkinlar u kishiga ruhiy tetiklik, qilayotgan ishlardan mamnunlik hissini hadya qilib turgani tayin. Bugun Rahim Vohidovning "*maqsud gul*"lari o'z husn-u tarovatiga ega ajoyib bir mangulikka daxldor gulshanga aylandi. Ular doimo ustozning nurli siymolarini o'quvchi ko'z oldida gavdalantirib turishiga ishonamiz. Ayni choqda bu riyoatlarning samarasi nuktadon olimga katta ilm karvoniga doxillik saodatini ham nasib etdi, deya baralla ayta olamiz.

IKKINCHI BOB. BAHRAMANDLIK VA BAHRA ULASHISH IZTIROBLARI

2.1 “Yori aziz”lik maqomi

Ulug‘ ijodkorlar, tasavvufning yirik namoyandalari, taniqli olimlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida yaqinlik belgisi sifatida qo‘llangan muayyan so‘z yoki birikmalar boshqalarning e‘tiborini o‘zida jalb etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fazilatni o‘zida mujassam etganiga ko‘ra, Alisher Navoiy tarafidan Shayxim Suhayliyga nisbatan qo‘llangan “*yori aziz*”, ya‘ni aziz do‘st ma‘nosini ifoda etgan izofaviy birikma ham diqqatga sazovordir. Ulug‘ shoir “*Badoyi’ ul-bidoya*” devoni “*Debocha*”sida “*ash’or tadvin qilg’on*” [1, 11], ya‘ni she‘rlarini jamlab, devon tartib berganlar xususida so‘z yuritib, Shayxim Suhayliy ijodiga ham e‘tiborni qaratadi. Bu iste‘dodli shoirni ajoyib ma‘nolarni qo‘lga kiritish uchun nodir iqlimlarda ko‘ngil sayyohini g‘urbatga solgan forsiydisor – fors-tojik tilida ijod qiluvchilar va turkiy shoir yigitlarning sarxayli – yo‘lboshchisi deya ta‘riflash bilan kifoyalanmay, uni “*yori aziz Suhayliy*” [1, 11] tarzida e‘zozlaydi. Shuningdek: “*Holiyo ikkala alfoz nazmig’a qoyil, balki devon takmiliga moyil bo‘lg‘ay*” [1, 12] – deya ta‘kidlaydi. Ulug‘ shoirning ushbu e‘tiroflaridan Shayxim Suhayliyning forsiy va turkiy tildagi ijodi qoyil qolarli bo‘lishi bilan bir qatorda ularning devon tuzishga ham rag‘bat ko‘rsatuvchi nazm namunalari ekanligi ayonlashadi.

Alisher Navoiy “*Majolis un-nafois*”da Shayxim Suhayliy Xurosonning taniqli xonadonida tarbiya topib, kichik yoshidan badiiy ijodi, fahm-u idroki, go‘zal axloqi bilan tanilgani, Sulton Abu Said Mirzoning maxsus mulozimi bo‘lgani, yigirma yildan oshiqroq muddatdan beri Sulton Husayn Boyqaro saroyida yuksak darajada faoliyatda ekanligidan bahs yuritadi. Nazmi ham yuqori mavqeydaligini “*Iydiya*” qasidasi, “*Layli va Majnun*” dostoni misolida ko‘rsatib o‘tadi. Turkiy nazmi namunasi siftida quyidagi baytni keltiradi:

Zuhd eli tasbih deb hayron qolur avbosh aro,

Rishtayi jismimni ko‘rsa qatra-qatra yosh aro [13, 67].

Alisher Navoiy “*yori aziz*”ining ta‘rifini yana davom ettirishdan bir oz saqlanib: “*Avvaldin oxirgacha faqir bila iltifot va ittihodi ko‘p uchun mundin ortuq ta‘rifin qililsa, o‘zumni ta‘rif qilg‘ondek bo‘lurdin qo‘rqib, ixtisor qilildi. Oqibati xayr bo‘lsun!*” [13, 67] – deya so‘ziga

yakun yasaydi. Bundan Alisher Navoiyning Shayxim Suhayliy bilan yoshlikdan ittihat – birga bo‘lganlari, bir-birlariga nisbatan iltifat – lutf-u marhamat ko‘rsatib turganlari ayonlashadi. Tabiiyki, Alisher Navoiydek ulug‘ shoirning “*yori aziz*”i sifatida e‘zozlangan, ulug‘ shoir bilan “*ittihat-u iltifat*”da bo‘lgan, ikki tilda ijod qilgan bu iste’dodli zullisonay shoirning hayoti va ijodiy merosi bugungi o‘quvchi uchun ham nihoyatda qiziq. Ustoz adabiyotshunos Botirxon Valixojayev masala mohiyatini teran anglagan holda, birinchi shogirdlarining nomzodlik dissertatsiyasi mavzusini “*Amir Shayxim Suhayliy hayoti va ijodiyoti*” tarzida belgilashga qaror qiladilar. Qizig‘i shundaki, Alisher Navoiyning “*yori aziz*”i hayoti va ijodini tizimli o‘rganib, uni ilm ahliga ma’lum qilgan, ustoz Rahim Vohidov ham o‘zbek va tojik adabiyotshunoslari orasida “*yori aziz*” nomi bilan taniladilar. Albatta, bunday e’tirof yosh olimga shunchaki taqdim qilingan emas. Zero, ulug‘larga nisbatan shunday maqom sohiblari tomonidan qo‘llangan tasviriy ifodalarga munosib ko‘rilish zahirida ularga xos fazilatlarini o‘zida namoyon qilish zarurati yotadi. Shuningdek, ustoz Botirxon Valixojayevdagi teran idrok-u yuksak ma’naviyat ham shunday e’tiroflar uchun zamin hozirladi, deyish mumkin. Shayxim Suhayliyning hayoti va ijodiyotini o‘rganish jarayoni bilan bog‘liq ustoz-shogirdlik munosabatlari samarasi xususidagi ayrim mulohazalar bilan fikrimizni dalillashga harakat qilamiz.

Shayxim Suhayliy hayoti va ijodini tizimli holda tadqiq etish uchun, avvalo, Alisher Navoiyning “*Majolis un-nafois*”, “*Badoyi’ ul-bidoya*” devoni “*Debocha*”si va boshqa asarlaridagi hamda Davlatshoh Samarqandiyning “*Tazkirat ush-shuaro*” tazkirasidagi qaydlarga tayanib, shoir devonining qo‘lyozma nusxalarini sinchiklab o‘rganish zarurati mavjud edi. O‘tgan asrning 60-yillarida arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek tili yoki forsiyda bitilgan matnlarni o‘qish muammosi hal qilinishi qiyin bo‘lgan masalalardan biri sanalardi. Tabiiyki, bu muammo ustoz Rahim Vohidov uchun ham begona emas edi. “*Yaxshidan sharofat*” deyilganidek, ulug‘ shoir Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligini kechiktirib nishonlash xususida hukumat qarori e’lon qilinadi. 1968-yilda bu tadbirning o‘tkazilishi belgilanadi. 1967-yilda ishga qabul qilingan yosh tadqiqotchi Rahim Vohidovning zimmalariga ham Buxoroyi sharifda bu qutlug‘ tadbirni munosib nishonlash yuzasidan muhim topshiriqlar yuklanadi. Ustoz turli kasb egalari bo‘lgan shaharning keksa navoiyxonlari bilan uchrashadilar. Bular orasida nutqidan ozariycha talaffuzi sezilib turgan, botamkin va

nuroniyl otaxon Ibrohim Muhammad Qosimiy ham bor edilar. Bu kishining Navoiy – Foniyl haqidagi mulohazalari ko‘pchilikni hayratda qoldiradi. Forsiyl tildagi matnlarni o‘qish, ularni teran tushunib, so‘zlay olish malakasiga ega bo‘lgan bu inson bilan tanishish ustoz uchun Allohning benihoya katta in‘omi edi. Bu haqda qayd etilgan quyidagi e‘tiroflar ham fikrimizni quvvatlantiradi: *“O‘shanda men Alisher Navoiyning darddosh do‘sti ... Shayxim Suhayliyning hayoti va ijodi haqida nomzodlik dissertatsiyasi yozish bilan band edim, – deya xotirlaydilar ustoz Rahim Vohidov. – Tabiiyki, qo‘lyozma manbalarni o‘qishda qiynalardim. Hazrat Navoiy sabab baxtli tasodif tufayli dono bir hodiyni Yaratganning O‘zi menga yetkazdi. O‘sha kundanoq bizning yulduzlarimiz to‘g‘ri keldi, gapimiz qo‘r topdi. Buxoroyi sharifning shoh chorrahalaridan birining muyulishida joylashgan ... mo‘jazina hovliga tez-tez qatnaydigan bo‘lib qoldim”*¹⁵.

Ustoz bu qutlug‘ xonadondagi Ibrohim Qosimiy va u kishining ayoli Sug‘ro ayaga xos yuksak madaniyat, sharqona lutf-u nazokat, hayo va ibo xususida to‘lqinlanib yozadilar. Ishdan bo‘sh vaqtlarda – kechalari shu xonadonda Ibrohim Qosimiy bilan ilm qilganliklari va Sug‘ro ayaning achchiqqina choy va shirin taomlariga qo‘shilgan samimiy mehrlaridan bahra olganlarini aytishdan bir umr charchamasdilar. Shu tariqa ustoz murshidi komil Botirxon Valixoja‘yevning Samarqanddan yetib kelgan topshiriqlarini baholi qudrat bajarishda o‘zlarida kuch topa oldilar. Topshiriqlar maktublar holida shogirdlariga yetkazildilar. Ulardan 5 tasi bevosita Shayxim Suhayliy hayoti va ijodini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, *“Jo‘natilmagan xat”* kitobiga kiritilgan¹⁶.

Ustoz Botirxon Valixoja‘yevning maktublaridan shogirdlari bilan bir yerda bo‘lib, ilm bilan shug‘ullanish istagi ustuvorligi sezilib turadi. Biroq oradagi masofa, faoliyatning ikki shaharda olib borilayotgani ustoz-shogird hamkorliklariga muayyan ma’noda to‘sqinlik qilishi haqiqat edi. Buning ustiga, Rahim Vohidovga ham ilmiy ish bilan shug‘ullanish yonida bir qancha topshiriqlar berilar, oila tashvishlari-yu, qishloqdan qatnab ishlash kabilar o‘sha to‘sqinlik tarafida turuvchi omillar edi. Shu bois shogirdidan yetib kelgan xatga javob tarzida bitilgan maktublardan birida Rahim Vohidovning ishlar ko‘payib ketganidan muayyan ma’noda toliqqanlariga tasalli berish, sabr-toqatli

¹⁵ Вохидов Р., Қосимова З. Яхшиликка бахшида умр. –Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001, 5-6-бетлар.

¹⁶ Вохидов Р. Жўнатилмаган хат. “Бухоро”, 2009, 8-17-бетлар.

bo'lishga da'vat kuzatiladi. Ustoz bu tashvishlar orasida Suhayliy bilan suhbatda bo'lish ham kishiga o'zgacha bir kayfiyat bag'ishlashini ta'kidlab qo'yadilar. Maktubda ilmiy izlanishlar jarayonini tizimli davom ettirish borasida shu qadar aniq ko'rsatmalar beriladiki, unga qat'iy amal qilish samaradorlikni ta'minlashiga shubha qoldirmaydi. Tavsiyalardan dastlabkisi Suhayliy devonidagi asarlarning kartotekasini tayyorlashga qaratilgan. Bir xil kattalikdagi kartondan tayyorlanadigan kartotekalar uchun shoir devonining nisbatan qadimiy nusxasining asos sifatida tanlanilishi maslahat beriladi. Unda ko'chirilgan g'azal, qit'a singari nazm namunalarining devondagi o'rni qayd etilib, hoshiyada esa boshqa devondagi matniy tafovutlar belgilab boriladi. Har kuni 5-10 ta kartoteka tayyorlansa, ishning samarali bo'lishi ta'kidlanadi. Tayyorlangan kartotekalar shoir adabiy merosiga oid muayyan tasniflarni amalga oshirish, she'rlarining mavzular olamini, matniy tafovutlarni aniqlash nuqtayi nazaridan muhimligi uqtiriladi. Ayni choqda bu ish Rahim Vohidov uchun shoirning ijodiy laboratoriyasiga olib boruvchi yo'l vazifasini o'tashi e'tirof etiladi.

Botirxon Valixo'jayev maktublarida Shayxim Suhayliy haqida to'plangan materiallarni shoir devonlari misolida yanada boyitishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun tayyorlanayotgan kartotekalarda shoirning hasbi holidan bahs etuvchi, hayoti va ijodining muhim qirrasini o'zida ifodalovchi she'riy parcha, misra va bayt kabilarning belgilab borilishi, xususan, badiiy ifodalangan tarixlarga, she'rda keltirilgan shoh, amir sifatida faoliyat yuritgan kishilarning nomlariga alohida diqqat qaratib, ularning kimligini aniqlashga e'tiborli bo'lish tavsiya etiladi. Bular tadqiqotchi izlayotgan masalaning aniqlashishiga bois bo'lishi, ishning ilmiy saviyasining oshishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, ustoz tojikistonlik taniqli matnshunos va manbashunos Aliqul Devonaqulovdan Suhayliy devonining Dushanbedagi fotonusxasi yetib kelgan bo'lsa, ishni aytilganlarga ko'ra qiyosiy sathda amalga oshirib, devonning bir nusxasini qayta o'zlariga yuborishga shoshilmaslikni, Samarqandga kelganlarida olib kelishlarining yetarli ekanini shogirdlariga tayinlab qo'yadilar. 1969-yilning 18-martida bitilgan ushbu maktubda ilmiy ishga oid shu qadar aniq ko'rsatmalar tizimli ifoda etilganki, undan bu davrda ustoz Botirxon Valixo'jayevning ilmiy izlanishlar borasida katta tajribaga ega bo'lganlari ayonlashadi. Ayni choqda maktubdan ustoz-shogird orasida iliq ruhiy-ma'naviy yaqinlik vujudga kelgani seziladi. Bunday ko'rsatmalarning berilishi uchun shogirdga nisbatan qat'iy ishonchning

shakllangani, ko'ngilda shubhaga o'rin bo'lmasligi muhim sanaladi. Ustozga faqatgina sidqan tavajjuh – yuzlanish-u, berilgan tavsiyalarni dur topgan g'avvosdek qadrlashgina ayni sharoitda samara omili bo'la olardi.

Rahim Vohidovning ustozga sidqan tavajjuhlari ibrat namunasiga aylandi. Nomzodlik dissertatsiyasi uchun Shayxim Suhayliy devonining fanga ma'lum chet ellardagi 3 va sobiq Ittifoqning Dushanbe, Leningrad (hozirgi Sank-Peterburg) va Tbilisida mavjud 3, jami 6 nusxasi aniqlandi. Kalkuttadagi qo'lyozmalar fihrestini tuzgan A.A.Sherengerning ma'lumotlari asosida ushbu nusxa boshqalariga nisbatan hajman eng katta qo'lyozma bo'lib, uning 7000 misradan tashkil topgani taxmin qilindi. Shayxim Suhayliyning taniqli xattot Mir Ali Xandon qalamiga mansub Bolleandagi va noma'lum kotib tomonidan kitobat qilingan Belgaldagi devonlari ham katologlardagi ma'lumotlarga ko'ra 4000-5000 misra atrofida ekanligiga aniqlik kiritildi. Dushanbe nusxasining tavsifi keltirilib, undagi she'rlarning 900 baytga yaqinligi ma'lum qilindi. Dissertatsiya uchun asosiy manba sanalgan Leningraddagi Saltikov-Shchedren davlat xalq kutubxonasi qo'lyozmalar fondidagi nusxasi sobiq Ittifoqdagi nisbatan mukammal devon ekanligiga aniqlik kiritildi. Bu devon Shayxim Suhayliy hayotligi davrida mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan kitobat qilingan. Qo'lyozma baytlar miqdorining ko'pligi, shoir tarjimai holini tiklashga madad beruvchi misralarga boyligi, Shayxim Suhayliy ijodiy laboratoriyasining so'nggi mahsulini qamrab olganligi bilan e'tiborga loyiqligi asoslandi. Shuningdek, devonning XVI asrda safaviylar davrida Hirotdan Eronga, 1829-yilda Eronda Rusiya elchixonasining xodimi, yozuvchi A.S. Griboyedevning Tehronda toshbo'ron qilib o'ldirilishi munosabati bilan uning xuni uchun Eron davlati kontributsiya – jarima to'lashga majbur bo'lgani bois Alisher Navoiyning *"Ilk devon"*i bilan birgalikda Leningradga kelib qolishi haqida ma'lumotlar keltirildi. Davr imkoniyatidan kelib chiqib dissertatsiya uchun Leningrad va Dushanbe devonlari misolida fikr yuritilgan esa-da, undagi ma'lumotlar manbashunoslik, shoir ijodiyotini o'rganishni davom ettirish nuqtayi nazaridan nihoyatda ahamiyatlidir.

Ustoz Rahim Vohidov manbalardagi ma'lumotlarga tayanib, shoirning oti Ahmad, nisbasi Shayx, Shayxim, Shayximbek, adabiy taxallusi Suhayliy ekanligiga aniqlik kiritib, keksa shoir va olim Shayx Orif Ozariydan ta'lim olgani, bolalikdan Alisher Navoiy bilan do'st tutinganini qayd etadilar. Tadqiqotchining ishdagi yana bir muhim

yangiliklaridan biri ustoz Botirxon Valixo'jayevning tavsiyalariga qat'iy amal qilganlarida namoyon bo'ladi. Shoir devonining Leningrad nusxasidagi hasbi holga oid misralar uning tug'ilgan sanasini aniqlashga imkon beradi. Shoir fors-tojik tilida bitilgan she'rlaridan birida 11 yoshida o'ziga "*Suhayliy*" so'zining taxallus sifatida tanlaganini, oradan bir yil o'tib, shoh Boburning vafot etganini obrazli ifodalaydi. Ustoz masala mohiyatini teran anglab, Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur vafoti 1457-yilda sodir bo'lganini nazarda tutib, Shayxim Suhayliyning 1444-1445-yillarda tug'ilganini ishonch bilan qayd etadilar¹⁷. Bu va ishda keltirilgan barcha she'riy parchalarning o'zbekcha tarjima-nasriy bayoni dissertatsiya muallifiga tegishli bo'lib, ustozda shakllangan fors-tojik tilini teran tushunish ko'nikmasi ishning ilmiy saviyasini yuksalishiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatgan.

Ustozdagi sinchkovlik manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirib, tarixiylik tamoyili asosida shoir hayotiga oid ma'lumotlarni tiklashda namoyon bo'ladi. Domla Suhayliyning 11-12 yoshidan 17-18 yoshga qadar bo'lgan davrdagi hayoti haqida hech qanday ma'lumot uchramasligini qat'iy ishonch bilan ta'kidlaydilar. 1461-1462-yillardan boshlab Abusaid Mirzo mulozimatiga kirgani, keyinchalik Samarqandga ketib qolishi, shahar hokimi Sulton Ahmad Mirzoga bag'ishlab qasida bitishi, uni Alisher Navoiyning nazaridan o'tkazish jarayonida mamduh – maqtaluvchining nomi keltirilgan baytdan oldin bir bayt qo'shishga zarurat borligi ayon bo'lgach, ikkala shoir ham bir-birlari bilan muayyan vaqt muloqotda bo'lmay, bir-biridan bitta so'zda ham farqlanmaydigan quyidagi tavorud baytni bitganlarini Davlatshoh Samarqandiyning ma'lumotlariga tayanib keltiradilar:

Bahori bog'i javoni, niholi gulshani adl,

Guli riyozi karam, sarvi jo'ybori viqor.

(Yigitlik bog'ining bahori – adolat chamanining niholidir, Saxiylik bog'ining guli – ulug'vorlik anhorining sarvidir)¹⁸.

Ustoz manbalarga tayangan holda Shayxim Suhayliy Hirot taxti Sulton Husayn Boyqaroga o'tguniga qadar Samarqandda yashagani, do'sti Alisher Navoiy bilan adabiy munozaralarda ishtirok etib, badiiy ijod bilan shug'ullangani, 1469-yilda Hirotga qaytgani, 1472-yildan boshlab Alisher Navoiyning tavsiyasi bilan Sulton Husayn Boyqaroning muhrdori, keyinchalik vaziri bo'lib xizmat qilganini tizimli yoritadilar. Suhayliy vazirlik davrida mashhur hind eposi "*Kalila va Dimna*"ning

¹⁷ Воҳидов Р. Суҳайлий. –Тошкент: "Фан", 1976, 6-бет.

¹⁸ O'sha kitob, 7-8-betlar

davr kitobxonlari uchun tushunarli tildagi yangi tahririni yaratishni Husayn Voiz Koshifiyga topshirgan va Koshifiyning “*Anvori Suhayliy*” nomli asarining vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan. Shuningdek, u Xurosonning Mashhad, Abivard, Sarakis viloyatlarida bo‘lgan. Bu ma’lumotlar ham ishda ayni uslubda aniqlashtirilgan. Ustoz shoir devonidagi quyida keltirilgan hasbi hol mazmunidagi baytlarga tayanib, taqdir Suhayliyni to‘rt farzandni tuproqqa topshirish bilan sinovdan o‘tkazganini ilm ahliga ma’lum qiladilar:

*Fig‘on ki, gurgi ajal burd Yusufi digaram,
Nuhuft bori digar nuri binish az nazaram.
Chahar tifi zi man xuftaand pahluyi ham
Ki, hisob chu angushho, gah barshumuram.*

(Mudhish o‘lim yana bir farzandimga chang soldi. Bu esa ko‘zlarim nurini kamaytirdi. Mening to‘rt farzandim yoma-yon yotibdiki, ularning hisobini barmoq sanagandek bilaman)¹⁹.

Bu nihoyatda muhim ma’lumot bo‘lib, shoir she’riyatida ayni voqeylikning izlari kuzatilishini taxmin qilish mumkin.

Ustoz Abdulla Kobuliyning “*Tazkirat ul-tavorix*” asaridagi ma’lumotga tayanib, Shayxim Suhayliyning hijriy 907-908 (1501-1502)-yillarda vafot etganini ma’lum qiladilar. Shoirning “*Layli va Majnun*” dostonining qaysi tilda yozganini aniqlash maqsadida esa manbalardagi ma’lumotlarni sinchiklab o‘rganadilar. XV asrdan keyin vujudga kelgan tazkiralarda Shayxim Suhayliyning “*Layli va Majnun*” nomli doston yozgani e’tirof etilsa-da, undan parcha keltirilmaydi. Lutf Alibek Ozar shoirning “*Layli va Majnun*” nomli masnaviysi borligini qayd etsa-da, uni ko‘rmaganini ma’lum qiladi. Taniqli sharqshunos Y.E.Bertels “*Navoiy*” nomli monografiyasida Suhayliyning fors va o‘z ona tilida she’rlar, shuningdek, “*Layli va Majnun*” dostonini yozganini qayd etadi. Afzal Mahmud Pirmastiyning “*Tazkirayi Afzal*” asarida Alisher Navoiyning “*Majolis un-nafois*” asaridagi ma’lumotlarni asosan takrorlab, shoir keltirgan “*Zuhd eli tasbeh deb...*” boshlanuvchi g‘azalning matla baytini Laylining xastaligi tasviri sifatida keltiriladi. 1924-yilda Belgal kutubxonasida saqlanayotgan Shayxim Suhayliyning fors-tojik tilidagi devoni tavsifini keltirgan V.Ivanov shoirning bundan boshqa devoni va “*Layli va Majnun*” dostoni mavjud bo‘lib, ular turkiy tilda bitilganini e’tirof etadi. Ustoz bu masalaga aniqlik kiritish maqsadida Badleandagi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Hojiyi

¹⁹ O‘sha kitob, 10-bet.

Kirmoniyning *“Humoy Humoyun”* asarining hoshiyasida Suhayliy *“Layli va Majnun”* dostoninnig matni keltirilganiga e’tibor qaratib, uning dastlabki muqaddimaviy boblari xususida so‘z yuritadilar. Suhayliyning ko‘proq Nizomiy Gangaviy asaridan ta’sirlangani haqidagi quyidagi misralarini keltirib, dostonning fors-tojik tilda yozilganini dalillaydilar:

*Aknun ki, manam fasona pardozi,
Go‘yam suxan zi holi xud bozi.
Chun Shayx Nizomiy dar in roh,
Namuda faromushi ba dilxoh.*

(Mazmuni: Men ham afsonaga pardozi (afsona asosida asar yaratish) berish darajasiga yetkan ekanman, o‘z holimdan necha so‘z aytaman. Meni bu yo‘lga Shayx Nizomiy boshladi)²⁰.

Ustoz dissertatsiya va u asosda yaratilgan *“Suhayliy”* nomli risolalarida shoir asarlarining mavzu va g‘oyalar olamini belgilashga ham e’tibor qaratdilar. To‘g‘ri, unda davr nuqtayi nazaridan yondashuvning mavjudligi seziladi. Shunday bo‘lsa-da, shoirning ruboiy, qit‘a, mustazod, tarjiband janrlarida ijod qilgani, she‘rlarida ikki ko‘rinishdagi kompozitsion qurilish: hofizona va tadrij uslubida bitilgan navoiyona g‘azallarning mavjudligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shoirning talmeh, tardi aks, o‘xshatish, qaytariq, sifatlash singari tasviriy vositalarga tez-tez murojaat qilishi bilan bog‘liq tahliliy fikrlarga o‘rin beriladi.

Shayxim Suxayliy va Alisher Navoiy ijodida o‘zaro ta’sir masalasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ustoz tadqiqotlarida ayni masala bir qator misollar asosida dalillangan. Avvalo, buyuk shoir Amir Xusrav Dehlaviyning *“Daryoyi abror”* nomli falsafiy qasidasi shoir vafotidan keyin shov-shuvlarga sabab bo‘lib, unga naziralar bog‘lash o‘ziga xos an‘anaga aylangani, XV asr Hirot adabiy muhitining zabardast shoirlari Abdurahmon Jomiy *“Lujjat ul-asror”*, Alisher Navoiy esa *“Tuhfat ul-afkor”* nomli nazira qasidalar ijod qilganlari holda ushbu qatordan Shayxim Suhayliy va Kamoliddin Binoiylar o‘rin olganiga alohida e’tibor qaratiladi. Ustoz Rahim Vohidov Shayxim Suhayliy qasidasi quyidagi matla’ baytining manbadan manbaga ko‘chib yurishiga e’tiborni qaratib, garchi qasidadan yagona shu baytgina saqlanib qolgan esa-da, bu bayt ijodkori salohiyatini namoyon etishga xizmat qilganini har tomonlama izohlashga harakat qiladilar:

Go‘l-g‘o‘li kovsi jahondori, ki shahro dar sar ast,

²⁰ O‘sha kitob, 19-bet.

*Suhb yo shom ast k-in navbat azoni digar ast*²¹.

Bir davr, bir adabiy muhit vakillari bo'lgan shoirlarning bunday nazira qasidalarining ijod etishi ular orasida ruhiy-ma'naviy yaqinlik mavjudligidan dalolat beradi. Ustozga Shayxim Suhayliy ijodida Lutfiy nomi tilga olingan quyidagi baytning mavjudligi qiziqish uyg'otadi:

*Lutfiy, ki baron tu Suhayliy,
Bis'yor shunid az in-u on talx.*

(Mazmuni: Suhayliy sening uchun Lutfiy ba'zi kishilardan ko'p achchiq gaplar eshitdi)²².

Ustoz ushbu baytga tayanib, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy va Shayxim Suhayliy oralarida o'zaro yaqinlik rishtalari mavjudligiga e'tiborni qaratadilar. Shuningdek, Mavlono Lutfiyning vafot etgan sanasidan kelib chiqib Shayxim Suhayliy Samarqandga ketmasidan oldin davrining *“malik ul-kalomi”* bilan ko'rishib turgan bo'lishi xususida fikr yuritadilar. Mulohazalarini dalillash uchun Alisher Navoiy va Mavlono Lutfiy uchrashuvlari haqidagi hikoyatga e'tibor qaratiladi. Ustozning mulohazalariga ko'ra, Shayxim Suhayliy bolalikdagi do'sti Alisher Navoiy bilan Mavlono Lutfiyning huzurlariga borib turgan. Bu kabi mulohazalar iste'dodli olimning masalani har jihatdan o'rganishga harakat qilganliklaridan dalolat beradi. Domla Alisher Navoiy va Shayxim Suhayliy munosabatlari-yu, o'zaro adabiy ta'sir masalasini teran o'rganish asnosida quyidagi muhim umumlashma-xulosani ta'kidlaydilar: *“Bu ikkala so'z san'atkori shu darajada yaqin munosabatda bo'lganki, Shayxim Suhayliy adabiy merosini Alisher Navoiy ijodidan ajratib o'rganish juda qiyin”*²³.

Bu xulosa shunchaki aytilgan mulohaza bo'lmay, buning uchun Alisher Navoiyning *“Majolis un-nafois”*, *“Xazoyin ul-maoniy”*, *“Xamsa”*, *“Xamsat ul-mutahayyirin”* singari asarlaridagi Shayxim Suhayliygga nisbatan aytilgan mulohazlar tahlilga tortiladi, *“Favoyid ul-kibar”* devonidan o'rin olgan *“Soqiynoma”*ning Shayxim Suhayliygga bag'ishlangan yigirma ikkinchi qismidagi 13 baytli she'riy parchaga e'tibor qaratiladi, *“Devoni Foni”*da *“Tatabbuyi yori aziz”*, *“Tatabbuyi yori aziz Suhayliy”* sarlavhalari ostida ulug' shoirning Shayxim Suhayliy g'azallariga yozgan 4 ta tatabbu' g'azali keltirilgani, bu tatabbu'larga asos bo'lgan 3 ta g'azalning Suhayliy devonida mavjudligi ta'kidlanadi,

²¹ O'sha kitob, 33-bet.

²² O'sha kitob, 34-bet.

²³ O'sha kitob, 35-bet.

ayni choqda Shayxim Suhayliy she'riyatida Alisher Navoiyga atalgan misralarning uchrashi, shoirning 1497-yilda Alisher Navoiyga bag'ishlab yozilgan qasidasida ulug' shoir va davlat arbobining barcha xislat va xususiyatlari zo'r qoniqish bilan madh etilgani misol sifatida keltiriladi. Bularning bari ushbu tadqiqotning yuksak saviyada yozilgani-yu, bugun uchun ham ahamiyatini saqlab turganidan dalolat beradi.

Alisher Navoiyning e'tiroflari va Davlatshoh Samarqandiy tazkirasida Suhayliyning ikki devoni borligidan bahs etilishi, uning o'zbek tilidagi asarlari majmuasidan *"Ey meni javr-u jafo bobida mo'tod aylagan, O'zgalar birla vafo qasrini bunyod aylagan"* matlasi va to'qqiz baytli bir g'azalining keltirishi ustozning doimiy e'tiborlarida bo'lgan. Shoirning turkiy devonini topishga intilish ustozga tinchlik bermagani haqiqat. Biroq boshqa manbalar bilan tanishish domlaga nasib etmadi. Shunday bo'lsa-da, Suhayliy haqidagi tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar keyingi davrda shoir ijodini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni davom ettirish uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ustozning nomzodlik dissertatsiyalari himoyasi ko'tarinki ruhda tashkil etilgan. Unda taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori Vohid Abdullayev, Tojikiston FANing katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi A'loxon Afsahzod (Afsaxov) opponent sifatida yuksak baho berishadi. Qilingan mehnat natijasida ustozni ham *"yori aziz"* deya atay boshlaydilar. Ulug' ustoz Botirxon Valixo'jayev 1971-yil 30-yanvarda yozgan maktublarida shogirdlarini Moskvadan diplom yetib kelgani bilan, 1978-yil 18-martdagi xatlarida esa *"Suhayliy"* nomli shogirdlari tomonidan nashr etilgan risolaning Sanarqandga yetib kelganini ma'lum qiladilar. Ushbu izlanishlar ustoz Rahim Vohidovni ilm ahliga shunchaki tanitib qo'ymay, domlanning iste'dodli olim sifatida shakllanganlarini ham ma'lum qildi. Ustozga ilm yo'lidagi dastlabki dadil qadam nafaqat fan nomzodi ilmiy darajasiga loyqlik bilan, balki ilm ahlini qat'iy ishonchining ramzi bo'lgan *"yori aziz"*lik maqomi bilan ibtido topdi.

2.2 Ikki tilda bitilgan mumtoz asarlardagi g'oyaviy uyg'unlik, o'ziga xoslik, tarjimashunoslik va yangi davr adabiyoti tadqiqi

Ilm olish va uni ehson qilishda ko'rish, eshitish singari ilohiy ne'matlar qanchalik muhim bo'lsa, ma'rifatga intilgan ko'ngilning hayotiy tajribalari asosida o'qish va yozish singari ne'matlarning ham qo'lga kiritilishi shunchalar ahamiyatli sanaladi. Keyingi ne'matlar, avvalo, berilgan ne'matlarga shukr qilish-yu, ilm berish mas'uliyatini umrining mazmuniga ayalandirgan muallimga ergashish vositasida amalga oshiriladi. Ayni hol jamiyki bani bashar hayotining muhim bosqichiga aylangan. Bunda dastlabki ne'matlardan biri yoki ikkisinin ham in'om etilmagani kuzatilsa, ilmga intilgan ko'ngilda his qilish tuyg'usi o'nda chiqib, bu ko'nikma muallim tomonidan sayqallashtiriladi va maqsad etilgan o'qish va yozish san'ati qo'lga kiritiladi. Ammo his qilish tuyg'usining o'nda bo'lishida insondagi ko'rish va eshitish imkoniyatlari to'sqinlik qilmaydi. Aksincha, bu imkoniyatlar qalb qushining ikki qanoti yanglig' kishini quvvatlab turadi.

Oriflar Alloh ma'rifatini his qilib, uni muridlar ko'ngliga jo etib borganlari singari chinakam ma'nodagi ilm ko'rish, eshitish, o'qish va yozish vositasida his etilib, ko'ngildan ko'ngilga ko'chadi. Buning uchun ustozning, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "*Ko'ngli uyin ilm etibon bir jahon, Qatrada ul nav'ki daryo nihon*" [7, 231] maqomida bo'lishi ahamiyatli sanaladi. Ilm bunday ustozning ko'ngil uyini qatrada daryo sirlari yashirin tutilganidek, ulkan bir jahonga aylantiradi. Ustoz ko'nglida butun bir olam bor sir-u sinoatlari bilan mavjlanib turadi, siymosida esa ulug'lik belgilari barq uradi. Ayni maqomda bo'lgan ustoz zulmatni yoritib turgan sham yanglig' ilm ehson qilishda bardavom bo'ladi. "*Bilsa baliq, bilmasa Xoliq*" tamoyiliga amal qiladi. Ammo ilm ehsonidan bahramand shogirdning g'aflatda qolmay, ogoh bo'lib turgani ma'qul. Negaki, g'ofilga qilingan ehsonning qadr-qimmatini bo'lmaydi.

Ilm o'tgan asrning 70-yillarida ustoz Botirxon Valixo'jayevning ham ko'ngil uylarini bir jahon maqomiga keltirish arafasida edi. Iste'dodli olim mumtoz adabiyotning eng muhim masalalari bilan shug'ullanishda jidd-u jahd ko'rsatib, salaflarda kuzatilgan bu maqomni o'zlarida ham "yuqib" borayotganini qalbdan his qilib borar edilar. Ulug' ustoz ayni yillarda dastlab o'zbek epik poeziyasi masalasi bilan jiddiy shug'ullanib, epik poeziyaning musulmon mintaqalari adabiyotidagi o'rni, uning genezisi, o'zbek adabiyotiga ta'siri kabi muhim jihatlarini nuktadonlik bilan o'rganib, fundamental tadqiqot yaratish arafasida edilar. Ayni choqda domlaning Alisher Navoiy "*yori*

azizi”ning hayoti va ijodini imkon qadar yoritish bilan bog‘liq o‘ylari iste’dodli shogirdlari tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilib, izdoshlari ilmda o‘z so‘zini ayta oladigan adabiyotshunos sifatida tanilib qolgan, ilm ehsonini ko‘ngildan his eta oluvchi ogoh shogird maqomida shakllangan edi. Ustoz-u shogird orasida bir-birini ishoradan his eta olish maqomi voqeylangani bois endi kelajakdagi rejalar ustida bosh qotirish vaqti yetib kelgan ko‘rinardi. Buning uchun Suhayliy hayoti va ijodi borasida olib borilgan izlanishlar tajriabasiga tayanish muhimligi ayonlashib qoldi.

Ustoz Botirxon Valixo‘jayevning 1972-yilning 11-dekabr va 1973-yilning 29-yanvarida Rahim Vohidovga yo‘llagan maktublari aytilganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatli. Har ikkala xatning bir oydan ortiqroq vaqt mobaynida yozilgani va ularda asosan Rahim Vohidovga tavsiya etiladigan mavzu masalasidan bahs etilganiga e‘tibor qaratilsa, shogirdga ilm olamida qiladigan parvozi uchun chinakam g‘amxo‘r rahnamo in‘om etilganiga ishonch hosil qilinadi. Ustoz Botirxon Valixo‘jayev Suhayliyning hayoti va ijodi uchun tayyorlangan dissertatsiyada bahs etilgan o‘zaro adabiy ta’sir masalasidan kelib chiqib, o‘zbek va fors-tojik adabiy aloqalari, adabiy ta’sir masalasini o‘rganishga shogirdlarini tayyorlab boradilar. Buning uchun xamsachilik an‘anasi va Alisher Navoiy “*Xamsa*”sini tadqiqot obyekti sifatida tanlash mumkin edi, albatta. Shu bois dastlabki maktubda fors-tojik va o‘zbek tillarida bitilgan Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda XIV asrda yaratilgan Xoja Kirmoniy va XVI asrda yozilgan Abdubek Sheroziy xamsalarini sinchiklab o‘rganish tavsiya etiladi. Bundan xamsaning vujudga kelishi sabablari, XII asrda vujudga kelgan xamsa o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan epik poeziyaning qaysi jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgani va tadrijiy taraqqiyoti, xamsada tarixiy mavzu va shaxslarga murojaat, romantika va realizm masalalarini o‘rganish nazarda tutiladi. Ustoz Botirxon Valixo‘jayev o‘z maktublarida tadqiqot jarayonida kelib chiqadigan boshqa masalalarni maslahatlashib borishlarini ma’lum qiladilar. Keyingi maktubda ham shogirdga tavsiya etiladigan mavzu aynan keltirilmasa-da, unda qo‘yiladigan masala taniqli adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetovning doktorlik dissertatsiyalari va keyingi kitoblari mavzusiga yaqin bo‘lib qolishidan xavotir ifoda etilgan. Shunday bo‘lsa-da, Rahim Vohidovga tavsiya etiladigan mavzu markazida ham Alisher Navoiy ijodi turishi ta’kidlanib, unda ulug‘ shoirning epik poeziyadagi uslubi masalasiga e‘tibor qaratish nazarda

tutilganligi aytib o‘tiladi. Ustoz Botirxon Valixo‘jayev bu tavsiyalar bilangina Rahim Vohidovning bo‘lg‘usi tadqiqotlari mavzusini uzil-kesil hal qilib qo‘ymaganlari sezilib turadi. Maktubda maydonni kengroq olish tavsiya etiladi. Buning uchun ustoz tomonidan tanlangan tamsil nihoyatda ibratlidir. Unda shunday deyiladi: “... *parvoz maydonchasini qancha kengaytirsangiz, shuncha yaxshi. Sizga ma‘lumki, parvoz maydonchasi kichik bo‘lgan samolyotlarning yuki ham yengil, ham mahalliy marshrutda yuradi. Maydoni kengning yo‘li ham uzoq, yuki ham og‘ir. Siz ham uzoq yo‘lni ma‘qullarsiz. Meni tushungan bo‘lsangiz kerak*”.²⁴ Ustoz Rahim Vohidovda, tabiiyki, bunday ishoralarni tushunish malakasi ancha oldin shakllanib bo‘lgandi. Shu bois u kishi ulug‘ ustozning tavsiyalariga ko‘ra maydonni keng olishga jazm etdilar.

Ilmning ko‘ngildan ko‘ngilga o‘tishining nishonasi ustoz ishoralarining shogird tomonidan teran anglashilishida namoyon bo‘ladi. Yuqorida tilga olingan dastlabki maktubdagi shunday bir ishorani Rahim Vohidovning izohlarisiz anglab bo‘lmaydi. To‘g‘ri maktublarda qisqalikka intilish ustuvor bo‘lgani bois u yo‘llangan kishiga tanish bo‘lgan qisqartmalardan iborat bo‘la oladi. Chunonchi, unda nomlari keltirilgan shaxslarning kimligi haqidagi tasavvurlar muayyan chegara doirasida qolaveradi. Izohlar esa bularga aniqlik kiritadi. Biroq biz nazarda tutgan maktubdagi ishora tamoman boshqacha, unda yuqorida aytib o‘tilgan tavsiyalardan so‘ng Vohid Abdullayevning yubileyleri munosabati bilan to‘plam nashr qilinayotgani xabar qilinib, daf‘atan: “*Sizni “unaqa deb qo‘ygan” ekanlar*”²⁵ deyiladi-da, buning uchun shogirdlariga ishonch bildirilgani, shu bois unday-bunday, katta-kichik deb o‘tirmay, jamoa ishonchini oqlashga bor kuchni sarflash lozimligi, buning uchun jamoa manfaati birinchi o‘rinda tutilishi kerakligi aytib o‘tiladi. Bu ishoralardan qandaydir masala qo‘yilgani qisman anglansada, unda aynan nimaning nazarda tutilganligi mavhumligicha qolaveradi.

Izohdan ma‘lum bo‘ladiki, Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kafedrası jamoasi ustoz Rahim Vohidovni kafedra mudirligiga tavsiya etishgan ekan. Maktub matnidagi ishoralardan ustozning kafedrada yoshi katta, tajribali kishilar borligidan istihola qilayotganlari ma‘lum bo‘ladi. Tabiiyki, fan nomzodi ilmiy darajasiga yaqindagina ega bo‘lgan 30 yoshli, navqiron tadqiqotchi-pedagog uchun bu mas‘uliyatli vazifada ishlash ancha murakkab tuyulardi. Buni

²⁴ Вохидов Р. Жўнатилмаган хат. “Бухоро”, 2009, 13-бет.

²⁵ O‘sha kitob, 12-bet.

qalbdan his etgan ustoz Rahim Vohidov Botirxon Valixo‘jayevning o‘git-u nasihatlariga tayanib, bir muddat – besh yil davomida, 1977-yilga qadar kafedra mudiri sifatida ham faoliyat olib bordilar. Ustoz Botirxon Valixo‘jayev shogirdlarining himoyadan so‘ng e‘lon qilingan ishlarini nazarda tutib, dotsentlikka ham ariza berishni tavsiya etadilar. Shunday qilib, 1972-yildan boshlab Rahim Vohidovning ilmiy-pedagogik faoliyatlarida yangi bosqich boshlanadi. Ustozdan shaxsiy rejalar qolibida qolib ketmay, ilmiy-pedagogik faoliyatlari bilan bir qatorda jamoa dardi, uning rejaları, maqsadlari bilan ham yashashga moslashish talab etilardi. Masalaning ikkinchi jihati ham mavjud. Ba‘zan bunday lavozimlar kishini shaxsiy ilmiy-pedagogik faoliyatidan tamomila ajralib qo‘lishiga ham olib keladi. Mudirlik lavozimi boshqalarning mehnatidan foydalanishga yoki ularning mehnatiga sherik bo‘lishdan tap tortmaslikka o‘rgatib qo‘yishi mumkin. Biroq Rahim Vohidovda bunday holatlarning kuzatilishi mumkin emas edi. Negaki, ustozda ilm olish, ilm izlash mashaqqatlarini his qilish bilan bir qatorda, u kishida ilm izlashdan lazzatlanish tuyg‘usi ham kerakligicha shakllanib ulgurgan edi. Ayni choqda ustoz uchun yoshlar bilan birga ishlash, ularga saboq berish umrlarining mazmuniga aylanib bo‘lgandi. Masalaning yana bir tomoni, tabiiyki, Rahim Vohidovning ilmiy-pedagogik faoliyatni o‘zi uchun qismat, shunchki qismat emas, saodatli qismat deb bilib, undan haqiqiy ma‘noda saodat topishga muyassar bo‘lgan Vohid Abdullayev, Botirxon Valixo‘jayev singari ustozlari borligida namoyon bo‘lardi. Xususan, Botirxon Valixo‘jayev bilan tez-tez sodir bo‘lib turgan muloqotlar, yozishmalardagi tavsiyalar ustozni asl maqsaddan chetlashtirolmas, eng muhimi, ustoz-shogirdlikdagi ilmning ko‘ngildan ko‘ngilga o‘tish holi shogird xayolida undan ayro tushishni yo‘latolmasdi. Ana shunday ko‘rinmas rishtalar bilan bog‘langan ustoz-u shogirdlik Rahim Vohidovda o‘tgan asrning 70-yillaridayoq o‘z ilmiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilab olib, bir qator muvaffaqiyatlarni qo‘lga iritishda zamin hozirladi.

Ustozning bu boradagi jiddiy faoliyatlari Shayxim Suhayliy haqidagi risoladan so‘ng ulug‘ ustoz Botirxon Valixo‘jayev bilan hamkorlikdagi ishlarida namoyon bo‘la boshladi. Ustoz-u shogirdni o‘zbek va tojik adabiyotining atoqli namoyandasi Sadriddin Ayniy tavalludining 100 yilligini munosib kutib olishga qaratilgan rejalar hamkorlikka undadi. 1975-1976-yillarga tegishli Botirxon Valixo‘jayev xatlarining biridan bu ishga ancha erta kirishilgani anglashiladi. Ma‘lum bo‘lishicha, Sadriddin Ayniyning Alisher Navoiy forsiy devoni va

“Xamsa”si ustida olib borgan tadqiqoti ustida izlanishlar olib borishga jazm etilgan. Maydonni keng olishga odatlangan ustoz Botirxon Valixo‘jayev bu borada ham o‘sha tamoyilga amal qilishga kirishdilar. Ikki tilda so‘zlashuvchi bir xalq sifatida tavsiflangan o‘zbek va tojiklarga xos samimiy do‘stlik rishtalarini Sadriddin Ayniy misolida yanada mustahkamlash maqsadida adibning Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlari haqida o‘zbek va tojik tillarida ikki risola yozish rejası tuzildi. Taniqli yozuvchi yubileyigacha oldında 2-3 yillik muddat mavjud bo‘lsa-da, o‘sha davrning imkoniyat-u sharoitlari bunday rejalarni oldından tuzib qo‘yishni taqozo etardi. Tayyorlanayotgan yoki chop etish holida bo‘lgan kitobni nashr etish uchun muayyan bir nashriyotning rejasiga oldından kiritib qo‘yish talabi mavjud edi. Tojikistondagi “*Irfon*” nashriyoti va u yerlik olimlar bilan o‘tkazilgan muzokaralar natijasi o‘z samarasini ko‘rsatdi. Ustoz Botirxon Valixo‘jayevning 1975-yilning 1-mayida bitilgan maktublarida shunga ishoralar mavjudligi kuzatiladi: “*Siz Suhayliyni yozavering. Dushanbe bilan kelishildi. Endi Sadriddin Ayniy va Navoiy masalasi qanday bo‘lyapti? Yana dog‘da qolmaylik. Bu haqda xabarlasharsiz, degan umiddaman*”²⁶, – deyiladi maktubda.

Xatdagi muxtasar ma‘lumotda ustozning “*Suhayliy*” nomli risolalari hali nashr etilmaganligi-yu, domlaning dissertatsiya himoyasidan so‘ng tadqiqotdagi ma‘lumotlarni ixchamlashtirib, ularni bir risola holida tayyorlash bilan shug‘ullanayotganlari, “*Dushanbe bilan kelishil*”gani xabaridan Sadriddin Ayniy haqida yoziladigan tojikcha, “*Sadriddin Ayniy va Navoiy masalasi*”dan esa xuddi shunday o‘zbekcha risolaning nashriyot rejasiga kiritilgani nazarda tutiladi. Ko‘rinadiki, ustoz Rahim Vohidovning dastlabki kafedra mudiri sifatida faoliyat olib borayotgan yillari ham qizg‘in ilmiy-pedagogik jarayon bilan uyg‘unlikda kecha boshladi, bu, albatta, kafedra jamoasiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmadi.

O‘tgan asrning 30-yillarida Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash maqsadida bir qator olimlar jamoasi tomonidan ulug‘ shoir asarlari ustida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ularda shoir asarlarini ommalashtirishga alohida e‘tibor berildi. Ayni yillarda taniqli yozuvchi Sadriddin Ayniy Alisher Navoiy “*Xamsa*”sining tanlanma matnini tayyorlash ishiga jidd-u jahd ko‘rsatdi. Buning uchun “*Xamsa*” dostonlaridagi voqeylikni nasrda qayta hikoya qilish,

²⁶O‘sha kitob, 14-bet.

baytlarning nasriy bayonini o'sha davr kitobxoni tushunadigan tilda shakllantirish, tarixiy shaxs, mifologik, afsonaviy obrazlar, tushunilishi murakkab bo'lgan diniy-tasavvufiy, ilmiy, san'at sohasiga oid tushuncha, ramzlar va joy nomlarini izohlash singari ishlarni amalga oshirish talab etilardi. Sadriddin Ayniy 1939-yilda lotin yozuvidagi o'zbek alifbosida tayyorlab, chop ettirgan Alisher Navoiy "Xamsa"sining tanlama matnida yuqorida ayrimlari qayd etilgan vazifalarni qomusiy olim sifatida nuqtadonlik bilan bajardi. Shuningdek, u "Devoni Foni" borasida ham qizg'in izlanishlar olib bordi. Sadriddin Ayniyni o'zbek va fors-tojik mumtoz adabiyotini teran anglash qobiliyati ushbu vazifani ado etishda qo'l keldi. Ustoz Botirxon Valixo'jayev va Rahim Vohidovlar tomonidan dastlab tojik tilida tayyorlanib, Dushanbeda chop etilgan "*Muhaqqiqi buzurgi du adabiyot*"²⁷ ("Ikki adabiyotning buyuk tadqiqotchisi"), keyinchalik o'zbek tilida Toshkentda nashr etilgan "*Alisher Navoiy ijodi – ilhom manbayi*"²⁸ nomli risolalarda taniqli olim faoliyatining ayni jihatlari ilmiy o'rganilib, munosib baholandi. Ustoz-shogird orasida voqeylangan bunday hamkorlik katta tajriba egasi bo'lgan ko'ngildan iste'dodli olim sifatida tanilib borayotgan tadqiqotchi ko'ngliga o'tish darajasini yanada oshirdi. Bu yillar davomida ustoz Rahim Vohidov dotsent (1975) ilmiy unvoniga ham munosib ko'rildilar. Domla 1978-1979-yillarda fakultet dekani o'rinbosari sifatida faoliyat olib bordilar.

Ustozning talabalik yillarida Toji Qorayev bilan bog'langan ma'naviy aka-ukalik rishtalari ayni yillarda ularni ilmiy hamkorlikka chorladi. Ustoz va Toji Qorayev ijodkorlar, xususan, mumtoz shoirlar tomonidan alohida ahamiyat beriladigan taxallus masalasi, uning adabiy-estetik, ijtimoiy-siyosiy mohiyati bilan qiziqqa boshladilar. Bu borada ilmiy-usuliy maqola e'lon qilish bilan boshlangan faoliyat izlanishlar samarasini risola holidagi chop etish, taxalluslar lug'atini tuzishni taqozo qilardi. Masala mohiyatini teran o'rganishga kirishildi. Ayni masala yuzasidan jahon adabiyotshunosligida amalga oshirilgan ishlar o'rganilib, o'zbek adabiyotshunosligi bilan qiyoslandi. "*Taxalluslar*"²⁹ nomli risolada taxallusning paydo bo'lish sabablari, tarixi, ijtimoiy-estetik vazifasi xususida muhim ma'lumotlar keltirildi. Taxallusning nom, laqab, kunya va unvondan farqli jihatlari va uning bularga munosabati, taxallus qo'llashdagi individuallik, jamoa holatida

²⁷ Б.Валихўжаев Б., Воҳидов Р. Муҳаққиқи бузурги ду адабиёт. -Душанбе: "Ирфон", 1979, 58 б.

²⁸ Б.Валихўжаев Б., Воҳидов Р. Муҳаққиқи бузурги ду адабиёт. -Тошкент: "Фан", 1981, 74 б.

²⁹ Қораув Т., Воҳидов Р. Тахаллуслар. -Тошкент: "Фан", 1979, 68 б.

olinadigan taxalluslar, ijodkorning shaxsiy fazilatlariga mos keluvchi taxalluslar, ijodkorning tavallud topgan yoki nash'u namo togan joyi nomidan kelib chiquvchi taxalluslar, bir ijodkorning bir necha taxallus qo'llashi, shuningdek, bir necha ijodkorning bir taxallusni qo'llashlari kabi hodisalar chuqur tahlil etilib, ularning nazariy asoslari dalillandi. *"Adabiy taxalluslar lug'ati"*³⁰ da esa *"Adabiy taxalluslar tarixiga doir"* nomli maqoladan so'ng o'rta umumta'lim maktabi Adabiyot darsliklaridan o'rin olgan 92 ijodkor taxallusining izohi keltirildi. Ma'lumki, mumtoz shoirlar asarlari, xususan, tazkiralarda *"shayx"*, *"ustod"*, *"maxdum"*, *"mavlono"* (*"mavlaviy"*) singari unvonlarning, shuningdek, ijodkorning quvvayi hofizasi, tafakkur doirasi, badiiy mahorati darajasi va boshqa xislat-fazilatlarini ko'rsatuvchi sifatlovchilarning taxalluslar oldidan qo'llanilishi kuzatiladi. Ayni hodisaning o'ziga xos an'ana ekanligi ishda dalillanib, bu boradagi nazariy qarashlar umumlashtirildi.

Ustoz Rahim Vohidov va Toji Qorayev ushbu masalani yaxlit bir tadqiqot doirasida o'rganishgan. Ilmiy izlanishlarning ikki risola holida chop etilishini ustoz Oxunjon Safarov va Hilola Safarovalar quyidagicha izohlaganlar: *"Aslida ular yaxlit bir tadqiqot edi. Nashriyotdagi ayrim xodimlarning tixirligi tufayli taxalluslarning ijtimoiy-estetik mohiyatidan bahs etuvchi nazariy qismi alohida va taxalluslar lug'atidan iborat qismi birmuncha qisqartirilgan holda alohida risolalar sifatida ikkita nashriyotda chop etilgan"*³¹. Ushbu kitoblarning qay holatda nashr etilishidan qat'i nazar Toji Qorayev bilan amalga oshirilgan ilmiy hamkorlik ham ustozga ulug' ustoz Botirxon Valixo'jayev tavsiya etgan *"maydonni keng olish"*ga ma'lum ma'noda daxldorligi bilan ahamiyat kasb etdi. Negaki, taxalluslar, kunya, ularga birikib keluvchi *"shayx"*, *"ustod"*, *"maxdum"*, *"mavlono"* (*"mavlaviy"*) singari unvonlar hamda ijodkorlarning o'zigagina xos sifatlari masalasi *"Majolis un-nafois"*, *"Nasoyim ul-muhabbat"* singari ishonchli manbalar vositasida tadqiq etildi. Bu kabi manbalar vositasida Husayn Boyqaro singari hukmdorlar tomonidan tashkil etilgan *"oliy majlis"*lardagi va boshqa shunga o'xshash yig'inlardagi adabiy davralarda o'zbek, tojik shoirlari orasida ijodiy jarayonda sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir va adabiy aloqalardan ham bahs etib turilganidan xabardor bo'lish mumkin edi.

³⁰Қораев Т., Воҳидов Р. Адабий тахаллуслар ҳақида. -Тошкент: "Ўқитувчи", 1978, 58 б.

³¹ Сафаров О., Сафарова Ҳ. Навоийга талинган юрак. Бухоро давлат университети нашриёти, 2002, 61-бет.

O'tgan asrning 80-yillari ustoz Rahim Vohidov hayotlarining ilm olishda bahramandlik salmog'idan ilmda bahra ulashish ko'lamining tadrijiy ortib borish davri sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan fasli bo'ldi. Tabiiyki, ayni davrda ham ustoz Botirxon Valixo'jayevning tavsiyalari asosida ish tutildi, ustoz ko'nglidan ulashilgan ilm ziyosidan bahra olish jarayonlari oldingi davrdagidan sira ham kamaymadi. Aksincha, ayni jarayon ham yillar davomida o'sib, toki ustoz Botirxon Valixo'jayevdan bu foniyl dunyoda ayro tushish onlariga qadar (2005) bardavom bo'ldi. Shu bilan bir qatorda ushbu jarayon o'zining bo'liq samaralarini ko'rsata bordi. Natijada bahramandlik salmog'idan bahra ulashish ko'lamining kengayib borgani o'zini namoyon qila boshladi. Ustoz 80-yillarning oxiriga qadar kafedra dotsenti lavozimida faoliyat yuritish bilan kifoyalandilar. Mansab pillapoyalaridan odimlash o'rnida ilmiy mulohaza yuritishda to'plangan tajribalarga tayanib, *"maydonni keng olib"* ishlashga kirishildi.

Shayxim Suhayliy haqida yozilgan dissertatsiya va risola, ustoz Botirxon Valixo'jayev bilan hammualliflikda tayyorlangan Sadridin Ayniy haqidagi o'zbek va tojik tillarida bitilgan ikki risola, Toji Qorayev bilan hamkorlikda tayyorlangan taxalluslar haqidagi risola va lug'atlar ustoz Rahim Vohidovni chinakam ma'nodagi o'zbek va fors-tojik adabiyotining bilimdoni, zahmatkash tadqiqotchisi sifatida tanitdi. Endi bu borada rahnamolik qiluvchi ulug' ustozning tavsiyalariga binoan *"maydonni keng olish"* uchun tadqiqot markazida Alisher Navoiy ijodi turgani holda, avvalo, bu ulug' shoirning piri Abdurahmon Jomiy bilan ikkala ijodkorning o'zaro munosabatlari, Xuroson poytaxti Hirotda yaratilgan adabiy muhitning shakllanishi, taraqqiyotida ularning o'ni, bu adabiy muhitdagi zullisonaynlik, o'zbek – fors-tojik bilingvizmi, ayni adabiy hodisaning genezisi, taraqqiyot tamoyillari, Alisher Navoiy ijodining keyingi davr fors-tojik tilida qalam tebratgan shoirlar ijodiga ta'siri masalasini o'sha davr mafkurasi nuqtayi nazaridan yondashilgan holda o'zaro adabiy ta'sir va adabiy aloqalar tarzida ilmiy tadqiq qilishga kirishish lozim edi. Qo'yilgan masala nihoyatda dolzarb bo'lib, o'sha davrda ushbu mavzuning qaysidir jihatini yoritishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ko'zga tashlanardi. Masala mohiyatini keng qamrovda, tizimli holatda yoritish uchun asrlar davomida fors-tojik va o'zbek tilida bitilgan tazkiralar, tarixiy, memuar asarlar, devonlar, epik poeziya namunalari, o'zaro yozishmalar, Alisher Navoiy *"Majolis un-nafois"* tazkirasi va holotlarining forsiy tarjimalarini sinchiklab o'rganish, ulardan mavzuga oid ma'lumot-u adabiy parchalarni ajratib

olish, tasniflash, tahlil qilib, muhim ilmiy-nazariy xulosalarni bayon qilish kabilar olib borilishi nazarda tutilgan tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalari sirasida turishi lozim edi. Shu bilan bir qatorda o'zbek va fors-tojik mumtoz adabiyoti namunalarini ikki adabiyot sifatida talqin qilish nihoyatda shartli adabiy-estetik hodisa bo'lib, ikki tilda bitilgan adabiy asarlar ayni sarchashmadan oziqlangani bois ularda g'oyaviy uyg'unlikning mavjudligi yaqol ko'zga tashlanib turardi. Biroq ayni holatni davr mafkurasi nuqtayi nazaridan yondashilib, tadqiqot muallifi tushungan holatda emas, balki ko'proq o'zaro ta'sir va adabiy aloqalar fondida yoritish talab etilardi. Shunday bo'lishiga qaramay ushbu mavzuni tavsiya etgan ustoz undan muhim ilmiy-nazariy xulosalarga kelish mumkinligiga qat'iy ishonardilar.

Ustoz Rahim Vohidov o'zbek va fors-tojik tillarida bitilgan mumtoz asarlardagi g'oyaviy uyg'unlik, o'ziga xoslik, adabiy aloqa va o'zaro ta'sir masalalarini tizimli o'rganishni ilmiy faoliyatlarining eng muhim yo'nalishi sifatida tanladilar. Bu boradagi izlanishlar *"XV asrning birinchi yarmi XVI asrning boshlari o'zbek va fors-tojik adabiyotlarining o'zaro aloqasi (tarixiy-tipologik sathda)"* mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining vujudga kelishi, himoya qilinishi bilan yuksak pag'onaga ko'tarilib, yangi qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan davom etishi lozim edi. Ko'zlangan maqsad ustozning uzoq yillik ilmiy faoliyatlari doirasida o'zining samarasini ko'rsatdi. Buning uchun 1983-yilda chop etilgan *"XV asrning II yarmi, XVI asrning boshlarida o'zbek-tojik she'riyati"*³² nomli monografiya dastlabki muhim qadam bo'ldi. Ustozning ayni mavzu bilan tizimli holatda qachondan shug'ullana boshlaganliklari xususida aniq bir fikrni aytish qiyin. Shunday bo'lsa-da, ulug' ustozning shogirdlari nomiga yo'llangan maktublarning biriga tayanib, muayyan xulosaga kelish mumkin, deb o'ylaymiz. Nazarda tutilgan xat 1981-yilning 6-oktabrida yozilgan.

Ustoz Botirxon Valixo'jayev nomlaridan bitilgan bu maktubning umumiy mazmunidan yuqorida nomi tilga olingan monografiyani sinchiklab nazardan o'tkazish asnosida tug'ilgan mulohazalar qayd etilganligi sezilib turadi. Unda dastlab kitobda mayda detallarga ko'p urg'u berilganiga etibor qaratilib, ularning turli xil munozaralarga sabab bo'lishi ta'kidlanadi va mayda detallar bilan bog'liq mulohazalarni imkon qadar qisqartirish tavsiya etiladi. Muallifning kitob hajmini ixchamlashtirish bilan bog'liq iltimosidan kelib chiqib xatda bir qator

³²Вохидов Р. XV асрнинг II ярми, XVI асрнинг бошларида ўзбек-тожик шеърляти.-Тошкент: "Фан", 1983, 143 б.

maslahatlar qayd etiladi. Ular bilan tanishish asnosida xat muallifining akademik ilmiy uslub tarafdori ekanligi, buning uchun katta hajmli kitobda ortiqcha takrorlardan saqlanishga alohida e'tobor qaratishi va ayni maqsaddan kelib chiqib tahrir qilishga yo'naltirilgan monografiyaning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qiluvchi eng muhim tavsiyalarni nihoyatda aniqlik bilan muxtasar ishora-yu jummalarda ifodalashi sezilib turadi. Monografiya 160 sahifadan kam bo'lmagan hajmda tayyorlangan bo'lib, 4 bobdan tarkib topgan. Ustoz Botirxon Valixo'jayev uni 3 bob holida 140-150 sahifa hajmga keltirish uchun kitobning 160-sahifagacha bo'lgan cho'zilib ketgan mulohazalar-u takrorlarning oldini olish maqsadida quyidagilarni tavsiya etadilar: "a) *"Kirish"*ni 3-5 betga keltirsangiz; b) I bobni (manbalarni) – 20 betga sig'dirsangiz; d) II va III bob (janrlar, zullisonaynlik)larni birlashtirib, qaymog'ini qoldirib, 25-30 betga keltirsangiz – ham takror masalasi, ham hajm masalasi hal bo'ladi-qoladi"³³. Bunday qisqartirishlarni amalga oshirish uchun XV asrning ikkinchi yarmi materiallariga ko'proq diqqat qaratish, ularni ko'proq saqlagan holda hozirgi zamonga oid faktlarni me'yori bilan ishlatish, Husayn Boyqaro va Shohg'arib Mirzoga bag'ishlangan sahifalarni ham ixchamlashtirib, uning o'rniga Lutfiy-Jomiy (Lutfiy matlasini vasiyatiga ko'ra g'azal holida tugatib, Jomiyning o'z devoniga kiritgani), Jomiy-Navoiy ("Koshki" misolida) va "Majolis"dagi 39 zullisonayn shoirdan misollarni yanada ko'proq kiritish kabi aniq tavsiyalar beriladi. Ta'kidlash lozimki, ushbu tavsiyalarga dasturulamal sifatida qaralganini monografiyaning 3 bob holida tayyorlab, 1983-yilda nashr etilganidan ham sezish mumkin.

"XV asrning II yarmi, XVI asrning boshlarida o'zbek-tojik she'riyati" nomli monografyaning muhim fazilatlaridan biri shundaki, unda davr adabiyotidagi o'zbek va fors-tojik adabiy aloqalari hamda o'zaro ta'sir masalasi, uning zullisonaynlik, mulamma' – shir-u shakarda ijod qilish singari ko'rinishlarini o'rganish nuqtayi nazaridan Alisher Navoiyning *"Majolis un-nafois"* tazkirasiga ishonchli va qimmatli manba sifatida qaraldi. XVI asrning birinchi choragida ushbu tazkiraning Sulton Muhammad Faxriy Hirotiy va Muhammad Hakimshoh Qazviniylar tomonidan tarjima qilinishi, tarjima jarayonida muayyan qisqartirishlar bilan bir qatorda, asliyatda mavjud bo'lmagan yangi faktik ma'lumotlarni tarjimalarda ilova qilinishi ushbu tarjimalarga ham murojaat qilishni taqozo qildi. Ta'kidlash lozimki,

³³ Воҳидов Р. Жўнатилмаган хат. "Бухоро", 2009, 18-бет.

“*Majolis un-nafois*”ning tarjimalari ham monografiyada qo‘yilgan masalani ilmiy tadqiq etish uchun asosiy manbalar safidan joy oldi. Shu bois ustoz doktorlik dissertatsiyani tayyorlash oldidan “*Majolis un-nafois*” tarjimalarini keng miqyosda o‘rganishga kirishdilar. Natijada shu nom bilan ataluvchi muqaddima, 5 asosiy fasl va xotimadan tarkib topgan yana bir risola tayyorlanib, 1984-yilda nashr etildi³⁴. Risolaning “*Faxriy va uning “Latofatnomasi”, “Ustoz saboqlariga shogird javobi”, “Tarjima va ta’sir”* singari fasllarida Faxriy Hirotiy va “*Majolis un-nafois*” *Hakimjon Qazvinij tarjimasida*” va “*Sakkizinchi bihisht*” – *ustozga sadoqat ramzi*” fasllarida esa keyingi tarjimon asari tahlilga tortildi.

Ustozning bunday izlanishlar bilan shug‘ullanishlarida, avvalo, himoyaga olib chiqilishi ko‘zda tutilgan doktorlik dissertatsiyasini yangi materiallar bilan boyitish nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘zbek va fors-tojik adabiy aloqalari, adabiy ta’sir negizida shu yo‘nalishning yangi bir tarmog‘iga – *mumtoz asarlar tarjimalarini tadqiq etish, tarjimashunoslik* bilan shug‘ullanishga ham zamin hozirlandi. Shu bois ustoz doktorlik dissertatsiyasi himoyasidan ko‘p o‘tmay, adabiyotshunos M.H.Qosimova bilan hammualliflikda “*Alisher Navoiy “Xamsat ul-muttahayyirin” asarining tojikcha tarjimalari*”³⁵ nomli risolani tayyorlab chop etdilar. *Muqaddima, “Ibratli umr sahifalari”, “Xamsat ul-muttahayyirin”ning birinchi tojikcha tarjimasi haqida*” “*Nashr yangi, ammo mukammal emas*” nomli uch fasl va xotimadan tarkib topgan ushbu risolada Tojikiston FAsining muxbir a’zosi, taniqli adabiyotshunos va mutarjim Abduqodir Maniyozovning 1961-, 1989-yillarda amalga oshirgan “*Xamsat ul-muttahayyirin*”ning tarjimalari asos qilib olindi. Risolaning uchinchi faslini dotsent Munira Qosimova, muqaddima hamda birinchi va uchinchi fasllarni esa ustoz Rahim Vohidov, xotimani hamkorlikda yozgan edilar. “*Majolis un-nafois*” va “*Xamsat ul-muttahayyirin*”ning tarjimalari ustida olib borilgan kuzatishlar shu bilan nihoyasiga yetmadi. Ustoz bu boradagi izlanishlarini davom ettira bordilar. Natijada har ikkala asarning yaratilishi tarixi, tuzilishi, o‘ziga xos xususiyatlari, ularda va “*Majolis un-nafois*” tarjimalarida XV asrdagi zullisonaynlik an’anasi talqini, ayni adabiy hodisaning tadrijiy taraqqiyotida XIV asr shoirlarining o‘rni, “*Xamsat ul-muttahayyirin*” tarjimalari, asliyatning tarjimada ifodasi

³⁴ Вохидов Р. “Мажолис ун-нафоис” таржималари.-Тошкент: “Фан”, 1984, 72 б.

³⁵ Вохидов Р., Қосимова М. Аишер Навоий “Хамсат ул-мутаҳаййирин” асарининг тожикча таржималари. Бухоро, 1990, 91 б.

singari masalalarni qamrab olgan “*Navoiyning ikki durdonasi*”³⁶ nomli salmoqli risola³⁷ vujudga keldi. Risola muqaddima “*Inson va ijod dardidagi hamkorlik*”, “*Qardoshlik ko‘ngillararo ko‘prikdir*”, “*Kim atlas to‘n yarashur bo‘lsa mu‘lam*”, “*Mug‘anniy bu g‘azalni qildi og‘oz*” singari fasllar va xotimadan tarkib topgan. Muqaddimada har ikkala asarning o‘rganilishi tarixi, xususan, “*Xamsat ul-muttahayyirin*”ning nashrlari, uning tarjima qilinishida kuzatilgan oqsoqliklar hamda risolada “*Majolis un-nafois*” misolida o‘zbek va fors-tojik adabiyotida zullisonaynlik masalasini o‘rganish nazarda tutilgani xususida fikr yuritiladi. Risolaning birinchi faslida bevosita “*Xamsat ul-muttahayyirin*”ga e‘tibor qaratiladi. Uning nomlanishi, tarkibiy tuzilishi, undagi ma‘lumotlarning Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning hayoti, ijodini o‘rganishdagi ahamiyati, jumladan, ustoz-shogirdlik rishtalarining bog‘lanishining ibtidosi, ilk uchrashuvning sodir bo‘lishi kabi masalalar ilmiy tahlil etiladi. Risolaning ikkinchi faslida esa “*Xamsat ul-muttahayyirin*”ning tojikcha tarjimasi bilan tanishtiriladi, undagi yutuq va nuqsonlar xususida atroflicha mulohaza yuritiladi. “*Kim atlas to‘n yarashur bo‘lsa mu‘lam*” nomli risolaning uchinchi faslida “*Majolis un-nafois*”da zullisonaynlik masalasiga diqqat qaratiladi. Jumladan, Yusuf Amiriyning o‘zbek va fors-tojik tilida ijod qilgan shoir ekanligi, uning lirik merosi, “*Chog‘ir va Bang*” munozarasi, ushbu munozara tarkibidan shoirning 35 misralik fors-tojik tilidagi she‘rlarining o‘rin olgani singari jihatlar yoritiladi. Shuningdek, zullisonaynlik tarixida Sayfi Saroyi va Xorazmiyning tutgan o‘rni, har ikki shoirning tojikcha she‘rlari xususida so‘z yuritiladi. “*Mug‘anniy bu g‘azalni qildi og‘oz*” faslida esa Sayyid Ahmad Mirzo, Mavlono Yaqiniyning ikki tildagi ijodi, Yaqiniyning “*O‘q va Yoy*” munozarasi, shuningdek, “*Majolis un-nafois*”ning sakkizinchi majlisidan o‘rin olgan Husayin Boyqaro ijodining mohiyati xususida to‘xtaniladi, uning zullisonayn shoirliği “*Majolis un-nafois*”ning tarjimalari misolida ko‘rsatib o‘tiladi. Ko‘rinadiki, ustozning Alisher Navoiy asarlarining fors-tojikcha tarjimalari bilan shug‘ullanishlari tabiiy bir o‘zandan kelib chiqib “*Majolis un-nafois*”ning tarjimalari”, “*Xamsat ul-muttahayyirinning tojikcha tarjimalari*” va “*Navoiyning ikki durdonasi*” nomli risolalarining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

³⁶ Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси. —Тошкент: “Фан”, 1992, 116 б.

³⁷ Aslida monografiya deb nomlash mumkin, ustoz “risola”ni monografiya ma‘nosida ham talqin qilardilar, shu bois “monografiya” so‘zi mustaqillikdan keyingi kitoblarda deyarli qo‘llanmagan.

Ustozning 80-yillarda yangi o‘zbek adabiyotining taniqli vakillari ijodini ilmiy o‘rganishga ham kirishganliklari kuzatiladi. Bu davrda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Husniddin Sharipov she‘riyati bor jozibasini namoyon etish pallasida edi. Adabiy tanqidchilikda har uchala shoir ijodi borasida nihoyatda muhim mulohazalar birdirilishi davom etib turardi. She‘riyatga bo‘lgan muhabbat, mumtoz nazm namunalarini tadqiq qilish borasidagi izlanishlar samarasi sifatida ustozda she‘rni teran anglash ko‘nikmasi shakllanib, domlani nuqtadon she‘rshunos sifatida tanitgan edi. Yangi o‘zbek adabiyoti namoyandalari ijodiga munosabat bildirishda adabiyotshunos Mamlakat Hoshimova bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Natijada dastlab 1987-yilda yuqorida nomlari keltirilgan uch shoir ijodiga bag‘ishlangan *“She‘riyat – shoir yuragi”*³⁸ nomli risola vujudga keldi. Unda ijodkorlar asarlari talqinida o‘sha davr mafkurasining ta’siri sezilib tursa-da, badiiyat masalalari bilan bog‘liq muhim mulohazalar ham ifoda etilgan edi. *“She‘riyat – shoir yuragi”* chop etilgan davrda ustoz oldlarida turgan katta dovon – doktorlik himoyasi arafasida edilar. Shunday bo‘lishiga qaramay ustozning bu davr adabiyoti bilan shug‘ullanishda ham vaqt topa olishlari u kishiga xos qat’iy tartib asosida ishlash, mehnatsevarlik va ilmiy izlanishlardan lazzatlanish samarasi edi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan ustoz va M.Hoshimova o‘rtalaridagi ilmiy hamkorlik davom ettirildi. Mualliflarga shoirning ilm-ma‘rifat targ‘ibiga qaratilgan asarlari, uning tojik tilida bitilgan she‘rlari, ijodkorning lirik, ta’lim-tarbiya mavzusidagi she‘rlari va dramalarining tojikcha tarjimalari katta qiziqish uyg‘otdi. Buning samarasi sifatida 1989-yilda *“Ilhom chashmalari”*³⁹ kitobi nashr etiladi. Risola shoir haqida turli xil munozaralar bildiriladigan bir paytda yozilgani bois unda Hamzaning oila muhiti, tahsili, til o‘rganishga rag‘bati kabi jihatlariga ham e’tibor qaratiladi. Bu bilan uning milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanganligi, zamonasining o‘qimishli kishilaridan biri bo‘lgan, tabiblik bilan nom qozongan, shoirning otasi Ibn Yamin Niyoz o‘g‘lining bu borada xizmatlari beqiyosligiga e’tibor qaratildi. Ota o‘g‘liga nom berishda Muhammad (s.a.v.)ning amakivachchalarining ismini tanlagani yoxud bu nomning *“qaynoq”*, *“qizg‘in”*, *“otashin”*, *“o‘tkir”* singari ma’nolarni anglatishi, Hamza mashhur afsonaviy qahramonlardan birining nomi ekanligini, shuningdek, shirasi g‘oyat o‘tkir, kuydirish,

³⁸ Воҳидов Р., Ҳошимова М. Шеърят – шоир юраги. –Тошкент: “Фан”, 1987, -72 б.

³⁹ Воҳидов Р., Ҳошимова М. Илҳом сарчашмалари. –Тошкент: “Фан”, 1989, -72 б.

achitish xossalariga ega bo'lgan bir o't ham shu nom bilan atalishi-yu, bu o'tning chaqaloqni jin-u ajina, dev-u parilardan mufohaza qilishiga ishonilgani kabilarni nazarda tutgan bo'lishi mumkinligi haqida so'z yuritiladi. Hamzaning fors tilini erta o'rganishida oila muhiti ta'sirining alohida ahamiyatga ega ekanligi shoirning tarjimaiy holiga oid qaydlari misolida aniqlashtiriladi. Ijodkorning poliloglotlik xususiyati, uning o'z ona tili o'zbek tilidan tashqari fors, tojik, ozarbayjon, tatar, rus, arab tillarini ham bilgani, bu tillarning ko'pida maqsadini aniq ifodalay olgani qayd etiladi. Uning o'zbek va rus tillarda yozgan mulammalari, shunday xarakterdagi she'rlarida qardosh turkiy tillarga oid so'zlardan mahorat bilan foydalanishi, bu borada shoirning tojik tiliga murojaatining nihoyatda faolligi, uning zullisonayn shoir ekanligida tojik tilida yozgan she'rlarining alohida ahamiyatga ega ekanligi tahlillar asosida ko'rsatiladi. Risolada Hamzaning Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan sujetlarga murojaati uning 1914-yilda maktab o'quvchilari uchun yozilgan *"Toshbaqa bilan chayon"* masali tahlili misolida ko'rib o'tiladi. Masalning manbalari masalasini oydinlashtirish uchun hind eposi *"Panchantanra"*, uning fors va arab tillariga tarjimasiga, asarning *"Kalila va Dimna"* tarzda nom olishiga diqqat qaratiladi, shuningdek, Abdurahmon Jomiy, Muhammadsharif Gulxaniyning shu nomdagi asarlari qiyosiy sathda tahlil qilinib, ayni masalada shoirning Abdurahmon Jomiy asaridan ta'sirlanishida to'la imkoni bo'lganligi xususida so'z yuritiladi.

Ustoz M.Hoshimova bilan birgalikda ayni mavzuni yanada kengroq o'rganishga ham jazm ettilar. Shoirning 100 yillik yubileyi munosabati bilan matbuotda ko'pgina mulohazalarning bildirilishi, ular orasida bir-birini inkor qiluvchi qarashlarning mavjudligi, *"O'zbek tili va adabiyoti"* jurnalining 1989-yilgi 1-sonining to'laligicha shu shoir ijodiga atalganligi, *"Hamza Hakimzoda ijodi problemalari"* nomli jiddiy tadqiqotlar to'plamining, shoir *"To'la asarlar to'plami"*ning ilk bora tugal holda nashr etilgani, shuningdek, risola yuzasidan M.Qosimova, A.Xonovlar hammuallifligida *"Qardoshlikning musaffo chashmalari"*, *"Qardoshlik bergan ilhom"*, N.Oxunov va R.Tojiboyev hamkorligida *"Hamza ijodi haqida yangi tadqiqot"*, O.Safarov va G'.Murodovlar tomonidan *"Hamza ijodiga yangi bir nazar"* singari taqriz-maqolalarning vujudga kelgani, ularda bildirilgan taklif mulohazalar mualliflarni mavzuga qaytishga, qayd etilgan istaklarni baqadri hol hisobga olib, o'rta qo'yilgan masalalarni yanada chuqurlashtirishga undadi. Shuning natijasida oradan ikki yil o'tib,

mualliflar ilmiy hamkorligida *“Adabiy qardoshlik sarhad bilmaydi”*⁴⁰ nomli mavzu mohiyati ancha mufassal bayon etilib teranlashtirilgan, yangi ma’lumotlar bilan to’yintirilgan, hajmi oldingisidan ikki barobar salmoqli bo’lgan risola chop etildi. Bunda tahlangan adabiy parchalar tahlillarini teranlashtirish bilan kifiyalanmay, boshqa she’rlarga ham murojaat etildi. Shoirning arab tilini bilishiga oid ma’lumotlar kengaytirildi. *“Toshbaqa bilan Chayon”* tahlili jarayonida Hamzaning maktab, madrasa tahsili davrida *“Kalila va Dimna”*ning Husayn Voiz Koshifiy tahrir va tarjimasida shuhrat topgan nusxasidan ham xabardor bo’lganligi singari bir qator tahliliy fikr va ma’lumotlar kitobga kiritildi. Ustozning Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi yuzasida hamkorlikdagi bu ikki risolalari o‘zbek va fors-tojik adabiy aloqalari, adabiy ta’sir yo‘nalishining davomi sifatida ham, yangi davr o‘zbek shoirlari ijodini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham nihoyatda qimmatlidir.

Buxoroning nomini mashhur qilgan qadimiy madaniyati, tarixi, olim-u fuzalolari, ijodkorlari barcha buxorolik ziyolilar singari ustoz Rahim Vohidovni ham o‘ziga qahrabodek jalb qilgan. Bu muqaddas maskanda o‘tkaziladigan katta-kichik tadbir-u anjumanlar ustozni befarq qoldirishi mumkin emas edi. U kishi Toshkent, Samarqand, Dushanbe va boshqa shaharlarda tashkil etilgan bunday anjumanlarda qanchalik faol bo‘lsalar, Buxorodagi tadbirlarda ustozni undan o‘n karra faolroq tarzda uchratish mumkin edi. Abu Ali ibn Sino, Abduxoliq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Ahmad Donish, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitratga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy anjumandlar ustozni qanchalik o‘ziga jalb etgan bo‘lsa, shogirdlarning nomzodlik dissertatsiyalari mavzusi sifatida tanlangan Xo‘ja Ismattullo Buxoriy, Imlo Buxoriy, Sodiq Jondoriy, Shavkat Buxoriy, Muslihabegim Miskin ijodi ham u kishi uchun shu qadar jozibali sanalardi. Ustozning aynan o‘sha yillar: yuksak dovonni zabt etish – doktorlik dissertatsiyasi himoyasiga bir necha oy qolgan paytda Mahmud Tarobiy qo‘zg‘olonining – tom ma’nodagi xalq harakatining 750 yilligi munosabati bilan *“Qasoskorning nomi barhayot”*⁴¹, oradan ikki yil o‘tib esa yana ma’naviy aka Toji Qorayev bilan hammualliflikda Abu Ali ibn Sinoga bag‘ishlangan *“Avlodlar ta’zimi”*⁴² nomli risolalarini bunyodga keltirishlari, u kishining nihoyatda mehnatsevarliklari-yu, Najmiddin

⁴⁰ Воҳидов Р., Ҳошимова М. Адабий қардошлик сарҳад билмайди. –Тошкент: “Фан”, 1991, -144 б.

⁴¹ Воҳидов Р. Қасоскорнинг номи барҳаёт. -Бухоро, 1988, -30 б.

⁴² Қораев Т., Воҳидов Р. Авлодлар таъзими. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1984, -106 б.

Komilov e'tirof etganlaridek, chinakamiga *ilm navkariga*⁴³ aylanganlaridan dalolat berardi.

Ustoz Buxoroda yashab ijod qilib kelayotgan adib va shoirlar Muzaffar Tursun, Samandar Vohidov, Toshpo'lat Ahmad bilan tengdosh, Sadriddin Salim Buxoriy bilan nihoyatda samimiy, yaqin munosabatda edilar. Tengdoshlarning 60 yillik yubileyi birin-ketin tantana qilina boshladi, o'sha yili ustoz zamonaviy Buxoro adabiy muhitidan o'zlarini qarzдор hisoblab, shu shaharda turib, o'zbek adabiyoti zahmatini yelkasiga olgan bir nosir-u uch shoir haqida⁴⁴ risola yozishga kirishdilar. Unda dastlab Jondor tuman gazetasida yillar davomida muharrir sifatida faoliyat ko'rsatib, taniqli jurnalist va yozuvchi sifatida tanilgan Muzaffar Tursunning shaxs sifatidagi fazilatlari va ularning ijodiga ko'chishi, 500 dan ziyodroq hikoya, hajviya, pulisistik maqolalar, qissa va kichik sahna asarlarining muallifi ekanligi, bu asarlardan ayrimlarining mavzular olami, obrazlari, badiiyati, uslubining ravonligi xususida so'z yuritiladi. Yozuvchining nasrdagi dastlabki mashqi "*Siniq oyna*" hamda keyingi yigirma yil ichida birin-ketin nashr etilgan asarlari tanitiladi. Adibning yigirma ikki jiddiy hikoyasi va to'rt shingil hikoyalari hamda "*Zilzila*" qissasining O'tenbergen Beylepesov tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingani va ularda qalamga olingan masalalar, "*Oqar suv*" to'plamidan o'rin olgan "*Osmon ortidagi osmon ostida*" qissasi singari qator asarlari yuzasidan tahliliy mulohazalar bayon etiladi, yozuvchi asarlarining g'oyaviy-badiiy jihatdan barkamolligi misollar asosida dalillanadi.

"*Sunbula*" to'plami taniqli shoir Samandar Vohidov ijodida alohida adabiy hodisa sanaladi. Ustoz Rahim Vohidov ijodkorning shu nom bilan "*Sunbula*"dan o'rin olgan dostoni tahlili misolida Samandar Vohidovning badiiy manzara yaratish mahoratini, vatan istiqloli mavzusiga yangicha ruh bag'ishlaganini ko'rsatib o'tadilar. Shoir ushbu dostoni bilan o'zining chiroyli istiqlolnomasini yarata olgani tahlillar asosida qayd etiladi. "*Xotiralar qayta ochar yuz*" to'plamning katta bo'limlaridan biri bo'lib, undan tahlil jarayoniga tortilgan she'rlar asosida dostonida ko'tarilgan mavzular bu nazm namunalarida o'zining mantiqiy-tadrijiy davomini topgani, iste'dodli shoir ushbu she'rlari bilan o'z Vatannomasini g'oyaviy-badiiy jihatdan bezagani dalillanadi. Shoir g'azallarida an'anaviy mavzular bilan bir qatorda XX asrning dolzarb

⁴³ Комилов Н. Илм Навкари//. Филология масалалари – 6. -Тошкент: "Фан", 2013, 4-6-бетлар.

⁴⁴ Вохидов Р. Бир носир-у уч шоир хақида топганларим.-Бухоро, 2003, -88 б.

muammo, fojea, illat va dardlarini ifodalashda ijodiy yo‘l tutgani va bu borada muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritgani ta’kidlanadi.

Ustozning Toshpo‘lat Ahmad haqidagi bitiklarida shoirning talabalik yillari eslanadi. O‘sha davrlardagi yosh ijodkorning she’riyatga bo‘lgan qaynoq munosabati yodga olinadi. Iste’dodli shoirning uzoq yillar davomida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limini boshqarib kelayotgani e’tirof etilib, viloyatdagi ijodiy kuchlarni jipslashtirishga oid tavsiyalar beriladi. Kitobda shoirning “*Chor bakr*” va “*Gavhari jonim*” she’riy to‘plamlari mutolasidan kelib chiqqan mulohazalarga o‘rin beriladi. Ustoz “*Chorbakr*”ning “*Orifona*” deb nomlangan bo‘lim bilan ibtido topishini qayd etadilar. Unda qaldirg‘ochga murojaat bilan boshlanadigan o‘n ikki misrali she’r tahlili misolida zohiran anglashilishi qiyin bo‘lgan she’rdagi orifona ruhga oydinlik kiritiladi. Ustoz “*Yassaviyona*”, “*Oshiqona*”, “*Fozilona*” tarzida nomlangan “*Chorbakr*”ning keyingi bo‘limlarini “*Orifona*”dan yoki ularning bir-biridan mazmun niqtayi nazaridan keskin farq qilmasligini ilmiy asoslaydilar. To‘plamning nomlanishiga bois bo‘lgan undagi 256 satrdan tarkib topgan ijdokorning “*Chorbakr*” dostoni katta ilhom bilan yaratilganini, dostondagi aksariyat satrlarning ariqchadagi sho‘x oqim misol quyilib, oqib kelishini tahliliy mulohazalar bilan ko‘rsatib o‘tadilar. O‘n kichik bobdan tashkil topgan dostonning dastlabki bobida “*to‘rt pok inson*” ma’nosini anglatuvchi “*Chorbakr*” tarzida e’zozlangan Jo‘ybor xojalarining unvon-u tavsiflari keltirilib, oltinchi bobda ularning kim ekanliklarining ma’lum qilinishi she’rxonga o‘zgacha adabiy-estetik zavq bag‘ishlashi aytib o‘tiladi.

Ustoz taniqli shoir Sadriddin Salim Buxoriyning ijodiga uning “*Buxoroga Buxoro keldi*” to‘plamiga murojaat bilan munosabat bildiradilar. Avvalo, to‘plamdan o‘rin olgan shu nomdagi she’rning mohiyati haqida so‘z yuritiladi. Shoirning yangi ijtimoiy-siyosiy vaziyatda o‘z ona shahri nomini taxallus sifatida tanlaganiga e’tibor qaratiladi. Ijdokorning tasavvufga munosabati, xususan, naqshbandiy pirlariga nisbatan samimiyati, uning shunga o‘xshash qator shaxsiy fazilatlari faoliyati bilan birga ochib berilib, ayni hodisaning ijodidagi o‘rniga e’tibor qaratiladi. Xoja Orif Mohitobonga bag‘ishlangan satrlari, xususan, undagi “*Ka’baga aylandi bugun, Siz tufayli bu Shofirkon*” misralaridagi zulma’naynlik nuqtadonlik bilan tahlil qilinadi.

Ustozning ushbu risolalarida Buxoro adabiy muhitining zabardast to‘rt vakili ijodini muntazam kuzatib borganlari kuzatiladi. Iqtibos uchun tanlangan adabiy parchalar mualliflarining o‘ziga xos jihatlarini

yoritish imkonini hozirlagan. Ijodkorlarlar shaxsiy fazilatlarining badiiyatga ko'chishi masalasining yoritilishi ham xuddi shunday mulohazaga kelishga asos bo'ladi. Risola "*Muqaddima*"sida ustoz o'zlarini ijodkor birodarlari shirin asarlarining bir muxlisi, ixlosmandi sifatida tanitib, ularni o'qish jarayonida uyg'ongan taassurotlarni qog'ozga tushurganlarini ma'lum qiladilar. Bizningcha, ayni holni Alisher Navoiy asarlaridan domlaga "yuqqan" sharqona xokisorlik sifatida tushunish pand bermaydi.

Ulug' adib va nuktadon olim Sadriddin Ayniyning shaxsiyati, ilmiy faoliyati va badiiy ijodi ustozni doimo qiziqtirib kelgani domlaning umr bo'yi ayni masala tadqiqidan ayro tushmaganliklarida namoyon bo'ladi. Maktab darsliklarining birida taniqli yozuvchi hayoti va ijodining "*Jahon adabiyoti*" bo'limida keltirilgani ustozni go'yoki Sadriddin Ayniy ijodiy merosidan uzoqlashtirib qo'ygandek bo'ldi. Olmoniya va dunyoning bir qator mamlakatlarida yozuvchi ijodiga qiziqish mavjudligi sezilib turgan bir paytda kitob mualliflarining bunday munosabati ustozni qattiq ranjitdi. Shu bois BuxDU rektori, akademik K.Muqimov bilan hammualiflikda tayyorlangan "*Ayniy abadiyati daxlsizdir*"⁴⁵ nomli va yana bir qator maqolalari⁴⁶ yuzaga keldi. Ustoz ulug' adibning ona qishlog'i Sokterda uning ulkan faoliyatiga muvofiq keluvchi uy muzeyini qayta tashkil etish borasida tuman mutasaddilari, hatto g'ijduvonlik sarvatmand tadbirkorlar bilan bir necha bor muzokaralar olib borganlarining guvohi bo'lganman. Mels Mahmudov bilan hammualliflikda "*Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari*"⁴⁷ nomli yirik hajmli kitobning vujudga kelishi ustozning ulkan adib shaxsiyati va ijodiy merosiga nihoyatda samimiy munosabatlari samarasi bo'ldi. Unda Sadriddin Ayniyning dastlab "*Sifli*", "*Jununiy*", "*Muhtojiy*" singari taxalluslar bilan ijod qilgani, "*Sifli*" taxallusi bilan bitilgan bir g'azal va muxammasining mavjud ekanligi bayon etilib, maqtada shu taxallus keltirilgan "*Umri xudro sarfi yori bevafo kardan g'alat*" satri bilan boshlanuvchi g'azali tahlilga tortiladi. Yozuvchi tomonidan "*Ayniy*" taxallusining tanlanilishi tarixi, sabablari, mohiyati atroflicha yoritiladi. Adibning 17 yoshida ijod etilgan "*Guli surx*" g'azalida "*Ayniy*" taxallusining ilk bor qo'llangani, uning yozilishi

⁴⁵ Муқимов К., Воҳидов Р. Айний абадияти дахлсиздир// "Бухоро университети илмий ахбороти", 2003, 4-7-бетлар.

⁴⁶ Қаранг: Воҳидов Р. Устод Садриддин Айний – Мирзо Бедил ижодининг тадқиқотчиси// Китобда: "Йиллардан қолган маънавий ёдгорликлар" –Тошкент: "Zarqalam", 2006, 133-146-бетлар. Яна: Шарқ мумтоз адабиёти ва Садриддин Айний шеърляри// шу китоб, 150-155-бетлар.

⁴⁷ Воҳидов Р., Маҳмудов М. Устод Садриддин Айний сабоқлари. -Тошкент: "Фан", 2004, -320 б.

tarixi, mohiyati, gʻazalning ilk tinglovchisi va tanqidchisi isteʼdodli shoir Mirsiddiq Hayrat boʻlib, Sadriddin Ayniydek ulkan adib tebgdoshi Hayratni oʻziga ustoz sifatida qabul qilgani kabilar haqida soʻz yuritiladi.

Sadriddin Ayniy nihoyatda katta isteʼdod sohibi, zabardast soʻz sanʼatkoridir. Uning Tojikistonda chop etilgan *“Kulliyoti”*ning 8-jildidan sal kam oʻn besh ming misradan tarkib topgan tojikcha sheʼrlarining oʻrin olishi kitobda bir umrga yetgulik adabiy meros sifatida talqin qilinadi. Ijodkorning *“Oftobi husn xonam roʻyi raxshoni turo”*, *“Roʻyi moʻy-u chashm-u abroʻ-yu dahnat dilkash ast”*, *“Yori man shirin adoy mekunad”* singari gʻazallari tahlili misolida uning gʻazalnavislik mahorati, shoir ijodida nazira, tatabbuʼ-*tazmin*larning oʻrni xususida fikr yuritiladi, taxmis muxammaslarining poetik xususiyatlari yoritiladi. Adibning jadid maktablarining vujudga kelishiga munosabati, 1907-yilda oʻqish-oʻqitish tatar tiliga asoslangan Buxorodagi jadid maktabida yozuvchining hech qanday maosh istamay tarjimonlik bilan shugʻullanishi, Sharq adabiy maktabi anʼanalari taʼsirida vujudga kelgan *“Tahzib us-sibyon”* asari, unda taʼlim-tarbiya, maorif masalalarining yoritilishi, asarning badiiy, axloqiy-taʼlimiy xususiyatlari tahlillarga tayanib tanitiladi. Kitobda *“Esdaliklar”* asari keng tahlilga tortilib, adibning yana bir qancha asarlari misolida Buxorodagi ilmiy-adabiy muhit xususida toʻxtaniladi. Bularning bari mualliflarning Sadriddin Ayniy boy adabiy merosini nihoyatda sinchkovlik bilan oʻrganib, tahlil qilganlarini dalillaydi.

Taniqli yozuvchi Abdulla Qahhorning juda taʼsirchan adabiy lavhalarga boy hikoya-yu qissalari ustoz Rahim Vohidovga qaysidir jihatlari bilan bolalik yillaridagi iztiroblarini xotirlatgan boʻlishi tabiiy. Adibning 100 yilligi munosabati bilan yozilgan kichik risolada ustoz 50-yillarda nashr etilgan *“Oʻgʻri”*, *“Bemor”* singari hikoyalarni oʻsha davrda oʻqiganliklarini, *“Shohi soʻzana”*dan bir parchani maktab sahnasida jonlantirganlarini eslab oʻtadilar. Shuningdek, yozuvchining soʻzdan foydalanishdagi yuksak sanʼati, haqiqatni roʻyi rost aytishi, adolatparvarligi va eng muhimi *“qaysarligi”* oʻzlariga xush yoqqanini eʼtirof etadilar. Ushbu ifodalardan yozuvchi va olim shaxsiyatidagi fazilatlarda, bolalikdagi iztiroblarda uyqashlik borligini his etish mumkin. Shu bois ustozning *“Armonga aylangan adabiy orzular”*⁴⁸ kitobining uchinchi faslidan soʻzboshi oʻrnida kelgan *“Ulugʻ*

⁴⁸Вохидов Р. Армонга айланган адабий орзулар.-Тошкент: “Фан”, 2009, 74-97-бетлар.

yozuvchiga muhabbat”, uch fasl va *“Ixcham xotima”* dan tarkib topgan risolaning uchrashi tasodifiy hol emas. Unda dastlab adib ijodining sarchashmalari xususida soʻz yuritiladi. Yozuvchining A.P.Chexov, N.V.Gogoldan adabiy taʼsirlangani eʼtirof etilgan holda asarlarida sharqona udum-odatlarini ifodalashda mumtoz adabiyotdan ilhomlanganiga eʼtibor qaratiladi. *“Bemor”* dagi toʻrt yashar qizchaning yigʻlamsirab duo qilishida *“Farhod va Shirin”* dagi lavhalar, Zahiriddin Muhammad Boburning oʻgʻli Humoyun mirzo uchun Tangriga yolvorishlarining ifodasi borligi bayon etiladi. Ayni hodisaning *“Oʻtmishdan ertaklar”* dagi bir qator lavhalarda kuzatilishi xususida fikr bildiriladi. Ushbu qissanining *“Halokatning sharofati”* sarlavhasi ostida berilgan lavhalarning hayot haqiqatiga toʻgʻri kelishi, ularning badiiy toʻqima sifatida tushunish biryoqlamalikka bois boʻlishi tahlillar asosida yoritiladi. Kibriyoxonim Qahhorovanning *“Chorak asr hamnafas”* kitobiga tayanib, yozuvchining jasorati, umr yoʻldoshiga nisbatan ham nihoyatda talabchanligiga urgʻu beriladi. Yozuvchi hayoti soʻnggi kunlarining shohidi boʻlgan, *“Sinchalak”* va *“Oʻtmishdan ertaklar”* qissalarini oʻz ona tili – ruschaga sharh-u izohlar bilan maromiga yetkazib tarjima qilgan Konstantin Simonovning xotiralari asosida Abdulla Qahhor tabiatidagi oʻlimni pisand qilmaslik xususiyati talqin etiladi. Yozuvchining moddiy manfaatdorlik masalasida ham jida sergak boʻlgani, haqparast va adolatli yoʻl tarafdori ekanligi *“Chorak asr hamnafas”* dagi lavhalar asosida oydinlashtiradi. Ustoz risolaning soʻzboshisida ulugʻ yozuvchi ijodining bir muxlisi sifatida samimiy muhabbatlarini qogʻozga tushirganliklarini maʼlum qiladilar. Uni oʻqish jarayonida bu bitiklarda yangi davr oʻzbek nasrini teran anglagan bir adabiyotshunosning nigohi borligi sezilib turadi.

Koʻrinadiki, *“XV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshlarida oʻzbek-tojik sheʼriyati”*, ulugʻ ustoz B.Valixojayev bilan hammualiflikda yozilgan *“Muhaqqiqi buzurgi du adabiyot”*, *“Alisher Navoiy ijodi – ilhom manbayi”*, muayyan jihatiga koʻra T.Qorayev bilan hamkorlikdagi *“Taxalluslar”*, *“Adabiy taxalluslar haqida”*, bular qatorida Abdurahmon Jomiyga bagʻishlangan *“Sharqning buyuk allomasi”*, *“Maʼnaviyat olamining porloq quyoshi”*, 1994-yilda yozilgan *“Alisher Navoiyning ijod maktabi”* nomli risolalar ustoz ilmiy faoliyatlarining asosiy yoʻnalishi: ikki tilda bitilgan mumtoz asarlardagi gʻoyaviy uygʻunlik, oʻziga xoslik tadqiqiga bagʻishlangan. Ustozning *“Majolis un-nafois” tarjimalari* M.Qosimova bilan hammualiflikdagi *“Xamsat ul-mutahayyirin” ning tojikcha tarjimalari* hamda

“Navoiyning ikki durdonasi” risolalari esa ayni yo‘nalishning bir tarmog‘i sifatida ko‘zga tashlangan tarjimashunoslikka bag‘ishlangan asarlar sanaladi. Shu bilan bir qatorda yangi davr o‘zbek adabiyoti tadqiqi ham ustoz ilmiy faoliyatlarining muayyan bir yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. *“Bir nosir-u uch shoir haqida topganlarim”*, *“Armonga aylangan orzular”*dagi Abdulla Qahhorga bag‘ishlangan risolalari, M.Hoshimova bilan hammualliflikda yuzaga kelgan *“She’riyat – shoir yuragi”*, *“Ilhom chashmalari”*, *“Adabiy qardoshlik sarhad bilmaydi”*, M.Mahmudov bilan hamkorlikda yozilgan *“Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari”* nomli kitoblari aslida bir tadqiqotchining umriga arzigulik izlanishlar samarasi hisoblanadi. Ustozdagi erta tarbiyalangan mehnatsevarlikning takomillashib borishi bilan ayni izlanishlar u kishi faoliyatining bir yo‘nalishigagina aylanib qoldi. Shuningdek, ularda ko‘zga tashlanib turgan ustozning *“muxlis sifatidagi taassurotlarim bayoni”* tarzidagi ifodalari domlaning nihoyatda kamtar-u nuktadon olim ekanliklaridan darak berib turadi.

2.3 Adabiy aloqa, adabiy ta’sir tadqiqi Alisher Navoiy ijodi misolida

Alisher Navoiy bolalik davridanoq Qur’oni karimni yodlashga kirishdi, Sa’diy Sheroziyning *“Guliston”*, *“Bo’ston”* singari go‘zal axloq talqiniga bag‘ishlangan asarlari tanishishdi. Bolalaik yillarida Farididdin Attorning yirik hajmli ma’rifiy-badiiy dostoni *“Mantiq ut-tayr”*ni, yigitlik chog‘ida esa *“she’rda sehrsoz, nazmda fusunpardoz”* [16, 29] shoirlarning nazmiy yaratmalari-u rangin baytlaridan ellik ming baytni yod oldi. U dastlab Abulqosim Bobur Mirzo saroyidagi va keyinchalik Hirot, Samarqand hamda Xurosonning boshqa hududlarida tashkil etilgan adabiy yig‘inlarda ishtirok etdi, shuningdek, Mavlono Lutfiy, Sayyid Hasan Ardasher, Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad singari taniqli shoir-u adabiyot muhiblari bilan voqeylangan muloqotlarda o‘z ona tilida bitilgan nazm namunalari bilan bir qatorda forsiy she’rlarni ham doimiy tinglab bordi. Bularning bari shoirning har ikkala tilda bitilgan noyob nazm durlari-yu, nasr javohirlari va ularga xos sirlardan bahs etuvchi Sharq mumtoz poetikasining sir-u sinoatlarini, g‘oyaviy asoslari, obrazlar tizimi, ramziy-majoziy timsollarining mohiyatini chuqur o‘zlashtirishiga, aniqrog‘i ularni ko‘pincha ustozlar ko‘nglidan o‘z ko‘ngliga ko‘chirishiga va keng tafakkur-u taxayyul olamiga tayanib, ko‘ngil mulkiga aylangan adabiy

javohirlar vositasida badiiy kashfiyotlar yaratishiga zamin hozirladi. Ulug' shoirning *"ko'p va xo'p"*ligiga ko'ra ma'rifat durlari bilan to'yingan ulkan ummonni eslatuvchi boy adabiy merosi nafaqat ulug' shoirning zamondoshlari, balki keyingi davrlarda yashab turkiyda ijod etgan shoirlar qatorida forsiygo'y qalam ahlini va boshqa xalqlar ijodkorlarini ham ilhomlantirib keldi. XX-XXI asrning yirik adabiyotshunos olimlari qatori ustoz Rahim Vohidovning ham taniqli navoiyshunos, mumtoz adabiyotning nuktadon tadqiqotchisi bo'lib tanilishlarida ulug' shoir adabiy merosini o'zbek va fors-tojik tilida asrlar davomida yaratilgan badiiy so'z san'atining navoiyona sintezi sifatida idrok etib, munosabatda bo'lishlari muhim omil bo'lib xizmat qildi. O'zbek mumtoz shoirlari orasida Alisher Navoiy adabiy merosida bor bo'y-u basti bilan namoyon bo'lgan bunday sintezlashuv hodisasini adabiy aloqa, o'zaro ta'sir nuqtayi nazaridan o'rganish, uning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlarini asoslash, ta'sir – aksita'sirning omillarini dalillash ustoz Rahim Vohidovning ilmiy faoliyatlaridagi eng yuki og'ir yo'nalish sifatida namoyon bo'ldi.

Ustozning *"XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlarida o'zbek-tojik she'riyati"* nomli monografiyalari bu boradagi dastlabki jiddiy tadqiqot sifatida e'tirof etildi. Botirxon Valixo'jayevning ushbu monografiyani o'tkir nigoh bilan nazardan o'tkazib, jiddiy tahrirlash maqsadida yo'llagan maktublaridan ma'lum bo'lishicha, kitob dastlab 1981-yilning 10-oktabriga qadar 4 bob, 160 sahifadan ortiq hajmda tayyorlangan. Ulug' ustozning monografiya matnini qisqartirish yuzasidan berilgan tizimli tavsiyalari asosida ushbu kitob kirish, uch asosiy bob va xulosadan tarkib topib, uning umumiy hajmi 144 sahifaga keltirilgan. "Kirish" qismi 7 sahifadan iborat bo'lib, unda mavzuning dolzarbligi, ilmiy ahamiyati davr mafkurasi nuqtayi nazaridan asoslanib, mavzuning o'rganilishi tarixi tizimli asosda yoritilgan. Ushbu tadqiqot yaratilgunga qadar XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlaridagi o'zbek-tojik adabiy aloqalari va adabiy ta'sir masalasi doirasida olib borilgan izlanishlarning barchasini ham mohiyat e'tibori bilan bir xil yo'nalish, hajm, saviyada deb bo'lmasligi e'tirof etilib, ularning aksariyatini maqolalar tashkil etishi, ushbu maqolalarning ko'pchiligi u yoki bu munosabat: yubiley, dekada, haftaliklar, adabiyot kunlari munosabatlari bilan bog'liq tarzda vujudga kelgani ko'rsatib o'tilgan. Adabiyotshunos E.Shodiyevning nomzodlik dissertatsiyasida Alisher Navoiyning fors-tojik adabiyotiga munosabati masalalariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, uning doktorlik dissertatsiyasida o'zbek va fors-tojik

adabiyotidagi hamkorlikning XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridagi Xo‘jandda yashab ijod etgan shoirlar, ularning o‘zbek ijodkorlari bilan shaxsiy, adabiy muomila-munosabatlari tahlil obyekti sifatida tanlangani aytib o‘tilgan. A.Hojiahmedovning XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o‘zbek-rus adabiy aloqalariga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida mavzuga oid muhim fikrlar, ilmiy xulosalar bayon qilingani, A.Hayitmetovning “*Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan (X-XV asrlar)*” nomli fundamental tadqiqotining o‘zbek va fors-tojik adabiy aloqalari tarixini yaratishda katta ilmiy qiziqish uyg‘otishi, S.Erkinovning “*Lutfiy (hayoti va ijodi)*”, Y.Is‘hoqovning “*Alisher Navoiyning ilk lirikasi*” nomli mazmundor monografiyalarida ustoz mulohaza yuritayotgan mavzulariga doir asosli ilmiy xulosalar bayon etilgani ta’kidlab o‘tilgan. Kitobning “Kirish” qismida keltirilgan shu va shunga o‘xshash qator ma’lumotlardan mavzuga oid bildirilgan muhim ilmiy-nazariy xulosa, taklif-u taxminlardan tortib yilt etib ko‘rilgan kichik mulohazagacha ustozning e’tiborlaridan chetga qolmagani ayonlashadi. Bu esa o‘z navbatida o‘sha davrda 40 yoshni qarshilash arafasida bo‘lgan ustoz Rahim Vohidovning masala mohiyatini o‘rganishda nihoyatda sinchkovlik bilan kirishganlaridan dalolat beradi.

Ustozdagi ilmiy mulohaza yuritishga qaratilgan sinchkov nigoh yillar davomida shakllangani, ta’bir joiz bo‘lsa, ko‘ngildan ko‘ngilga ko‘chgani monografiyaning birinchi bobini tashkil etuvchi “*XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlari adabiyotini o‘rganish manbalari*”⁴⁹ masalasini yoritishda ham yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Unda dastlab XV asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotida ham, fors-tojik adabiyotida ham katta sifat o‘zgarishlari vujudga kelganligi nihoyatda muxtasar jumalarda aniqlik bilan sanab o‘tilgan. Bir-birining hayotbaxsh chashmasidan samarali bahra topgan bu ikki adabiyot hamkorligi masalalarining XV asr va undan keyingi davrda vujudga kelgan qator tazkiralar, tarixiy, ilmiy, memuar va badiiy asarlarda yorqin ifodalari mavjudligiga e’tibor qaratilgan. Tabiiyki, bu manbalar orasida qo‘yilgan masala mohiyatini yoritishda daliliy ma’lumotlarga boyligi va adabiy jarayonga oid nihoyatda muhim lavhalarni o‘zida ifodalashiga ko‘ra tazkiralar alohida ahamiyatga molik. Shu bois ustoz ushbu manbalarning mavzuga aloqador jihatlarini tavsiflashda imkon qadar batafsilroq to‘xtalishga harakat qiladilar. Dastlab 1477-yilda

⁴⁹ Вохидов Р. XV асрнинг II ярми, XVI асрнинг бошларида ўзбек-тожик шеърляти. 10-33-бетлар.

Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan “*Bahoriston*” asarining 7-ravzasi tadqiq etilayotgan masala yuzasidan asar mundarijasida alohida ahamiyatga molikligi ta’kidlab o’tiladi. Risolada qirqqa yaqin fors-tojik, o’zbek yoxud ikki tilda ijod etgan shoirlar haqida ma’lumot berilib, ularning asarlaridan namunalar keltirilishi ta’kidlanadi. Bular orasida Xo’ja Ismatullo Buxoriy, Bisotiy Samarqandiy, Xayoliy Buxoriy, Ozariy Isfaroyinini, Kotibiy Nishopuriy, Shohiy Sabzavoriy, Opifiy Heraviy, Alisher Navoiy borligiga diqqat qaratiladi. Ustoz “*Bahoriston*”da Alisher Navoiy, Xayoliy Buxoriy va Orifiy Heraviylarni mustasno qilganda, qolgan ijodkorlar haqida juda ixcham fikr yuritilganini ta’kidlab o’tib, o’sha muxtasar ma’lumotlarning ahamiyatini ko’rsatish maqsadida keltirilgan ayrim kichik iqtiboslarning mohiyatini aniqlashtirib boradilar. “*Bahoriston*”da Alisher Navoiyning falsafiy, irfoniy mohiyat kasb etuvchi qasidasi “*Tufhat ul-afkor*” xususida to’xtanilgani, unda qasida matla’ baytining aynan keltirilgani, shuningdek, Alisher Navoiy qalamiga mansub uch ruboiyning izohlangani ta’kidlab o’tiladi. Ushbu fazilatlariga ko’ra “*Bahoriston*”ning XV asrning II yarmi o’zbek-tojik adabiy aloqalari, o’zaro ta’sir masalalarini tadqiq etish uchun nihoyatda muhim manba ekanligi dalillanadi.

Ustoz debocha, yetti taboqot va xotimadan tarkib topib, 151 shoir haqida ma’lumot keltirilgan Davlatshoh ibn Baxtshohi Samarqandiyning “*Tazkirat ush-shuaro*” asarini XV asrning II yarmi o’zbek va fors-tojik adabiyotini o’rganish uchun eng ishonchli manba sifatida taqdim etadilar. Monografiyada ushbu tazkirasini bilan ko’proq tanilgan Davlatshoh Samarqandiyning zullisonayn shoir ekanligiga, uning “*Majolis un-nafois*”da keltirilgani singari bir qator fors-tojik tilida bitilgan she’rlaridan tashqari fors-tojik va o’zbek tilida bitilgan mulammalari, shuningdek, o’zbekcha she’rlari tazkirada keltirib o’tilgani ma’lum qilinadi. Ushbu ma’lumotlar, tabiiyki, o’rganilayotgan mavzu nuqtayi nazaridan nihoyatda qimmatli sanaladi. Tazkiraning xotimasida keltirilgan ma’lumotlar uning ishonchliligidan dalolat berishi ustozning diqqatlarini o’zida jalb etgan. Unda Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayx Nizomiddin Ahmad Suhayliy, Xo’ja Afzaliddin Muhammad, Xo’ja Abdulla Marvorid, Xo’ja Osafiylar xususida keng to’xtanilganligi qayd etiladi. Tazkira muallifining ijodkorlar tarjimaiy holini muxtasar bayon etish, ularning hayoti, ijodiga oid muhim tafsiflarni keltirish jarayonida o’quvchini aniq ma’lumotlar doirasiga olib kirishi Tohir Buxoriy vasfida keltirilgan mulohazalar

asosida dalillanadi. Ustoz ushbu tazkira asosida Shayxim Suhayliyni turkiy va forsiy tilda devon tartib bergan shoir sifatida tanigan edilar. Kitobda tazkiraning ushbu ma'lumotlari nihoyatda katta ilmiy ahamiyat kasb etishi e'tirof etiladi.

XV asrning II yarmi Xuroson-u Movarounnahr adabiy hayotini o'rganishda nihoyatda boy ma'lumotlarni taqdim eta olishiga ko'ra Alisher Navoiyning "*Majolis un-nafois*" tazkirasi eng noyob manba sanaladi. Ustoz bunday xulosaga kelish uchun tazkirada 459 ijodkor hayoti, ijodi haqida keltirilgan ma'lumotlar Alisher Navoiy yashagan adabiy muhitning butun boricha tasvirlashga erishganiga tayanadilar. Keyingi davrlarda yaratilgan bir qator tazkiralar, jumladan, *Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkir ul-ahbob"*, *Som Mirzo Safaviyning "Tuhfayi Somiy"*, *Sodiqbek Sodiqiyning "Majma ul-xabos"* kabi asarlarning "*Majolis un-nafois*"ga xos hayotbaxsh ta'siridan vujudga kelgani ham uning qimmatini belgilaydi. Ustoz Alisher Navoiy tazkirasining XVI asrning o'zida fors-tojik tilida uch marta tarjima qilinganiga ham alohida e'tibor qaratadilar. 1521-1522-yillarda Faxriy bin Sulton Muhammad Amiriy Hirotda amalga oshirgan tarjimasini "*Latoifnoma*" deb ataydi. Oradan bir oz vaqt o'tib, 1522-1523-yillarda Muhammad Hakimshoh Qazviniiy Istanbulda asarni ikkinchi bo'lib fors-tojik tiliga o'giradi. XVI asrning so'nggi yillari h.1006/ m. 1597-1598-yillarda Shoh Ali ibn Abduvali Nishopurda shunday tarjimaning uchinchisini amalga oshiradi. Faxriy Hirotiy va Hakimshoh Qazviniylar tarjimasi 1945-yilda Tehronda Ali Asg'ar Hikmat tomonidan nashr etilgan bo'lib, Shoh Ali tarjimasi hamon ilmiy jamoatchilik uchun noma'lumligicha qolmoqda. Ta'kidlash lozimki, ustoz Rahim Vohidov Ali Asg'ar Hikmat nashri asosida "*Majolis un-nafois*" tarjimalarini o'zbek kitobxonlari, ilmiy jamoatchilikka tizimli holatda tanishtirgan nihoyatda zahmatkash tadqiqotchi edilar. Dastlab "*Majolis un-nafois*" tarjimalari", keyinchalik "*Navoiyning ikki durdonasi*" nomli risolalarida ustozning 80-yillarning boshlarida boshlangan kuzatishlar umumlashtirildi.

Aniqlik kiritilishiga ko'ra, har ikkala tarjimada ham Alisher Navoiy qalamiga mansub "*Debocha*" tushirib qoldiriladi, "*Majolis un-nafois*"ning Husayn Boyqaroga bag'ishlangan sakkizinchi majlisi Faxriy Hirotiy tomonidan juda jiddiy qisqartirilsa, Hakimshoh Qazviniiy esa Husayn Boyqaro haqidagi mulohazalarni tahrirdan o'tkazadi. "*Latoifnoma*"ning to'qqizinchi majlisi yangi ma'lumot va materiallar bilan boyitilgan. Uning o'zi ixchamgina bir tazkira qiyofasida namoyon bo'ladi. Mutarjim zullisonayn shoirlarning fors-tojikcha asarlaridan

namunalar izlab topishga intiladi. Ayni holat Muhammad Qazviniiy tarjimasi uchun ham xosdir. U zamondosh shoirlar haqidagi yangi faktlarni butun asar tarjimasi jarayonida singdirib boradi. Bundan tashqari, *“Majolis un-nafois”*da tavsifi keltirilmagan 189 shoir haqida ma’lumot keltiradi. Ulardan 40 tasini asliyatning oltinchi majlisiga ilova qiladi va bu ishi bilan Alisher Navoiy tazkirasining umumiy tamoyillariga futur yetkazmaydi. Muhammad Qazviniiy “majlis” atamasi o’rniga “bihisht” so’zini ishlatadi. Mutarjim sakkizinchi bihishtni ikki ravzaga ajratadi, uning dastlabki ravzasiga 68, ikkinchisida esa 81 nafar tab’ ahli xususida ma’lumotlar keltiradi. Ustoz bu kabi yana bir qator faktlarga tayanilgan holda *“Majolis un-nafois”* tarjimalarida keltirilgan yangi ma’lumotlarning tadqiq etilayotgan davr fors-tojik va o’zbek adabiyotlarini o’rganish, adabiyotlarimiz qardoshligi sahifalarini oydinlashtirishda muhim hissa bo’lib qo’shilishini ta’kidlab o’tadilar. Ushbu monografiyada *“Majolis un-nafois”*ning tarjimalariga bu qadar e’tibor qaratilishi ustozning yangi ma’lumot topishga bo’lgan chanqoqliklarining samarasi sifatida namoyon bo’ladi.

Ustoz XV asrda vujudga kelgan tarixiy asarlarni ham davr madaniy hayoti, xususan, o’zbek va fors-tojik adabiy aloqalari, o’zaro ta’sir masalasini o’rganish uchun manba bo’la olishini e’tirof etadilar. Shu bois kitobda Hofizi Abro’ning *“Zubdat ul-tavorix”*, Abdurazzoq Samarqandiyning *“Matla’yi sadayn va majmayi bahrayn”*, Muiniddin Muhammad Isfizoriyning *“Ravzat ul-jannot fi avsofi madinati Hirot”*, Muhammad Xovanshoh Mirxondning *“Ravzat us-safo”*, G’iyosiddin binni Humomiddin Xondamirning *“Makorin ul-axloq”*, *“Dastur ul-vuzaro”*, *“Maosir ul-muluk”*, *“Habib us-siyar”*, *“Xulosat ul-axbor”*, Faxriy Hirotiyning *“Ravzat us-salotin”* singari o’nta tarixiy asar nomi tilga olinadi. Tabiiyki, ushbu manbalarda tadqiq etilayotgan masalaga doir ma’lumotlar birmuncha kamyob ekanligi sezilib turadi. Mavjud ma’lumotlar qiyosiy tahlil etilganda, manbalarning ayrimlarida mualliflarning ularga e’tiborli bo’lgani kuzatilsa, ayrimlarida esa muayyan munosabat bilan mulohazalar adabiyot ahliga bog’lanib qolganligi seziladi. Ushbu tarixiy asarlar aksariyatining vujudga kelishida Alisher Navoiyning qaysidir ma’noda hissasi borligi kuzatiladi. Ustoz masalaning ayni jihatiga e’tibor qaratish bilan ham mazkur tarixiy asarlarning manba sifatidagi qimmatini belgilashga intiladilar. Jumladan, Mirxondning *“Ravzat us-safo”* asari Alisher Navoiyning moddiy va ma’naviy ko’magi bilan vujudga kelgan asar sanaladi. *“Ravzat us-safo”*ning yettinchi daftarida XV asr adabiy hayoti

ham ancha batafsil yoritilgan. Unda *Kamoliddin Binoiy, Hiloliy, Darvesh Dehakiy, Amir Shayxim Suhayliy* singari bu davr adabiyotining koʻzga koʻringan vakillari adabiy merosi ustida ham bahs yuritiladi.

Ustoz Gʻiyosiddin Xondamirning Alisher Navoiy tarbiyasi bilan voyaga yetganini uning *“Makorim ul-axloq”* dagi mulohazalari⁵⁰ bilan dalillaydilar. Shu faktning oʻziyosh ushbu asarning qimmatini belgilab berishini taʼkidlab oʻtadilar. *“Xulosat ul-axbor”* ning uchinchi maqolasi XV asr adabiy hayoti oʻrganish uchun muhimligini, *“Habib us-siyar”* ning uchinchi bobi, ayniqsa, shu bobning 3-4-qismlarida Sulton Husayn Boyqaro va Safaviylar sulolasi saltanatining boshlanishi davridagi muhim madaniy hayot lavhalari yoritilganini aniqlik bilan koʻrsatib oʻtadilar. Ayni choqda ustozning taʼkidlariga koʻra, Gʻiyosiddin Xondamirning *“Xulosat ul-axbor”* va *“Habib us-siyar”* asarlari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar davridagi ilm-fan, adabiyot va sanʼat taraqqiyotini belgilash va uni puxta oʻrganishda nodir manbalardan biri hisoblanadi. Faxriy Hirotiy *“Ravzat us-salotin”* asarining *“Majolis un-nafois”* taʼsirida yozilgani ham qayd etilgan. Ustoz bu asarni XV asr fors-tojik va oʻzbek adabiyotlarini, xususan, shu yuz yillikdagi zullisonaynlikni, ikki adabiyot oʻrtasidagi adabiy hamkorlik tarixini oʻrganishda zaruriy sarchashmalardan biri sifatida talqin etadilar. Unda Alisher Navoiy, Hojibek Vafoiy, Sayyid Hasan Ardasher, Shohi Badaxshon, Ibn Laʼliy, Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobur, Moʻmin Mirzo, Shohgʻarib Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro va boshqa bir qator shoirlar haqida ham qimmatli maʼlumotlar berilib, ularning asarlaridan namunalar keltirilganligini taʼkidlaydilar.

Muhammad Isfizoriy *“Ravzat ul-jannot”* asarining vujudga kelishida Alisher Navoiyning hissasi borligi kuzatilmaydi. Eʼtiborli jihati shundaki, ustoz ushbu manbaning hijriy 1338-yildagi Hirot-Tehron nashridan foydalanadilar. *“Ravzat ul-jannot”* ning muallifi madaniy hayotga tegishli faktlarga alohida eʼtibor qaratishi ustozga maʼqul tushadi. Aniqlanishiga koʻra, Muhammad Isfazoriy asarida adabiyotga doir materiallar uchun ajratilgan qism yetakchi oʻrinni tashkil etadi. Muallif oʻz kitobida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Shayxim Suhayliy, Xoʻja Ismat Buxoriy, Sayfiy Buxoriy, Orif Heraviy, Riyoziy Samarqandiy, Mavlono Kotibiy, Nizomiddin Astrobody, Badriddin Hiloliy, Mavlono Asiriy, Mavlono Badaxshiy, Mavlono Jaloliy, Mavlono Xoʻja Osafiy, Mavlono Ohiy, Mehri Heraviy kabi

⁵⁰ Oʻsha kitob, 20-bet.

taniqli ijodkorlar haqida boy ma'lumotlarni yozib qoldiradi va ularning ijodlaridan namunalar keltiradi. Ko'rinadiki, o'sha davr uchun ancha kamyob bo'lgan bu tarixiy asarlar ham ustoz tomonlaridan nihoyatda sinchkovlik bilan o'rganilgan va ularning mavzu uchun muhim jihatlari ko'rsatib o'tilgan.

XV-XVI asrlarda yaratilgan Sharq mumtoz poetikasiga oid asarlar, "*Muhokamat ul-lug'atayn*", "*Boburnoma*" hamda Zayniddin Vosifiyning "*Badoye' ul-vaqoye*" asari davr hayotining ilmiy asarlardagi talqini nuqtayi nazaridan manbalar sifatida belgilanadi. Nomlari qayd etilgan asarlardan tashqari, Atoulloh Husayniyning "*Badoye' us-sanoye*", Zahiriddin Muhammad Boburning "*Aruz*" risolasi, Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning "*Badoye' ul-afkor fi sanoye' ul-ash'or*" asarlari ham tilga olinadi. Ushbu asarlarning aksariyatida badiiy san'atlar, aruz ilmi, ilmi qofiya, o'zbek tilining "*fasohat-u balog'ati*"dan bahs etilganligi bois fikrni tasdiqlovchi dalillar sifatida XV-XVI asr shoirlarining asarlariga murojaat etilganligi kuzatiladi. Ayni fazilatiga ko'ra mazkur manbalar o'zining qimmatini saqlab qoladi. Shunday bo'lishiga qaramay, ustoz ushbu manbalarning eng nozik jihatlarni ham sinchkovlik bilan yoritishga harakat qilganlar. Jumladan, "*Muhokamat ul-lug'atayn*"ning tanlangan mavzu uchun ishonchli va muhim manba ekanligini asoslashda, avvalo, Alisher Navoiyning fors-tojik tiliga nisbatan katta hurmat bilan munosabatda bo'lganiga diqqat jalb etiladi. Unda ulug' shoirning fors-tojik tilidagi she'rlaridan tarkib topgan olti mingdan ortiq baytni o'z ichiga olgan "*Devoni Foniy*"dan bahs etishi, o'z asarlari ro'yxatini keltirish jarayonida esa Amir Xusrav Dehlaviy, Hojuyi Himmatiy (Kirmoniy), Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Nosiri Tusiy singari buyuk fors-tojik shoirlarining nomlarini hurmat bilan tilga olishi dalil sifatida keltiriladi. Ustoz masalaning ayni jihatlarga e'tiborni qaratib, Alisher Navoiy "*Muhokamat ul-lug'atayn*"da "*Tuhfat ul-afkor*", "*Nasim ul-xuld*", "*Ruh ul-qudus*", "*Ayn ul-hayot*", shuningdek, to'rt qasidani o'zida mujassam etgan "*Fusuli arbaa*"ning paydo bo'lishi tarixi, uning sarchashmalari xususida g'oyat nodir ma'lumotlar keltirganini ta'kidlab o'tadilar. Mazkur asarda ulug' shoirning Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy va Mavlono Lutfiy kabi o'zbek shoirlarining xizmatini yuqori baholaganini, shuningdek, Xoqoniy, Anvari, Kamol Xo'jandiy, Firdavsiy, Salmon Savajiy, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Amir Shohiy, Mavlono Kotibiy kabi o'nlab fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyandalarining nomlarini tilga olgani,

ularning badiiy ijod bobidagi salohiyatlarini ulug‘laganini ta’kidlab o‘tadilar. Shuningdek, “*Muhokamat ul-lug‘atayn*”dagi ma’lumotlarning Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy munosabatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadilar. O‘rni bilan Alisher Navoiyning maslahati bilan bunyodga kelgan Atoulloh Husayniy “*Badoye’ us-sanoye*” asarining Atoulloh va Alisher Navoiy, Alisher Navoiy va Hirot adabiy muhiti kabi masalalarni hal etishda qimmatli manba bo‘lishini ta’kidlaydilar. Zahiriddin Muhammad Boburning “*Aruz*” risolasida Abdurahmon Jomiy, Shayx Muslihiddin Sa’diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Kamol Xo‘jandiy, Salmon Savajiy, Mavlono Imod, Mavlono Kotibiy, Mavlono Osafiy, Mavlono Binoiy, Muhammad Solih, Mavlono Afzaliy, Mavlono Hiloliy, Mavlono Behishtiy, Alisher Navoiy, Anvari Devona, Mavlono Hijriylarning matla’ va to‘la g‘azallarining berilgani bois uning ham mavzuni o‘rganishda muhim hissa bo‘lib qo‘shilishini aytib o‘tadilar.

“*Boburnoma*”da ham o‘sha davr adabiy hayoti tasviriga ancha keng o‘rin ajratilgan. Ustoz “*Boburnoma*”da Alisher Navoiyning nomini hurmat bilan tilga olingani-yu, uning zullisonayn shoir sifatidagi fors-tojik tilidagi asarlariga Bobur Mirzo munosabatini tojik adabiyotshunosi A.Mirzoyevning “*Devoni Foniy*”dagi asarlarga juda yuksak baho bergani bilan izohlashga harakat qiladilar. Bu asarda Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Mir Atoulloh Husayniy, Mavlono Asafiy, Kamoliddin Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Abdulo Hotifiy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Mavlono Ohiy, Muhammad Solih, Shoh Husayn Komiy, Mavlono Ahliy, Asiriddin Aksikatiy, Badriddin Hiloliy, Hijriy kabi shoirlar xususida qimmatli fikrlar bayon etilganini ko‘rsatib o‘tadilar. Ustoz XV asrning so‘nggi choragi va XVI asrning birinchi yarmida yashab, faoliyat ko‘rsatgan Zayniddin Mahmud Vosifiyning “*Badoye’ ul-vaqoye*” asari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Binoiy, Mavlono Hiloliy, Mavlono Sohib Doro, Mavlono Abdulvose’, Mavlono G‘iyosiddin Dehdor, Mavlono Gulxaniy Astrobodiy kabi XV asr adabiyotining zabardast shoirlari xususida ajoyib faktlarni o‘zida jamlagani bilan ajralib turishini qayd etadilar. Uning Mavlono Ogahiy, Xo‘ja Shahobiddin Is’hoq, Mavlono Subhiy, Mavlono Kotibiy, Mavlono Bobo Savdoiy, Mavlono Zamoniyy, Amir Zunnuni Arg‘unga taalluqli hikoyalari va asarning “*Xamsayi muhayyira*” deb nomlangan bobi XV asr adabiyotini tadqiq etishda boy va mazmunli ma’lumotlar bera olishini ta’kidlaydilar. Ushbu

manbalarga murojaat etilganda, ularda nomlari keltirilgan ijodkorlar ro'yxatini shakllantirishning o'zi tadqiqotchidan sabr va sinchkovlik bilan masalaga yondashishni talab etadi. Ustozning bunday fazilat sohibi ekanliklari badiiy asarlarning davr adabiyotining adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalasini yoritishda ishonchli manba bo'lishi xususidagi mulohazalarida ham kuzatiladi.

XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek va fors-tojik adabiy aloqalari, adabiy ta'sir masalasini o'rganishda Hirot adabiy muhitining yirik vakillari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning badiiyat namunalari birlamchi manba vazifasini o'tay oladi. Ustoz ayni mantiqdan kelib chiqib Abdurahmon Jomiyning *"Nafohat ul-uns"*, *"Bahoriston"*, *"Subhat ul-ahror"*, *"Yusuf va Zulayxo"*, *"Layli va Majnun"*, *"Xiradnomayi Iskandariy"*, *"Fotihat ush-shabob"* asarlarida muallif turli munosabatlar bilan Alisher Navoiyning nomini tilga olib, samimiy munosabatini bildirishini eslatib o'tadilar. Shuningdek, Alisher Navoiyning katta-kichik nasriy va she'riy asarlari uchun ham o'zi ijod etgan adabiy muhitning ma'lum bir xususiyati yoki uning namoyandalarini eslab o'tish holatining mavjudligi qayd etiladi. Fikr tasdig'i sifatida ulug' shoirning *"Xamsa"*, *"Xazoyin ul-maoniy"*, *"Devoni Foni"*, *"Xamsat ul-muttahayyirin"*, *"Mahbub ul-qulub"*, *"Holati Sayyid Hasan Ardasher"*, *"Holoti Pahlavon Muhammad"*, *"Munshaot"*, *"Badoyi' ul-bidoya"* debochasi, *"Nasoyim ul-muhabbat"* kabi asarlari sanab o'tiladi. Ko'rinadiki, bu ikki daho ijodkor asarlari nomi tilga olinganida, ularning badiiy asar ekanligiga bir oz bo'lsa-da, shartli qaralganiga guvoh bo'lamiz. Chunonchi, Abdurahmon Jomiyning *"Nafohat ul-uns"*, *"Bahoriston"* asarlari tazkira xarakterida bitilgan bo'lsa, Alisher Navoiyning maktublardan tarkib topgan *"Munshaot"* yoki tazkira xarakteridagi *"Nasoyim ul-muhabbat"*ni sof badiiy asarlar, deyish qiyin. Ustoz xuddi shunday shartli munosabatni Husayn Boyqaroning *"Risola"* asariga nisbatan ham qo'llaydilar. Unda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyga doir juda ajoyib ma'lumotlar keltirilgani, mingga yaqin shoirlar ijod bilan shug'ullanishining tilga olingani boshqa manbalardagi ma'lumotlarni to'ldirishga xizmat qilishi bilan ahamiyat kasb etishini aytib o'tadilar. Ayni o'rinda hamradif asarlarni to'plashni maqsad qilgan Faxriy Hirotiyning *"Radoif ul-ash'or"* va ayrim adabiyotshunoslar Sayfiy Buxoriyga nisbat bergan shu nomdagi bayozlar ham eslab o'tiladi.

Faxriy Hirotiy *"Radoif ul-ash'or"* asari tuzilishi ustoz tomonlaridan muxtasar bayon qilingan. Undan ayonlashicha, hamradif

asarlarning bayozini tuzishda dastlab she'riyat olamida tan olingan ijodkorlarga murojaat etiladi, sarlavhada unga munosabat bildirilib, keyin uning she'ri ko'chiriladi, undan keyin esa ushbu she'rga radifdosh boshqa shoirlarning ijod namunalariga o'rin beriladi. Bayoz muallifining bunday munosabati Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy, Xo'ja Hofiz Sheroziy, Salmon Sajaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xo'ja Hasan Dehlaviy, Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy singari o'nlab shoirlarning she'rlaridan oldin keltirilgan sarlavhalarida yorqin namoyon bo'ladi. Sayfiy Buxoriyga nisbatlangan "*Radoif ul-ash'or*"dan 77 shoirning 264 g'azali, 3 tarji'band va 10 muxammasiga o'rin berilgani aytib o'tilgan. Shuningdek, keyingi asrlarda tuzilgan bayozlar sifatida uch bayozning qo'lyozma nusxalari tanishtiriladi.

Ko'rinadiki, mavzuga oid manbalarni belgilashda ustoz ulug' salaf Botirxon Valixo'jayevning tavsiyalariga qat'iy amal qilgan holda "*maydonni keng ol*"ganlariga guvoh bo'lamiz. Manbalar xususida keltirilgan tavsifiy ma'lumotlar ham ularni erinmay o'rganishning samarasi sanaladi. Tabiiyki, bu manbalarning o'tgan asrning 80-yillari uchun nihoyatda kamyob ekanligi sir emas. Ular bilan ishlash uchun kutubxonalarda oylab vaqt o'tkazish talab etilardi. Buning ustiga qo'lyozma tarzidagi manbalar bilan tanishish yana ham muammoliroq edi. Shunday bo'lishiga qaramay ustozning maqsad yo'lida og'ishmay ishlaganlari kuzatiladi.

Manbalar borasida olib borilgan bunday izlanishlar kitobning nazariy xarakterga ega bo'lgan "*O'zbek va fors-tojik adabiy aloqalarining shakllari*"⁵¹ni belgilashda ham o'z ifodasini topdi. Buning uchun, avvalo, o'zbek va fors-tojik adabiy aloqalari, o'zaro ta'sir jarayonining sodir bo'lishida muhim rol o'ynagan omillar, faktorlar xususida fikr yuritiladi. Adabiy aloqa va o'zaro ta'sir tarixiy kategoriya sifatida talqin qilinib, uning amal qilishi turli davrlarda, turli adabiyotlarda turlicha kechishi uqtiriladi. N.G.Neupokoyevaning adabiyot va adiblarning bir-biriga yaqinlashtirish belgilar sifatida qayd etgan: *tarixiy taqdirlardagi yaqinlik, tillar monandligi yoki yagona til (bir necha davlat va xalqlarning adabiy tili), g'oyaviy-estetik qarashlardagi mushtarakliklar*, shu bilan bir qatorda, L.I.Timofayev yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida keltirgan: *adabiyotlar o'rtasidagi tarixiy ohangdoshlik, ijodiy metodlardagi uyg'unlik* kabilar⁵² ko'rsatib o'tiladi. O'zbek va fors-tojik adabiyotlari va ijodkorlarining o'zaro

⁵¹ O'sha kitob, 35-62-betlar.

⁵² O'sha kitob, 42-bet.

yaqinligida yuqoridagi belgilarning qaysidir jihatlari bilan namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shunday bo'lsa-da, ustoz bu kabi yaqinlik belgilarining o'ziga xoslilarini topishni maqsad qiladilar. O'rta Osiyo xalqlarining *qorishiq holda hayot kechirishi*, shu bois bunday qardosh xalqlar *bir-birini tarjimonsiz ham tushunishilari* o'zaro yaqinlikning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Abdurahmon Jomiyning o'zbek tilini yaxshi tushunishi fikr tasdig'i sifatida keltiriladi. Yana bir muhim jihat shundaki, S.Shermuhamedov, S.Mirzayev kabi olimlarning adabiy aloqalarni mavjud shart-sharoitiga ko'ra, shartli ravishda *oson* va *qiyin* ko'rinishlarga tasnif qilganlari to'g'ridan to'g'ri qabul qilinmaydi, ularni *bevosita va bilvosita ta'sir* sifatida tushunish tavsiya etiladi. Buning uchun hududiy yaqinlik, adabiy-estetik qarashlardagi mushtarakliklar, tarixi va taqdiri, psixologiyasi, tili bir-biriga yaqin bo'lgan adabiyotlarning, shuningdek, zamondosh ijodkorlarning bevosita adabiy aloqaga kirisha olishi ta'kidlanadi. Ana shunday imkoniyatlarga ega bo'lmagan adabiyotlar esa bilvosida, qaysidir adabiyot yoki ijodkorning aralashuvi tufayli aloqaga kirishishi qayd etilib, o'zbek va fors-tojik adabiy aloqalarida bevosita ko'rinishining amal qilib kelgani ko'plab misollar bilan dalillanadi.

Ustoz o'zbek va fors-tojik adabiy aloqalari va o'zaro ta'sir "janr"larini belgilashda ham, bu borada aytilgan mulohazalar va Sharq mumtoz adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib yondashadilar. Uning asosiy ko'rinishlarini belgilashda, katta-kichik adabiy-estetik hodisalarning deyarli barchasini qamrab olishga e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, tarixiy asarlar, memuarlar, manoqib holotlar yoki memuar xarakterdagi badiiy asarlar, ilmiy asarlar, munshaot va bayozlar, tarjima, zullisonaynlik, tatabbu' – istiqbol yoki muqobala, iqtibos, taxmis, tazmin, shaxsiy munosabatlar o'zbek va fors-tojik adabiy aloqalari va o'zaro ta'sirning ko'rinishlari sifatida talqin qilinadi. Bular orasida tarjima adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning eng faol, eng ommalashgan va eng mahsuldor shakli sifatida talqin qilinsa, bu ikki xalq uchun uzoq tarixga borib taqaluvchi zullisonaynlikning dastlabki shakllari shir-u shakar satrlar bitishdan boshlangani e'tirof etiladi. Tatabbu' qatorida qo'llanuvchi javob, muqobala, taqlid, nazira, istiqbol, tazmin, taxmis kabilar Sharq xalqlari adabiyotlari o'rtasida asrlar davomida amal qilib kelgan adabiy hamkorlik, o'zaro ta'sir, ustoz-u shogirdlikni ifodalovchi formalar – janrlar sifatida taqdim etiladi. Bularning bari bir nuqtaga – ustozning masala mohiyatini sinchkovlik bilan idrok etib, tadqiq qilganlari borib taqaladi. Ta'kidlash lozimki, XV

asrning ikkinchi yarmiga qadar o‘zbek va fors-tojik adabiyoti g‘oyaviy sarchashmalar va bir qator badiiy qonuniyatlarining uyg‘unligiga ko‘ra ikki tilda ifodalangan bir adabiyot holida yashab kelmoqda edi. Ustoz masalaning ayni jihatini monografiyaning bir-necha o‘rnida bot-bot uqtirib turadilar. Hirot adabiy muhitining rahnamolaridan sanalgan ikki buyuk so‘z san’atkorlari misolida aytilgan quyidagi mulohazalar e’tiborga molik: *“Navoiy va Jomiylar uchun na millat, na til e’tiborda edi. Ular turk-u tojik o‘rtasida chegara, o‘tib bo‘lmas devor qurmaganlar. Navoiy va Jomiy uchun qobiliyat, badiiy so‘z san’atini chuqur bilish, uning nafasat va nazokatini qalbdan tushunish, barchasining yakuni sifatida xalqchil, yuksak mahorat bilan dilkash asarlar yarata olish mag‘izli, yangi – o‘z so‘zini ayta bilish pisand edi”*⁵³.

Ustoz adabiyotda zullisonaynlik tarixini yoritishda bu borada bildirilgan bir qator omillarning ta’sirini inkor etmagan holda fors-tojik va arab tillarining turkiy tilda so‘zlashuvchi qabilalar o‘rtasida keng tarqalishi va shuhrat paydo qilishini aynan shu xalqlar orasidagi zullisonaynlikning asosiy faktori sifatida talqin qiladilar. Zullisonaynlik hodisasining amal qilishida tillarning genetik jihatdan bir-biriga yaqin va yo mutloqao uzoqligining ahamiyatsiz ekanligini misollarga tayanib qayd etadilar. O‘zbek va fors-tojik adabiyotidagi zullisonaynlikning paydo bo‘lishida qo‘shni tilga qiziqish, uni o‘rganish va badiiy asarning ta’sirchanligini oshirish maqsadida o‘sha tilga mansub so‘zlarni qo‘llash jarayonida vujudga kelgan *“shir-u shakar”*, *“mulamma”*lar o‘rnining beqiyosligini ta’kidlaydilar. Buning uchun badiiy asar qahramonlari nomlarining kishi nomlariga aylanishi, xususan, qo‘shma so‘zlardan tarkib topgan bunday nomlarda o‘zbek-tojikcha yoki aksi, arabcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-mo‘g‘ulcha singari ko‘rinishlar kuzatilishining muhim omil bo‘lgani monografiyada nihoyatda asosli misollar bilan muayyanlashtiriladi. Ayni masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga tayanib, bir misrasi boshqa, ikkinchisi boshqa tilda bitilgan mulammaning *mulammayi makshuf* (kashf qilingan), bir-ikki bayti boshqa va keyingi bir-ikki bayti boshqa tilda ijod etilgan mulammaning *mulammayi mahjub* (pardalangan mulamma), bir bandi boshqa, ikkinchi bandi boshqa tilda yozilgan *mulamma-muxammas* haqida ma’lumot beriladi. Mulammaning *“shir-u shakar”* atamasi bilan ham ifodalanishi Yusuf Amiriyning *“Chog‘ir va bang”* munozarasidagi *“Shir-u shakartek*

⁵³ O‘sha kitob, 61-bet.

biri birlan qarın, Hamsabaq-u, hamnafa-u hamnishin”, Xoqoniy Shirvoniyni (1126-1198) *“Ta’mi suxanam hamchu asal xoxad bud, Tab’am chu shakar figard dar shirin suxan”* baytlari bilan dalillanadi. Eng muhimi, o‘zbekcha-tojikcha mulammalar ijod etilishida tarafayn munosabatning amal qilinishiga alohida diqqat qaratiladi. Bu ikki tilda mulamma ijod etishning dastlabki namunasi sifatida XII asrda yashagan fors-tojik shoirlari Hakim Sanoiy va So‘zoniy Samarqandiylar ekanligi ularning ijodidan keltirilgan namunalar asosida isbotlanadi. Bu shoirlarning mulammada bitilgan baytlarida bir nechagina o‘zbekcha so‘zlar uchrasa, fors-tojik shoiri Sayyid Ne‘matullohning *“Man chunin sarmasti yoram, san nechuksan? So‘ylagil, G‘ayri ishqam nest koram, san nechuksan? So‘ylagil”* baytida kuzatilganidek, misralar yarmini tojikcha, qolgan yarmini o‘zbekcha bitish bilan ikki xalq qardoshligini mustahkamlashga hissa qo‘shgani e‘tirof etildi. Masalaga tarixiylik tamoyili asosida yondashib, XV asrga kelib o‘zga til materialidan sanoqli so‘zlarni “qarz olish” kifoya qilmay qolganiga urg‘u berildi.

Ustozning o‘zbek va fors-tojik adabiyotidagi zullisonaynlik va uning taraqqiyotida muhim bosqich sifatida qaralgan mulammachilik tarixini eng kichik faktlarini ham e‘tibordan soqit qilmay o‘rganishlari tadqiq etilayotgan davr adabiyotidagi zullisonaynlik masalasida ham muhim ilmiy-nazariy xulosalarga kelishlarida zamin yaratdi. Kitobning uchinchi bobini tashkil etuvchi ushbu masala tadqiqi jarayonida ham ustozning mavzuga oid katta-kichik faktlarni o‘rnida ishlatish iqtidorlari namoyon bo‘lib borgani kuzatiladi. Ustoz ijtimoiy kelib chiqishi turkiy qabilalarga mansub bo‘lib, ayni davrda yashab ijod etgan Badriddin Hiloliyni fors-tojik adabiyotining atoqli namoyandasiga aylanishini o‘zi mansub tilda ijod qilmay, batamom boshqa tilda badiiy asarlar yaratgan ijodkorlar sirasiga mansub deb biladilar.

Davr adabiyotidagi zullisonaynlik masalasini shartli ravishda: o‘zbek adabiyotida zullisonaynlik an‘anasi va tojik ijodkorlarining o‘zbek tilidagi asarlari tarzida tasniflashni ma‘qul ko‘radilar. Ushbu tasnifdagi masalaning birinchi ko‘rinishi “yuk”ining salmoqligi jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois u bilan aloqador muhim va kamyob dalillarga diqqat qaratiladi. *“Majolis un-nafois”*da nomlari keltirilgan 459 ijodkordan 39 nafarining turkiygo‘y yoki zullisonayn ijodkor ekanligi ta‘kidlanadi. Ushbu asar tarjimonlari Faxriy Hirotiy va Muhammad Qazviniylar Husayn Boyqaroning forsiy misralar ijod qilgani haqida xabar berganiga, jumladan, Muhammad Qazviniy quyidagi g‘azalni Husayniyga nisbat berganiga diqqat jalb etiladi:

*Dar g'ami ishqat maro na tan, na jone monda,
In xayole gashtavu z-on yak gumone monda.
Bo qade xam gashtaam, az hajri on abro' kamon,
Chun kamonam pay ba ro'yi ustuxone monad.
Chun Husayniy boz xoxam xeshro pirona sar,
Hast, sar dar sajdayi zebo javone monda⁵⁴.*

Husayniy haqidagi bunday misol Kamoliddin Abdulvose Nizomiyni "Hazrat Mavlaviy Jomining maqomoti" asari misolida ham keltiriladi. Shohg'arib Mirzoning zullisonayn shoirligi "Majolis un-nafois", "Boburnoma" va Faxriy Hirotiyning "Ravzat ul-salotin" asarlari misolida birmuncha mufasssal ko'rsatib o'tiladi.

Kitobning dastlabki ikki bobida Alisher Navoiy masalasi, uning ijodi, Abdurahmon Jomiy va boshqa fors-tojik shoirlari bilan bu ulug' ijodkorning adabiy munosabatlarda bo'lishi markaziy o'rinda tutilgani kuzatilganidek, ushbu bobda uning fors-tojik tilidagi she'riyati alohida sarlavha ostida tahlilga tortiladi. Buning uchun dastlab "Devoni Foni" haqida "Muhokamat ul-lug'atayn"da berilgan mulohazalar, o'sha davrda yangi topilgan asarlar sifatida fanga ma'lum qilingan Alisher Navoiyning "Sittayi zaruriya", "Fusuli arbaa" singari qasidalar to'plami haqidagi Hamid Sulaymon tadqiqotidagi qarashlar, Navoiy-Foniyni forsiy merosini aniqlash ustida Sadridin Ayniy olib borgan izlanishlaridagi kuzatishlar qiyosiy o'rganiladi. "Devoni Foni"ning tuzilishida mumtoz tamoyillarga amal qilingani holda unda joylashtirilgan g'azallardan oldin keltirilgan sarlavhalarning boshqa devonlarda uchramasligi bilan bog'liq bahsli mulohazalarga munosabat bildiriladi. Alisher Navoiyning forsiy tilda bitilgan tatabbulari xususida ayrim noto'g'ri munosabatda bo'lish mayli shoir yashagan davrida ham yuz bergani ta'kidlanib, bunday maylni yetarli asosga emasligi bu borada olib borilgan tadqiqotlar misolida aniqlashtiriladi. Qizig'i shundaki, bunday munosabat ulug' shoirning o'ziga ham ma'lum qilingan ko'rinadi. Ustoz shoirning quyidagi ikki baytida ifodalangan mazmundan, ya'ni she'rlarini farzandi sifatida talqin etib, o'zi boshqalar farzandini sevimli qabul qilgani holda, o'zgalar ham shunday yo'l tutsalar nima qiladi, tarzidagi ifodasidan uning ham ayni holdan bir oz noroziligi ayonlashishiga diqqatni tortadilar:

*She'ri man gar z-on, ki dar ma'ni ba man farzand shud,
Lek mahbubi man ast ash'ori marg'ubi kason.*

⁵⁴ O'sha kitob, 93-bet.

*On chunun k-aftod farzandi kason mahbubi man,
Chi buvad az farzandi man ham gasht farzandi kason*⁵⁵.

Kitobda ulug' shoir ikki tilda bitilgan she'rlarining egizaklarga o'xshashi, bir-biriga nihoyatda uyg'un, bir-biridan go'zal she'rlar ekanligi dastlab Navoiy-Foniyning ixtiro g'azallari tahlili misolida ko'rib o'tiladi. "*Mo kujo zuhd-u ibodat kujo?*", "*Omad bahori dilkah-u gulhoyi tar shukuft*", "*Rasid on parichehra mastona in shab*", "*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi*", "*Hast alif guftem on bolo bared az mo suxan*" satri bilan boshlanuvchi g'azallar tahlili misolida muhim ilmiy-nazariy xulosalar bayon etiladi. Shoir qalamiga mansub besh yuzga yaqin forsiyda bitilgan muammolarning mavjudligi uning mazkur janrga nisbatan ixlos va zavqining balandligi tarzida talqin etiladi.

Alisher Navoiy qasidanavis shoir sifatida ham mashhur. Shoirning bu janrdagi asarlari *o'z ixtirolari* va fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyandalarining ayni janrdagi badiiy yaratmalariga aytilgan *javobiya*, *tatabbu'lar* tarzida tasnif etiladi. Muayyan bir qasidaga bir necha ijodkorlar tomonidan javobiya yozish an'anasi fors-tojik adabiyotida ancha erta shakllalgan an'ana ekanligi Usmon Muxtor G'aznaviyning "*Musulmon kushtan oyin kard chashmi nomusulmonash*" satri bilan boshlanuvchi qasidasiga Adib Sobir Termiziy, Muizzin, Sayyid Hasan G'aznaviy, Xoqoniy sinagari shoirlar javobiya bitgani, keyinchalik Xoqoniy qasidasiga javoban Sayfiy Isfarangiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy, Urfiy Sheroziy, Sidqiy Buxoriy, Muhammad Fuzuliy tatabbu' qasidalarining vujudga kelgani, ayni janrdagi tatabbu'larning adabiyotlararo aloqa va adabiy ta'sir rivojiga muhim hissa bo'lgani e'tirof qilinadi. Alisher Navoiyning adabiyot olamida voqeabo'larli nazm namunalariga tatabbu' bitishi qasida janri misolida ko'rib o'tilarkan, Amir Xusrav Dehlaviyning "*Daryoyi abror*" qasidasiga Nuriddin Abdurahmon Jomiyning "*Lujjat ul-asror*" asari va XV asr Hirot adabiy muhitining Sulton Mahmud Mirzo, Shayxim Suhayliy, Kamoliddin Binoiy, Abdusamad Badaxshiy singari shoirlari qatorida o'zining "*Tuhfat ul-afkor*" qasidasini yaratgani ta'kidlanadi va qasidaning dastlabki olti baytining tahlili misolida uning o'ziga xosliklari, badiiy barkamolligi yoritiladi.

Alisher Navoiyning tatabbu' uchun badiiyat namunalarini saralashi qasida tanlashi tamoyilida voqeylashgani singari uning ulug' salaflar

⁵⁵ O'sha kitob, 104-bet.

Shayx Sa'diy, Xo'ja Hofiz, Xusrav va Hasan Dehlaviylar, Qosim Anvor, Amir Shohiy va zamondoshlari Amir Shayxim Suhayliy, Amir Vafoiy, Kotibiy, Husayn Boyqaro, Orifiy, Xo'ja Avhad g'azallari misolida kuzatilishi ham qayd etiladi. Ulug' shoirning "*Devoni Foniy*"dan o'rin olgan "*Ba ro'yi tu shud tiyra az ashk maro shabho*", "*Dar dilam otashi muhabbati o'st*" misralari bilan boshlanuvchi nazira g'azallari Abdurahmon Jomiyning "*Rezam zi mija kavkab be mohi ruhat shabho*", Hofiz Sheroziyning "*Dil saropardayi muhabbati o'st*" satrlari bilan ibtido topuvchi g'azallari hamda Alisher Navoiyning "*Biyo, ki arsayi mayxona ishrat obod ast*" misrasi bilan boshlanuvchi tatabbu'-tazmin g'azali Hofiz Sheroziyning ayni boshlanmali g'azali bilan qiyosiy tahlil qilinadi, Alisher Navoiyning salaflar ijodidan ta'sirlanib yaratgan badiiy kashfiyotlari, uning nazira g'azalda asos sifatida tanlangan g'azalning qofiyalarini aynan saqlab qolishi, yangi qofiyalar tanlashi misolida kuzatilib, muhim ilmiy-nazariy xulosalar bayon etiladi. Shuningdek, Alisher Navoiyning adabiy faoliyatida fors-tojik adabiyotiga nisbatan namoyon bo'lgan bunday jo'shqin munosabat Shayxim Suhayliy, Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobur singari o'nlab shoirlar ijodi misolida davom etgani e'tirof etiladi.

XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida temuriylar, shayboniylar hukmronligi davrida Movarounnahr-u Xurosonda, boburiylar hukmronligi ostida Afg'oniston-u Hindistonda turkiy til nufuzining oshishi, yana bir qator omillarga ko'ra tojik shoirlarining o'zbek tilida ijod qilish bilan zullisonaynlik an'anasining davom ettirganliklari kuzatiladi. Ustoz ayni adabiy hodisani teran o'rganib, zullisonaynlik rivojiga ulush qo'shgan shoirlarning o'zbek tilida doimiy qalam tebratmaganliklarini, ularning shu tildagi she'rlarini jamlab, devon tartib berganliklari ham hali fanga ma'lum emasligini ta'kidlaydilar. Binoiy, Vosifiy, Davlatshoh Samarqandiy, Hiloliy singari iste'dodli shoirlarning Alisher Navoiyga ergashib, o'zbek tilida yozgan she'rlari yoki o'z ona tillari bilan birga o'zbekchada bitgan mulammalari ayni adabiy-estetik hodisaning namunasi sanaladi. Ustoz "*Tazkirat ush-shuaro*" tazkirasiga tayanib, Davlatshoh Samarqandiyning o'zbek tilini juda yaxshi bilishi va bu tilda badiiy iste'dodini ham namoyon eta olishini ma'lum qiladilar. Uning shir-u shakar – mulammada bitilgan, 52 misrali Alisher Navoiyga bag'ishlangan qasidasi misolida bildirilgan mulohazalarga aniqlik kiritiladi. "*Subhidam ochdi yuzidin pardayi nilufariy, Jilva berdi husnini zebo arusi xovariy*" matlasi bilan boshlanuvchi qasidaning turkiy aruzga xos ramali musammani mafzufda bitilgani shoirning o'ziga qadar

mulammachilikdagi muhim bir yangiligi sifatida e'tirof etiladi. Kamoliddin Binoiyni o'zbek tilida ruboiylar bitgani "*Boburnoma*"da keltirilgan "*Mirzomki shohi bahr-u bar bo'lg'usudur*" satri bilan boshlanuvchi ruboiysi bilan dalillansa, bir qancha manbalarda Badriddin Hiloliyning zullisonaynligi qayd etilgani holda undan namunalar keltirilmaganligiga diqqat qaratiladi. Ustoiz bu borada E.Rustamovning rus tilida yozilgan "*XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyati*" monografiyasida quyidagi bahri taviil o'lchovida bitilgan parchaning keltirilganini manuniyat bilan ta'kidlaydilar:

*Na qilay – oh, na aylay. Netay Olloh – na aylay,
Manga bir sho'xi balo uchradi nogoh – na aylay*⁵⁶.

Zayniddin Vosifiyning zullisonayn ijodkor ekanligiga uning "*Badoye' ul-vaqoye*" asaridan o'rin olgan 5 baytli "*Bazmi vaslingdin meningdek zor-u majruh o'lmasun*" va "*Ul sho'xki mandin yana begona bo'lubtur*" satrlari bilan boshlanuvchi turkona uslubda bitilgan ikki g'azali misolida oydinlik kiritiladi. Tojik shoirlarining ushbu an'anasi keyingi davrda Abdurahmon Tamkin, Sodiql Munshiy Jondoriy, Somiy Bo'stoniy singari o'nlab shoirlar ijodi misolida davom ettirilgani ta'kidlanadi.

Kitobda keltirilgan ma'lumotlarning erinmasdan, nihoyatda sinchkovlik bilan qo'lga kiritilgani, tahliliy mulohazalarning esa muayyan bir ilmiy nazariy xulosaga kelish uchun asos bo'lgani kuzatiladi. "*XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlarida o'zbek-tojik she'riyati*" nomli monografiya katta tayyorgarlik natijasida vujudga kelib, 1983-yilda nashr etilgan bo'lsa-da, u besh yildan so'ng 1988-yil 19-mayda ommaviy himoyaga olib chiqilib, o'sha paytda 10.01.03 -SSSR xalqlari adabiyoti (o'zbek adabiyoti) va 10.01.06 - Osiyo va Afrika xalqlari adabiyoti (fors-tojik adabiyoti) ixtisosliklariga munosib topilgan "*XV asrning birinchi yarmi XVI asrning boshlari o'zbek va fors-tojik adabiyotlarining o'zaro aloqasi (tarixiy-tipologik sathda)*"⁵⁷ mavzusidagi kirish, 5 asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan, 378 sahifali filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyaning asosini tashil etgandi. Shu bois ustoz himoyaga qadar ham ushbu mavzuning turli jihatlarini o'rganish bilan bir qatorda yangi davr o'zbek adabiyoti bilan ham shug'ullanishga, hatto Mahmud Tarobiy qo'zg'oloniga bag'ishlangan

⁵⁶ O'sha kitob, 136-bet.

⁵⁷ Вахидов Р.Ж. Взаимосвязи узбекско и персидско-таджикской литературы во второй половине XV – начале XVI в. (историко-типологический аспект). Диссертация на соискание учебной степени доктора филологических наук. –Ташкент, 1988, 378 стр.

risola yozishga ham ulgurdilar. Dissertatsiyaning “*Kirish*” qismi mavjud talablar asosida tayyorlanib, uning “*Tarixiy davr va adabiy jarayon*” bobida tarixiy voqeyliklarning sharhlangani, shoirning Hirot shahriga bo‘lgan samimiy muhabbati bitilgan misralar (31-bet), Xorazmiy “Muhabbatnoma”ni ikki tilda yozishni niyat qilgani xususidagi baytlar (88-bet) tahlilga yortilgani, keltirilgan adabiy parchalarning va dissertatsiya matnining rus tiliga tarjima qilinib, ayrim mulohazalarning chuqurlashtirilgani kuzatiladi. Shunday bo‘lsa-da dissertatsiya tayyorlanishida ushbu monografiyaning o‘rni mavjudligi yaqqol sezilib turadi. Bizningcha, o‘sha davrdagi sun‘iy to‘siqlar mazkur tadqiqot himoyasini kechiktirgan ko‘rinadi.

Ustozga bag‘ishlangan kitob va maqolalardagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Toshkentdagi Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutida dissertatsiya himoyasi nihoyatda ko‘tarinki ruhda o‘tkaziladi. Tadqiqotga filologiya fanlari doktori, professorlar A.Hayitmetov, A.Afsahzod, E.Shodiyevlar opponent sifatida yuksak baho berishadi. Akademik I.Sulton, sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti bo‘lim boshlig‘i, professor Muhammad Nuriy Osmonov, ozarbayjonlik olim, professor R.Aliyev muzokara uchu so‘zga chiqib, tadqiqotning muhim yutuqlarini alohida ta‘kidlagan bo‘lishsa, tojik adabiyotshunoslari, akademik M.Shukurov va professor A.Sayfullayev, qozoq akademigi S.Kiraboyev, gruzin olimi L.S.Giunashivili, ozar adabiyotshunoslari D.Qahramonov, J.Nagiyevlar, o‘zbek olimlari A.Qayumov, B.Valixo‘jayev, N.Mallayev, H.Ne‘matov, M.Boltayev, M.Jabborov, H.Hamidov, T.Boboyev, G‘.Salomov, B.Qosimov, S.Mirzayev, Sh.Shukrov, L.Qayumov, H.Umarovlar bildirilgan mulohazalarni qo‘llab-quvvatlashdi. Ko‘p o‘tmay ustozga shu yilning o‘zidayoq professor ilmiy unvoni berildi. Ustoz yana ayni yo‘nalishdagi ishlarini davom ettirishda o‘zgacha jidd-u jahd ko‘rsatdilar.

Abdurahmon Jomiy XV asrning ikkinchi yarmida Alisher Navoiy singari bir qator iste’dod egalarining ma’naviy rahnamosiga aylangan edi. Uning turkiy adabiyotga, xususan, Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan samimiy munosabati va barakali ijodi davr adabiy muhitida ikki qardosh xalq adabiyotlarining ajralmas holga kelishida, o‘zaro adabiy ta’sir va aksta’sir masalarida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bois ustoz Rahim Vohidov ayni mavzu tadqiqiga bag‘ishlangan katta-yu kichik ilmiy izlanishlarida ulug‘ salaf ijodiga ehtirom ko‘rsatish bilan bir qatorda Abdurahmon Jomiy ijodi va shaxsiyati masalasini alohida o‘rganishni ham muhim vazifa sifatida qarardilar. Ustozning dastlab

Abdurahmon Jomiy tavalludining 575 yilligiga bag‘ishlangan “*Sharqning buyuk allomasi*”⁵⁸, keyinchalik 590 yillikka atalgan “*Ma’naviyat olamining porloq quyoshi*”⁵⁹ nomli risolalari ana shunday istakning samarasidir.

Birinchi risola “*Muqaddima*”sida “*Ulki bukun qutbi tariqatdur ul, Koshifi asrori haqiqatdur ul*” singari “*Hayrat ul-abror*” dostonidan o‘rin olgan Abdurahmon Jomiyga atalgan 7 baytli iqtibosga murojaatdan unda ikki zabardast shoir orasidagi ruhiy-ma’naviy yaqinlik, adabiy ta’sir xususida so‘z borishi anglashilib turadi. Ustoz Abdurahmon Jomiy tarjimayi holini muxtasar yoritish bilan kifoyalanib, ulug‘ shoirning keng ko‘lamli ijodiy va ilmiy merosiga e’tiborni qaratadilar. Mutafakkir ijodkorning turkiy adabiyotga munosabati, avvalo, uning o‘zbek tilini yaxshi bilganligi, Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiy bilan insoniy va ijodiy aloqalarda bardavom bo‘lgani qayd etiladi. “*Bahoriston*”ning yaratilishi tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari tanitilib, uning 7-ravzasida keltirilgan fors-tojik adabiyotida burilish yasay olgan shoirlarga munosabati qatorida Alisher Navoiy ijodiga bergan bahosi xususida ham so‘z yuritiladi. Mavlono Lutfiyning adabiyot maydoniga chiqishi o‘zbek va tojik adabiyotlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va adabiy ta’sir tarixida jiddiy burulish bo‘lgani, shu davrdan boshlab o‘zbek adabiyoti tojik adabiyotining boy ma’naviy merosidan ta’sirlanish bilan birga unga ta’sir ham o‘tkaza boshlagani Mavlono Lutfiy va Abdurahmon Jomiyning o‘zaro munosabatlari misolida oydinlashtiriladi. Mavlono Lutfiyning iltimosiga ko‘ra uning “*Gar kori dili oshiq bo kofiri Chin aftad, Beh z-on ki badxo‘ye berahm chunin aftad*” matlasini Abdurahmon Jomiy to‘liq g‘azal holidagi yakunlab, devoniga kiritishi, “*Suxan*” radifli qasidasining muhokamasi jarayonida Abdurahmon Jomiyning lutf-u marhamatiga sazovor bo‘lishi singari lavhalar misolida o‘zaro yaqinlik, adabiy ta’sir masalalari yoritiladi. Har ikkala shoir g‘azaliyotidagi shakily va g‘oyaviy uyg‘unlik qayosiy tahlillarda ko‘rsatib o‘tiladi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy orasidagi ruhiy-ma’naviy yaqinlik risolaning salmoqli qismini tashkil etadi. Ulug‘ salaf asarlarida Alisher Navoiyga munosabat, “*Sabhat ul-abror*” va “*Hayrat ul-abror*”dagi so‘z ta’rifi talqinidagi, “*Xiradnomayi Iskandariy*” va “*Saddi Iskandariy*”dagi Hotami Toy hamda gadolikni ixtiyor etgan shahzoda hikoyatlaridagi o‘zaro uyg‘unlik, Alisher Navoiyning ulug‘ salaf g‘azallariga bitgan naziralaridagi o‘xshashlik va

⁵⁸ Воҳидов Р. Шарқнинг буюк алломаси. –Тошкент: “Фан”, 1989, -72 б.

⁵⁹ Воҳидов Р. Маънавият оламининг порлоқ қуёши. Бухоро, 2004, -48 б.

ijodiylik misolida ikkala shoirning ustoz-u shogirdlik munosabatlari, o'zaro adabiy ta'sirlanishiga oydinlik kiritiladi.

“*Ma'naviyat olamining porloq quyoshi*” risolasining “*Debocha*”si o'ziga xos boshlanma sanaladi. Unda ilmiy-publisistik uslubda Husayn Boyqaro saroyidagi adabiy yig'in yoritiladi. Husayn Voiz Koshifiy tomonidan Alisher Navoiyning “*Koshki*” radifli g'azaliga Abdurahmon Jomiy qalamida sayqallangan “*Diydame didori on dildori ra'no koshki*” satri bilan boshlanuvchi nazira g'azali to'liq o'qiladi. To'qqiz baytli ushbu g'azallardagi shakliy uyg'unliklar ularning badiiy barkamolligini ta'minlagani e'tirof etilib, nazira g'azalga Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro da'vati bilan taxmis musaddas bog'lagani aytib o'tiladi. Abdurahmon Jomiy tabiatidagi xokisorlik uning ulug'vorligining bir belgisi ekanligi Alisher Navoiy hikoya qilgan Seyiston qozisining qobiliyatli o'g'li haqidagi hikoya misolida oydinlashtiriladi. “*Sino*” jurnalidagi ayrim maqolalarda “*Ey labat purxanda-yu chashmi siyohat masti xob, Ikki zulfing orasida oy yuzungdir oftob*” matlali mulamma va uchta o'zbekcha g'azallarning Abdurahmon Jomiyga nisbat berilishining asossiz ekanligi dalillanadi. Ulug' shoir g'azal va hikmat maqomiga ko'tarilgan she'rlarining o'zbekcha tarjimalari misolida uning mohiyati, adabiy-estetik qimmatini haqida fikr yuritiladi. “*Haft avrang*”da Jomiy hazratlarining xiradmandona fikr yuritishga harakat qilganlariga e'tibor qaratiladi. “*Silsilat ul-zahab*”dagi tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi baytlar, “*Sodda qishloqi va uning eshagi qissasi*”, “*Ma'shuqasini hamisha unutmaydigan oshiq*” adabiy parchasi misolida mulohazalarga aniqlik kiritiladi. Dostonda keltirilgan she'r va shoirlik bahsida ham ayni holatning kuzatilishi ko'rsatib o'tiladi. “*Iskandar xiradnomasi*”da shoir xiradmandona mulohazalarining yanada chuqurlashishi so'z ta'rifida bitilgan misralar tahlilida aniqlashtiriladi. Kuzatishlardan ayonlashadiki, Abdurahmon Jomiy ijodi ustozning doimiy e'tiborlarini o'ziga jalb etib kelgan badiiyat namunasi bo'lgani bois ayni masala tahlil-u talqinida ustoz doimo yangi gap aytishga, bildirilgan mulohazalarni yanada teranlashtirishga doimo harakat qilib kelganlar. Bu esa muayyan mavzu va uning atrofidagi masalalar tadqiqiga hayotini bag'ishlagan, undan lazzat topa olgan olimlardagina nasib bo'lgan fazilat sanaladi.

Ustoz mehnat ta'tilini uzoq yillar davomida jonajon qishloqlarida o'tkazishni ma'qul ko'rar edilar. Bu esa bizgacha yetib kelgan ulkan ma'naviy meros vositasida ustozning Alisher Navoiyday ulug' ijodkor bilan bir muddat muroqabalarini ta'minlash imkonini berardi. Hayot tashvishlaridan qariyb 2 oy davomida uzilib, qadrdon hovlining

jaziramadan muhofaza qilingan salqin xonalaridan birida shahardan saralab, qo‘ltiqqa solib kelingan ulug‘ shoir asarlari ustida mushohada yuritish, butun e‘tiborni jamlagan holda undan yangi ma‘lumot-u badiiyat libosida zeb berilgan ma‘rifat durlarini izlash ustozga o‘zgacha lazzat baxsh etardi. Shundan bo‘lsa kerak, biz domla haqlarida *“falon joyga dam olgani ketganlar”* tarzidagi xabarni eshitmaganmiz. Ustoz uchun doimiy tuzilgan rejalarning amalga oshganini ko‘rish, izlanishlar samarasi bo‘lgan bir kitob nashrining dastlabki nusxasi bilan tanishish eng katta baxt sifatida tushunilar edi. *“Alisher Navoiyning ijod maktabi”*⁶⁰ kitobining *“Muqaddima”* sida uning vujudga kelishida ham yozgi mehnat ta‘tilidagi ulug‘lar bilan muroqaba vosita bo‘laniga ishora qilinadi. To‘g‘ri, unda Alisher Navoiy ijodiy barkamolligini ta‘minlashga hissa qo‘shgan shoirlar, uning zamondoshlari ijodidan adabiy ta‘sir lanishi, aksta‘sir, ulug‘ shoir ijod maktabining keyingi davr shoirlari ijodiga ta‘siri haqidagi ko‘p yillik kuzatishlar asosida yozilgan maqolalardan ham foydalanilgan. Biroq ularni bir joyda jamlash muayyan bir konsepsiya asosida vujudga keladigan kitobni shakllanishini ta‘min eta olmaydi. Buning uchun e‘lon qilingan maqolalarni saralash, maqolalarda yoritilgan mavzuning kitobga qay darajada muvofiq kelishini aniqlash, ularni qisqartirish, boyitishga doir ishlarni amalga oshirish, shuningdek, kitobning muayyan fasllarini, ba‘zan bobini qayta yozish, tizimlashtirish singari ishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Ustoz 1994-yilning yozida ulug‘lar bilan muroqabaga kirishib, o‘zbek va fors-tojik adabiy alaoqalari, adabiy ta‘sir mavzusidagi ikkinchi yirik tadqiqotlari – *“Alisher Navoiyning ijod maktabi”* nomli kitoblarini vujudga keltirishga erishdilar.

Kitob muqaddima, *“Alisher Navoiyning ijod maktabi”* deb ataluvchi qolgan uch fasl-u uning ichki faslchalaridan alohidalik kasb etuvchi bo‘lim va xotimadan tarkib topgan. Ustod dastlab ulug‘ shoir ijod maktabining shakllanish omillarini imkon qadar batafsil bayon qilishni maqsad qiladilar. Buning uchun Alisher Navoiyning, avvalo, o‘z e‘tiroflari, keyinchalik esa zamondoshlarining qaydlariga tayaniladi. Jumladan, *“Hayrat ul-abror”* dagi *“Yo‘ldasa bu yo‘lda Nizomiy yolim, Qo‘ldasa Xusrav bila Jomiy qo‘lim”* singari baytlar misolida fikr yuritiladi. Shoirning 3-4 yoshlar orasida davrining *“koshifi asrori”* Amir Qosim Anvorning *“Rindemu oshiqemu...”* so‘zlari bilan boshlanuvchi ma‘rifiy g‘azalini, maktab yoshidaligida Farididdin Attorning *“Mantiq*

⁶⁰ Воҳидов Р. Алишер Навоийнинг ижод мактаби. “Бухоро”, 1994, -188 б.

ut-tayr” dostonini yod olgani, 9-10 yoshlarida “Malik ul-kalom” Mavlono Lutfiy, Amir Shohiy Sabzavoriylar ijodidan xabardorligi, ular bilan muloqotga kirishgani, “*Orazin yopqoch...*” gʻazalini oʻqish bilan Mavlono Lutfiyning tahsiniga sazovor boʻlgani batafsil yoritiladi. 1465-1466-yillarda shoirning norasmiy “*Ilk devoni*”ning tartib berilishi, Samarqand adabiy muhitining faol ishtirokchisiga aylanib, Mavlono Riyoziy Samarqandiyning “*Zi roʻyi husn durri...*” bayti Alisher Navoiy tomonidan tahrir etilishi, tikuvchi Bobur haqida “*Qabo bar qaddi tu medoʻzad ayyom, Baror az qof, to qof, ey pisar nom*” muammosining vujudga kelishi kabilar xususida bahs yuritiladi. Shular natijasida turkiyda bitilgan badiiy, ilmiy, axloqiy-taʼlimiy asarlari va oʻn uch ming misrani oʻz ichiga olgan “*Devoni Foniy*”ning vujudga kelgani eʼtirof etiladi. Ayni jihatlar bilan ustoz Alisher Navoiy ijod maktabining shakllanish va taraqqiyot omillari, bunda adabiy aloqa va adabiy taʼsirning oʻrnini obzor holda koʻrsatib oʻtishga erishadilar. Endi esa maqsad XV asrning ikkinchi yarmidanoq Alisher Navoiyga izdoshlik qilish, asarlariga javob aytish, tatabbuʼ bogʻlash, mahorat bobidagi anʼanalarini davom ettirish adabiyot mulkining ezgu hodisasiga aylanganini imkon qadar batafsilroq asoslashga qaratiladi. Buning uchun “*Xamsa*” nihoyasiga yetishi bilan shoirning doʻsti, Xuroson hukmdori Husayn Boyqaroning uugʻ shoirga jilovbardorlik qilish hodisasi eslanadi. “*Xiradnomayi Iskandariy*”ning xotimasida Abdurahmon Jomiyning Alisher Navoiy ijodiga bergan yuksak bahosi, shoirning “*Koshki*” radifli gʻazaliga Abdurahmon Jomiyning tatabbuʼ gʻazal bitishi, nazira asosida Alisher Navoiyning taxmis musaddasining vujudga kelishi batafsil bayon qilinadi. “*Majolis un-nafois*”ning fors-tojik tiliga tarjima qilinishi qayd etilib, Eron hukmdori Shoh Abbas I ning topshirigʻiga koʻra Hoji Hidoyatullo Roziyning Alisher Navoiy “*Xamsa*”siga javobiya bitishi, 51230 misrali sheʼriy obidaning uch baytida chekinish mavjudligi aniqlangach, unga berilgan tufhalar qatorida jazo sifatida shoirning uch tishini sugʻurilib olinishi hikoya qilinadi. Alisher Navoiy ijodida bagʻrikenglikning badiiy talqini, baynalminallikka alohida eʼtibor qaratilishi sheʼriy iqtiboslar misolida dalillanadi. Rus olimlari M. Nikitskiyning “*Amir Nizomiddin Navoiy, uning davlat va adabiyotdagi ahamiyati*” nomli magistrlik dissertatsiyasi, 1928-yilda vujudga kelgan V.V.Bartoldning “*Mir Alisher va siyosiy hayot*”, Y.E.Bertelsning “*Navoiy va Attor*” nomli tadqiqotlarning ahamiyati xususida toʻxtaniladi. 1941-yil qamalda qolgan Leningradda Navoiyga bagʻishlangan konferensiyaning bomba

va o‘q ovozlari eshitilib turgan bir vaziyatda o‘tkazilishi, Y.E.Bertelsning ma’ruzasi har qanday tahlikali holat bo‘lishidan qat’i nazar oxirigacha tinglanishiga e’tibor qaratiladi. Bularning bari ustoz Rahim Vohidovning Alisher Navoiy ijod maktabining barcha jihatlarini qamrab olgan holda o‘quvchiga yetkazishni maqsad qilganlaridan darak beradi.

Birinchi fasl “*Ustozlar gurungi*” deb nomlangan. Unda “*Xamsa*” xotimasi – xayoliy tush lavhasidan o‘rin olgan “*Debon bir-bir ul xayl otin rahbarim, Ko‘rushmakka dag‘i bo‘lub yovarim. Chu Sa‘diy-u, Firdavsiy-u, Unsuriy, Sanoiy-u, Xoqoniy-u Anvari*” baytlari va boshqa asarlarda keltirilgan ulug‘ salaflarning nomlariga tayanib, Alisher Navoiy ijod maktabining shakllanishida muayyan darajada o‘rni mavjud bo‘lgan shoirlardan olti nafarining hayoti va ijodi haqida ma’lumot keltiriladi, asarlaridan namunalar ulug‘ o‘zbek shoiri ijodiga ta’siri nuqtayi nazaridan tahlilga tortiladi. Ustoz buning uchun ulug‘ salaflar ijodi ta’sirining ko‘lamidan tashqari bu ijodkorlar haqidagi ma’lumotlar o‘quvchiga qay darajada yetkazilganini ham nazarda tutadilar. Kitobdan salaflar haqidagi faslchalar tarixiylik tamoyiliga ko‘ra siralanadi. Ularni nomlashda Alisher Navoiy ta’rif-u tavsiflaridan foydalaniladi. Jumladan, “*Ustod “ur-ra*is”da Abulqosim binni Ahmar Unsuriy, “*Xalloq ul-maoniy*”da XII asrning otashnafas g‘azalnavis va qasidanavis shoiri Afzaliddin Badil Binni Xoqoniy Shervoniy, “*Sulton ul-hukamo*”da XII asrning ko‘zga ko‘ringan qomusiy olimi va shoiri Abu Ja’far Nasiriddin Muhammad binni Muhammad Tusiy, “*G‘azal mulkinging payg‘ambari*”da Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy, “*Iso nafasliq rindi Sheroz*”da Xoja Hofiz Sheroziy, “*Sarbadorlarning latif shoiri*”da Oqomalik binni Jamoliddin Mir Shohiy xususida so‘z yuritiladi.

Ustoz salaflar hayoti va ijodini yoritishda, avvalo, Alisher Navoiy asarlaridagi, keyin esa boshqa manbalardagi qaydlarga tayanadilar. Xarakterli jihati shundaki, kitobda imkon qadar salaflarning qayerda, qachon tug‘ilgani va vafot sanasi keltiriladi, taxallusining ma’nolariga alohida e’tibor qaratiladi, Jumladan, Unsuriy taxallusi o‘t, suv, havo, tuproq ma’nosi bilan bir qatorda “*moddaning asli, asosi*”, Xoqoniy taxallusi “shohanshoh”, Shervoniy nisbasi esa Shervon shahrini anglatishi aytib o‘tiladi. Ulug‘ salaflarning yozgan asarlari, lirik turning turli janrlarida ijod qilgani, ulardan muayyan bir janrda shuhrat qozonganliklari kabi ma’lumotlar Alisher Navoiyni ham befarq qoldirmaganligi bois ayni jihatga alohida e’tibor qaratiladi. Chunonchi, Unsuriy “*Vomiq va Uzro*” dostonining muallifi ekanligi, savol-javob

tarzida bitilgan ruboiysining mavjudligi, Xoqoniy Shervoniy qasidanavislikda shuhrat qozongani, uning qasidalariga Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylarning javobiya bitganlari, Alisher Navoiy o'z asarlarida shoir qasidalarining matlalarini keltirgani, Nasiriddin Tusiyning she'rshunosligi va she'r bitishda ham mahoratligi, Mir Shohiy bilan Alisher Navoiyning yozishmalari voqeylangani, u hayotni yakka o'tkazgani kabilarga urg'u beriladi. Sa'diy Sheroziy va Xoja Hofiz Sheroziy ijodining ta'siri Alisher Navoiy lirikasida, xususan, fors-tojik tilidagi she'riyatida yaqqol namoyon bo'lgani bois ularning ijodi kengroq tahlilga tortiladi. Alisher Navoiyning tatabbu' g'azallarining salaf shoirlar g'azaliga muvofiqligi va o'ziga xosligi ko'rsatib o'tiladi.

Kitobning ikkinchi fasli "*Do'stlarning nafosat bazmi*" deb nomlangan. Uning dastlabki faslchasi "*Navoiy nomiga qasam*"da o'tmishda ham, keyingi davrlarda ham Alisher Navoiy asarlariga ko'rsatilgan ehtirom, shoir nomining ulug'lanishi xususida so'z yuritiladi. Keyingi ikki ichki faslchalar ulug' shoir zamondoshlarining shaxsiy fazilatlarini, ijodidagi o'ziga xoslik asosida nomlangan bo'lib, ulardan "*Buyuk shoirning sodiq safdoshi*"da Amir Shayxim Suhayliy, "*Masal tariqin bag'oyat yaxshi aytgan shoir*"da Sayfiy Buxoriy haqida so'z yuritiladi. Bunda Suhayliygaga bag'ishlangan faslning imkon qadar yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilgani, ikkala shoir orasidagi munosabatlarga alohida e'tibor qaratilib, adabiy ta'sir haqida atroflicha to'xtanilgani kuzatiladi. Sayfiy Buxoriyning adabiyotshunos olim va shoir bo'lib yetishida Alisher Navoiyning xizmatlari borligi e'tiborga loyiq. Masalaning ayni jihati "*Majolis un-nafois*"dagi qaydlar misolida oydinlashtiriladi. Shoirning aruzga oid risolasi, "*Radoyif ul-ash'or*" to'plamining unga nisbat berilishi, to'plamdagi ma'lumotlarning "*Majolis un-nafois*"ga mosligi va tafovutlar xususida fikr yuritiladi. "*Alisher Navoiy davri Vosifiy nigohida*" nomli faslchada "*Badoye' ul-vaqoye*"ning ilmiy qimmati, uning o'rganilish tarixi yoritiladi. 1485-yilda Hirotda tavallud topgan Zayniddin Vosifiyning Alisher Navoiy bilan muloqotda bo'lgani, shuningdek, ulug' shoirning muhibi va sadoqatli mulozimi Sohib Doroga yaqinligi e'tirof etiladi. Bunday yaqinlik Zayniddin Vosifiyning XV asrning ikkinchi yarmi haqida keltirilgan hikoyalarining hayotiylikini ta'minlashga xizmat qilgani aytib o'tiladi. Undagi ma'lumotlar tahlilga tortiladi.

Kitobning uchinchi fasli "*Xalafarning nurli majlisi*" deb nomlangan. Unda "*Ulug' Navoiyning sodiq izdoshi*" sarlavhasi ostida

ilm ahliga Kulfatiy taxallusi bilangina tanilgan, XVIII asrning oxiri XIX asrning birinch yarmida Toshkentda yashab ijod etgan shoirning Alisher Navoiy gʻazallariga bitgan tatabbulari tahlilga tortiladi. Kulfatiy ulugʻ salafning 170 ga yaqin gʻazaliga javob aytish izidan borganligi taʼkidlanib, ikkala shoir ijodidagi gʻoyaviy uygʻunlik xususida fikr yuritiladi. Alisher Navoiyning *“Soda shayx”* gʻazaliga yozilgan javobiyaning matlaʼ baytlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, shoirning Muhammad Fuzuliyning *“Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor oʻlandan soʻr”* satri bilan boshlanuvchi gʻazaliga bitgan tatabbusi ham oʻzaro qiyoslanadi. *“Zamona har kima bir tarz roʻzgor qilur”* sarlavhali ichki faslda XVIII asrning ikkinchi yarmi, XIX asr boshlari adabiyotida yorqin iz qoldirgan, isteʼdodli shoir Mujrim – Obidning tarjimai holi, asarlari, Alisher Navoiyga izdoshligi masalasiga eʼtibor qaratiladi. Shoirning *“Bu kecha koshonam uzra yor mehmon kelmadi”* nazira gʻazali va *“Olame foniya kulfatsiz makone topmadim”* taxmis-muxammasi misolida uning ulugʻ salafga munosib izdoshligi dalillanadi. *“Ulugʻ shoirning tazkiranavis shogirdi”* nomli soʻnggi ichki faslda Qori Rahmatulla Vozeḥ Buxoriyning *“Tazkirat ul-ahbob fi tazkirat ul-asʻhob”* asari misolida *“Majolis un-nafois”*ga izdoshlik tahlil etiladi. Vozeḥ tazkirasida zullisonaynlikka eʼtibor qaratilishi, qisqalikka intilish, faktlardan foydalanishdagi oʻzaro uygʻunlik misolida anʼananing davom ettirilgani asoslanadi. Xotima sifatida esa taniqli adabiyotshunos A.P.Qayumovning Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Hamid Sulaymonov nomidagi Qoʻlyozmalar institutidagi faoliyatlari, orzu-armonlari xususida soʻz yuritilib, olimning adabiy portreti yaratiladi.

“Alisher Navoiyning ijod maktabi” asari ustozning mavzu doirasini ancha keng olib, uni faktik maʼlumotlar, qiyosiy tahlillar bilan boyitish, ulugʻ shoirning salaflariga munosabati, ulardan adabiy taʼsirlanishi, oʻzining koʻlami keng adabiy merosi bilan asrlar davomida shoirlar qalbiga ijod otashini solib kelgani va *“Majolis un-nafois”*ning hayotbaxsh taʼsirini tizimli holatda asoslab berilgan muhim tadqiqotlari sanaladi. Ushbu kitob hamda *“XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida oʻzbek-tojik sheʼriyati”*da adabiy aloqalar, oʻzaro taʼsir masalalari asosan Alisher Navoiy shaxsi, uning badiiy, ilmiy asarlari misolida yoritilganligi kuzatiladi. *“Sharqning buyuk allomasi”*, *“Maʼnaviyat olamining porloq quyoshi”* risolalarida ham xuddi shunday holatga tez-tez duch kelinadi.

UCHINCHI BOB. NUKTADON OLIMNING “MAQSUD GULLARI”

3.1 Mumtoz adabiyot va navoiyshunoslikning muhim masalalari tadqiqi

Ustoz mamlakatimizda milliy istiqlol shabadalari esib turgan bir paytda doktorlik dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilib, nuktdon – so‘z nozikliklarini tushunuvchi, nozikfahm va tashabbuskor olim sifatida tanilishga ulgurgan edilar. Domlaning tashabbuslari bilan ayni yillarda Buxoro davlat pedagogika instiutida tojik filologiyasi ta’lim yo‘nalishida ham talabalar tahsili joriy etildi. Uni oyoqqa qo‘yish mas’uliyatini to‘la zimmalariga olganliklari bois ustoz 1989-1992-yillarda *Qardosh xalqlar adabiyoti va tojik tili* kafedrası mudiri sifatida faoliyat olib bordilar. 1992-yilda sobiq pedagogika institutiga universitet maqomi berildi. 1991-1992-o‘quv yilida men o‘zbek filologiyasi bo‘limining 2-kurs talabasi edim. Ustozning “*O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi*” fanidan o‘tgan ma’ruzalarini maroq bilan tinglar, har jihatdan domlaga o‘xshab yashash ishtiyoqida edim. Kafedra peshtoqida o‘rnatilishi nazarda tutilgan uning nomi bitilgan yozuvni tayyorlab kelishni menga torshirdilar. Bunday yozuvlarni bitishda muayyan iqtidorga egaligim bois uni 80-100 sm uzunlikdagi ikkita parallel o‘rnatiladigan tayoqsimon elektr chiroqlarining plastmasadan tayyorlangan muhofaza qolibi ustida bezakli qilib yozdim. Bu ishim ko‘ngillariga muvofiq kelgani bois doimiy muloqotlarimiz boshlandi. Biroq Turkiya universitetida ta’limni davom ettirish uchun sinovdan o‘tganim ustozga ma’qul bo‘lmadi. Ikki yillik xorijdagi tahsilim orasidagi ta’ilda kelib uchrashishim, 5-kursdan yana talabalikni BuxDU davom ettirishim ustoz bilan oramizdagi rishtalarning bir umrga mustahkamlanishiga zamin hozirladi.

O‘tgan asrning 90-yillaridan umrlarining oxiriga qadar ustoz ilmiy-pedagofik va rahbarlik faoliyatlarining eng mahsuldor davri bo‘ldi. Botirxon Valixo‘jayev bilan samimiy muloqotlari boshlangan onlardan hayotlarining so‘ngiga qadar o‘zlarini ilm safarida his etgan ustozimning mashaqqatlari samarasi bo‘lgan “*maqsud gullari*” – mumtoz adabiyot va navoiyshunoslikning muhim masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan, ustoz-u hamkasblarga ehtirom ramzi bo‘lgan o‘nlab kitoblari chiroy-u latofatini namoyon etdi. O‘n nafar shogirdlari izlaridan sobitqadamlik

bilan ergashib navoiyshunoslik va Buxoro adabiy muhiti tadqiqiga oid nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ularning aksariyati ustoz bilan yelkama-yelka turib ishladi. Shular orasida o'rnim bo'lganidan iftixor tuyaman.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e'lon qilinishi ustoz uchun entikib kutilgan, ko'ngillarga faxr-u iftixor baxsh etuvchi, undagi armonga aylanib qolish ehtimoli tobora oshib borgan orzularning voqeylikka aylantiruvchi tarixiy voqea bo'ldi. Ayniqsa, istiqlolning ilk kunlaridan boshlab Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlar ijodiga yangicha nigoh tashlanishi ustozni ijtimoiy hayotning ham, ilmiy-pedagogik va rahbarlik faoliyatning ham eng faol ishtirokchisiga aylantirdi. Ustoz 1992-yilda O'zbek adabiyoti kafedrasini negizida ikkita alohida kafedra: O'zbek adabiyoti tarixi hamda XX asr o'zbek adabiyoti va folklor kafedralarining ta'sis etilishini yoqlab chiqdilar. Shu yildan O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasining mudiri sifatidagi faoliyatlari boshlandi. 1994-1995-o'quv yilida Turkiya Jumhriyati Saljuq universitetidagi tahsilimni BuxDUdagi jonajon fakultetda davom ettirishga to'g'ri keldi. Meni quvonch bilan kutib olgan, yana o'sha ketishimdan ozor chekkan ustozim bo'ldilar. Bu orada o'zaro samimiy munosabatlarimiz samarasi sifatida Voras Buxoriy adabiy merosiga bag'ishlangan diplom ishim muvaffaqiyatli himoya qilindi, biroq ko'nglimdagi ilm uchqunini so'nishidan xavotirlangan ustozim tuman markazidagi litsey yoki qishlog'imdagi maktabimda faoliyatimni davom ettirishimga unamadilar. O'qishmning tugashi arafasida oqshomlari talabalar turar joyidagi xonamdan chaqirib olib, viloyat hokimiyati binosiga qadar sokin borib kelish asnosida menga ilmning lazzatidan bahs etardilar. Shunday qilib, ustoz bilan yulduzimiz yulduzimizga to'g'ri keldi. Bir men emas, 1995-yilning 28-avgustidan taniqli olim, filologiya fanlari nomzodi Mirzaahmad Olimov ham Toshkentdan BuxDUga ishlarini ko'chirib, faoliyatga kirishdilar. Ustoz 1996-1997-yillarda o'sha paytlar O'zbek, tojik filologiyasi deb nom olgan fakultetimizni dekani sifatida ishlaganlarida, Mirzaahmad akam kafedra mudiri vazifani bajarib turdilar.

Ustoz kafedra mudiri sifatidagi faoliyatni yana davom ettirib, 1998-yilda respublikada yagona bo'lib qolgan *Tasavvuf va o'zbek mumtoz adabiyoti* kafedrasini ta'sis etdilar va uni boshqarishni o'z zimmalariga oldilar. O'sha yillari tasavvuf shayxlari, adabiyoti va ijodkorlari haqidagi turli qarashlar matbuotda e'lon qilinib borardi. Uning nafsi ammorani yengib komillik sari odimlash bilan bog'liq

qarashlaridan, ezgulik targʻbi, maʼrifatni ulugʻlashidan yoshlarni xabardor qilish haqida iliq fikrlar aytila boshlandi. Ustoz shunday qutlugʻ ishlarni Buxoro davlat universitetidagi bayroqdori edilar. Barcha taʼlim yoʻnalishlari 2-bosqich talabalariga *“Tasavvuf, mumtoz adabiyot va axloqiy-maʼnaviy tarbiya”* nomli 20 soat maʼruza, 16 soat amaliy mashgʻulotdan tarkib topgan tanlov fanini oʻqitish masalasini BuxDU Ilmiy kengashining kun tartibiga olib chiqdilar. Mulohazalar yetarlicha asoslanib, masala kengash qarori bilan tasdiqlandi va kafedra yuqoridagi nom bilan yuritila boshlandi. Jamoa bilan ustoz atroflarida birlashgan holda u kishi ishlab chiqqan dastur va hamkorlikda tayyorlangan maʼruza materiallari asosida tasavvufning hayotbaxsh nafasidan bilganlarimizni yoshlarga tushuntirishga kirishdik. Tabiiyki, bu oʻzining yaxshi samarasini berdi. Boshqa fakultetdagi talabalarning soʻz sehriga boʻlgan munosabatlari yanada iliqlashdi. Koʻngillarida luqmayi halolning muhimligi oʻrnashdi. Uning badiiy talqini bilan bogʻliq badiiyat namunalaridan yosh koʻngillar bir olam zavq olishdi. Ayrim talabalarimizni oʻsha davrlarini eslab, oʻzlarini tanishtirganlarida, xayrli ishga jalb etilganimdan quvonib ketaman. Bugun ham xuddi shunday fanga ehtiyoj bor. Negaki, bu fan doirasidagi samimiy suhbatlar ruh ehtiyojiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bugun *“halollik vaksinasi” bilan emlash*”ni amalga oshirishda ham barcha talabalarga yoʻnaltirilgan shunday fanga ehtiyoj bor, nazarimda.

Ustoz orada ikki yil 2000-2002 yillarda Oʻzbek filologiyasi fakulteti dekani boʻlish bilan bir qatorda 2005-yilga qadar shu kafedrani boshqardilar, keyinchalik kafedra professori sifatida faoliyatlarini davom ettirdilar. Ustozning takliflari bilan Oʻzbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot instituti Mumtoz adabiyot boʻlimi boshligʻi, filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqulov *Tasavvuf va oʻzbek mumtoz adabiyoti* kafedrasining hamkorlikdagi mudiri etib tayinlandilar. Bu hamkorlik kafedrada olib borilgan barcha ilmiy ishlar samaradorligining muhim asosi boʻlib xizmat qildi. Ibrohim Haqqulov har yil tasavvufning badiiy talqinlari borasida talabalarga maʼruzalar oʻqirdilar. Biz – yoshlar fakultetimizdagi ustoz Rahim Vohidov bilan faoliyat olib borayotgan taniqli olimlar Oxunjon Safarov, Hamid Neʼmatovlar qatorida Ibrohim Haqqulovning ham suhbatlari-yu, tavsiyalaridan bahramand boʻlish imkoniyatiga ega boʻldik. Keyinchalik Zilola Amonova ustoz Rahim Vohidovning tavsiyalari bilan Ibrohim Haqqulovning ilmiy rahbarliklarida 2012-yilda nomzodlik, 2021-yilda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu hamkorlik ustoz

Ibrohim Haqqulovning so‘nggi damlariga (2022-yil 28-iyul) qadar davom etdi. Ibrohim Haqqulov magistrnlarni tayyorlashda ham hamkorlik qilib keldilar.

Ustoz kafedra faoliyatini hayotlarining bir qismi sifatida his etardilar. Uning yutuqlaridan quvonib, kamchiliklaridan o‘kinar, nomiga dog‘ tushirmaslikni hammadan talab qilishdan erinmas, uning nomidan faxrlanib yashardilar. Taqdir taqozosi bilan kafedrani unga yondosh kafedra bilan birlashtirish haqida taklif kiritiladi. Taniqli biolog olim Bafo Baqoyevich Umarov masalani o‘rganish bo‘yicha ishchi guruh raisi sifatida belgilanadi. Ustoz B.Umarovning: *“Bu kafedra peshtoqidagi yozuvni ko‘rib, uni hech bir kafedra bilan birlashtirish mumkin emas”*, - deya xulosa qilganlarini aytishdan charchamay yashadilar.

Ustoz Rahim Vohidov Alisher Navoiyning *“Xazoyin ul-maoniy”* yig‘ma devonining Hamid Sulaymon (1959-1960) va *“Xamsa”*ning Porsho Shamsiyev nashri (1960) orqali ulug‘ shoirning hamd, munojot, na‘t singari mavzularda bitilgan g‘azal-u muqaddimaviy boblaridan xabardor edilar, albatta. Biroq ular haqida tor doiralarda pichirlabgina so‘zlash mumkin edi, xolos. Mamlakat mustaqilligi ustozni qiziqtirgan masalalarni teran tadqiq etish va ular haqida baralla gapirish imkonini yaratdi. Shu bois istiqlolning ilk yillaridan boshlab Alisher Navoiy ijodini uning g‘oyaviy sarchashmalari asosida o‘rganishga kirishdilar. Ustoz 1993-yilda xojagon tariqatini tasavvuf tariqatlari oltin halqasi sifatida *“Naqshbandiylik”* nomi bilan tanitgan, ulug‘ avliyo Bahouddin Naqshband tavalludining 575 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan ilmiy-nazariy konferensiyada ma‘ruzalari bilan ishtirok etdilar. Har yil sentabr oyida Bahouddin Naqshband ziyoratgohida tashkil etiladigan bu anjumanga xorijlik olimlar ham tashrif buyuradigan bo‘ldi. Ustoz har gal unda naqshbandiylik va uning hayotbaxsh g‘oyalarining badiiy adabiyotga ko‘chishi xususida ehtirosli chiqishlar bilan ishtirok etardilar. Buning uchun istiqlol bergan ne‘mat – o‘zlikni anglashni milliy qadriyatlarga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon sifatida anglash asos bo‘lib xizmat qildi. Ustoz buni teran anglagan nuktadon tadqiqotchi sifatida mamlakatimizda birinchilardan bo‘lib, ulug‘ shoir asarlarining, xususan, *“Xamsa”* muqaddimaviy boblarining g‘oyaviy asosi Qur‘oni karim va Hadisi sharif ekanligiga qanoat hosil qildiruvchi *“Alisher Navoiy va ilohiyot”*⁶¹ nomli kitobni chop etdilar.

⁶¹ Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – “Бухоро”, 1994, 210 б.

Kitob ulug‘ ustoz Botirxon Valixo‘jayevning *“Umidbaxsh odimlar”* nomli so‘zboshi maqolalari bilan boshlanadi. Unda muallifning sochlariga oqlik tushgan bo‘lsa ham andisha va mulohazalarida yigitlikning qaynashi, jo‘shqinligining bilinishi, tahlillarning ilmiyligi-yu bayonning ommaviyligi ta’kidlanadi. *“Muqaddima”*da esa ustozni Alisher Navoiy ijodining ilohiyotga munosabati masalasi 1991-yilning noyabridan qiziqtirib qo‘ygani bayon etiladi. Taniqli mutarjim Alouddin Mansur tomonidan amalga oshirilgan Qur’oni karim o‘zbekcha izohli tarjimasining *“Sharq yulduzi”* jurnalida chop etilib borilayotgani, keyinchalik 1991-yilda *“Cho‘lpon”* nashriyotida uning alohida kitob holida nashr etilgani mamnuniyat bilan e’tirof etiladi. Shuningdek, taniqli rus sharqshunosi M.B. Piotrovskiyning *“Qur’oniy rivoyatlar”* nomli mo‘jazzgina kitobining chop etilganligi ham xuddi shunday qabul qilinadi.

Ustoz Alisher Navoiyning, avvalo, o‘z asarlari misolida shariatning asosiy hukmlariga uning nechog‘lik amal qilganini aniqlashga kirishadilar. Aslida XV asr musulmon olamida yashayotgan kishining ilohiyot va Qur’oni karimdan ayratib tasavvur qilish sog‘lom aqlga to‘g‘ri kelmaydigan hodisa bo‘lsa-da, bizning dunyoqarashimiz shuni taqozo qilayotganini ta’kidlab o‘tadilar. Kitobda Alisher Navoiy biror bir mulohazani badiiy talqin etarkan, uni dalillashga alohida e’tibor qaratishi, shoirda dalillash san’atining ustuvorligi bir necha bor ko‘rsatib o‘tiladi. Ustozning tadqiqotlarida, xususan, *“Alisher Navoiy va ilohiyot”*da ham ulug‘ shoirdagi ayni holatni kitob muallifi uslubida namoyon bo‘lgani ravshan ko‘zga tashlanadi. Ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bilan bog‘liq tayanch manbalar ustoz uchun begona emas, ulardagi asosiy ma’lumotlar allaqachon ustozning ko‘ngil mulklariga aylanib qolgani shubhasiz. Shunday bo‘lsa-da, o‘quvchi uchun tizimlilikka qat’iy amal qilinadi. Jumladan, yosh Alisherning Taftda Sharofiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuvida, *“Taborak”* surasigacha o‘qiganini ma’lum qilgani, Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyning huzurida *“Lavoyeh”*, *“Lavome”*, *“Sharhi ruboiyot”*, *“Nafahot ul-uns”*, *“Shavohid un-nubuvvat”*, *“Qudsiya”*, *“Lamaot”*, *“Ilohiynoma”* kabi tasavvuf tarixi, uning murakkab nazariy masalalariga oid kitoblarni o‘qigani, *“Lison ut-tayr”*da keltirilishicha, yoshligida Qur’oni karim takroridan toliqqanlarida, ustozning tavsiyasi bilan *“Guliston”* va *“Bo‘ston”* bilan tanishgani, *“Mantiq ut-tayr”*ni yod olgani kabilarga tayanib, shoirning yoshlikdan imonli-e’tiqodli bo‘lib tarbiyalangani, qur’onxon bo‘lgani dalillanadi. Namozda qoyimligi

“*Makorim ul-axloq*” bilan asoslanadi. Zakot bermasligining sababi uning uchun suyurgʻol – mulk taqsimlash tartibidan ajratilgan ulushi madrasa tolib-u mudarrislariga tarqatilishi, xayriya binolarga sarflanishi, Faxriy Hirotiy maʼlumotiga koʻra, bir kunlik daromadi 75000 dinor boʻlsa-da, ularning bari egalariga yetkazilishi haqidagi maʼlumotlar bilan isbotlanadi. “*Makorim ul-axloq*”qa tayanib, oliy maqom amir Alisher Navoiyning ramazon oyida koʻproq xayrot qilishiga urgʻu beriladi. Ulugʻ shoir hajga borish orzusi bilan yashasa-da, orzuning armonga aylanish sabablari ham xuddi shunday tahlil etiladi. Bularning bari Alisher Navoiyning komil bir musulmon ekanligi dalillash bilan bir qatorda shoir hayotining ibrat namunasi ekanligiga eʼtibor qaratiladi.

Shariat ahkomlarining sodda bir uslubdagi badiiy talqinidan tarkib topgan “*Siroj ul-muslimin*” (“Musulmonlar chirogʻi”) asari ham ulugʻ shoirning shariat talablari asosida yashagani va ijod qilganidan dalolat beradi. Uning uslubiga xos jihatlar tahlillar asosida oydinlashtirib, shoirning ilohiy nazar yetgan avliyolarga, jumladan, naqshbandiylikning oʻsha davrdagi piri komili Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiyga munosabati “*Siroj ul-muslimin*”dagi sheʼriy parchalar misolida yoritiladi, oʻrni bilan ular Zahiriddin Muhammad Boburning “*Volidiya*” asaridagi ayni mazmundagi misralar bilan qiyoslanadi. Kitob yozilgan davrda naqshbandiylikning bu ulugʻ murshidi komili xususida maʼlumotlar nihoyatda oz edi. Shu bois “*Boburnoma*” va boshqa ilmiy asarlarga murojaat etilib, buyuk maʼnaviy arbobning hayoti va faoliyati haqida soʻz yuritiladi. Shuningdek, ulugʻ ustoz Botirxon Valixoʻjayevning Bahouddin Naqshband ziyoratgohida boʻlib, Xoja Ahrori Valiy haqida oʻzbek va tojik tillarida kitob yozganliklari ham bayon etiladi. “*Siroj ul-muslimin*”da shariatning eng zaruriy, har bir musulmonning har kun yuzlashadigan ahkomlari badiiy talqin etilgani tahliliy mulohazalar asosida yoritiladi. Kitobdan oʻrin olgan bunday ibratomuz va daliliy mulohazalar Alisher Navoiyning chinakam moʻmin, musulmon ekanligiga zarracha shubha qoldirmaydi. Shu bois ulugʻ shoirning “*Hayrat ul-abror*” dostonidan oʻrin olgan “Basmala”, 4 munojot va 5 naʼtning badiiy talqiniga eʼtibor qaratiladi.

Ustozda mumtoz asarlarni sharhlash koʻnikmasining haddi aʼlosiga yetgani “*Basmala*”dagi “ganji baqo”, “dur”, “tasbih” singari soʻz va istioraviy birikmalarning baytdagi maʼnosini muayyanlashtirishdayoq namoyon boʻladi. Ayni holat butun sharhlardagi shunday izohtalab soʻz, birikma, ibora, timsol va ilohiy-irfoniy tushunchalarga aniqlik kiritilishida kuzatiladi. “*Bismillohir rohmanir rohim*” ilohiy

kalimasining tafsiflanayotgan har bir harfiga aloqador qabul va rad ahli uchun atalgan ma'nolarining mohiyati nihoyatda sinchkovlik bilan talqin etiladi. Shu tariqa "*Avvalg'i munojot*"da Allohga xos yakka-yu yagonalikning badiiy ifoda etilgani, Uning aqlga sig'dirish qiyin bo'lgan hayratli karomatlarining birma-bir sanab o'tilgani, keyingisida Qiyomat kuni talqin etilgani sarhlarda ifodalanadi. Uchinchi munojotda dunyo va unda mavjud jonli va jonsiz narsalarning bunyodkori Alloh ekanligi g'oyasi tadrijiy rivojlantirgani, to'rtinchi munojotda ulug' shoir iltijolari ko'lamining kengayib borishi, qashshoqlarning ayanchli ahvoli qalamga olinib, ana shu tabaqa ahli uchun Allohdan marhamat istashi tanlangan adabiy parchalar misolida ko'rsatib o'tiladi. Ustoz munojotlar sharhida kuzatilgani kabi butun kitob davomida ulug' shoir asarlaridan keltirilgan iqtoboslarning g'oyaviy asosi Qur'oni karimga borib taqalishini undan tanlangan bir necha oyati karimalar asosida dalillashga harakat qiladilar. Bunda "*Sharq yulduzi*"da chop etilgan Alouddin Mansur tomonidan amalga oshirilgan Qur'oni karimning o'zbekcha izohli tarjimasi manba sifatida ko'rsatiladi. Bu esa o'z navbatida ustozning ushbu tarjimaga nihoyatda intiq bo'lganlari bois uni erinmay to'plab borganlari, takror-takror o'qib, kerakli o'rinlarni belgilab qo'yganlaridan dalolat beradi.

Ustoz na'tlar sharhida ham ulug' shoir qo'llagan so'zlarning botiniy ma'nolarini teran anglaganliklari kuzatiladi. Ayni holat Rasulullohning dunyoga kelishlari talqinidagi "*Avvalgi na't*"dan o'rin olgan Odam (a.s.)ning Muhammad (s.a.v.) ga avval o'g'il, keyin ota bo'lishlari bilan bog'liq misralar talqini uchraydi. Unda muqaddimaviy nur – Nuri Muhammadiya, Odam (a.s.)ning tuproqdan yaratilishi, shaytonning bo'yin egmasligi singari qur'oniy qissalarga murojaat etiladi. Ikkinchi na'tda Muhammad (s.a.v.) yoshlik yillari talqin etilarkan, shoirning oldingi bobdagi "*durr-u sadaf*" tashbehiga yana unumli foydalanilgani, dunyo yuzini ko'rgan chaqaloq ikki jahonning yagona gavhariga muvofiq ko'rilishi xususida so'z yuritiladi. Ustoz Payg'ambar (s.a.v.)ning otalari Abdulloh ibn Abdulmutalib haqida ma'lumot keltiradilar. Bunda Muhammad Husayin Haykalning tojik tilida yozilgan "*Muhammadning hayoti*" nomli kitobga tayanadilar. Ikkinchi na'tdagi Rasululloh (s.a.v.) payg'ambarlik faoliyatlarining dastlabki bosqichida kechgan qiyinchiliklarga doir ulug' shoirning ishoralarini imkon qadar batafsil sharhlashga urinadilar. Lot butiga topinish, hatto qurayishlar ham Payg'ambar (s.a.v.)ni tushunib yetmaganlari sharhlari ayni holat kuzatiladi.

Oldingi boblarda kuzatilgan nur tasviri uchinchi na'tda ham ifodalangani, Rasululloh (s.a.v.)ning yozuv-chizuvdan xabarsizliklari, ayni holatning shoir talqinida vafs etilgan muhim jihatlari manbalar asosida ko'rsatib o'tiladi. Ulug' shoirning to'rtinchi na'tda Muhammad (s.a.v.) bilan bog'liq qur'oniy qissalarga ishoralari ham nuktadonlik bilan sharhlanadi. Xususan, *"G'orda yori bila ul tez hush, Tog' ichida o'ylaki oltin-kumush"* singari satrlarda yashiringan ma'nolar sharhida ayni holat kuzatiladi. Me'roj tuniga bag'ishlangan beshinchi na'tda sharhida ustozning mavzuga aloqador jihatlarning eng kichik detallarigacha sinchiklab o'rganganliklari kuzatiladi. Voqeaning umumiy tafsilotlaridan tashqari, davr nujum ilmi, unda tilga olingan yeti sayyora, o'n ikki burj va ularga xos xususiyatlardan ustozning teran xabardorliklari sharh-u tahlillar jarayonida ayonlashib turadi.

Ustoz kitobning *"Nazm ham surat erur xush anga"* sarlavhali faslida ulug' shoirning *"Badoyi' ul-bidoya"* devonidan o'rin olgan g'azallaridagi tahmih bilan ziynatlangan baytlarni saralab oladilar. Ulardagi *"Jomi Jam"*, *"Xizr suyi"*, *Hotam*, *Qorun*, *Nuh* bilan aloqador ishoralarning mifologik xususiyatlari, qur'oniy qissalarga aloqadorligi ham nihoyatda teran tahlil qilinganligi kuzatiladi. Xususan, Nuh (a.s.) qissasi ifodalangan oyati karimalar ancha batafsil ko'rib chiqilgani seziladi. Talmihning iqtobos bilan aloqadorligi shoir g'azal va muxammaslarida keltirilgan *"Loiloha illallohu"*, *"Vash shams"*, *"Mazog'al basar"* singari arabcha so'z va birikmalarga diqqat qaratiladi. Bulardan dastlabkisi kalimayi shahodatning bir qismi bo'lib, undan *"Birgina Allohdan o'zga iloh yo'qligi"*ning anglashilishi, ikkinchisi *"Quyoshga qasam"* ma'nosini anglatuvchi suraning nomi ekanligi va u bilan bog'liq jihatlarga anilik kiritiladi. *"Mazog'al basar"*dan murod Muhammad (s.a.v.) muborak ko'zlari ekanligi e'tirof etilib, uning surma bilan bog'liq jihatlari ham manbalar asosidan talqin qilinib, tahmihning o'ziga xosligi teran izohlanadi. Ko'rinadiki, kitobda nihoyatda muhim masalalarga alohida e'tibor qaratiladiki, ularning mohiyatidan uzoqlashmagan holatda aniq xulosalar bayon etiladi. Ushbu kitob ustozning ulug' shoir ijodi g'oyaviy asoslarini aniqlash borasidagi iztiroblari samarasi sanaladi. *"Alisher Navoiy va ilohiyot"*ning vujudga kelishi ustozning teran tafakkur va mushohada sohibi ekanliklariga yana bir karra qanoat hosil qildirdi va keyingi tadqiqotlarda chuqur tahlil qilish, dalillash san'atiga ko'roq tayanishga yo'l ochib berdi.

Ustoz ma'naviy komillik masalasi Alisher Navoiy asarlari, xususan, uning *"Xamsa"*si dostonlarida teran badiiy talqin etilganini

faylasuf olim Mels Mahmudov bilan hamkorlikda yozilgan risolalarida imkon qadar mufasssal talqin qilishga kirishdilar. Datlab “*Ma’naviyat – komillik saodati*”⁶² nomli “Debocha”, 4 fasl va 13 ichki fasldan tarkib topgan 192 sahifali kitob chop etildi. Uning birinchi faslida “*Hayrat ul-abror*”ning dasturiy doston ekanligiga, jumladan, iymon talqini masalasiga e’tibor qaratildi. Alisher Navoiyning ustozlarni vasf etishda sharqona xokisorlikning tug‘i yanglig‘ nihoyatda xokisorona namoyon bo‘lishi, Abdurahmon Jomiy vasfida ehtiroslarining oshib borishi, shuningdek, ushbu dostondagi “*Odamiy ersang demagil odami, Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami*”, “*Ka‘baki olamning olib qiblası, Qadri yo‘q andoqki ko‘ngil ka‘basi*” singari misralarda ifodalangan umumbashariy g‘oyalar mohiyati xususida so‘z yuritiladi. Iymon va islom haqidagi, “*Salotin zikrida*” singari maqolatlardagi inson ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq mulohazalarning badiiy talqini atroflicha sharhlanib, Ibrohim Adham va Robiyayi Adaviyaning hajga yo‘l olishi bilan bog‘liq hikoyat haqida so‘z yuritiladi. Shohi G‘oziyning adolatidan “*Zoli zar*” deya nomlangan kekxa kampirning shar‘iy hukmdan rizoligi ibrat namunasi sifatida ko‘rsatiladi.

Ma’naviy kamolot uchun saxovatning eng oliy fazilatlardan biri ekanligi “*Hayrat ul-abror*”ning beshinchi maqolati misolida keng tahlilga tortilgani kuzatiladi. Bunda “*Ta‘mayi mol-u joh*”dan batamom xalos bo‘lib, qanoatni kasb etgan kishining saxovatli inson sifatida ulug‘lanishi zamiridagi haqiqat tahlillar misolida yoritiladi. Alisher Navoiyning naqshbandiya ta’limotiga munosabati, unda Abdurahmon Jomiyning o‘rni, shuningdek, ulug‘ shoirning “*Sohiri hind*” va “*Isonafaslik rindi Sheroz*”ni buyuk salaflar sifatida e’zozlashi, bular orasida “*Orifi Jom*”ning alohida mavqeyga ega ekanligidan bahs etiladi, “*Dast ba kor-u dil ba yor*”ning mohiyatidan kelib chiqib, “*Hotami Toyi va o‘tinchi chol*” hikoyati tahlil etiladi. Himmati baland inson oldida Hotami Toyi ham bir banda sifatida namoyon bo‘lishi zamirida yashirin hikmatga e’tibor qaratiladi.

“*Axiylik – muruvvat ramzi*” sarlavhali ichki faslda “*Sab‘ayi sayyor*”dan o‘rin olgan Axiy va Farrux haqidagi hikoyat batafsil tahlil etilgan. Unda ulug‘ shoir futuvvat va muruvvat haqidagi qarashlarining ma’naviy kamolot uchun muhimligiga urg‘u beriladi. Kitobda ishqning ham yuksak insoniy fazilat ekanligi tahlillar asosida muayyanlashtiriliganiga guvoh bo‘lish mumkin. “*Farhod va Shirin*”

⁶² Воҳидов Р., Маҳмудов М. Маънавият – комиллик саодати. –Тошкент: “Маънавият”, 1997, 192 б.

hamda *“Layli va Majnun”* dostonlari tahlili misolida ayni masalaga aniqlik kiritiladi. Iskandarning ochiq qo‘llari bilan bog‘liq tahliliy mulohazalarning kitobda xotima o‘rnida keltirilishi ma’naviy yuksaklik, ma’rifat hosil qilish oldida dunyo ne’matlari o‘tkinchi narsalar ekanligiga ishonch hosil qildiriladi. Ushbu kitobni o‘qish jarayonida inson ruhida seskanishlar vujudga kelishi kuzatiladi. Shu tarzda o‘quvchi o‘zini taftish qila boshlaydi. Mualliflar ham ma’naviyat masalasining ulug‘ shoir ijodidagi badiiy talqini xususida fikr yuritishdan ana shunday maqsadni ko‘zlaganlari sezilib turadi. Unda bir-birini inkor etuvchi adabiy lavhalar shu qadar teran tahlil etilib, kitobxon mohiyat tomon yo‘naltirilganki, ayni holat ustoz va Mels Mahmudovning bu boradagi kuzatishlari uzoq yillik tajriba asosida vujudga kelganidan darak beradi. *“Iymon –qalb gavhari”*⁶³ nomli keyingi risolada o‘zaro ilmiy hamkorlik davom ettirilib, tahliliy mulohazalar yanada teranlashtirilganligi kuzatiladi.

Risola boshqa kitoblarda uchramaydigan o‘ziga xos *“Muqaddima”* bilan boshlanadi. Unda hujjat ul-islom Imom Abu Homid Muhammad G‘azzoliyning (1058-1111) *“Kimyoyi saodat”* asaridan o‘rin olgan bir kemada sayohat qilgan jamoa haqidagi hikoyat keltiriladi. Unda hikoya qilinishicha, kema bir orolda bir muddat qo‘nib otadi. Kema darg‘asining to‘xtash nihoyatda qisqa ekanligi bilan bog‘liq xabarini eshitgan jamoadan bir guruh kishilargina vaqtida qaytib, o‘zlariga mos o‘ringa ega bo‘lishlari, orolning muattar hid tarqatuvchi gullari-yu undagi go‘zalliklarga maftun bo‘lib bir oz kechikkan kishilarga qorong‘ulikdan joy tegishi, uning oroyishlaridan ko‘ngil uzolmay, ancha vaqt qolib ketib, bo‘yinlariga qimmatbaho toshlarni osib kelgan bir guruhning keyinchalik toshlar tarqatgan badbo‘y hidlardan sharmanda bo‘lishi, ba’zilarning esa o‘sha orolda qolib ketishi haqida so‘z yuritiladi. Hikoyatda nafs izmiga tushishning yomon oqibatlari ramziy-majoziy yo‘sinda talqin etilgan. Mualliflar hikoyat mohiyatidan kelib chiqib ushbu risolada komil inson qiyofasi manzaralari atrofidagi izlanishlarni Sharq mumtoz she’riyati, uning so‘z, she’r-u shoir, badiiy asarning shakl-u mazmuniga doir nazariy qarashlarning badiiy talqini misolida ko‘rib chiqishga jazo etganlarini ma’lum qilishadi. Risola ko‘zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib *“So‘z – ma’naviy xazina”*, *“Ustoz – ma’rifat charog‘boni”*, *“Faxriya – insoniy, ijodiy fazilat nishoni”*, *“Yurt shoiri bilan barhayot”*, *“She’r – ezgulik darakchisi”*,

⁶³Воҳидов Р., Маҳмудов М. Иймон – қалб гавҳари. –Тошкент: “Маънавият”, 1999, 200 б.

“Sham – ma’shuq, parvona – oshiqmi?”, *“Lafz ustunmi – ma’no?”* deya nomlangan fasllardan tarkib togan bo‘lib, *“Iymon – qalb gavhari”* sarlavhasi ostida keltirilgan bitiklarning xotima o‘rnida ekanligi belgilab qo‘yilgan. Ulug‘ ustoz Botirxon Valixo‘jayevning *“Komil insonni shakllantirish iztiroblari”* nomli maqolalari so‘ngso‘z vazifasini bajargan.

Shoir so‘zi bilan minglab qalblarni zabt etish qudratiga ega bo‘ladi. Tabiiyki, uning so‘zi muayyan adabiy-estetik vazifa bajargani bois hissiy ta’sirchanlik kuchini namoyon etadi. Mumtoz shoirlarimiz unda ilohiy qudrat mavjudligidan bahs etadilar. Kitob mualliflarini masalaning ayni jihati qiziqtiradi. Shu bois *“Ma’naviyat – komillik saodati”* dan farqli o‘laroq faqat Alisher Navoiy ijodini bilan cheklanib qolinmaydi. Risola davomida qo‘yilgan masalalar turli davr-u makonda ijod qilgan o‘zbek va fors-tojik shoirlarining ijodi namunasi misolida o‘z yechimini topadi. Bunda ko‘proq ustoz Rahim Vohidovning tajribalariga suyanilgani sezilib turadi. Ayni holatda ham Alisher Navoiy ijodi markaziy o‘rinda turadi. Nuriddin Abdurahmon Jomiyning muammo, qofiya, vazn haqidagi kitoblari, Mavlono Darvish Mansur, Shayx Ahmad ibn Xudaydot Taroziy, Alisher Navoiy, Sayfiy Buxoriy, Zahiriddin Muhammad Boburning aruzga doir asarlari, Husayn Voiz Koshifiy, Atoulloh Husayniyning she’riy san’atlarga atalgan kitoblarida adabiy-nazariy tushunchalarning tarixiy taraqqiyotidan bahs etilgani eslab o‘tilib, badiiy asarlar mag‘ziga adabiy-nazariy mulohazalar singdirilishiga e’tibor qaratiladi. Haydar Xorazmiy *“Maxzan ul-asror”* dostonidan keltirildan adabiy parchalarda so‘zning badiiy adabiyot ma’nosini anglatgani, So‘zaniy Samarqandiydan (XII asr) tanlangan misralarda u nafaqat adabiyot, balki uning tur va janrlarini ham ifodalaganligi, katta tarixiy davr ichida *“guhari sharif”* sifatida so‘zning til ma’nosida ham qo‘llangani, u *“Hayrat ul -abror”* da kuzatilgani kabi insonni hayvondan judo qilgan tayanch omil tarzida badiiy ifoda etilgani, nazm, nasr sifatida talqin qilingani risolada tahlillar asosida o‘z ifodasini topadi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning ayni masala yuzasidan bir-birini to‘ldirib kelgan nuqtayi nazarlari xususida so‘z yuritiladi. *“So‘z aro yalg‘on kibi yo‘q nopisand, Aylar aning nazmini dono pisand”* da ifodasini topgan paradokslilik zahirida yashiringan hikmat anglatiladi. Mumtoz asarlardagi badiiy so‘zda ma’naviy komillik masalasi tayanch mavzuga aylanganligi e’tirof etilib, mantiq rishtalari bu boradagi ijodkorlarning murid-u murshid, pir-u solik, ustoz-u shogirdlik munosabatlariga ulanadi.

Badiiy ijodda ustoz-u shogirdlik masalasi o'ziga xos holatda namoyon bo'ladi. Unda bevosita va bilvosita ta'sir holatlari kuzatiladi. Alisher Navoiy ijodida bunday adabiy ta'sirlanish ko'rinishlari teran badiiy ifodasiga ega. Ulug' shoirning xamsanavislarga, Fariduddin Attor ijodiga bahosi, Navoiy va Lutfiy, Navoiy va Jomiy o'rtasidagi insoniy va ijodiy munosabatlar kitobning ikkinchi faslida qo'yilgan masalaning yorqin misoli sifatida tanlangan. Ustoz-u shogirdlikning yuqoridagi ko'rinishlari Qutb Xorazmiyning "*Nizomiy bolidin halvo pishir*"gani, Haydar Xorazmiyning Shayx Nizomiydan "*chosh*"ni olib, "*laziz osh*" hozirlagani, Xo'jandiyning "*Muhabbatnoma*"dan *sharob ich*"ib, "*Latofatnomani ham o'n noma qil*"gani, Jurji Zaydonning Abdulla Qodiriyning "*roman yozishga havaslantirgan ustoz*" ekanligi bilan aniqlashtirilgan. E'tiborli jihat shundaki, "*Taashshuqnoma*" muallifi Sayyid Ahmadning (XV asr) Ahmadi Jomdan (1049-1142) ta'sirlangani, Mavlono Yaqiniyning (XV asrning I yarmi) "*O'q va Yoy*" munozarasi qahramonlari bahsida Mavlono Qosim Anvor, Amir Xusrav Dehlaviy, Salmon Savajiy, Kamol Xo'jandiy, Hofiz Sheroziy, Yusuf Amiriy, Atoyi, Lutfiy va Sakkokiy asarlaridan parchalar keltirishi singari kam uchraydigan ma'lumotlarga diqqat qaratilgan. Shuningdek, "*Hayrat ul-abror*" misolida o'z qobiliyatini to'g'ri baholay olmay, mubohot-mubolag'a qilib yurgan shoirlarga Alisher Navoiy munosabati ham e'tibordan chetda qolmagan. Mualliflarning bunday urinishlari kitobning keyingi sahifalaridan o'rin olgan faxriyalarning spetsifik xususiyatlarini ochib berishga, she'r va shoirlik masalalarini oydinlashtirishga zamin hozirlagan. Risolada qo'yilgan masalani yoritish uchun tanlangan faktik ma'lumotlar-u adabiy parchalar kitob mualliflarining bu borada imkon qadar mufassal mulohaza yuritishlariga imkon yaratgan. Bularning bari yagona maqsad insoni komilni shakllantirish, uning ma'naviy-ruhiy balog'atiga hissa qo'sha oluvchi yuksak fazilatlarini targ'ibini ijod va ijodiy jarayon misolida amalga oshirishga xizmat qildirilgan. Insonning komillik rutbasida movofiq ko'rinishi uchun iymonini qalbdagi gavhar misol muhofaza etishi lozimligi uqtirilgan. Risolaga xos bunday fazilat uning o'qimishlilikini ham, tarbiyaviy ahamiyatini ham, ilmiy qimmatini ham oshirgan.

Ustozning aynan shu yil – 1999-yilda yana bir kitoblari "*Biz bilgan va bilmagan Bobur*"⁶⁴ nashr etildi. "*Muqaddima*", "*Men bilgan Bobur Mirzo*", "*Boburnoma*"da madaniy hayot talqini, "*Bilgasen, ey*

⁶⁴ Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. –Тошкент: "Маънавият", 1999, -88 б.

xujasta farzand”, “*Kitob ul-haj – muslimlik hujjati*”, “*Buxoroning shirin qovunlari*” singari fasllardan tarkib topgan ushbu kitobning to‘ldirilgan ikkinchi nashri 2008-yilda chop etildi⁶⁵. Keyingi nashr birinchi kitobning dastlabki faslidan so‘ng “*Bobur Mirzoning masnu’ she’rlari*”, ikkinchi faslidan keyin esa “*Barchasi “sust va furud”mi?*”, “*Ijodkorlik tabaqa tanlamaydi*”, “*Boburnoma*”da Shayx Sa’diy nafasi” singari fasllar bilan boyitildi. Shuningdek, uning “*Muqaddima*” va besh fasli ham muayyan qo‘shimchalar bilan kengaytirildi, ba’zan ixchamlashtirilib, tahrirlandi. Ustoz risola muqaddimasida o‘zlariga tegishli bitiklarni bu borada faoliyat olib borgan adabiyotshunos-u yozuvchilar asarlaridan “*nursiz ko‘rinishi mumkin*”ligini ta’kidlasalar-da, ayni holni o‘z ma’nosida emas, balki qariyb 40 yil davomida mumtoz adabiyot bilan shug‘ullanib kelgan kamtarin olimning ulug‘lardan o‘ziga singdirgan fazilati sifatida tushunish pand bermaydi, deb o‘ylaymiz. Negaki, risolani o‘qish jarayonida ustozning shoir she’rlarni maromiga yetkazib tahlil qilganlari, masnu’ – bezakli qilib ishlangan, satrlarida san’at ichra san’at yo‘g‘rilgan badiiy bezaklarni nuktadonlik bilan aniqlaganliklari, “*Boburnoma*”dan tanlangan lavhalar undagi madaniy hayot talqinini aniqlashda ham, talabalar savollari munosabati bilan berilgan javoblar-u shoir she’rlari talqinida ham o‘rinli qo‘llanganini sezish qiyin emas. Qolaversa, ustoz “*Boburnoma*”ga XV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshlaridagi adabiy jarayonni o‘rganish uchun muhim manba sifatida qaraganlar. Shu bois yillar davomida bu kitob domlaning ish stollari ustidan doimiy joy olib kelgan. Istiqlool sharofati bois tasavvuf ta’limoti, xususan, naqshbandiylik tariqati bilan yaqindan tanishish istagining ortib borgani ustozga ushbu risolada “*Mubayyin*”dan tanlangan shariat ahkomlariga oid satrlarni boshqa mumtoz nazm namunalari singari tahlil qilishda kuch baxsh etib turdi.

Ilmiy tadqiqot olib borishda eng kichik detallargacha ahamiyatli ekanligini nazardan soqit qilmaslik – chinakam olimga xos fazilat. Bir qator ilmiy izlanishlar bilan tanishish asnosida buni ko‘pchilik adabiyotshunoslarda shakllanganiga guvoh bo‘lish mumkin. Biroq talabalar uchun o‘tilayotgan doimiy ma’ruzalar yoki muayyan munosabat bilan boshqa ta’lim muassasalari, anjumanlarda amalga oshirilgan shunday chiqishlarda savolni yozma tariqa berishni talab qilib, uni javoblantirgandan so‘ng ham avaylab asrashga hammani ham birdek e’riborli deb bo‘lmaydi. Ustozda har ikkala jihat ham odatiy

⁶⁵ Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. –Тошкент: “Маънавият”, 2008, -120 б.

holga aylangandi. Sobiq talabalarini ko‘pincha savol bilan qilingan yozma murojaati asosida eslab qolganlariga guvoh bo‘lganmiz. Ustoz berilgan savollarni mavzusi va ahamiyatli jihatiga ko‘ra saralashdan erinmasdilar. Bu bilan talabalar yoki muayyan tadbir ishtirokchilarining qiziqish doirasini aniqlash imkoniga ega bo‘lardilar. Ustoz uchun bu savollarning qadrli ekanligi risolaning “*Men bilgan Bobur Mirzo*” faslida yaqqol namoyon bo‘lgan. Unda Bobur Mirzoning hayoti va ijodi bilan bog‘liq saralangan 15 ta savolga javob yozilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Savollar orasida Umarshayx Mirzoning “*kabutarxonasi bilan shunqor*” bo‘lishi haqiqati, Hajriy taxallusli shoirning Bobur Mirzoga aloqasi, shoh va shoirning farzandlari, qabrini Kobulga ko‘chirish haqidagi vasiyati, naqshbandiylikka munosabati singari nihoyatda muhim masalalar borligi diqqatga sazovor. Ustoz bularning bariga asosli javob yozishga erishgan bo‘lsalar-da, sarlavhada savollarga bilganimcha javob qildim, degan mazmunni fodalab qo‘yadilar. “*Boburnoma*” madaniy hayot talqini masalasi Abdullo Hotifiy, Abdulg‘ofur Loriy, Kamoliddin Husayn Gozurgohiy, Atoullo Husayniy, Ahmad Hojibek, Mavlono Osafiy, Mavlono Yusuf Badiiy singari ko‘plab shoirlar haqida aytilgan mulohazalar misolida kengroq tahlil etilgani kuzatiladi. Xususan, Alisher Navoiy forsiy she‘riyati, ruboiyning muayyan bahrlarini topishda g‘alat qilgani, maktublari xususidagi Bobur Mirzoning qarashlari teran tahlil qilingani seziladi. Shuningdek, risolada “*Boburnoma*” muallifining Xoja Ahrori Valiyga samimiy munosabati juda ko‘p o‘rinlarda misollar bilan dalillanadi.

Ustozning “*Boburnoma*”dan o‘rin olgan 322 misradan tarkib topgan turkiy va forsiy tilda bitilgan adabiy parchalarni sinchiklab o‘rganganliklari e‘tiborga molik. Aniqlashlariga ko‘ra, shulardan 156 misrali she‘r turkiy tilda, 166 misrali she‘r esa forsiyda bitilgan. Forsiy she‘rlardan 60 misrali she‘rlarning kimga tegishligi “*Boburnoma*”da qayd etilgan bo‘lsa, 106 satri nazm namunalarning muallifi ko‘rsatib o‘tilmagan. Ustoz muallifi noma‘lumlardan 32 misrali forsiy she‘rlarning manba va mualliflarini aniqlashga muyassar bo‘lganlar. “*Boburnoma*”da Shayx Sa‘diy nafasi” faslida ma‘lumot berilishicha, Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziyning “*Guliston*” va “*Bo‘ston*” asarlaridan turli o‘rinlarda muayyan munosabat bilan Bobur Mirzo 30 misrali she‘r keltirgan bo‘lsa, bir o‘rinda Nizomiy Gamjaviy “*Pang ganj*”idagi ikki misraga murojaat qilgan. Ustoz Rahim Vohidov Sa‘diy Sheroziy asarlaridan tanlangan namunalarning asliyat bilan “*Boburnoma*” nashridagi matniy tafovutlarga ham aniqlik kiritib,

undagi mazmunning mohiyatini qiyosiy sathdagi tahlillar asosida ochib beradilar. Umuman olganda, ustozning *“Biz bilgan va bilmagan Bobur”* risolalari ham *“Alisher Navoiy va ilohiyot”*, hammualliflikda yozilgan *“Ma’naviyat – komillik saodati”*, *“Iymon – qalb gavhari”* kitoblari bugungi adabiyotshunosligimiz, ma’naviy tarbiya uchun ahamiyati yuksak asarlar sanaladi. Ularni mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy ijodini o‘rganish borasida amalga oshirilgan muhim tadqiqotlar sifatida baholash mumkin. Shuningdek, ustozning *“Armonga aylangan orzular...”*⁶⁶ nomli kitobdan o‘rin olgan shu nomdagi va *“Avesto” – noyob ma’naviy xazina* nomli risolalari xususida ham shunday fikrni aytish mumkin.

Kitobning *“Avesto”*ga bag‘ishlangan qismida uning noyob ma’naviy xazina ekanligi, o‘rganilish tarixi xususida to‘xtanilib, Axura Mazdaning yakkaxudolik timsoli ekanligiga e’tibor qaratiladi. *“Avesto”* tarkibiy qismlarining xarakterli jihatlari yoritilib, nur va zulmat bahsi haqida so‘z yuritiladi. Unda axloqiy-tarbiyaviy masalalar tanlangan iqtiboslar tahlili asosida ko‘rsatib o‘tiladi. *“Avesto”*da bug‘doy ekish Mazda dinining ko‘kartirilishiga bois bo‘lishi, ezgulik va yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi kurashlarda g‘alaba hamisha Zardusht va uning payrovlari tarafida ekanligi, Sadoqat, Samimiyat, Adolat, Ezgulik, Rafoqat, Haqiqat, ona-tabiatga yuksak Muhabbat, Ezgu Niyat singari umuminsoniy oliyjanob fazilatlarining *“Avesto”* sahifalarini nurafshon ilohiy yog‘du misol yoritib turgani, komil inson mavzusi masalasining *“Avesto”* sahifalaridan boshlanishi kabilar ustoz mulohazalari asosida imkon qadar soddalashtirilgan holda bayon etilgan. O‘rni bilan *“Avesto”*da ifodalangan mifologik obrazlarga e’tibor qaratiladi. Mumtoz adabiyotdagi shunday faol obrazlardan biriga aylangan quyosh yuzli, yaxshi suluvlar sohibi Jam – Jamshid (Yima)dan Axura Mazda hol so‘ragani hamda Axura va Zardusht dinini unga oshkor qilgani nihoyatda nuhim bir lavha sifatida taqdim etiladi. Ushbu lavha Axura Mazda va Zardusht muloqotida voqeylanganligi keltirilgan iqtibos asosida dalillanadi. Risolani o‘qish jarayonida ustozning bu noyob ma’naviy xazinani katta qiziqish bilan sinchiklab o‘rganganliklari, kezi kelganda undan ilhomlanganliklarini sezish mumkin.

Kitobdan o‘rin olgan *“Armonga aylangan adabiy orzular...”* nomli risolada Alisher Navoiy asarlarida ifodalangan ulug‘ shoir adabiy

⁶⁶ Воҳидов Р. Армонга айланган адабий орзулар... –Тошкент: “Фан”, 2009, -100 б. Birinchi risola *“Avesto”* – noyob ma’naviy xazina” kitobning 4-37-sahifalaridan, ikkinchi risola *“Armonga aylangan orzular”* esa 38-73-betlaridan o‘rin olgan.

rejalari talqini xususida soʻz yuritiladi. Buning uchun, avvalo, shoirning *“Hiriydin ixroj”* qilinishi munosabati bilan otasidek ulugʻ ustoz Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan maktubidagi Hirotni tark etish sabablari, shoirlik iqtidori, Abu Sayyid Mirzoning Alisher Navoiyga munosabati, Husayn Boyqaroning maxsus davlat *“Manshuri”* bilan shoirning Samarqanddan Hirotga qaytishi tahliliy bayon qilinadi. *“Tarixi anbiyo va hukamo”*, *“Tarixi mulki Ajam”* asarlarining yozilishi tarixi bilan bogʻliq munozarali masalalarga oydinlik kiritiladi. Bu ikki asar *“Zubdat ul-tavorix”*ning tarkibi ekanligi taʼkidlanadi. Ulugʻ shoir *“Yusuf qissasi”* bayonida bosh qahramon qismatidagi sabr-u bardosh, qanoat, pokizalik, shahvoniy hirs jazavalaridan gʻolib kelish, adolat tantanasi uchun barcha qiynoqlarga chidash va sharʼiy nikohdan keyingina sevgilisiga erishish kabi goʻzal insoniy fazilatlarni xush qabul qilib, ushbu mavzuda doston yozmoqchi ekanligi eʼtirof etiladi. *“Lison ut-tayr”* dostonidagi shayx Sanʼonning tarso qiziga tushgan va nomurod yakunlangan muhabbati tasviridan keyin *“Bir necha kun umrdin topsam omon, Sharhi ishqim nazm etay bir doston”* deya oʻz sevgisi haqida doston yozish orzusida ekanligi badiiy ifoda etilganiga eʼtibor qaratiladi. Shunday niyat *“Tarixi muluki Ajam”*da Sulton Husayn Boyqaro madhi keltirilgan masnaviydagi *“Chekib turfa tarixingga xomani, Qilib nuqtaga tez hangomani”* singari satrlarida Xurosonning bu dongdor hukmdori tarixini yozmoqchi boʻlganidan bahs etilgani bayon qilinadi. Risolada Alisher Navoiyning akasi shayx Bahlulga, Xadichabegimga munosabatiga oydinlik kiritiladi, shoirning sevgilisi haqida *“Qilgʻon ermish notavon sarvi ravonimni maraz”* satri bilan boshlanuvchi gʻazal tahlili asosida bildirilgan fikrlarning asossizligi tahlillar asosida muayyanlashtiriladi. Alisher Navoiyning shaxsiy ishqiga oid ishoralarning sheʼrlarida uchrashi *“Ey koʻngil, kelkim, ikov boʻlub nigori koʻzloli”* satri bilan boshlanuvchi gʻazali misolida koʻrsatib oʻtiladi. Alisher Navoiyning Yusuf va Zulayho mavzusida, oʻz sevgisiga doir doston va Sulton Husayn Boyqaro tarixini yozish haqidagi istaklari uning armonga aylangan adabiy orzulari ekanligi haqida xulosaga kelinadi.

Ustoz 90-yillarning oxiri va yangi asr boshlarida bir qator ishlarni amalga oshirish uchun hamkorlikda faoliyat olib borishni yanada kuchaytirdilar. Bu, avvalo, oliy taʼlimda oʻzbek mumtoz adabiyoti, uning tasavvuf taʼlimoti bilan aloqadorligiga oid oʻquv qoʻllanmalarni

yaratilishida ham namoyon bo'ldi. Bir yilning o'zida kamina bilan⁶⁷ va mutafakkir olim Hamid Ne'matov hamda faylasuf Mels Mahmudov bilan⁶⁸ hammualiflikda ikki o'quv qo'llanmaning nashr etilishi ana shunday sa'y-harakatlarning samarasi sanaladi. Ta'kidlash lozimki, bunday natijaning qo'lga kiritilishida davr ehtiyojini inobatga olib, oldindan tuzilgan rejalar asosida tizimli ishlashga to'g'ri keldi. Tasavvufning hayotbaxsh nafasi ta'sirida vujudga kelgan mumtoz badiiy asarlar xususida respublika matbuotida mohiyatni to'la anglamaslik, bir yoqlama tahlilga moyillik asosida, shuningdek, mumtoz asarlarda ilgari surilgan tasavvufona g'oyalarni dunyoning turli o'lkalarida vujudga kelgan ta'limotlar bilan uyg'un holda tahlil qilish bilan aloqador chiqishlar ko'zga tashlana boshladi. Yaxshiyamki, mohiyatdan adashtiruvchi bu kabi maqola-yu kitoblarning urchib ketishini oldini olish borasida jiddiy munosabatlar ham bildirildi⁶⁹. Ayni choqda juda katta ilmiy qimmatga ega bo'lishiga qaramay N.M.Mallayev, V.Abdullayev, G'.Karimov singari zabardast adabiyotshunoslar tomonidan tayyorlangan "*O'zbek adabiyoti tarixi*" nomidagi darsliklarda mustabit tuzum mafkurasining ta'siri yaqqol sezilib turardi. Shu bois ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida oliy ta'limda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarga fanlarga oid o'quv-uslubiy majmualar tayyorlash vazifasi qo'yildi. Ularda o'tiladigan mavzularga doir ma'ruzalar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Ishlab chiqiladigan bunday majmualarning ham saviyasi zamon talablariga to'la javob bermasdi. Shu bois ustoz Rahim Vohidov o'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga oid darslik tayyorlash, maxsus fan sifatida o'qitiladigan "*Tasavvuf va badiiy ijod*"ga oid o'quv qo'llanma tayyorlashga rahnamolikni o'z zimmalariga oldilar. Darslik bilan bog'liq faoliyat 2001-yilda nishonasini ko'rsatib, bu boradagi ishlar keyingi yillarda davom ettirilgan bo'lsa, ustozning H.Nematov, M.Mahmudovlar bilan hamkorlikda tayyorlangan "*So'z bag'ridagi ma'rifat*" nomli o'quv qo'llanmalari yakunlangan ish sifatida oliy o'quv yurtlari tolibi ilmlari, o'qituvchilar, ilohiy-irfoniy adabiyot ixlosmandlari tufha etildi.

"*So'z bag'ridagi ma'rifat*"da islomiy g'oya va mafkura mumtoz asarlarning qoni va joni ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Sharq mumtoz adabiyotida butun borliq va koinotning yaratuvchisi bo'lgan

⁶⁷ Vohidov R., Eshonqulov H. Mumtoz adabiyot – hikmat hazinası. –Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2001, -152 b.

⁶⁸ Воҳидов Р. Неъматов Х., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. –Тошкент: "Ёзувчи", 2001, -144 б.

⁶⁹ Ҳаққул И. Моҳиятдан йироқлашмайлик ва тасаввуфшуносликдаги ғаройиботлар// "*Ўзбекистон адабиёти ва санъати*", 2002, 5 апрель, -Б.3.

Haqqi mutlaqni tanish, uning borqliqqa, borliqning Haqqi mutlaqqa munosabatini bilish, tushuna olish holatida bo'lishni anglatishi nuqtayi nazaridan arabcha “*arafa*” “tanimoq, bilmoq” ma’nosida qo’llangan fe’ldan hosil qilingan *ma’rifat* so’ziga munosabatda bo’linadi. Shu tarzda ma’rifiy adabiyot deganda ma’rifatli solik va pir nuqtayi nazaridan turib yozilgan va ma’rifatli shaxs tomonidan o’qilishi, tushunilishi mo’ljallangan irfoniyl-badiiy asarlarning ko’zda tutilishi uqtiriladi. Ma’rifat hosil qilishda ishqning o’rni bir qator mo’tabar manbalar asosida ko’rsatib o’tiladi. Muhimi, mumtoz asarlar ma’rifiy qarashlarning aks ettirishiga ko’ra: 1) *ilmiy-ma’rifiy*, 2) *ma’rifiy-badiiy*, 3) *badiiy-ma’rifiy*, 4) *ma’rifiy-targ’ibiy*, 5) *taqlidiy-ma’rifiy* asarlar sifatida tasnif etilib, ularga xos xususiyatlar misollar bilan taqdim etiladi. Shuningdek, ma’rifat va adabiyot, Haq ma’rifatining badiiy ifodasi, Haq va borliq: tajalliy (in’ikos, refleksiya)ning badiiy manzaralari, inson ma’rifati talqini, inson va taqdir: erk va sababiyat, inson kamoloti bosqichlari singari tasavvuf ta’limotining badiiy adabiyot bilan bog’liq jihatlari xususida tahliliy mulohaza yuritiladi. Bu esa o’z navbatida ma’rifiy-badiiy adabiyotda ramziyat tizimlarini ishlab chiqish imkonini yaratadi. Buning uchun mualliflar tasavvufiy tushunchaga ko’ra, *tolib – mushkulot – maqsad* bosh tizimi zahirida tasavvufning (ma’rifatning) *solik – o’zlik – Haqqi mutlaq* tizimi yotganidan kelib chiqib yondashishdilar. Natijada ma’rifiy adabiyotda *Haq, solik va mushkulot ramziyati*, ularning ramziy tushunchalari mantig’iga tayanib, “*oshiq – yor*” tizimidagi ma’nodoshlik vositasida ma’rifiy tushunchalarni o’rganishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bunda ma’rifiy adabiyotda *Haq, solik va mushkilot ramziyati* bir-birini taqozo va inkor qiluvchi quyidagi uch tizimchadan tarkib topishi ko’rsatib o’tildi:

Tasavvufda	Ma’rifiy adabiyotda ramziy tizimchalar									
Haq	yor	gul	may (soqiy)	sham	shoh	quyosh	dengiz	suv	jon	sulton
Ishq – O’zlik (nafs)	ag’yor hajr	tikan xazon	muxtasib shayx	o’t	o’rtadagi katta farq va ziddiyat					
Solih (inson)	oshiq	bulbul	rind	parvo- na	gado	zarra	qatra	ba- liq	tan	mulk

Ma’rifiy adabiyotdagi ramziy tushunchalar asosida oshiq – yor tizimidagi ma’nodoshlik ham o’zaro mushtaraklik va ziddiyat

mantiqidan kelib chiqib uch tizimcha holida yagona tizimlilikda birlashishi quyidagicha asoslandi:

Yor – dilbar, janona, sevgili, ma’shuqa, berahm, zolim, go‘zal, pari, Shirin...

Oshiq – g‘arib, bexonumon, dildora, aftoda, zaif, xor, gado, mubtalo, Farhod...

Mushkulot – hajr, ag‘yor, zaiflik, muhtasib, ayb, nafs, o‘t, faqr, Xusrav...

Tavsiya qilingan bunday tizimlilikka ko‘ra ma‘rifiy adabiyotga yondashish undagi tajalliy, tavid simgari irfoniy masalalar mohiyatini teran anglashga bois bo‘ladi. Ustozlar tavsiyalari bilan shakllantirilgan bu nazariy qarashlar, qiyoslash-zidlash asosida muayyanlashtirilgan tizimlilik bizni ham ilmiy mushohadaga chorlab, ishqiy g‘azallardagi obrazlarning ramziy tizimini Xoja Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy ijodi misolida qiyosiy o‘rganilgan tadqiqotimizda tizimlilikning quyidagi tasnifini ishlab chiqishga undagan edi:

1. *Oshiqning maqsadini ifoda etuvchi ramziy obrazlar:* yor, ma’shuqa, mahbub, jonon, pari, gul, sham, quyosh, oy, Shirin, Layli, Uzro, mirak, yigit, turki Sheroz...

2. *Oshiq va ishq yo‘lida oshiqqa maslakdosh yoki unga ruhiy-ma‘naviy yaqinlik qiluvchi obrazlar:* oshiq, solik, tolib, faqir, gado, darvesh, g‘arib, qalandar, rind, samandar, bulbul, parvona, Farhod, Majnun, Vomiq...

3. *Oshiqning maslagiga to‘siq bo‘luvchi, ishqni inkor etuvchi yoki unga mayl ko‘rsatmaydigan obrazlar:* nafs, raqib, faqih, muxtasib, zohid, obid, shayx, fosih, bulhavas, husnfurush...

4. *Ishq yo‘lida oshiqni qo‘llovchi obrazlar:* pir, piri mug‘on, dayr piri, soqiy, mug‘bacha, mahram, habib, Iso Masih, Yusuf (a.s.), Iso (a.s.), Xizr (a.s.), Muso (a.s.) singari payg‘ambarlar...⁷⁰

Qo‘llanmada ma‘rifiy-badiiy, badiiy-ma‘rifiy asarlarni tushunnish, tushuntirish, tahlil qilish borasida bildirilgan mulohaza va tavsiyalar tom ma‘noda tasavvufiy adabiyotga nisbatan yangicha munosabatda bo‘lishning samarasi edi. Shu bois ushbu qo‘llanma ko‘pchilik mumtoz adabiyot tadqiqotchilari, talaba va magistrantlarga dasturilamal bo‘lish bilan bir qatorda yangi tadqiqotlarning yaratilishiga ham metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Bunda taniqli tilshunos olim, professor Hamid Ne‘matovning ilmiy-nazariy qarashlari zabardast adabiyotshunos, ustoz

⁷⁰ Эшонкулов Х. Алишер Навоий ғазалиётида ишқ талқини поэтикаси: қиёсий-типологик таҳлил. –Тошкент: “Муҳаммад полиграф”, 2002, 102-103-бетлар.

Rahim Vohidov va faylasuf olim, professor Mels Mahmudov tafakkurlari sintezida sayqallashtirildi.

Ustoz Rahim Vohidov o'zbek mumtoz adabiyotining eng qadimgi davrlaridan boshlab XVII asrgacha bo'lgan qismiga doir o'quv qo'llanma tayyorlash taklifi bilan menga murojaat qilganlarida, endigina nomzodlik dissertatsiyamni himoya qilib (1999-yil 22-dekabr), faoliyatni davom ettirayotgan edim. Bu nihoyatda, sharaflı va mas'uliyatli ish edi. Ustozning hamkorlikda ishlash haqidagi takliflari meni qanchalik quvontirsa, uning mas'uliyati shunchalik hadiksirashimga bois bo'lardi. U paytlar kompyuter masalasi bugungidek farovon emas edi. Shu bois ustoz tavsiyalari asosida qo'lyozmada tayyorlaganim qismlar domla tomonlaridan jiddiy tahrir qilinar, krill yozuvida kompyuterda ko'chirilganidan keyin ustozning nazarlaridan yana bir o'tkazilardi. Muayyan bir qism o'quv qo'llanma holiga keltirilgandan so'ng lotin yozuviga aylantirilib, kitob holidan chop etilardi. Buning uchun hozirda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida faoliyat olib borayotgan, o'sha paytlardayoq axborot texnologiyalarga oid bilimlarni yaxshi o'zlashtirgan, shaxsiy kompyuterlarga ega bo'lgan Botirjon Elovning beminnat ko'magidan foydalanganman. Ustoz bilan hammualiflikdan tuygan iftixorim meni hatto dam olish kunlari ham ishlashga undagan. Botirjonning G'ijduvon tuman Zarangare qishlog'ida joylashgan hovlilarida bo'lib, hayotini yoshlar tarbiyasiga bag'ishlagan Bolta aka Elov va ayollarining samimiy suhbatlari-yu mehmonga muhabbatlaridan bahra olganman.

Faoliyatimizning boshlanishi ancha qiyin kechdi. Faktik ma'lumotlar bilan ishlash tajribam pand bermasa-da, tahliliy mulohazalarim ustozga doimo ma'qul tushavemasdi. Yozganlarimning aynan ana shu sahifalari ustozning jiddiy tahrirlariga sabab bo'lib, domlaning katta-katta harflar bilan bitilgan tuzatishlari hisobidan qizarib turardi. Tahliliy mulohazalarimga hoshiyada, ba'zan sahifaning orqa tomonida ilova etilgan qo'shimchalar meni jiddiy mulohaza yuritishga undar, bu boradagi malakamni muntazam oshirib borishimga imkoniyat yaratardi. Ustoz ayni paytda yuqorida nomi keltirilgan qo'llanma va boshqa kitob-u maqolalar ustida ishlash, shuningdek, muayyan bir mavzuda tadqiqotlar olib borayotgan shogirdlarga tavsiyalar berish hamda kafedradagi faoliyatlaridan ortib, yozganlarimni ko'pincha istirohat hisobidan ko'rib chiqardilar. Ba'zan horg'inlik ustun kelsa, meni uyga taklif qilardilar. Muborak ayaning choylari-yu, samimiyat

bilan pishirilgan taomlaridan bahramand bo‘lib, ish stoli atrofida birlashdik. Men yozganlarimni o‘qirdim, ustoz tinglab, tuzatishlarni yozib borishni menga aytardilar. Tahrirning bunday jonli muloqot tarzida amalga oshirilgani ko‘p narsalarni o‘rganishimga bois bo‘lgan. Ustoz muayyan bir so‘zning ma‘nosini bilsalar ham, lug‘atlarga murojaat qilardilar. Ko‘p ma’noli so‘zning yondosh ma‘nosiga ham alohida diqqat qaratardilar, bu kabi qator fazilatlar, erinmasdan kitob varaqlashlari menga saboq bo‘la bordi. Ba‘zan tahliliy mulohazalarimga zid fikr bildirganlarida, “erinmay” bahslashganlarim hozir ko‘z o‘ngimdan o‘ta boshladi. Ustoz bag‘ri keng murabbiy edilar, hamma vaqt fikrlarini o‘tkazishni emas, ba‘zan yon berishni ham bilardilar. Shunday yon berishlarining kitobimiz sahifalaridagi izlari o‘sha takrorlanmas onlarni ko‘z oldimga keltiraverganidan kulib qo‘yaman. Aslida bu yon berishlar zahirida shogirdni qo‘llash, uni ruhlantirish maqsad qilinganini endi yurak-yurakdan his qilib turibman. Qo‘llanmada so‘z yuritiladigan mavzularning ustoz kitoblaridagi talqinlar bilan muvofiq o‘rinlarini ishlash ancha qulay edi. Buning uchun ko‘proq muvofiqlashtirish yo‘lidan borilardi. Shu bois bunday sahifalar tahrirlarga kam uchrardi.

Oylar, yillar davomida qilingan mehnat o‘z samarasini bera boshladi. Dastlab 2001-yilda eng qadimgi davrdan Alisher Navoiygacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan “*Mumtoz adabiyot – hikmat xazinasini*” nomli qo‘llanmamiz nashr etildi. Ustoz bilan hammuallifdagi ilk qo‘llanma ikkalamizga ham olam-olam quvonch bag‘ishladi. Meni-ku, tushunsa bo‘ladi. Ustozni esa har bir kitob shunday quvontirganini, yelkadan tog‘ ag‘darilgandek bir holda namoyon bo‘lishlarini xotirlabgina u kishi ham shunday lazzatni mendan kam bo‘lmagan miqdorda his qilganlarini anglab yetganman. Tayyorlanayotgan o‘quv qo‘llanmamizning salmoqli qismini Alisher Navoiyning hayoti va ijodi tashkil qilardi. Ayni sahifalar ustida ishlash menga keyingi tadqiqotlarimni amalga oshirish uchun zamin hozirlab borardi. Shuningdek, bag‘ri keng, ayni choqda yetarlicha inijlikni ham namoyon eta oladigan ustozim bilan muloqotlar qalamimni ham charxlab bordi. Ustoz va shogird orasida ruhiy-ma‘naviy yaqinlik paydo bo‘ldi. Hozir hamkasb-u shogirdlarim mendagi inijlikni ustozdan o‘tib qolgan tarzda tushunadilar. Buni inkor qilmagan holda fe‘limda mavjud bo‘lgan bu sifat ustozning ta’sirlarida takomillashganini aytmqchiman. Aslida ikkalamizning tabiatimizdagi bu kabi uyg‘unlik bahslarimizda

namoyon bo'lardi. Shunday qilib, o'quv qo'llanmamiz 2005-yilda uch kitob, 2006-yilda esa yaxlit kitob holida nashr etildi⁷¹.

Bob va fasllarni hozirlash jarayonida mendagi malaka ham o'z kuchini ko'rsatish qudratiga ega bo'la boshladi. Kitobning "*Lison ut-tayr*" – falsafiy, masal-doston" nomli X bobidan, "*Alisher Navoiyning nasriy asarlari*", "*Zahiriddin Muhammad Bobur*", "*Muhammad Solih va uning "Shayboniynoma" dostoni*", "*Xoja – hikoyanavis adib*" deya ataluvchi XIV bobining so'ngiga qadar⁷² ustozning tahrir qalamlaridan xoli bo'ldi. Hatto "*Endi davom ettirish qo'lingdan keladi*" tarzda bahoga ham munosib ko'rildim. Bunday hamkorlik men uchun katta maktab vazifasini o'tadi. Nokamtarlikka yoymaslik sharti bilan ayta olamanki, men ustozning erka shogirdlariga aylanib qoldim. Buni aka-opalarimdan ayrimlari hali ham aytib turadilar.

Ayni o'rinda "*O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*"ni tafsiflashdan atayin tiyildim. Ustoz uni kamtarlik bilan o'quv qo'llanma deya nashr ettirgan bo'lsalar-da, yillar davomida "*O'zbek adabiyoti tarixi*" fanidan tayyorlanayotgan fan dasturlarida taniqli olimlarimiz kitobni "*darslik*" deya e'tirof etganliklarini unga berilgan baho deb bilaman. 2006-yildan buyon darslikning shu maqomda e'zozlanishidan, men esa orqasida ikkalamizning suratlarimiz o'rin olgan kitobni qo'lda tutib, yuzlab shogirdlarga dars o'tib kelayotganimdan behad xursandman. O'rni keganda aytib qo'yay, kitob tujjorlari ushbu qo'llanmaning yaxlit nashridan yaxshigina daromat ham oldilar, hatto, navoiylik birlari tomonidan ko'paytirilgan shu kitobdan o'zimga ham sotganlar bo'ldi. Internetda ham bizdan ruxsat olinmay joylashtirildi. Bularning baridan ustozga sabob yetishini o'ylab, hech kimga hech narsa demadim. Keladigan saboblar ikkimiz uchun ham bardavom bo'lishini, ustozning munavvar ruhlari shod bo'lishini yurak-yurakdan istayman.

Ustoz Alisher Navoiy g'azallarini sharhlash borasida ham yillar davomida amalga oshirgan izlanishlaridan "*Yog'di o't ustiga qor*"⁷³ nomli qo'llanmani tayyorlashda foydalandilar. Kitobning "*Debocha*"sida shunday mulohazalarni bayon etdilar: "*Alisher Navoiy g'azallari haqida alohida bir kitob nashr ettirish uzoq yillardan beri yuragimda shirin orzu bo'lib yashab kelardi. Janobi rasuli Akramning yoshlariga yetgach,*

⁷¹ Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi I kitob. -Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2005, -240 b., II kitob, -242 b., III kitob, -164 b.; Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, -528 b.

⁷² Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, 391-522 betlar.

⁷³ Vohidov R. Yog'di o't ustiga qor. -Toshkent: "Zarqalam", 2005.

sarvari koinotning munavvar ruhlari qo‘lladimi, ko‘hna niyatim amal choponini kiyadigan bo‘ldi. Yillar davomida shu yo‘nalishda yozilgan ba‘zi ishlarni to‘pladim. Mo‘jaz bir majmuaga yetadigan miqdordagi sharhlar yig‘ildi”⁷⁴. Qo‘llanmada “*Alisher Navoiy dahosiga mavlono Lutfiy bahosi*”, “*G‘azal ichra bir olam*”, “*Ishq - bedavo dard*”, “*Qiyiqcha bir bahona*” singari sarlavhalar bilan 20 ga yaqin g‘azallarning sharhlari keltirilgan. Qo‘llanma bilan tanishish asnosida ustozning tafakkur doiralari keng, mumtoz adabiyotning chinakam tadqiqotchisi ekanliklariga yana bir karra ishonch hosil qilish mumkin.

Ustoz Rahim Vohidovning Hamid Ne‘matov, Mels Mahmudov bilan tayyorlagan “*So‘z bag‘ridagi ma‘rifat*”, ustoz-u shogirdlik munosabatlarimizning samarasi bo‘lgan “*O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi*” va Alisher Navoiy g‘azallari sharhi misolida amalga oshirilgan “*Yog‘di o‘t ustiga qor*” nomli darslik va maqolalari nuqtadon olimning “maqsud gullari” sifatida kitoblardan hozirlangan gulshanlarini o‘zining tarovat-u chiroyi bilan bezadi.

3.2 Ustoz va safdoshlar qadri ramzlari

Chinakam ma‘nodagi olim har qanday mansab-u daraja-u unvonlar tamasidan tamoman xoli bo‘lib, hayotini ilmiy izlanishlarga baxsh etadi. Tunlarni tongga ulab, ilm lazzatini tuyishni barcha istirohatlardan ustun ko‘radi. U go‘yoki vujudini kuydirib atrofida gilar ko‘nglini yorituvchi shamga o‘xshaydi. Boshqalar ko‘ngliga harorat berish bilan ularning qalbida yiltalay boshlagan uchqunni mash‘alga aylantirish istagi bilan yashaydi. Afsonaviy qaqnus qushi doimiy haroratli kuy kuylashi oqibatida jismidan chiqqan chaqin bois o‘zi yig‘gan xas-xoshoklardan hosil bo‘lgan alangada yongani kabi qalbida paydo bo‘lgan ma‘rifati otashida yonadi. O‘zidagi ma‘rifat otashini ko‘nglidan boshqalar ko‘ngliga ham o‘tishiga rahnamolik qiladi. Shu tarzda chehrasi ma‘rifat nuridan charog‘bon sham misol o‘rnini qalbida ilm uchquni miltillab turgan, sekin-asta uni mash‘alga aylantira oladigan izdoshlarga topshiradi. Porloq sham maqomidagi olimlar bir-birining haroratidan ham bahra oladi. Ana shunday ma‘rifatni tuyish holini g‘ofillikda qolmay, vaqtida e‘tirof etish ustoz-u safdoshlar ko‘ngliga harorat ulashishga sabab bo‘ladi. Buni esa chinakam insoniylik-u olim qadrini e‘zozlaydigan qadrshunosgina o‘z zimmasiga ola oladi. Ustoz Rahim

⁷⁴ Vohidov R. Yog‘di o‘t ustiga qor, 3-bet.

Vohidov chinakam ma'noda ana shunday olimlar orasidagi qadrshunos olim edilar. Taniqli adabiyotshunos Dilorom Salohiyning ustozga bag'ishlangan quyidagi mulohazalari fikrimizning dalilidir: *"Rahimjon Vohidov hech bir olim qilmagan, XX asr adabiyotshunosligi tajribasida ko'rilmagan ajoyib bir ishga qo'l urdi. U, agar ta'bir joiz bo'lsa, holot, manoqib janri xususiyatiga ega bo'lgan zamonaviy uslubda mashhur olimlar haqida risolalar yaratdi. "Ilohiy ishq jozibasi" kitobida Najmiddin Komilovning, "Navoiy merosiga oshufta ko'ngil" kitobida Abduqodir Hayitmetovning, "Samarqandning ilmiy vijdoni" kitobida Botirxon Valixo'jayevning adabiy portretlarini mukammal chizib berishga harakat qildi"*.⁷⁵

Ustoz Rahim Vohidovning salaf va safdoshlar qadrini e'zozlovchi o'nga yaqin risolalarida, haqiqatan ham, Alisher Navoiyning piri murshidlari Nuriddin Abdurahmon Jomiya bag'ishlangan *"Xamsat ul-muttahayyirin"* hamda *"Holoti Sayyid Hasan Ardasher"* va *"Holoti Pahlavon Muhammad"* singari manoqib-holotlarning ta'siri sezilib turadi. Ayni choqda bu risolalarda salohiyatli adabiyotshunosning shogirdlik, do'stlik mehri bilan bir qatorda ularga tegishli muhim mavzuda bitilgan tadqiqotlarga doir ilmiy mulohazalarning ommabop ifodasiga ham keng o'rin berilganligi kuzatiladi. Ustoz bunday risolalarni faqatgina ulug' salaf va safdosh ijodkorlar haqidagina emas, balki o'zbek va fors-tojik adabiyotining bilimdoni, ma'rifatli inson va shoir Ibrohim Qosimiy, butun umrini qishloq xo'jaligi ravnaqi, qishloqlar obodligi, odamlari hayotining farovonligi bag'ishlagan, Buxoro viloyatining Romitan, Jondor va Kogon tumanlarida katta-yu kichik rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borgan Ramazon Bahronov haqida ham bitgandilar. Zevar Qosimova bilan hammualliflikda yozilgan *"Yaxshilikka bag'shida umr"*⁷⁶ risolasida Ibrohim Qosimiyning hayot faoliyati, mumtoz badiiy asarlarga bo'lgan muhabbati, arab yozuvidagi manbalarni o'qib, tushuna olishi haqida so'z yuritilib, badiiy ijod namunalariga o'rin berilsa, *"Maxsumlarda voyaga yetgan chinor"*⁷⁷ esa Ramazon Bahronov umr yo'liga oid qiziqarli va ibratomuz hayotiy lavhalar bilan tartiblanadi. Ustoz aynan keyingi kitob muqaddimasida akademiklar Vohid Abdullayev, Aziz Qayumov, Botirxon Valixo'jayev, professorlar Abduqodir Hayitmetov, Najmiddin Komilovlar haqida

⁷⁵ Салоҳий Д. Нозик табъи – эъжоз мақоми, фитрати маърифат эди...// Филология масалалари 6. –Тошкент: "Фан", 2013, 20-21-бетлар.

⁷⁶ Воҳидов Р., Қосимова З. Яхшиликка бахшида умр. –Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.

⁷⁷ Воҳидов Р. Махсумларда вояга етган чинор. –Тошкент: "Мухаррир", 2010, -196-б.

badianamo kitoblar insho etib⁷⁸, o‘quvchilar hukmiga havola qilganlarini ma’lum qiladilar. Nomlari qayd etilgan ustozlar orasida akademik Aziz Qayumov haqlarida maxsus risola bitilmagan. Ustoz bunda *“Alisher Navoiyning ijod maktabi”* dan o‘rin olgan *“Sadoqatda qoyim alloma”*⁷⁹ nomli kitobining so‘nggi faslini nazarda tutadilar.

Ustoz Rahim Vohidovning yakka mualliflikdagi hamda ulug‘ ustoz Botirxon Valixo‘jayev va Mels Mahmudovlar bilan hammualliflikda bitilgan ayni mavzudagi risolalari yuqoridagi ikki kitob bilan qo‘shib hisoblanganda 10 tani tashkil etadi. Ulardan dastlabkisi o‘zbek bolalar adabiyotining zahmatkash tadqiqotchisi, taniqli folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Oxunjon Safarovning 50 yillik yubileyi munosabati bilan tayyorlangan bo‘lib, *“Bolalik kuylasa – yashnaydi olam”*⁸⁰ deb nomlangan. Olimning 60 yosh tantanalariga tuhfa sifatida esa Mels Mahmudov hammualifligida hozirlangan *“Bolalik dunyosidan munavvar qalb”*⁸¹ nomli kitob chop etildi. Risola har biri ichki 6 fasldan iborat bo‘lgan ikki asosiy fasldan tarkib topgan.

Uning *“Muqaddima”* sida *“Bolalik kuylasa – yashnaydi olam”* ning *“So‘zboshi”* sini juz‘iy tahrir-u tuzatish, to‘ldirishlar bilan *“Bolalik dunyosidan munavvar qalb”* ga kiritish ma’qul ko‘rilgani e’tirof etiladi. Oldingi risoladan o‘rin olgan Oxunjon Safarov ilmiy ishlarining ro‘yxati tushurilib qoldiriladi. Mazkur tahrir-u to‘ldirishlar 60 yoshga atalgan risolaning birinchi faslini tashkil etadi. Keyingi asosiy fasl esa quyidagicha izohlanadi: *“Risolaning ikkinchi faslida esa Oxunjon akaning keyingi o‘n yil ichidagi ma’naviy karvoni haqida professor Mels Mahmudov bilan hammualliflikda ilmiy-ommabop yo‘sinda mulohaza yuritiladi”*⁸². Birinchi faslda Oxunjon Safarovning 50 yoshga to‘lganliklari bilan bog‘liq tafsilotlar o‘zgarishsiz saqlanadi. Ushbu mulohazalarga tayangan holda *“Bolalik dunyosidan munavvar qalb”* ni *“Bolalik kuylasa – yashnaydi olam”* ning hammualiflikdagi to‘ldirilgan nashri sifatida qabul qilish mumkin.

Ustozning yakka mualliflikda yozilgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, akademik Botirxon Valixo‘jayev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, ikki marta Beruniy nomidagi respublika davlat mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor Abduqodir Hayitmetovga bag‘ishlangan risolalarida ham shunga yaqin

⁷⁸ O‘sha kitob, 15-bet.

⁷⁹ Вохидов Р. Алишер Навоийнинг ижод мактаби. “Бухоро”, 1994, 165-187-бетлар.

⁸⁰ Вохидов Р. Болалик куйласа – яшнайд олам. Бухоро, 1990, -84 б.

⁸¹ Вохидов Р., М.Махмудов. Болалик дунёсидан мунаввар қалб. –Тошкент: “Маънавият”, 2000, -72 б.

⁸² O‘sha kitob, 4-bet.

holat kuzatiladi. “*Navoiy barhayot*”⁸³ risolasining salmoqli qismi ustoz Botirxon Valixo‘jayevning sermazmun umr tafsilotlariga bag‘ishlangan. Keyinchalik taniqli olimning 70 yillik yubileyi munosabati bilan tayyorlangan “*Samarqandning ilmiy vijdoni*”⁸⁴ nomli kitobda “*Navoiy barhayot*”dagi mulohaza-yu tafsilotlar tahrirlanib boyitilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Biroq bunda oldingi risoladagi matn o‘zgartirishsiz saqlab qolinib, olimning keyingi yillardagi faoliyatlariga doir hayotiy lavha-yu ilmiy izlanishlarga doir mulohazalarni ilova qilish yo‘lidan borilmaydi. Xuddi shunday Abduqodir Hayitmetovning ibratli hayot lavhalari xususida so‘z yuritilgan “*Navoiy qalbi-la sirlashgan inson*”⁸⁵ risolasi o‘sha davr imkoniyatlari taqozosiga ko‘ra qisqartirib nashr bo‘lgani bois ustoz uning to‘ldirilgan nashrini “*Navoiy merosiga oshufta ko‘ngil*”⁸⁶ deb nomlaganlarini e‘tirof etadilar. Yana ustoz-u salaflarga bag‘ishlangan ikki risola mavjud bo‘lib, ularning to‘ldirilgan ikkinchi nashri amalga oshirilmagan. Risolalardan biri taniqli olim, akademik Vohid Abdullayevga atalgan bo‘lib, “*Ezgulik – umr mazmuni*”⁸⁷ deb nomlangan. Kitobning vujudga kelishida ustoz-u shogird Botirxon Valixo‘jayev va Rahim Vohidovlarning hammuallifliklari asos bo‘lgan. Ustoz Rahim Vohidov kursdosh birodarlari, professor Najmiddin Komilovga atalgan risolani esa “*Ilohiy ishq jozibasi*” deb nomlaganlar. Shunday qilib, ustoz-u salaflar hayot yo‘llari yoritilgan Rahim Vohidovning yakka va hammualliflikda yozilgan risolalari 8 ta bo‘lib, ularda akademiklar Vohid Abdullayev, Botirxon Valixo‘jayev, professorlar Abduqodir Hayitmetov, Najmiddin Komilov va Oxunjon Safarovning ibratli hayotlari xususida so‘z yuritiladi.

Ustoz-u salaflarga atalgan risolalarning aksariyatida ularning ilmiy-ommabop uslubda bitilgani ta‘kidlangan. Bu uslub kitoblarning nomlanishidayoq kuzatiladi. Aytish lozimki, bunda adabiy portreti chiziladigan olimlar faoliyatining eng muhim jihati inobatga olingan. Jumladan, akademik Vohid Abdullayev ilmiy-pedagogik va rahbarlik faoliyatni birga olib borganliklari, Samarqanddagi ilmiy maktabning rahnamosi bo‘lganliklari bois “*Ezgulik – umr mazmuni*”da, keyinchalik ayni vazifa muayyan ma’noda Botirxon Valixo‘jayevning zimmalarida bo‘lgani, ustozning nihoyatda xoksor, e‘tiqodli, zahmatkash tadqiqotchi

⁸³ Воҳидов Р. Барҳаёт Навоий. –Тошкент: “Фан”, 1991, 23-79-бетлар.

⁸⁴ Воҳидов Р. Самарқанднинг илмий виждони. –Тошкент: “Фан”, 2005, -176 б.

⁸⁵ Воҳидов Р. Навоий қалби-ла сирлашган инсон. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1999, -72 б.

⁸⁶ Воҳидов Р. Навоий меросига ошufta кўнгил. –Тошкент: “Фан”, 2005, -136 б.

⁸⁷ Валихўжаев Б., Воҳидов Р. Эзгулик – умр мазмуни. –Тошкент: “Фан”, 1992, -100 б.

ekanliklari nazarda tutilib *“Samarqandning ilmiy vijdoni”*da, Abduqodir Hayitmetov xizmatlarining salmoqli qismi Alisher Navoiyning hayoti va ijodi doirasida olib borilgani bois *“Navoiy qalbiga oshufta ko‘ngil”*da, tasavvuf va uning badiiy adabiyot bilan bog‘liq jihatlarini Najmiddin Komilov ilmiy izlanishlarining mag‘zini tashkil etgani uchun *“Ilohiy ishq jozibasi”*da, Oxunjon Safarov tadqiqotlarida bolalar adabiyoti, folklori masalalariga alohida e‘tibor qaratilgani sababli *“Bolalar dunyosidan munavvar qalb”*da ular haqida bahs yuritilgan.

“Bolalik kuylasa – yashnaydi olam”, *“Barhayot Navoiy”*, *“Ezgulik – umr mazmuni”* singari dastlabki risolalar talabalik yillarimda vujudga kelgani bois ularning yozilishi jarayoni bilan yaqindan tanish bo‘lganman, deyolmayman. Keyingi kitoblar bilan bog‘liq ayni voqeyliklarning, kafedra yig‘lishlarida o‘tkazilgan muhokamalarining shohidi bo‘lganman. Ayrimlarining nashri uchun taqrizchi sifatida ishtirok etganman. Bu risolalarning kitob holida bosmaxonadan olinishi ustozni nihoyatda shodlantirardi. Hatto Samarqanddagi *“Zarafshon”* nashriyotida chop etilishi rejalashtirilgan *“Ilohiy ishq joziba”*sining nashr oldi o‘qib berilishini ustoz menga topshirgandilar. E‘tibor bilan jiddiy o‘qishni qayta-qayta tayinlagandilar. O‘shanda ilk bor Samarqandga yo‘l olib, ana shunday xayrli ishga hissa qo‘shish sharafiga muyassar bo‘lganman. Ustoz nashr yuzini ko‘rgan kitoblaridan dastxat yozib shogird-u hamkasblar va tanishlarga ulashishdan quvonar, dastxatda esa doimo ezgu niyatlar bitar edilar. *“Ilohiy ishq jozibasi”*ni menga tuhfa etarkan: *“Mavlono Husniddinga shu insonning ilm yo‘lini orzu qilib, ishlariga rivojlar tilab qoluvchi o‘zim, imzo, R.Vohidov 25.05.98”* – deya yozib berdilar. Ustoz kitob ulashish bilan kifoyalanmay fakultetimiz kutubxonasini ham o‘z kitoblari bilan doimo boyitib borar, bunday ishni bizdan ham talab qilardilar. Yozgan kitoblarimizdan kamida 10 tasini shu ziyo maskaniga berishimizni tayinlab, nazorat ham qilardilar. Bu fazilatlari ushbu monografiyani yozishimda menga juda qo‘l keldi. Mustaqillikkacha nashr etilgan kitoblaridan faqatgina *“Suhayliy”* risolasini topishda bir oz qiynaldim. Muborak aya Temirovaning yordamlari menga asqotdi.

Ustoz va safdoshlar haqida bitilgan risolalarda ilmiy-ommabop uslubning tanlanishi ularning jozibadorligi, o‘qimishlilik, qamrov doirasining kengligini ta‘minlash bilan bir qatorda yana ikki muhim nuqtada o‘zining fazilatini namoyon qila olgan. Ulardan birinchisi, adabiy portreti chizilishi nazarda tutilgan olimning o‘ziga xos shakl-u shamoyili-yu, noyob fazilatlari bilan tanishtirish jarayoniga qadar

shunday barkamol insoniy fazilatlarning kamyoblighi yoki uning shakllantiruvchi muhitiga aloqador o'ziga xos boshlanmalarni yaratish. Risolalarda ayni jihatga e'tibor qaratilgani bois ular muayyan ma'noda rang-baranglik kasb etgan. Bir qolipda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan shunchaki tarjimayi hol bilan tanishtirishdan chekinish imkonini bergan. Bu esa, nazarimda, ustozga shunday mavzuda bir nechta risolalar yozish maylini o'stirish bilan yozish imkoniyatini kengaytirib borgan. Shundan bo'lsa kerak, to'ldirilgan qayta nashri amalga oshirilayotgan risolalarda, odatda, o'ziga xos bunday boshlanmalardan voz kechilmagan, aksincha, ular to'ldirilib, boyitilgan. Ustoz boshqa kitoblarida bo'lgani kabi ayni mavzuda bitilgan risolalar "*Muqaddima*"sining ayrimlarida nima bilan boshlash masalasida ko'p bosh qotirganlarini izhori dil uslubida bayon qiladilar. Ayni hol ustoz Rahim Vohidov singari ko'pchilik tadqiqotchilarda kuzatiladi, albatta. Biroq ustoz va salaflarga bag'ishlangan bunday risolalarda ayni masalaga alohida e'tibor qaratilgani bois muallifga qo'shimcha qiyinchilik tug'dirgani ayonlashadi. Shu bois bunday ichki iztiroblar ustozni, ba'zan hammualliflarni adabiy portreti chizilayotgan olimga muvofiq boshlanmalarni kashf etishga undagan. Risolalardagi bunday jozibador sahifalar teran tafakkur samarasi sifatida namoyon bo'lgan. Ulardagi lavhalarning qisqacha mazmuniga e'tibor qaratish orqali mulohazalarimizni dalillashga harakat qilamiz.

Davrining ulug' allomasi sanalgan, akademiklar Vohid Abdullayev, Botirxon Valixo'jayevlarning shaxsiy fazilatlari-yu faoliyatlarida bir qator uyg'unliklar bor. Har ikkala olim taqdiri Samarqand davlat univesiteti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ustoz adabiyotshunoslarning ushbu oliy ilm dargohida o'ziga xos o'rinlari borligi bilan bir qatorda ular O'zbekiston sarhadlaridan tashqarida ham o'z sohasining yirik bilimdonlari sifatida nom qozongan edilar. Ikkala ustoz-u shogird allomalarning ona-shaharlari Samarqandga bo'lgan samimiy mehr-u muhabbatlarini ham bir-birlaridan kam, deb bo'lmaydi. Dastlab ustoz Rahim Vohidov "*Barhayot Navoiy*" risolalarida Samarqandning muhtasham Rohiston – Registonining mahobati, undagi "*Ulug'bek*", "*Tillakori*", "*Sherdor*" madrasalarining sarguzashtlarini xotirga keltirilib, ayni maskanda yo'llarning tutashishi, bu yo'llarda Qozizoda Rumiy, Ulug'bek Mirzo, Ali Qushchi, A'loyi Shoshiy, Fazlulloh Abulaysiy, Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy kabi yuzlab zabardast olimlar, mudarris-u shoirlar, murabbiy va arboblarning muborak qadamlari muhrlangani xususida

soʻz yuritadilar. Shu kabi lavhalar markazida Alisher Navoiyning siymosi gavdalantiriladi. Buning uchun gavjum Rohistonning magʻribida ulugʻ shoir nomi bilan yuritiladigan moʻjaz kinoxonaning mavjudligi tilga olinib, shu yerdan oʻtmishda Alisher Navoiy yurgan rastalar boshlanishiga urgʻu beriladi. Shunday qilib, tafakkur rishtalari ayni choqda Alisher Navoiy davrining zabardast tadqiqotchisi Botirxon Valixoʻjayevning aynan shu muborak zaminda qadam tashlashiga bogʻlanadi. Buning uchun quyidagi jumlar muhim adabiy-estetik vazifa bajaradi: *“Shildirab suv oqayotgan ariq yoqalab yotqizilgan ravon yoʻldan baland qomatli, ozgʻinroq, oʻychan va nigohlari dilkash va samimiy bir kishi ehtiyotkorlik bilan yurib kelmoqda”*⁸⁸. Bu tavsiflar vositasida ustoz Botirxon Valixoʻjayev siymosi markaziy oʻringa keltirilib, ulugʻ ustozning padari buzrukvorlari nomi bilan ataluvchi Nabiraxoʻja Valixoʻjayev koʻchasida istiqomat qilishlari taʼkidlanadi. Ayni choqda ulugʻ ustoz Botirxon Valixoʻjayev mashhur alloma Vohid Abdullayev dunyodan oʻtganlari bois barcha masʼuliyatni zimmalariga olganlari bayon qilinadi. Shu tariqa fikr rishtalari Vohid Abdullayev va Botirxon Valixoʻjayevning ustoz-u shogirdliklari vositasida risolada markaziy oʻrinda turuvchi olimning tarjimai holiga bogʻlanadi. Ayni manzaralar risolaning toʻldirilgan ikkinchi nashrida ham saqlangan holda unda *“Rohiston”*ning mazmun-mohiyatiga eʼtibor qaratilib, ustoz Botirxon Valixoʻjayev tavsiflariga oid oʻrinlar ancha kengaytirilganiga guvoh boʻlinadi. Koʻrinadiki, ustoz Rahim Vohidov Samarqand va undagi mahobatli Registon tasvirlari bilan bogʻliq boʻlgan lavhalarga ulugʻ ustoz Botirxon Valixoʻjayevga bagʻishlangan dastlabki risolada oʻziga xos boshlanma vazifasini mahorat bilan yuklaganlar.

Endi hammualliflikda yoziladigan *“Ezgulik – umr mazmuni”*da yangicha boshlanmaga ehtiyoj seziladi. Buning uchun Samarqand, albatta, katta imkoniyat yarata oladi. Biroq uni kashf eta olish muhim. Shu bois mualliflar Samarqand moʻysafid mashriqning qadimiy shahri ekanligidan kelib chiqib, uning umumiy tavsifi vositasida risolada hayoti va faoliyati yoritilishi nazarda tutilgan olim siymosiga fikr rishtalarini bogʻlashga erishadilar. Samarqand Yer yuzining sayqali ekanligi, ne-ne sayyohlar-u ulugʻ allomalarni bagʻriga olgani, Alisher Navoiy *“Hayrat ul-abror”*dagi Hirot talqinida qiyos sifatida Misr-u Samarqandni tilga olgani, *“Saddi Iskandariy”*da bu shaharni jannat bogʻiga oʻxshatishi uning bunday tavsiflarga loyiq koʻrilishida qadimiy shaharning asl

⁸⁸ Воҳидов Р. Барҳаёт Навоий. –Тошкент: “Фан”, 1991, 24-бет.

farzandlarining o'zni beqiyosligi kabilar mualliflar muddaosiga xizmat qildiriladi. Vohid Abdullayev Samarqandning asl farzandlari qatorida talqin qilinib, ulug' alloma yetmish yillik hayotining ayni shaharga kechganligi fikr tasdig'i sifatida keltiriladi. Taniqli olim o'z onashahrining maftuni, fidoyisi, to'la ma'nosi bilan qobil va komil farzandi bo'lgani bilan ayni fikr yanada rivojlantiriladi. Shu bilan bir qatorda Vohid Abdullayev va Samarqand mavzusidagi respublikaning taniqli olimlari mulohazalariga o'rin berilib, ulug' ustozning tarjimai holi bilan tanishtirishga imkon yaratiladi.

*“Navoiy merosiga oshufta ko'ngil”*da bir qator hamida xulqlarni o'zida birlashtirishi bilan *“yaxshi odam”*likka loyiq ko'riluvchi insonlar haqidagi hadislar va ular asosida bildirilgan mulohazalar boshlanma vazifani bajarishga munosib topiladi. Ustoz Rahim Vohidov buning uchun risola *“Muqaddima”*sig birmuncha kengroq qariyb olti sahifalik o'rin ajratadilar. Tanlangan hadislar bilan risolada adabiy portreti chizilishi nazarda tutilgan olimning fazilatlar orasidagi uyg'unlik uning oila muhiti bilan vobasta tasvirlanadi. Natijada boshlanma bilan tarjimai hol bir-biri bilan bog'lanib, fikrning tadrijiy rivojida olimning nurli siymosi, uning hasbi holiga oid ayrim jihatlar kitobxon ko'z oldiga namoyon bo'ladi. Risolada murojaat etilgan hadislardan birida *“Ilmiga amal qiladigan, ortiqcha mol-u dunyosidan xayr-u ehson qiladigan, behuda gaplardan tilini tiyadigan kishilar naqadar yaxshi kishilar”* – deyiladi. Shunday hadislar tilga olingan islomiy-irfoniy g'oyalar 80 yoshni qarshilayotgan Abduqodir Hayitmetov hayot yo'lini nurlantirib turganidan bahs etiladi. Olimning otasi Dehqonqul aka oilasining e'tiqodiy qarashlari bois zarbaga uchrashi eslanib, Sharq mumtoz she'riyatining oshuftasi bo'lgan volidayi muhtaramalari farzandi qalbiga barcha ishonch-u e'tiqodni singdirib borgani ta'kidlanadi. Shu tarzda yirik olim sifatida tanilgan Abduqodir Hayitmetovning *“xokisorona qiyofa, subutli raftor, mehr-u oqibatga yo'g'rilgan muomila”* sohibi ekanligi, *“saramjon-sarishtalik, bejirimlik, mo'tadil turmush tarzidagi munosib va yarashqli jihoz-u ashyolar”*i tavsiflanadi va shu yo'sinda yirik navoiyshunos olimning nurli qiyofalari chizib boriladi. O'zni bilan ustozning salkam ellik yildan beri davriy matbuot sahifalariga ma'nomazmun bag'ishlab keladigan chiqishlari-yu bir-biridan jozib va mazmunder kitoblari eslanib fikr rivojlantiriladi.

Safdoslar haqidagi risolalarda ham o'ziga xos boshlanmalar topilgani kuzatiladi. *“Ilohiy ishq joziba”*sida to'g'ridan to'g'ri *“Yoshlik”* jurnalining jasorati xususida so'z yuritiladi. Jurnalning 1986-

yilgi 10-sonida Najmiddin Komilovning XVI asrda yashab o'tgan atoqli turk olimi Sudiy Basnaviyning "*Hofiz devoniga sharh*" asari tahlil doirasiga tortilgan "*O'lmas satrlar qudrati*" maqolasining e'lon qilinishi katta shov-shuvga sabab bo'lgani haqida so'z uritiladi. Olimning ushbu maqolasi ayni yo'nalishdagi bir qator maqolalari uchun dasturiy ahamiyat kasb etgani ta'kidlab o'tiladi. Shu tarzda Najmiddin Komilovning nomzodlik dissertatsiyalari, aspirantlik yillari, talabalik chog'larida Botirxon Valixo'jayev, Nuriddin Shukurovlardan saboq olganlari, hayot yo'llarining Qutbiddin eshon Muhiddinov bilan bog'lanishi, ustoz sifatida taniqli olim G'aybullas-Salom etaklarining mahkam tutilishi muhim ahamiyat kasb etgani eslanadi. Ustoz Rahim Vohidov Najmiddin Komilov bilan kursdosh bo'lganlarini iftixor bilan ta'kidlab, do'stlarining talabalar orasida yagona qur'onxon bo'lganlariga ham e'tibor qaratadilar. "*Shoir, tarjimon Muhammadrizo Ogahiyning badiiy mahorati*" nomli nomzodlik dissertatsiyasi uchun bir qator qo'lyozmalar bilan ishlashga to'g'ri kelgani, uning himoyasi Najmiddin Komilovga katta shuhrat keltirgani, Ilmiy kengashda doktorlik dissertatsiyasi himoyasiga arzigulik ish bo'lganining e'tirof etishi, shunday bo'lsa-da ilmni nihoyatda e'zozlovchi olim kam-u ko'stsiz 18 yildan keyin doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgani ibrat sifatida ko'rsatiladi. Shu tarzda kitobxon ko'z oldida ilmni boylig-u mansabga vosita qilishdan or qiluvchi, teran tafakkur egasi bo'lgan, kamtarin olim qiyofasi gavalantiriladi. Bu esa kitobda shunday fazilatlariga ega bo'lgan tasavvufshunos olimning tarjimaiy holini yoritishga yo'l ochadi.

"*Bolalik dunyosidan munavvar qalb*"da oldingi risoladagi boshlanma aynan saqlab qolingan. Unda bolalik, bahor va Oxunjon Safarov bosib o'tgan yarim asrlik umr dovoni o'rtasida mushtaraklikdan bahs etiladi. Olimning tabiatan bolajon ekanligi bois o'zini mittivoylarning katta badiiy dunyosini kashf etishga bag'ishlagani xususida so'z yuritiladi. Buning ildizlari oila muhitidan izlanadi. Otalari Safar To'rayev va onalari Muazzamxon ayaning o'qituvchining noni yarimta bo'lgan paytda ham o'z kasbiga sadoqatli bo'lganlari, Dodbonu qishlog'ida maskan tutgan bu xonadonning hazil-mutoyiba, qochirim va musiqaga ishtiyoqi balandligiga alohida e'tibor qaratiladi. Muazzam ayaning 70 yilligini farzand-u qarindoshlar ko'tarinki ruhda nishonlarkan, xonadon ahli-yu qarindoshlar ardog'ida bo'lgan 88 yoshli Musallam ammaning xalq donishmandligi namunalarini yod aytish bilan davraga fayz kiritgani, uning xalq og'zaki badiiy ijodining xazinaboni tarzida taassurot uyg'otishidan qoniqish bilan so'zlanadi. Xalq

ijodiyotini maromiga yetkazib ijro qilish, asrash, sayqal berish singari noyob fazilatlarining Musallam aya timsolida namoyon bo'lishi vorisiylikka ko'ra yangi avlodda o'zgacha jiloda jamol ko'rsatishga bois bo'lishi misollar bilan dalillanadi. Bular orasida, shubhasizki, Oxunjon Safarovning ham munosib o'rinlari bor. Shu tarzda ustoz Oxunjon Safarovning taniqli olim ekanliklari e'tirof etilib, tarjimai hollaridan ayrim jihatlar muvoziy yoritilgani uchun domlaning ilm izlash bilan bog'liq mashaqqatli hayotiy lavhalariga fikr rishtalari bog'lanadi. Kuzatiladiki, ustoz Rahim Vohidov yakka mualliflikdagi risolalarda ham hammualiflikdagi ustoz-u safdoshlari haqidagi risolalarda ham boshlanmada rang-baranglikni ta'minlashga erishadilar.

Risolalarda ilmiy-ommabop uslubga tayanilishining ikkinchi muhim jhati esa ularda o'rni-o'rni bilan muallif izhori dilining – yoritilayotgan masala yuzasidan muallif ichki kechinmalari talqinining ifodalanib borilishida kuzatiladi. Aytish lozimki, ustoz va safdoshlar haqidagi kitoblarda tez-tez ko'zga tashlanadigan ayni holat o'quvchini muallif iztiroblariga ham, uni xursand qilgan jihatlarga ham sherik qilib boradi. Chunonchi, ustoz Muazzam ayaning 70 yosh to'yini qutlayotgan xonadon ahliga havas qilib quyidagi jummalarni bitadilar: *“Yashirmayman, havas qiladigan, ibrat olsa arziydigan davra bo'ldi. Ota-onalari barhayot insonlar faqat shunday yo'ldan – ularni avaylash, e'zozlash, qadr-qimmatini joyiga qo'yish payidan bo'lishlarini istardim. Shu davraning ishtirokchisi sifatida o'kinib qo'ydim: Onaginam hayot bo'lganlarida men ham, albatta, shunday shodiyonaga mezbonlik qilardim. Afsuski, bular endi men uchun shirin xayollar”*⁸⁹. Ma'lumki, risolalarda II jahon urushining iztiroblarini qalbdan his etganlar hayoti haqida so'z yuritiladi. Muallif iztiroblari ham ularnikidan qolishmaydi. Masala urushga borib taqalganida, ustozning izhori dil uslublari yana o'zini nayoyon qila boshlaydi: *“Safar To'rayev janggohlarda bo'lgani uchun Oxunjon aka ham tashvishlardan xoli emas edi, - deya xotirlaydilar ustoz. – Uning tele'yi baland ekan, padari buzrukvori dahshatli o'limlardan qutulib omon qaytdi. Boshini silaydigan soyabon uni o'z panohiga oldi, maktabga yo'lladi”*⁹⁰. Ushbu jumladan mening ham taqdirim shunday bo'lsa edi, degan yashirin o'kinch mavjudligini sezish qiyin emas. Eslatib o'tamiz ushbu jumlalarining ustozga hammualliflik qilganlarga daxli yo'q.

⁸⁹ Вохидов Р., М.Махмудов. Болалик дунёсидан мунаввар қалб. –Тошкент: “Маънавият”, 2000, 9-бет.

⁹⁰ O'sha kitob, 12-bet.

Risolalarda olim-u safdoshlarning tarjimai hollari, ularning sobitqadamlik bilan ilm egallab, muhim tadqiqotlar muallifi sifatida tanilishlari, ilm dovonidan ikki bora o'tib, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishlari kabi jihatlar kitoblarda shu qadar aniqlik bilan yoritiladiki, go'yo ustoz barcha voqealarning shohidi bo'lgandek taassurot uyg'otishga muvaffaq bo'ladilar. Buning uchun ustozning kuzatishlari asqotgani sezilib turadi. Aslida otaxon adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetovning bolalik yillari lavhalarini bunday kitobda batafsil ifodalash ustoz Rahim Vohidovga og'irlik qilishi tabiiy. Oralaridagi yosh va tug'ilib o'sgan makon farqi ayni holatni keltirib chiqargan. Ulug' alloma Abduqodir Hayitmetovga XX asrning yigirmanchi yillarida bolalik zavqini tuyish nasib etgan. Ustoz Rahim Vohidov bu to'siqni taniqli olimning *"Bo'rilar uvlashgan kecha"* hikoyalari va boshqa manbalarga tayanib oradan ko'tarishga muvaffaq bo'ladilar. Natijada Dehqonqul akaning quloq qilinishlari, Xayriniso ayaning Abduqodir va uning singlisi Soraxon bilan Toshkentga kelib qolishlari, bu yerdagi sarson-sargardonliklar, "Aziz ota" deya ehtiromlangan ulug' yoshli farishtanamo bir kishi va u kishining ayoli Salom ayadan mehr ko'rishlari, andijonlik Hojimat aka bilan Xayriniso aya va bolalar taqdirining bog'lanishi, bu voqeylikning bo'lajak olimning sharif va familiyalarida ifodalanishi, taqdirning bu kabi "o'yin"larining Abduqodir Hayitmetov hayotlaridagi salbiy, ijobiy ta'sirlari ham juda aniqlik bilan yoritadilar.

Kitoblar bilan tanishish asnosida ularda hoyoti va faoliyati yoritilgan adabiyotshunoslarning ulkan tafakkur va taxayyul egalari, nihoyatda zahmatkash, ayni choqda kamtarin, ilm ziyosi bilan, avvalo, o'z ko'nglini yoritib, keyinchalik boshqalarga ham ma'rifat ulashgan nurli siymolar ekanligini qalbdan his qilasiz. Ularning shodligi, iztiroblariga, yutug'-u yo'qotishlariga sherik bo'lib borasiz. Yuzlaridan nur yog'ilib turgan bu orif insonlar bilan hamsuhbat bo'lingiz kelaveradi, natijada hamida axloqlarini o'zingizga ko'rishni istab qolasiz. Bu kabi muhim istaklarni ko'nglingizga ustozning ana shunday boy ibratli hayotiy voqealar bilan bezalgan risolalari hadya qiladi. Buning uchun Alloh muallifdan rozi bo'lishini, Rahim Vohidovni ulkan qadrshunos sifatida tanitgan ushbu kitoblardan ulashiladigan savoblar haqi Parvardigori olam domlani ham qadrlashini, munavvar ruhlari shod bo'lishini istab qolasiz.

Xotima

Ustoz Rahim Vohidovning mashaqqatli, ba'zan iztirobli, muhimi saodatli, ibratli hayot yo'llari, yetmish yillik umr karvonlarining salmoqli qismini tashkil etuvchi ilmiy safarlari jarayoni, oyoqlariga sanchilgan tikanlarning hosilasi sifatida chehra ochgan *"maqsud gullari"* ning mushki anbarlari haqida ustozga ergashib bir kitob yozish niyati yillar davomida ko'nglimga bezovtalik baxsh etib keldi. Domlaning nurli siymolarini ko'rish qiyomatda qolib, ko'nglim bo'shab qolganida, *"O'zbek tili va adabiyoti"* jurnalida qisqa tarjimayi hollarini bitish bilan o'zinga taskin berdim. Keyinchalik *"Buxoro mavjlari"* jurnalida bir maqola e'lon qildim. Hayotlarining so'nggi yillarida ustozning asarlari ko'rsatkichi, shaxsiy fazilatlarini, ilmiy faoliyatlari haqidagi *"Qalbim ezgulikka tashna..."*⁹¹ kitobini to'plab, nashrga tayyorlashda ishtirok etdim. Umr poyoniga yeta turib, dard ustunlik qilgan onlarda, shifoxonadaykan, kitobni ko'rish istagi bilan nafas olayotganlaridan xavotirlanib, bizga so'nggi ma'naviy yodgorliklari bo'lgan *"Umrin daftaridan sahifalar"* ning dastlabki nusxasini olishim bilan qo'llariga tutishga muvaffaq bo'ldim. Manguga xayrlashishimizdan bir yil o'tib, umr yo'llari va ilmiy faoliyatlariga atalgan *"Hikmat izlagan olim"*⁹² nomli to'plamga so'zboshi yozib, mas'ul muharrirlikni zimmamga oldim. Bularning bari ko'nglimga bir qadar taskin bergan bo'lsa-da, ichki iztiroblarimdan xalos eta olmasdi. Ustozimning ikki dissertatsiyalari, olgan maqto'v yorliqlari-yu xotiralarga oid bitiklarni birin-ketin qo'limga tutqazib: *"Bular senga kerak bo'ladi"* degan ishoralari yillar o'tib, bir vasiyatdek taassurot uyg'ota boshlagandi. Ayni bezovtalik 2023-yilning sentabridan menga tinchlik bermay qo'ydi. Kitobning birinchi bobini tugatishga erishdim, 23-noyabrdan so'ng tashvishlar girdobiga o'ralib, bu ishdan uzilib qoldim. 2024-yil yozgi ta'tilida maqsaddan uzilmay ishlash, ustoz bilan miriqb muroqabaga kirishish imkoniyati paydo bo'ldi. 25-iyuldan bir oy davomida barcha tashvishlardan uzilib ustozga yuzlanishim samarasini ko'rsatdi. Bugun o'sha tavajjuhlarimning hosilasini ko'rish baxtiga erishdim, biroq shu holda uzilish meni yana qiynab qo'ymoqda.

Ustozning sermazmun hayotlari haqidagi bu bitiklarim dengizdan bir qatra ekanligini teran his etib turibman. Shunday bo'lsa-da, ular bilan

⁹¹ Qalbim ezgulikka tashna... T'uplab nashrga tayyorlovchilar Ю.Азимов, Х.Эшонкулов. –Тошкент: "Zarqalam", 2007, -104 б.

⁹² Хикмат излаган олим (Профессор Рахим Воҳидовнинг ҳаёти ва илмий фаолиятига бир назар). –Бухоро: "Дурдона", 2013, -144 б.

tanishish, yigʻilgan materiallarni saralsh, tasniflash men uchun bir maktab boʻldi. Ustozning nurli siymolari, u kishini shakllantirgan muhit haroratini his qilish bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarda bardavom boʻlishim, shogirdlar bilan ishlashimda muhim xulosalar chiqarishga erishdim. Bu yoʻldagi mashaqqatlarning oʻtkinchi ekanligi-yu, unda sobitqadamlik koʻrsatgan har bir bandaga Oʻzi madadkor boʻlishi, muhimi, yoʻlning davomi, nihoyasi nihoyatda saodatli ekanligiga ibratli misollarni kashf qilib yana bir karra ishonch hosil qildim. Ustoz vositalarida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Sulayliy, Husayn Voiz Koshifiy, Gʻiyosiddin Xondamir, Zayniddin Vosifiy singari maʼnaviy rahnamolar, Vohid Abdullayev, Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov, Botirxon Valixoʻjayev, Oxunjon Safarov, Najmiddin Komilov, Ibroqim Qosimiy singari ustozning oʻzlariga oʻxshash yana koʻplab oriflar bilan samimiy muloqotga kirishgandek boʻldim. Shulardan olgan taassurotlarim asosida vujudga kelgan kitobdagi bitiklarim sizga ham maʼnaviy oziqa bera olsa, ilm yoʻlini tanlagan yoshlarimizga yoʻl koʻrsata olsa va hamida axloq bilan ziynatlanishlariga turtki boʻlsa, maqsadimga erishgan boʻlardim. Menga shunday ulugʻlarning hayot yoʻli bilan tanishish, katta ilm karvonining ishtirokchisiga aylanishimni taqdirimga muhrlagani uchun Alloh taologa behad shukronalar qilaman. Bunga vosita boʻlgan, avvalo, ustozim Rahim Vohidovni, ulugʻ ustozlarni, nomlarini zikr etganim barcha insonlarni Oʻzi rahmati bilan siylashini tilab qolaman.

2024-yil 24-avgust.

MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
BIRINCHI BOB. SABAB VA SAMARA.....	7
1.1 Ehsondan munavvar qalb.....	7
1.2 Katta ilm karvoniga doxillik saodati	21
IKKINCHI BOB. BAHRAMANDLIK VA BAHRA ULASHISH IZTIROBLARI.....	36
2.1 “Yori aziz”lik maqomi.....	36
2.2 Ikki tilda bitilgan mumtoz asarlardagi g‘oyaviy uyg‘unlik, o‘ziga xoslik, tarjimashunoslik va yangi davr adabiyoti tadqiqi.....	45
2.3 Adabiy aloqa, adabiy ta’sir tadqiqi Alisher Navoiy ijodi misolida.....	65
UCHINCHI BOB. NUKTADON OLIMNING “MAQSUD GULLARI”.....	91
3.1 Mumtoz adabiyot va navoiyshunoslikning muhim masalalari tadqiqi.....	91
3.2 Ustoz va safdoshlar qadri ramzlari.....	113
Xulosa.....	124

Husniddin Eshonqulov

**EHSONDAN MUNAVVAR
QALB EHSONI**

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi:
Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn.
Offset bosma usulida chop etildi. Offset bosma qog'ozi.
Bosma tabog'i 6,2. Adadi 50.

“Fan ziyosi” nashriyoti
Bahosi kelishilgan holda.
“Dunyo poligraf plyus” X/K
bosmaxonasida chop etildi.

Mustaqillik ko'chasi 21-uy, Tel.: (91) 416-50-09